



SHAVKAT MIRZIYOYEV

**YANGI O'ZBEKISTONDA
ERKIN VA FAROVON
YASHAYLIK**

5

«O'ZBEKISTON»




66.3/50
14540



SHAVKAT MIRZIYOYEV

**YANGI O'ZBEKISTONDA
ERKIN VA FAROVON
YASHAYLIK**



“O'ZBEKISTON”
TOSHKENT – 2023

UO·K 323(575.1)

KBK 66.3(5O·zb)

M 54

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev asarlarining 5-jildiga mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi eng muhim voqealar, xalqaro miqyosda bo‘lib o‘tgan forum va sammitlarda so‘zlangan nutq va ma‘ruzalar, yurtimizda keng nishonlanib kelinayotgan umumxalq bayramlari, tarixiy sanalar, ommaviy tadbir va marosimlar munosabati bilan yo‘llangan tabrik va qutlovlar kiritilgan.

ISBN 978-9943-6991-6-8



9 789943 699168

© “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023

**XALQARO MEHNAT TASHKILOTINING
COVID-19 VA MEHNAT SOHASI MASALALARI
BO‘YICHA GLOBAL SAMMITI
ISHTIROKCHILARIGA**

Muhtaram davlat va hukumat rahbarlari!

Hurmatli Xalqaro mehnat tashkiloti Bosh direktori!

Global sammit ishtirokchilari!

Avvalo, O‘zbekiston Respublikasi nomidan Xalqaro mehnat tashkiloti Bosh direktori janob Gay Rayderga sammitni tashkil etgani uchun chuqur minnatdorlik bildiraman.

Yil boshidan buyon COVID-19 pandemiyasi bilan bog‘liq vaziyat jahon miqyosida kun tartibidagi eng muhim masalaga aylandi. Dunyoda koronavirus infeksiyasi tarqalishining salbiy oqibatlarini bevosita yoki bilvosita o‘z boshidan o‘tkazmagan birorta mamlakat yoki mintaqa qolmadi.

Hech shubhasiz, ana shu va boshqa global tahdidlarni samarali yengib o‘tish uchun, avvalo, o‘zaro muvofiqlashtirilgan harakatlar zarur. Mazkur global sammit ana shunday maslahatlashuv uchun qulay maydon bo‘lib xizmat qiladi.

Pandemiya sharoitida iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlash bilan birga, aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash hayotiy muhim ahamiyatga egadir. Bu Xalqaro mehnat tashkilotining Yuzyillik deklaratsiyasida ijtimoiy adolatni ta‘minlash borasida mustahkamlab qo‘yilgan vazifalarga to‘la javob beradi.

Tashkilot konvensiyalarini milliy qonunchilik va amaliyotga implementatsiya qilish, jumladan, uch tomonlama mas-

lahatlashuvlar to'g'risidagi 144-konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi O'zbekistonda uch tomonlama ijtimoiy muloqotni rivojlantirishga kuchli turtki berdi.

“Tripartizm plus” tamoyiliga muvofiq, pandemiya davrida inqirozga qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqish jarayonida biznes, kasaba uyushmalari, nodavlat tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari va jamoatchilik faol ishtirok etmoqda. Bu – inqirozga qarshi dasturlarning muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirilishi, aholining barcha qatlamlari manfaatlarini himoya qilishning kafolatidir.

Hurmatli sammit ishtirokchilari!

Pandemiya barqaror xalqaro munosabatlarni rivojlantirishda bir qator muammolar borligini va bunday favqulodda vaziyatlar bo'yicha global strategik reja mavjud emasligini ko'rsatdi.

Shu munosabat bilan biz BMT shafeligida **Pandemiya davrida davlatlarning ixtiyoriy majburiyatlari haqidagi xalqaro kodeksni** qabul qilish tashabbusini ilgari suramiz. Bizning fikrimizcha, ushbu kodeksda davlatlarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, gumanitar va huquqni muhofaza qilish sohalarida o'z fuqarolari va xalqaro sheriklari oldidagi eng muhim shartlari va majburiyatlari aks etishi lozim.

Birinchidan, biz cheklov choralari, inson huquq va erkinliklariga rioya etilishi so'zsiz kafolatlangan holda, faqat vaqtinchalik xarakterga ega bo'lishiga ishonamiz.

Bunday choralar xavf-xatarlar darajasiga mos bo'lishi, xalqaro, ayniqsa, tibbiy mahsulotlar savdosiga, shuningdek, aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash borasidagi tadbirlarga to'sqinlik qilmasligi kerak.

Ikkinchidan, pandemiyaning tez tarqalishi tizimli, barvaqt va samarali profilaktik choralar ko'rish zarurligini ko'rsatdi. Jumladan, kasallik yuzaga kelgan hollarda sog'liqni saqlash xizmatlari

zimmasiga haddan ortiq vazifalar yuklanishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Bu, birinchi galda, epidemiyani prognoz qilish, kasallik tarqalishining erta bosqichida uni jilovlash, oqibatlarini keskin kamaytirish bo'yicha choralarni qamrab oladi.

Uchinchidan, pandemiya mehnat xavfsizligini ta'minlash muhim ekanini yana bir bor tasdiqladi. Bu masala kasallik bilan kurashning eng oldingi saflarida chinakam qahramonlik ko'rsatayotgan sog'liqni saqlash tizimi xodimlarining faoliyatiga bevosita bog'liqdir.

Hozirgi paytda O'zbekiston va Xalqaro mehnat tashkiloti o'rtasidagi munosabatlar jadal va izchil rivojlanib bormoqda.

Xalqaro mehnat tashkiloti Bosh direktori Gay Rayderning 2018-yil O'zbekistonga tashrifi yakunlari bo'yicha qabul qilingan "yo'l xaritasi" muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Ikki yil muqaddam Tashkilot jamoasining qo'llab-quvvatlashi bilan O'zbekistonda munosib ish o'rinlarini yaratishga ko'maklashish, mehnat qonunchiligiga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini ta'minlash maqsadida Ish beruvchilar konfederatsiyasi tuzilgan edi.

O'zbekistonning Tashkilotning konvensiya va tavsiyalariga qo'shilishi va ularni implementatsiya qilishi mamlakatimiz xalqaro mehnat me'yorlariga amal qilish tarafdori ekanini yaqqol tasdiqlaydi.

O'zbekistonning qat'iy siyosiy irodasi tufayli va Xalqaro mehnat tashkilotining faol qo'llab-quvvatlashi bilan mamlakatimizda bolalar mehnati va majburiy mehnatni tugatish bo'yicha salmoqli yutuqlarga erishildi. Tashkilot shafeligida uchinchi tomonlar o'tkazib kelayotgan monitoringni yuksak baholaymiz.

O'zbekiston va Xalqaro mehnat tashkiloti o'rtasidagi munosabatlar bugungi kunda rivojlanishning sifat jihatdan yangi bosqichiga ko'tarildi. Biz konstruktiv muloqot va amaliy sheriklikni yanada kengaytirish tarafdorimiz.

Umid qilamanki, bugungi Global sammit ham ushbu ezgu maqsadga xizmat qiladi.

Sammitning barcha ishtirokchilari faoliyatiga muvaffaqiyatlar tilayman.

2020-yil 8-iyul

PANDEMIYA SHAROITIDA YASHAB MEHNAT QILISHGA O'RGANISHIMIZ SHART

Barchamiz guvohi bo'lib turibmiz, afsuski, butun dunyoda koronavirus pandemiyasi davom etmoqda. Qator mamlakatlarda kasallikning ikkinchi to'liqini boshlanayotgani barchamizda jiddiy xavotir uyg'otmoqda. Bugungi holat shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu infeksiyaga qarshi kurashda qandaydir "sehrli retseptlar" hali topilgani yo'q.

Jahon hamjamiyati, dunyodagi eng yirik ilmiy markazlar, eng kuchli olimlar bu ofatga davo topish uchun qattiq izlanmoqda. Bunday tadqiqotlar tez orada o'zining ijobiy natijasini beradi, deb umid qilamiz.

Tibbiyot va sanitariya-epidemiologiya xodimlarining kasb malakasi va jasorati, huquq-tartibot idoralari xodimlarining fidoyiligi, shuningdek, karantin davridagi qat'iy intizom mamlakatimizda epidemiologik vaziyatni nisbatan barqaror saqlash imkonini bermoqda.

Biz mamlakatimizda koronavirus aniqlangan kundan boshlab qayta-qayta ta'kidlab kelmoqdamiz: bu juda murakkab sinov va og'ir kurash bo'ladi. Bu kurashda ko'p narsa o'zimizga, aql bilan harakat qilishimiz, sabr-toqat va temir intizomga, qat'iyat va jipsligimizga bog'liq. Lekin, ming afsuski, aholi o'rtasida ko'pchilik mana shu talablarga to'la amal qilmayapti. Ayniqsa, tibbiy niqob taqmaslik yoki uni nomiga taqish, sanitariya-gigiyena qoidalarini buzish, o'zaro qo'l berib ko'rishish, ijtimoiy masofani saqlamaslik, zaruratsiz oilaviy tadbirlarni o'tkazish holatlari kun sayin ko'paymoqda.

Yuzaga kelgan vaziyatni hisobga olib, Respublika komissiyasi viloyat, shahar, tumanlar hokimlari hamda sektor rahbarlari bilan birga pandemiyani jilovlash bo'yicha barcha choralarni ko'rishi shart.

Barcha yurtdoshlarimizga yana bir bor murojaat qilib ta'kidlamoqchiman: o'zingizga va oila a'zolaringizga nisbatan beparvo va befarq bo'lmang!

Bugungi murakkab vaziyatda barchamiz "O'z sog'lig'ingni, o'z bolangni, o'z oilangni o'zing asra!" degan shiorga amal qilib yashashimiz shart.

Ayni vaqtda hayotimizni normal izga solish, iqtisodiyotimizni tiklash uchun pandemiya sharoitida yashash va mehnat qilishga o'rganishimiz, barcha ehtiyot choralarini ko'rgan holda, bu borada boshlagan ishlarimizni temir intizom bilan davom ettirishimiz kerak.

* * *

Pandemiyadan kuchli bo'lib chiqishning birdan bir yo'li – kichik biznes va tadbirkorlikka qulay muhit yaratishdir.

Murakkab sharoitga qaramasdan, ushbu sohani har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha zarur choralarni ko'ryapmiz, lekin ba'zi hududlarda bu boradagi ishlar qoniqarli emas.

Karantin talablarining yumshatilishi natijasida korxonalar faoliyati tiklandi. Biroq 69 mingta tadbirkorning faoliyatini jonlantirish kerak. Joylardagi rahbarlar 9 oy yakuni bo'yicha ularning kamida 70 foizini yil yakuniga qadar to'liq quvvat bilan ishlashiga mas'ul va javobgardir.

Keyingi yillarda soliq tizimini isloh qilish bo'yicha aniq choralar ko'rilishi natijasida biznes ixtiyorida 2019-yilda 12 trillion so'm qoldi, 2020-yilda yana 11 trillion so'm mablag' qolishi

kutilmoqda. Endi yangi vazifa, ya'ni "Soliq idorasi – tadbirkorga ko'makchi" tizimini yo'lga qo'yishimiz lozim.

Bu yil 1-iyuldan boshlab ilk marotaba tadbirkorlarga qo'shimcha qiymat solig'ining bir qismini qaytarish mexanizmi amalga kiritildi. Ushbu yangilik orqali joriy yilning birgina uchinchi choragida tadbirkorlarga 700 milliard so'mni aylanma mablag' sifatida o'zida qoldirish imkoniyati yaratilmoqda. Shu munosabat bilan, mutasaddilarga ushbu yangi tizim imkoniyatlarini tadbirkorlar e'tiboriga yetkazish va ijrosini barcha hududlarda samarali tashkil etish vazifasi yuklatiladi.

Kambag'allikni kamaytirish bo'yicha olib borilayotgan ishlarini kuchaytirishimiz kerak. Bu yil kamida 257 ming nafar muhtoj oilalar vakillarini ishga joylashtirish, 37 mingta xonadonga oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida kreditlar ajratish zarur.

* * *

Xabaringiz bor, mamlakatimizda koronavirusga chalinganlar soni ko'payib borayotgani munosabati bilan biz karantin talablarini yana kuchaytirishga majbur bo'ldik. Hozirgi kunda butun dunyo koronavirus deb nom olgan mana shu tilsiz yov, ko'zga ko'rinmas dushmanga qarshi urush holatida turibdi.

Urushga kirgan har qaysi davlat, har qaysi xalq o'z yurtini, o'z aholisini himoya qilish uchun barcha choralarni ko'radi. Eng avvalo, xavf-xatarning yo'lini berkitadi, temir intizom o'rnatadi. Qat'iy safarbarlik sharoitida yashash va ishlashga o'tadi. Bugun biz ham ayni shunday holatdamiz.

Respublika maxsus komissiyasi tomonidan vaziyat muntazam tahlil qilinib, infeksiyani jilovlash yuzasidan barcha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu kasallikka qarshi kurash uchun bizda barcha zaxira va imkoniyatlar mavjud. Eng muhimi, fidoyi

va jasur shifokorlarimiz o'z burchini sadoqat va matonat bilan bajarmoqda.

Takror aytaman, biz endi pandemiya sharoitida yashashga, mehnat qilishga o'rganishimiz shart. Chunki hayot davom etmoqda. Hayot bizdan aql-idrok, sabr-toqat, metin intizom bilan harakat qilishni talab etmoqda.

Tahlillar koronavirus bilan zararlanishning oldini olish, kasallikni erta aniqlash, simptomsiz va yengil kechayotgan bemorlar bilan olib borilayotgan davolash va nazorat tadbirlarini amalga oshirishda yangi strategiyalarni qo'llashni talab qilmoqda.

Yana bir muhim masala – viloyat, shahar va tumanlarda mahalliy kengashlar, joylardagi hokimlik va boshqaruv idoralari o'z hududidagi vaziyatni chuqur tahlil qilib, Respublika maxsus komissiyasi bilan kelishilgan holda karantin qoidalarini qayerda zarur bo'lsa kuchaytirishi, qayerda zarur bo'lsa yumshatishi lozim.

Barcha ehtiyot choralari ko'rgan holda, imkoniyat mavjud bo'lgan hamma joyda ishlab chiqarish korxonalarini ishga solishimiz, mehnat unumdorligini oshirishimiz kerak.

Hech kimga sir emas, bu yildan boshlab oziq-ovqat masalasi dunyo miqyosida hal qiluvchi o'ringa chiqadi. Chunki koronavirusni yengish ham, xalq farovonligini ta'minlash, jamiyatda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash ham avvalo shunga bog'liq. Shuning uchun bizda doimo uch oylik oziq-ovqat zaxirasi shay turishi kerak.

Fursatdan foydalanib, bugun dalalarda fidokorona mehnat qilayotgan mirishkor fermer va dehqonlarimizga, sohibkor bog'bonlarimizga, barcha yurtdoshlarimizga chuqur minnatdorlik bildirib, ularga kuch-g'ayrat, mo'l hosil tilaymiz.

Hammamiz oilamiz, farzandlarimiz, muhtaram nuroniy-larimizning sog'lig'i uchun yana ozgina chidashimiz, karantin qoidalariga qat'iy amal qilishimiz shart.

“Sabr qilgan murodga yetar”, deydi xalqimiz. Ishonchim komil, har bir ishni yetti marta o‘ylab, chidam va matonat bilan amalga oshirib kelgan el-yurtimiz bugungi sinovlardan munosib o‘tib, o‘zining ezgu maqsadlariga albatta yetadi.

* * *

Bugungi kunda poytaxtimizda va Toshkent viloyatida hokimlar va sektorlar rahbarlari ishonib topshirilgan hududlardagi haqiqiy ahvolni o‘rganmagan. Tibbiyot muassasalaridagi real vaziyatni bilmaydi. Aholini virusdan ogohlantirish va saqlash, kasallarni o‘z vaqtida va to‘g‘ri davolash uchun mas‘uliyatni his qilmagan.

Aholi koronavirus va boshqa kasalliklar bo‘yicha qayerga borib murojaat qilishni va davolanishni bilmay, sarson bo‘lmoqda. Shoshilinch tibbiy yordamga qo‘ng‘iroq qilib tushish qiyinlashib ketgan. Bunday achinarli holatlar aholining haqli shikoyat va e‘tirozlariga sabab bo‘lmoqda.

Respublika maxsus komissiyasi zudlik bilan bu ikki hududda koronavirus tarqalishiga qarshi kurashish va aholini davolash ishlariga aloqador barcha vazirlik va idoralar, yirik tibbiyot muassasalari rahbarlaridan iborat bo‘lgan, 24 soat ishlaydigan shtablar tashkil etishi zarur. Ushbu shtablar vaziyatni real vaqt rejimida nazorat qilib, yuzaga kelayotgan muammolarni tezkor hal etish choralarini ko‘radi. Shuningdek, poytaxt va Toshkent viloyatidagi poliklinikalar huzuridagi mobil guruhlar sonini uch barobar ko‘paytirish lozim. Zangiota tumanida yaqinda ish boshlagan shifoxonadagi joy sonini yana 1000 o‘ringa ko‘paytirish kerak.

Poytaxtimizda dori-darmon yetkazilishi va narxi barqarorligini ta‘minlash, shoshilinch tibbiy yordam xizmati va call-sentrlar ishini samarali tashkil etish, pandemiyaga qarshi kurashda fidoyilik ko‘rsatayotgan tibbiyot xodimlarini moddiy rag‘batlantirish, kasallar uchun qo‘shimcha o‘rinlar tashkil etish, shuningdek, ka-

rantin hududlaridagi shaxslarni uy karantiniga bosqichma-bosqich o'tkazish zarur.

Aholidan murojaatlar soni keskin ortib borayotganini hisobga olib, call-sentrlar aloqa vositalari va operatorlari sonini kamida ikki barobarga oshirishi lozim.

* * *

Bugunga kelib yurtimizda COVID-19 bilan kasallanganlar soni 15 mingdan oshgan, ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida 8 mingdan ortiq kishi sog'aygan. Afsuski, ushbu virus tufayli qariyb 80 nafar fuqaromiz vafot etgan.

Vaziyat hamon jiddiyligicha qolmoqda. Shuning uchun hech qaysi hudud rahbari bizda ahvol yaxshi deb, xotirjamlikka berilishga haqqi yo'q. Hamma joyda kamchiliklar bor. Eng asosiy vazifa – ularni vaqtida aniqlab, xolis baho berib, tezda tugatish chorasini ko'rishdan iborat. Bir haqiqatni unutmasligimiz zarur: kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi, degan gap aynan mana shu koronavirus haqida aytilgan. Agar biz bu xatarga beparvo, beg'am bo'lsak, minglab odamlarning sog'lig'i va taqdirini xavf ostiga qo'yamiz, vaziyatimiz yanayam og'irlashadi.

Bu kurashda davlat va xususiy tibbiyot tizimi, barcha idoralarning doimo safarbar holatda bo'lishi va samarali ishlashi, shifokorlarning fidoyiligi, xalqimizning ongliligi bizning asosiy qurolimiz bo'lishi shart. Faqat tezkor va muntazam safarbarlik, temir intizom, tibbiy madaniyat, yuksak onglilik bilangina biz bu ofatga qarshi kurasha olamiz.

Bu borada eng katta mas'uliyat hokimlar va sektorlar rahbarlari zimmasida bo'ladi. Buning uchun ularda o'z hududlaridagi mavjud vaziyat haqida to'liq va haqqoniy ma'lumotlar bo'lishi, ular har kuni, har soatda yangilanib borishi kerak.

Har birimiz o'zimiz, oilamiz, farzandlarimizning sog'lig'i va taqdiri uchun, avvalo, o'zimiz mas'ul ekanimizni chuqur anglashimiz lozim. Shu munosabat bilan xalq vakillari bo'lgan deputatlarimizdan, ijodkor ziyolilarimiz, hurmatli jurnalistlarimiz, mahalla faollaridan iltimos qilaman: pandemiya davrida har bir odamning shaxsiy mas'uliyati haqidagi targ'ibot ishlarini yanada kuchaytirishimiz kerak.

Biz pandemiyani qachon yengamiz? Qachonki, har bir odam o'zidagi beparvolikni yengsa, o'zi, oilasi va farzandlari, butun xalqimiz hayotiga mas'uliyat bilan qaraydigan bo'lsa.

Biz shunga qodirmizmi? Albatta, qodirmiz. Ishonchim komil, bugungi vaziyatning o'zi taqozo etayotgan mana shunday hissiyot va qarashlar har bir yurtdoshimizning qalbi va ongiga chuqur kirib boradi. Biz bu sinovdan, albatta, munosib o'tamiz.

* * *

Toshkent shahri va poytaxt viloyatida pandemiya bilan bog'liq vaziyat murakkabligicha qolmoqda. Koronavirusga shubha bo'lgan barcha bemorlarni infeksiya mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlarsiz, zotiljam va nafas yetishmovchiligining klinik belgilari mavjudligiga asoslangan holda davolash muassasalariga qabul qilish kerak.

Toshkent shahrida mavjud 16 ta klinikaga qo'shimcha ravishda COVID-19ga chalinganlikda gumon qilinayotgan bemorlar uchun mo'ljallangan yana 7 ta 850 o'rinli klinikalar tashkil qilindi. Ushbu klinikalarning tibbiyot xodimlariga har bir ish kuni uchun oylik maoshining 6 foizi miqdorida ustama haq to'lash masalasi hal qilindi.

Koronavirusga chalingan bemorlar uchun ajratilgan shifoxonalar qo'shimcha ravishda 285 dona o'pka sun'iy ventilaesiyasi apparati, 155 dona o'pkani nafas oldirish bo'yicha yordam-

chi uskuna, 140 dona kislorod konsentratori, 200 ta funksional yotoq bilan ta'minlandi.

“O‘zekspomarkaz” milliy ko‘rgazmalar majmuasida bemorlarga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatadigan 500 o‘rinli taqsimlash markazi tashkil etildi. Bunday bemorlarga tibbiy yordam ko‘rsatish uchun xususiy klinikalarga ham ruxsat berildi va ularning ro‘yxati tuzildi. Toshkent shahar tez tibbiy yordam stansiyasida operatorlarning mehnat sharoiti yaxshilandi va bir smenada faoliyat ko‘rsatayotgan operatorlar soni 40 tadan 100 nafarga yetkazildi. Stansiyaga qo‘shimcha elektr tarmog‘i ulandi, brigadalar soni 250 tagacha ko‘paytirildi. Koronavirus bilan kasallangan bemorlarni davolashda 49 xil turdagi dori vositalari zaxirasi uchun dastlabki 10 milliard so‘m pul ajratildi.

Koronavirusni davolash uchun deyarli barcha ixtisoslashtirilgan tibbiyot muassasalari to‘ldirib yuborilgani tufayli surunkali kasalligi bor bemorlarning malakali tibbiy xizmatdan foydalanishi qiyinlashmoqda. Mutasaddilar surunkali kasalliklarni davolashga ixtisoslashgan shifoxonalardagi koronavirusga chalingan bemorlarni boshqa joylarga, jumladan, xususiy klinikalarga ko‘chirish orqali ushbu toifadagi bemorlarga malakali tibbiy xizmat ko‘rsatilishini qayta tiklash choralarini ko‘rishi lozim.

Koronavirusga chalingan fuqarolar soni yanada oshib borishini hisobga olib, bemorlarni davolash uchun yaratilgan qo‘shimcha o‘rinlar sonini qisqa muddatda, birinchi navbatda, oliygohlar yotoqxonalarini, yopiq sport maydonlari va sig‘imi katta bo‘lgan boshqa binolar evaziga kamida ikki-uch barobar oshirish zarur.

Kasallik o‘chog‘ida o‘z jonini garovga qo‘yib, har bir bemorni o‘lim yoqasidan olib chiqayotgan shifokorlarimizni davlat mukofoti bilan taqdirlash bo‘yicha takliflar kiritish kerak.

Bugungi kunda respublika va mahalliy budjetlardan moliyalashtiriladigan har qanday xarajat ustuvor ravishda pandemiyaga qarshi kurash tadbirlariga qaratilishi shart. Bundan muhim xarajatlar bo'lishi mumkin emas.

Barcha sektor rahbarlari ish kunini ertalabdan o'z hududlarida kasalxonalaridagi ahvolni o'rganish bilan boshlashi, har bir rahbar bugungi kunda fuqarolarimizning sog'lig'ini saqlab qolishdan muhim vazifasi yo'qligini anglashi shart.

* * *

Hududlarda koronavirus infeksiyasi tarqalishini kamaytirish hamda iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash uchun mutasaddilar haqiqiy vaziyatni real vaqt rejimida nazorat qilib, yuzaga kelayotgan muammolarni tezkor hal etib borishlari lozim.

Davolash ishlarini sifatli va xavfsiz tashkil etish, shu bilan birga, aholi va obyektlarni dezinfeksiya vositalari bilan ta'minlab, kasallik yuqishining oldini olish, ayniqsa, muhimdir.

Har bir hududning ehtiyojidan kelib chiqib, ularni yetarlicha dori-darmon, tibbiy buyumlar va test tizimlari bilan ta'minlash, tibbiyot xodimlarini moddiy rag'batlantirish manbalarini belgilab olishimiz zarur.

Keskin sur'atlarda davom etayotgan pandemiyaning iqtisodiyotga ko'rsatayotgan ta'sirini avvaldan baholash va mamlakat makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlash, investitsion loyihalarni o'z vaqtida amalga oshirish, qishloq xo'jaligi, sanoat va qurilish sohasidagi prognozlarni bajarish, eksportni ko'paytirish, hududlarni kompleks rivojlantirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar samarasini oshirish lozim.

Har bir hududda takroriy ekin ekiladigan maydonlar hisobidan sabzavot va poliz mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish, aholiga parranda tarqatish ishlarini jadal-

lashtirish hamda chorvachilik, baliqchilik sohasida intensiv texnologiyalarni keng qo'llash, shuningdek, yil yakuniga qadar hududlar salohiyatini inobatga olgan holda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni 3–4 foizga oshirish bo'yicha barcha zarur chora-tadbirlarni ko'rish kerak.

* * *

Oxirgi kunlarda mamlakatimizda koronavirusga chalingan bemorlarni davolash uchun qo'shimcha ravishda 46,5 mingta o'rin ajratildi, yana 31 mingta o'rin tashkil etiladi. Shu bilan birga, 397 ta tez tibbiy yordam mashinasi xarid qilindi, bir oy muddatda yana 409 ta mashina joylarga yetkazib beriladi.

Xalqaro va mahalliy tajriba hisobga olinib, koronavirusni davolash strategiyasi va taktikasi yangilandi. Tibbiyot oliy o'quv yurtlari va kollejlari professor-o'qituvchilari, ilmiy xodimlar va pensiyaga chiqqan mutaxassislar orasidan 5 ming nafar vrach hamda 9 ming nafar hamshira davolash va tibbiy maslahat berish ishlariga jalb etildi.

O'z hayoti va sog'lig'ini xavf ostiga qo'yib, kasallikka qarshi mardona kurashayotgan fidoyi shifokorlarimizga har qancha rahmatlar aytsak, arziydi. Bugun koronavirus pandemiyasi sharoitida aholi salomatligini muhofaza qilish va hayotini asrash, yurtimizda infeksiyani jilovlashda ulkan jasorat va fidoyilik namunalarini ko'rsatgan bir guruh tibbiyot, ichki ishlar, mudofaa va favqulodda vaziyatlar vazirliklari hamda Milliy gvardiya xodimlarini va boshqa tashkilotchilarni faxriy unvon, orden va medallar bilan mukofotlash to'g'risidagi Farmoni imzoladim.

Hozirgi kunda eng muhim vazifa – aholi o'rtasida virus zanjirini uzishdan iborat. Buning uchun karantin talablariga so'zsiz amal qilish, oqamlarimiz immunitetini mustahkamlash, sog'lig'ini asrab-avaylash, har bir insonning hayoti uchun kurashish zarur.

“Pandemiyaga qarshi kurash – har birimizning vijdon ishimiz”, “O‘zim, oilam, farzandlarim sog‘lig‘i uchun, avvalo, o‘zim javobgarman”, degan fikrlarni xalqimiz ongiga chuqur singdirish va amaliy hayot mezoniga aylantirish lozim.

Barchamiz hamjihatlikda, chuqur mas‘uliyat bilan tizimli ishlasak, bu og‘ir sinovlarni albatta yengamiz.


Yana bir bor takrorlayman, bugungi kundagi eng muhim talab – barchamiz pandemiya sharoitida yashash va ishlashga o‘rganishimiz shart.

* * *

Bugungi majlisda Toshkent shahrida koronavirus pandemiyasiga qarshi kurashish, bu boradagi ishlarning samaradorligini, aholiga sifatli va o‘z vaqtida tibbiy yordam ko‘rsatish qamrovini oshirish bo‘yicha olib borilayotgan sa‘y-harakatlar haqida tegishli mutasaddilarning hisoboti tinglandi.

15-iyul kuni bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishida Toshkent shahri va Toshkent viloyatidagi epidemiologik vaziyatni jilovlashdagi ishlar jiddiy tanqid qilinib, kasallarni o‘z vaqtida va to‘g‘ri davolash uchun sharoit yaratish bo‘yicha topshiriqlar berilgan edi. Ularni amalga oshirish bo‘yicha ko‘pgina ishlar amalga oshirildi. Xususan, poytaxtimizda qisqa muddatda keng ko‘lamli tashkiliy ishlar olib borildi. Yunusobod tumanidagi “O‘zekspomarkaz” pavilyonida, Gimnastika saroyida, “Yoshlik” sport majmuasi va boshqa binolarda koronavirusga chalinishda gumon qilinganlarga tashxis qo‘yish, zarurat bo‘lsa, davolash uchun sharoit yaratildi. Bu maskanlar pandemiya talablari asosida jihozlanib, zarur tibbiy uskunalalar bilan ta‘minlandi.

Kasallikka chalinganlar va ayni kunlarda pnevmoniyadan aziyat chekayotganlarga amaliy yordam tariqasida 10 ta maxsus poliklinika tashkil etildi. Ularning faoliyati tun-u kun yo‘lga



qo'yilib, fuqarolar bu maskanlarga murojaat qilib, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Pandemiya sharoitida sog'liqni saqlash milliy tizimini qo'llab-quvvatlash, jumladan, poytaxtdagi sport majmualari negizida tashkil etilayotgan taqsimlash markazlari va yangi klinikalarni tibbiy xodimlar bilan ta'minlash, koronavirus bilan xastalangan shaxslarni samarali davolashga mamlakatimiz harbiylari, harbiy-tibbiy muassasalarning xizmatchilari va tibbiyot mutaxassislarini jalb qilish muhim ahamiyatga ega va bu masalalarga alohida e'tibor qaratishimiz lozim.

* * *

Bugungi yig'ilishda hududlarda koronavirus bilan bog'liq murakkab vaziyatni tartibga solish bo'yicha ko'rilayotgan choralar haqida gaplashib, bu borada qo'shimcha chora-tadbirlarni belgilab olishimiz lozim.

Respublika maxsus komissiyasi joylardagi epidemiologik vaziyatni barqarorlashtirish va kasallarni davolashga amaliy yordam beradigan guruhlar tuzib, har bir hududga yuborishi zarur.

Hokimliklar koronavirusga ixtisoslashgan shifoxonalar tashkil etish, intensiv va reanimatsiya o'rinlarini ko'paytirish, ularni zarur tibbiy jihozlar va dori-darmon bilan ta'minlashni yo'lga qo'yishi kerak.

Og'ir kasallar ahvolini yengillashtiradigan tibbiy uskunalar ta'minotiga alohida e'tibor qaratish zarur.

Keyingi paytda qo'shimcha ravishda 370 ta sun'iy nafas oldirish apparati, 1 ming 41 ta portativ nafas oldirish uskunasi, 1 ming 164 ta kislorod konsentratori va boshqa zarur tibbiy jihozlar olib kelinib, hududlarga tarqatildi. Kasallar yanada ko'payishi mumkinligini hisobga olib, respublika maxsus komissiyasi joylarga yana qo'shimcha uskunalar yetkazish bo'yicha choralar ko'rishi darkor.

Karantin davrida biror-bir ehtiyojmand oila e'tibordan chetda qolmasligi, kam ta'minlangan aholi qatlamiga moddiy yordam, oziq-ovqat va dori-darmonlarni manzilli yetkazib berish tizimi "soat mexanizmi"dek aniq ishlashi kerak.

Hozirgi sharoitda kasallarni davolashga ham, iqtisodiyotni qayta ishlatishga ham majbur va mas'ulmiz. Shuning uchun aholi salomatligini saqlash, ayni paytda temir intizom bilan hamma ishlarni davom ettirishimiz shart.

* * *

Sog'liqni saqlash vazirligi, hokimlar va sektor rahbarlari koronavirus va pnevmoniyani davolash bo'yicha har tomonlama tayyor bo'lishi, har bir bemorga kerakli tibbiy yordam ko'rsatilishi, ularning holatidan kelib chiqib shifoxonaga yotqizilishi va davolanishi uchun shaxsan javobgar bo'lishi kerak. Shuningdek, hududlarda COVID-19ga chalinganlarni qabul qilish va saralash bo'yicha markazlarni tashkil etgan holda, kichik shifoxonalar o'z yo'nalishiga muvofiq boshqa turdagi va surunkali kasallarni davolash bilan shug'ullanishi lozim.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari hududlarga Toshkentdan biriktirilgan ixtisoslashtirilgan markazlar va oliy ta'lim muassasalari rahbarlari o'z ishini yanada samarali tashkil etishlariga har tomonlama ko'maklashishlari kerak.

Kasallikning oldini olish, koronavirusga chalinganlikda gumon qilinayotgan fuqarolarni shifoxonalarga yotqizish, odamlarga karantin talablarini tushuntirish va bu jarayonda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda joylarda mahalla idoralarining ishtirokini keskin kuchaytirish darkor. Ular yordamga muhtoj oilalarga oziq-ovqat, uyda davolanishga tavsiya qilingan bemorlarga dori-darmon yetkazib berishda faol ishtirok etishlari lozim.

Bunga qo'shimcha ravishda, ular mahalla hududida aholining zarurat bo'lmasa ko'chaga chiqmasligi va to'planmasligi, tibbiy niqob taqib yurishi va ijtimoiy masofani saqlashi, to'y va tadbirlarni vaqtincha o'tkazmasligi kabi majburiy talablarni doimiy tushuntirishi va jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi shart va zarur.

Koronavirus sababli iqtisodiy faollik cheklangani odamlarning ro'zg'origa o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Bunday sharoitda vaqtincha ishsiz qolgan, daromad manbasini yo'qotgan va og'ir ahvolda kun kechirayotgan aholini qo'llab-quvvatlash, ularga yordam qo'lini cho'zish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Kerakli paytda zarur madad olib, xalqimiz bu ishlardan rozi bo'lmoqda. Shu bilan birga, moddiy yordam va ko'makka muhtoj oilalar ro'yxatlarini to'g'ri va haqqoniy shakllantirish, ajratilgan mablag'larni adolatli tarqatish zarur.

* * *

Oxirgi bir oyda barcha hududlarda davolash o'rinlari va nafas berish apparatlari soni bir necha barobar ko'paytirildi, muolaja qilish usullari yangilandi hamda tez tibbiy yordam xizmati kuchaytirildi. Natijada mamlakatimiz bo'yicha koronavirusdan sog'ayish ko'rsatkichi 59 foizdan 77 foizga yetdi. Virusni yuqtirganlar soni 32 mingdan oshgan bo'lsa-da, ularning 25 mingdan ziyodi sog'aygan, 7 ming bemor esa davolanmoqda.

Har bir fuqaromizning sog'lig'i va hayoti uchun kurashni yanada kuchaytirgan holda, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarning barqaror ishlashini ta'minlash, aholining yashash sharoitini yengillashtirish maqsadida karantin talablarini bosqichma-bosqich yumshatish zarur. Xalqimizning o'zi shuni iltimos qilmoqda.

Respublika maxsus komissiyasi qanday sanitariya talablariga amal qilish zarurligini aniq belgilab berishi zarur. Epidemiologik

vaziyat yaxshi bo'lgan davlatlardan kelgan shaxslarni karantinga olish va undan chiqarish tartibini yengillashtirish, pnevmoniyadan tuzalgan aholini reabilitatsiya qilish markazlarini tashkil etish lozim.

Sanitariya-epidemiologiya xizmati jamoaviy immunitet shakllanish jarayonini monitoring qilib borish uchun antitanachalar tahlilini o'tkazishni yo'lga qo'yishi kerak.

Karantin talablari yumshatilayotgan bo'lsa-da, barchamiz ijtimoiy masofani saqlab, niqob taqib yurishimiz, dezinfeksiya va boshqa sanitariya-gigiyena talablariga so'zsiz amal qilishimiz, ilgari yo'l qo'ygan xatolarni takrorlamasligimiz kerak. Xudoga shukur, hammamiz ham yetarli tajriba orttirdik. Ko'pni ko'rgan xalqimiz juda katta matonat va qahramonlik, tibbiy madaniyatini namoyon etmoqda. Temir intizom, qattiq chidam va sabr-toqat bilan biz albatta bu sinovlarni tez orada yengib o'tamiz. Men bunga qat'iy ishonaman.

* * *

Takror va takror aytaman: har bir fuqaroning sog'lig'i va hayoti biz uchun muhim. Biz xalqimizni koronavirus balosidan asrab qolish uchun barcha kuch va imkoniyatlarni ishga solyapmiz, jahondagi eng ilg'or davlatlarning davolash tajribalarini olib kelyapmiz.

Yaqin kunlarda Rossiyadan qirqqa yaqin, Xitoydan o'n nafar yuqori malakali mutaxassis yetib kelgani, ularni hududlarga taqsimlab, joylarda bemorlarni eng samarali usullar bilan davolash va mahalliy shifokorlarni ham o'rgatish ishlari tashkil qilingani sizlarga yaxshi ma'lum.

Xalqimiz ortiqcha qiynalmasligi uchun, fuqarolarimizning murojaatlaridan kelib chiqib, karantin talablari yumshatildi, lekin endi aholi jamoat joylarida ko'proq bo'lishi sababli

COVID-19 tarqalishi xavfi sezilarli darajada oshishi ham mumkin.

Temir intizom hammamiz uchun eng birinchi masala bo'lib qolishi kerak. Korxonalar va tashkilotlar, qishloq xo'jaligi sohasi va qurilish maydonlari, transport va jamoat joylarida ham ushbu talablarga qat'iy amal qilish zarur.

* * *

Pandemiya masalasida Toshkent shahrida vaziyat ijobiy tomonga o'zgarmoqda.

Rossiya, Germaniya va Xitoydan taklif etilgan shifokorlar hududlar o'rtasida taqsimlandi, Germaniyadan yana mutaxassislar kelishi kutilmoqda. Lekin, aholi tomonidan shifokorlar tavsiyalariga, ya'ni niqob taqish, ijtimoiy masofani saqlash, oilaviy marosimlarni ixchamlashtirish kabi qat'iy ehtiyot choralariga rioya qilinmas ekan, karantin cheklovlarini qaytadan tatbiq qilishga majbur bo'lamiz. Shu munosabat bilan, har birimiz pandemiya sharoitida yashash va ishlashga, harakatlarimizda epidemiologik talablarga so'zsiz amal qilishga odatlanishimiz kerak.

Ushbu masalada shifokorlar bilan maslahat qilgan holda, bu yil joylarda katta yig'in va sayillar o'tkazishni cheklashimizga to'g'ri kelmoqda. Shuning uchun Mustaqillik bayramini ko'proq oila davrasida nishonlashga e'tibor qaratish kerak.

Korxonalar va tashkilotlarda ham bayram tadbirlari rejalashtirilgan taqdirda ularni sanitariya normalariga qat'iy rioya etgan holda o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

* * *

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quv yiliga tayyorgarlik masalalarini muhokama qilishga o'tishdan oldin koronavirus bilan bog'liq vaziyatga to'xtalmoqchiman.

Barcha rahbarlarni ogohlantirib aytaman, pandemiya bo'yicha haqiqiy holatni ko'rsatadigan raqamlarni yashirishga mutlaqo yo'l qo'ymaslik kerak. Bunga urinish jinoiy javobgarlikkacha bo'lgan qat'iy choralar ko'rishga olib keladi.

Hokimlar, sektor rahbarlari hamda mutasaddi idoralar xodimlari har bir mahallada, jamoat joylari, transport va korxonalarda sanitariya talablari bajarilishi bo'yicha temir intizomni ta'minlashi zarur.

Koronavirusga chalingan bemorlarni dunyodagi eng ilg'or va ishonchli usullar bilan davolash uchun barcha choralarni ko'ryapmiz, jumladan, hozirgi paytda Rossiya, Germaniya, Turkiya, Xitoydan 75 nafar yuqori malakali shifokor yurtimizda ish olib bormoqda.

Infeksiyani yuqtirmaslik, avvalo, o'zimizga, o'z sog'lig'imizga bo'lgan e'tiborimizga, oilamizdagi muhitga bog'liq. Agar hamma, butun jamiyatimiz tozalik, tibbiy himoya va ijtimoiy masofa qoidalariga amal qilsa, kasallik ko'paymaydi.

* * *

Bugungi majlisda sog'liqni saqlash tizimining birlamchi bo'g'inini takomillashtirish hamda aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish bo'yicha eng muhim chora-tadbirlarni ko'rish haqida gaplashib olishimiz lozim.

Qishloq vrachlik punktlari va oilaviy poliklinikalardagi tibbiy xizmat tizimi, shifokorlar va o'rta tibbiyot xodimlarining vazifa va funksiyalarini to'liq qayta ko'rib chiqishning vaqti-soati yetdi. Bundan buyon, bepul tibbiy yordam uchun yo'llanmani hamda bepul tarqatiladigan dorilarga retseptni ham oilaviy shifokor beradi. Mahalladagi aholining salomatlik ko'rsatkichlari, kasalliklarning erta aniqlanishiga qarab, oilaviy shifokorlar mehnati rag'batlantiriladi.

Ushbu tizimni shahar va tumanlarda bosqichma-bosqich joriy etish, tibbiyot brigadalarini ilg'or tajriba asosida qo'shimcha o'qitish, oilaviy shifokorlar faoliyatini baholash mezonlari va rag'batlantirish tartibini ishlab chiqish lozim.

Hozirgi vaqtda qishloq vrachlik punktlari va oilaviy poliklinikalarda 20 mingdan ziyod shifokor shtati bor, lekin atigi 12 ming mutaxassis ishlamoqda. Chunki bugungi kunda umumiy amaliyot shifokori kasbi oliy o'quv yurtlari bitiruvchilari uchun jozibador emas. Xodimlarni rag'batlantirish, malakasi va lavozimini oshirishga e'tibor yo'q.

Shu bois shifokorlarga munosib sharoitlar yaratish orqali ularni eng quyi bo'g'in – qishloq vrachlik punkti va oilaviy poliklinikalarga jalb qilish zarur.

Shifokorlarga bo'lgan ehtiyojlarni mahallalar kesimida aniqlab, tibbiyot oliy o'quv yurtlarida kvotani oshirish, ipoteka asosida qurilayotgan uy-joylarni avvalo birlamchi bo'g'in shifokorlari uchun ajratish darkor.

Aholi ehtiyojidan kelib chiqib, kelgusi yili 100 ta qishloq vrachlik punkti va 24 ta oilaviy poliklinika tashkil etilishi belgilandi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti o'tkazgan tahlillarga ko'ra, davolash inson salomatligini ta'minlashning 10 foiz omili, xolos. Bu borada irsiy omillar – 15 foiz, atrof-muhit – 20 foiz, eng asosiysi, turmush tarzi – 55 foizni tashkil etadi.

Koronavirus kasalligi ham noto'g'ri turmush tarzi qanday og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkinligini ko'rsatmoqda.

To'g'ri ovqatlanish va jismoniy faollik orqali qanchadan qancha kasalliklarning oldini olish, insonlar hayotini saqlab qolish mumkin. Ayniqsa, birlamchi bo'g'in xodimlari aholini to'g'ri ovqatlanish va jismoniy tarbiyaga o'rgatishi juda muhimdir.

Har bir hududda kasalliklar tarkibiga ko'ra ixtisoslashgan davolash muassasalarini tashkil etish – bugungi hayot talabi.

Sogʻliqni saqlash tizimini rivojlantirish, soha xodimlarining mehnatini munosib qadrlash, malakali kadrlar tayyorlash, xorijiy tibbiyot markazlari va oliygohlari bilan ilmiy-amaliy hamkorlikni kuchaytirish masalalari doimiy eʼtiborimiz markazida boʻlishi lozim.

Yurtimizda pandemiyaning birinchi kunlaridan boshlab bu kurashga 100 mingdan ziyod tibbiyot xodimlari safarbar etildi.

Tibbiyot sohasining fidoyi xodimlari oʻzlarini ayamadan, jonlarini garovga qoʻyib, haqiqiy qahramonlik namunasini koʻrsatmoqda.

Ishonchim komil, jonkuyar shifokorlarimiz bugun biz belgilab olgan vazifalarni ham fidoyilik va matonat bilan, bor bilim va tajribalarini ishga solib, albatta, uddalaydilar. Eng katta boylik boʻlgan xalqimiz salomatligini saqlashda chinakam jonbozlik koʻrsatadilar.

Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, xalq farovonligini oshirish, kambagʻallikni qisqartirish, koronavirus pandemiyasiga qarshi kurash masalalari yuzasidan 2020-yilning 8-iyul – 6-noyabr oylari davomida oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishlaridagi nutqlardan

O'ZBEKISTON XALQIGA QURBON HAYITI TABRIGI

Qadrli vatandoshlar!

Butun islom olami qatorida din-u diyonatli, e'tiqodi mustahkam xalqimiz katta intiqlik bilan kutib olayotgan muborak Qurbon hayiti bilan siz azizlarni, yurtimizdagi barcha musulmon ummatini chin qalbimdan samimiy tabriklayman.

Ko'hna tariximiz davomida yurtimizning ma'naviy hayotida beqiyos o'rin egallab, jamiyatimizda o'zaro hurmat, mehr-oqibat va bag'rikenglik tamoyillarini har tomonlama barqaror etib kelayotgan bu qutlug' bayram barchamizga muborak bo'lsin!

Ushbu muqaddas ayyomda sizlarga, butun el-yurtimizga sihat-salomatlik, tinchlik-xotirjamlik, baxt-u saodat tilayman.

Dunyo davlatlari qatori mamlakatimizni ham chetlab o'tmagan og'ir sinov – koronavirus pandemiyasi sharoitida biz Qurbon hayitining jamiyatimiz hayotidagi beqiyos o'rni va ulkan ahamiyatini yanada chuqur his etmoqdamiz.

Ayniqsa, bu qutlug' bayramning mohiyatida mujassam bo'lgan ezgu va savob ishlar qilib yashash, o'zaro yordam, mehr-saxovat, sabr-u qanoat, shukronalik, tinchlik va sog'liqni qadrlashdek ulug' fazilatlar bugun alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Shu ma'noda, aynan mana shunday muqaddas qadriyatlarimiz bugungi murakkab vaziyatda el-yurtimizga qo'shimcha kuch-g'ayrat, chidam va bardosh ato etmoqda, desak, to'g'ri bo'ladi.

Davlatimiz va jamiyatimiz tomonidan ko'rilayotgan barcha chora-tadbirlarga qaramasdan, ming afsuski, yurtdoshlarimiz

orasida ushbu kasallikdan vafot etganlar ham bo'ldi. Ularning oila a'zolari va yaqinlariga chin qalbimdan hamdardlik bildirib, barchalariga sabr-bardosh tilayman, marhumlarning oxiratlari obod bo'lishini Yaratgandan so'rab qolaman.

Albatta, pandemiya tufayli ommaviy tadbirlarni, jumladan, Qurbon hayiti bilan bog'liq marosimlarni jamoat bo'lib ado etishda ayrim cheklovlar vujudga kelganini mavjud vaziyat taqozosi sifatida barchamiz yaxshi tushunamiz.

Muqaddas Qur'oni karimning bir necha o'rinlarida xayr-ehson, ezgulikning mukofoti faqat yaxshilik ekani alohida ta'kidlangan. Bu kabi purma'no hikmatlar bugungi sinovli kunlarda jamiyatimizda mehr-oqibat, saxovat va muruvvat, o'zaro totuvlik, ahillik va hamjihatlik muhitining tobora yuksalib borishida aks etmoqda.

Darhaqiqat, ushbu og'ir sinov damlarida Alloh taoloning o'zi ezgu va savob amallar uchun yangi imkoniyat eshiklarini ochib bermoqda. Xususan, pandemiya tufayli ishidan, doimiy daromad manbaidan uzilib qolgan, yordamga muhtoj insonlarga ko'mak berishni yurtdoshlarimiz o'zlarining insoniy burchi, deb qabul qilayotgani tahsinga loyiqdir. Zero, muqaddas hadislarda keltirilganidek, haqiqiy musulmon o'ziga ravo ko'rganini birodariga ham ravo ko'radi.

Ayniqsa, halol mehnati orqasidan jamg'argan mablag'ini qarindosh-urug'lari, mahalladoshi yoki yurtdoshining og'irini yengil qilish uchun xolis niyat bilan hadya etgan, mehr-oqibatli, insof-diyonatli va jonkuyar insonlarga Yaratganning o'zi ajr-u mukofotini beradi, albatta.

Ana shunday oliyjanob yurtdoshlarimizning sa'y-harakatlari tufayli mamlakatimizda tashkil etilgan "Saxovat va ko'mak" umumxalq harakati bugungi kunda tom ma'noda qudratli kuchga aylandi.

O'tgan qisqa vaqt davomida ushbu Harakat doirasida amalga oshirilgan ulkan hajmdagi xayriya tadbirlari va mehr-muruvvat amallari ham shundan yaqqol dalolat beradi.

Ana shu ezgu ishlarimizning mantiqiy davomi sifatida hamda pandemiya davrida doimiy daromad manbaiga ega bo'lmagan, kam ta'minlangan, yordam va ko'makka muhtoj aholi qatlamlarini va oilalarni hamda iqtisodiyotni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish maqsadida avval ajratilgan 10 trillion so'm mablag'ga qo'shimcha ravishda bugun men imzolagan Farmonga muvofiq, respublika budjetidan yana qariyb 2,5 trillion so'm mablag' yo'naltirish belgilandi.

Shu bilan birga, jamiyatimizda tinchlik, do'stlik, mehr-oqibat va hamjihatlik g'oyalarini keng targ'ib etib kelayotgan diniy sohada xizmat qilayotgan vakillarni moddiy rag'batlantirish hamda joylarda xayr-u saxovat, muruvvat borasida amalga oshirilayotgan ishlarni, jaholatga qarshi – ma'rifat ruhidagi keng qamrovli tadbirlarni yangi bosqichga ko'tarish uchun O'zbekiston musulmonlari idorasi huzuridagi "Vaqf" xayriya jamoat fondiga 150 milliard so'm mablag' ajratildi.

Aziz yurtdoshlar!

Biz orzu-niyatlari pok va ulug' xalqmiz. Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy hazratlarining: **"Murodi ko'pning Haqqa itoati ham ko'p bo'ladi"**, degan so'zlarida teran ma'no mujassam.

Yer yuziga Allohning rahmati yog'ilib turgan ushbu saodatli ayyomda dunyoning olis-yaqin mamlakatlaridagi barcha mo'min-musulmon birodarlarimizni, xorijiy do'st va hamkorlarimizni ham Qurbon hayiti bilan qizg'in tabriklab, ularga mustahkam tinchlik, bardavom taraqqiyot tilayman.

Siz, aziz va muhtaram vatandoshlarimizni Qurbon hayiti bilan yana bir bor chin qalbimdan muborakbod etaman.

Barcha pok niyatlarimiz ijobat bo'lishini, Yaratganning o'zi yurtimizni turli balo-qazolardan asrashini, birdamlik, do'stlik va ahillik tuyg'ularimiz yanada ziyoda bo'lishini so'rab qolaman.

Jonajon Vatanimiz, xonadonlarimizdan tinchlik-osoyishtalik, fayz-u baraka hech qachon arimasin!

Ezgu intilish va ishlarimizda Alloh taolo hamisha madadkor bo'lsin!

2020-yil 30-iyul

O'ZBEKISTON QURUVCHILARIGA BAYRAM TABRIGI

Muhtaram do'stlar!

Avvalo, mamlakatimizning qurilish sohasida fidokorona mehnat qilayotgan siz azizlarni kasb bayramingiz bilan chin qalbimdan tabriklab, barchangizga o'zimning chuqur hurmatim va ezgu tilaklarimni izhor etaman.

Jonajon O'zbekistonimizning yangi qiyofasini barpo etish, Vatanimizning yuksak taraqqiyotini ta'minlash, hayotimizni yanada obod va farovon etishda sizlar singari mohir quruvchi va muhandislar, usta va me'morlar, loyihachi va pudratchi tashkilotlar vakillari – ming-minglab bunyodkor insonlarning oliyjanob mehnatini hech narsa bilan o'lchab, baholab bo'lmaydi.

Bugungi qutlug' ayyom – Qurilish sohasi xodimlari kuni diyorimizda keng nishonlanayotgani ham xalqimiz va davlatimizning sizlarga bo'lgan ana shunday samimiy hurmat-ehtiromidan dalolat beradi.

Aziz yurtdoshlar!

Ma'lumki, hozirgi kunda butun insoniyat qatori el-yurtimiz ham og'ir sinovli kunlarni boshidan kechirmoqda. Murakkab pandemiya sharoitida ko'plab soha va tarmoqlar rivoji yo'lida jiddiy muammolar paydo bo'lmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mana shunday qiyin vaziyatda ham iqtisodiyotimizning yetakchi sohalaridan bo'lgan qurilish, bunyodkorlik ishlari aslo to'xtab qolmadi.

Aksincha, sizlarning jonbozlik ko'rsatib qilayotgan mehnatingiz hisobidan tizimda keng ko'lamlı islohotlar, bu borada belgilangan dastur va rejalarimiz o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilmoqda.

Bu fikrni joriy yilning birinchi yarmida yurtimizda jami 43 trillion so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 107 foizdan ziyodni tashkil etgani ham yaqqol tasdiqlaydi.

Bu yil qurilish sohasi uchun haqiqatan ham har tomonlama sinovli va g'oyat mas'uliyatli davr bo'lganiga hammamiz guvohmiz.

Dastlab Buxoro viloyatida, so'ngra "Sardoba" suv omborida yuz bergan tabiiy ofat va toshqin oqibatlarini bartaraf qilish, ijtimoiy obyektlarni tiklash va ta'mirlash, ming-minglab oilalar uchun zamonaviy uy-joylar barpo etish ishlarida bunyodkor azamatlarimiz haqiqiy matonat va shijoat namunalarini ko'rsatdilar.

Eng muhimi, bu ishlarda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va barcha viloyatlarning mohir quruvchilari va muhandislari bir yoqadan bosh chiqarib mehnat qilib, xalqimizga xos ahillik va birdamlik, hamjihatlik fazilatlarini, biz chindan ham yagona oila farzandlari ekanimizni yana bir bor amalda namoyon etdilar.

Shu yilning mart oyidan buyon respublikamizda qat'iy karantin talablari o'rnatilgan tahlikali bir vaziyatda quruvchilarimiz ko'zga ko'rinmas bu baloga qarshi qahramonona kurashayotgan shifokorlarimiz va boshqa soha vakillari bilan birgalikda strategik ahamiyatga ega bo'lgan maxsus qurilish obyektlarini bunyod etayotganlari har qancha tahsinga sazovordir.

Xususan, g'oyat qisqa fursatlarda Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi 4 ming o'rinli ko'p tarmoqli maxsus shifoxona,

Yuqori Chirchiq tumanida aholini vaqtincha karantinda saqlash majmuasi kabi o'nlab inshootlar hamda taqsimlash punktlari barpo etildi.

Mamlakatimizning eng chekka hududlarida ham qad rostlagan bunday majmualar bugungi kunda pandemiyani jilovlash, bu og'ir kasallikka chalingan minglab vatandoshlarimizning hayotini saqlab qolishda beqiyos ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Ayni vaqtda ulkan qurilish maydoniga aylangan O'zbekistonda quruvchilarimizning o'z kasbiga mehri, burchiga sadoqati, g'ayrat-shijoati bilan boshqa ko'plab ijtimoiy obyektlarda ham bunyodkorlik ishlari jadal davom ettirilmoqda.

Bu haqda gapirganda, Ikkinchi jahon urushida qozonilgan buyuk g'alabaning 75 yilligiga bag'ishlab poytaxtimizning Olmazor tumanida qad rostlagan G'alaba bog'i, tom ma'noda, tarixiy ish bo'lganini alohida ta'kidlash lozim. Ko'p millatli O'zbekiston xalqining har qanday qiyin sharoitda ham buyuk ishlarni amalga oshirishga qodir ekanini yaqqol namoyon etgan ushbu qurilish bugungi kunda xalqimizning fashizmga qarshi kurashda ko'rsatgan mislsiz qahramonligini tarix sahifalariga muhrlagan betakror majmuaga aylangani bilan har qancha faxrlansak arziydi.

Ana shunday salmoqli ishlarimiz qatorida Toshkent shahrining qoq markazida Adiblar xiyobonining yaxlit me'moriy ansambli yaratilgani ma'naviy hayotimizdagi unutilmas voqea bo'ldi.

Toshkent yer usti halqa metro yo'li, Yunusobod va Sergelidagi yangi metro yo'nalishlari, Yashnobod tumanidagi uch qavatli muhtasham ko'prik, Islom sivilizatsiyasi markazi va boshqa ko'plab muhim obyektlar siz, qo'ligul quruvchilarimizning ulkan salohiyatingiz va mahoratingizdan dalolat berib turibdi.

Keyingi yillarda davlatimiz tomonidan xalqimiz, ayniqsa, aholining kam ta'minlangan qatlamlari, yosh oilalar uchun arzon va shinam uy-joylar qurish dasturi izchil amalga oshirilmoqda.

Xususan, joriy yilda ana shu dastur bo'yicha qishloq joylarda 12 mingdan ziyod, shaharlarda 18 mingdan ortiq ko'p xonali uy-joylar barpo etilmoqda.

Shuningdek, hozirgi vaqtda yurtimizda 2 ming 400 ga yaqin ijtimoiy obyekt, jumladan, 427 ta bog'cha, 477 ta maktab, 216 ta sog'liqni saqlash, 29 ta jismoniy tarbiya va sport muassasasi va 100 ga yaqin boshqa turli inshootlarda qurilish-montaj ishlari olib borilayotganini alohida qayd etish lozim.

Muhtaram do'stlar!

So'nggi yillarda mamlakatimizda qurilish sohasini tubdan takomillashtirish maqsadida uning huquqiy asoslarini mustahkamlashga katta e'tibor qaratilayotgani sizlarga yaxshi ma'lum.

Xususan, o'tgan uch yil davomida ushbu sohani tartibga soluvchi jami 33 ta qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi. Birgina joriy yilning o'tgan davrida 6 ta qonun hujjati hayotga tatbiq qilingani bu borada boshlagan islohotlarimizning ko'lami naqadar kengligini ko'rsatib turibdi.

Qurilish ishlarida dunyoning rivojlangan davlatlari standartlariga mos bo'lgan yangi innovatsion texnologiya va yechimlarni qo'llashga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Bu yo'nalishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari samarali joriy etilib, "Shaffof qurilish" axborot tizimi ishga tushirilgani sohada korrupsiyaning, qog'ozbozlikning oldini olish, ish vaqtini tejashga xizmat qiladi.

Zamonaviy qurilish sohasi rivojini katta bilim va tajribaga ega, yetuk kadrlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu maqsadda ayni paytda Toshkent arxitektura-qurilish va Samarqand davlat arxitektura-qurilish institutlarida 22 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishi va 23 ta magistratura mutaxassisliklari bo'yicha malakali kadrlar tayyorlanmoqda.

Qurilish-pudrat tashkilotlarining faoliyatini takomillashtirish va qurilish ishlari sifatini oshirishga qaratilgan ishlar ham jadal davom ettirilmoqda. Jumladan, qurilish-pudrat tashkilotlarining faoliyatini baholash reytingi joriy etildi. Qurilish sohasi bilan bog'liq barcha asosiy ma'lumotlarning yagona elektron bazasi shakllantirilayotgani ham bu borada sifat darajasining yaxshilanishiga xizmat qilishi shubhasiz.

Shu bilan birga, qurilish industriyasini, qurilish mollari sanoatini yanada rivojlantirish, shaharsozlik, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarini zamonaviy yuksak mezonlar asosida takomillashtirish, qo'shimcha ish o'rinlari yaratish, soha xodimlarining mashaqqatli va sharaflı mehnatini munosib rag'batlantirish masalasi bundan buyon ham davlatimizning doimiy diqqat markazida bo'ladi.

Aziz va muhtaram quruvchilar!

Barchangizni kasb bayramingiz bilan yana bir bor tabriklar ekanman, ezgu faoliyatingiz va shaxsiy hayotingizda yangi yutuq va omadlar tilayman.

Xonadonlaringizga doimo tinchlik-xotirjamlik, fayz-u baraka yor bo'lsin!

Qo'lingiz aslo dard ko'rmasin, hamisha sog'-salomat bo'ling!

2020-yil 8-avgust

**“YOSHLAR – 2020: GLOBAL MIQYOSDAGI
BIRDAMLIK, BARQAROR TARAQQIYOT
VA INSON HUQUQLARI” MAVZUSIDAGI
INSON HUQUQLARI BO‘YICHA SAMARQAND
FORUMI ISHTIROKCHILARIGA**

Hurmatli forum qatnashchilari!

Qadrli yoshlar!

Barchangizni – “Yoshlar – 2020: global miqyosdagi birdamlik, barqaror taraqqiyot va inson huquqlari” mavzusida o‘tkazilayotgan inson huquqlari bo‘yicha Samarqand forumi qatnashchilarini qutlash menga ulkan mamnuniyat bag‘ishlaydi. Siz, azizlarni Xalqaro yoshlar kuni bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterrishga mazkur forumni o‘tkazish to‘g‘risidagi tashabbusimizni qo‘llab-quvvatlagani uchun chuqur minnatdorlik bildiraman.

Xalqaro anjuman ishida ishtirok etayotgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti, UNESCO, Xalqaro mehnat tashkiloti, Migratsiya bo‘yicha xalqaro tashkilot, Parlamentlararo Ittifoq, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi, Islom hamkorlik tashkiloti vakillari va boshqa sheriklarimizga tashakkur izhor etaman.

Aziz do‘stlar!

Ma’lumki, kelajakka intilib yashaydigan yosh avlod sayyoramizda farovon hayot va yuksak taraqqiyot barqaror bo‘lishi uchun yangi g‘oyalar va ijodiy ruhdagi sa’y-harakatlarni amalga oshiradigan beqiyos kuchdir.

BMTning Yoshlar strategiyasida ta'kidlanganidek, "Yoshlar siyosida eng qimmatli va o'ta muhim resurslar mujassam topgan bo'lib, unga har qancha investitsiya kiritsa arziydi, chunki bu sarmoyalar bir necha barobar ziyoda bo'lib qaytadi". Men g'oyat muhim ushbu fikrga to'liq qo'shilaman.

Shu yilning boshidan buyon COVID-19 pandemiyasi bilan bog'liq vaziyat global hayot kun tartibidagi markaziy masala bo'lib kelmoqda. Yangi koronavirusning tarqalishi butun dunyoda jiddiy iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlariga olib keldi. Aholi, birinchi galda yoshlar ana shu tahdidlarga javoban davlatlar hamda xalqaro hamjamiyat tomonidan keng ko'lamli choratadbirlar ko'rilishini talab etadigan ko'plab muammolarga to'qnash keldi.

Bunday sharoitda yoshlarning ovozigacha quloq tutish juda muhimdir. Ularning dolzarb ehtiyojlarini ta'minlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan milliy, mintaqaviy va global strategiya va dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda bevosita ishtirok etishlari uchun yoshlarga imkoniyat yaratib berish zarur.

Bugungi murakkab vaziyatda yosh avlod vakillari zamonaviy tahdidlarga, jumladan, pandemiyaga qarshi o'zlarining istiqbolli tashabbuslari va ijtimoiy loyihalari bilan munosib javob berayotgani e'tiborga sazovordir. Butun jahonda ko'ngilli yoshlar yordamga muhtoj aholi qatlamlarini qo'llab-quvvatlashda, yangi iqtisodiy va gumanitar dasturlarni ilgari surishda faol ishtirok etmoqda.

Hurmatli forum ishtirokchilari!

Hozirgi zamonda intellektual va ma'naviy yetuk, tashabbuskor yoshlar barqaror taraqqiyotning drayveriga aylanmoqda. Bugungi kunda yangi O'zbekiston yoshlari – mamlakatni modernizatsiya qilishga qaratilgan jadal va keng ko'lamli

islohotlarning harakatlantiruvchi kuchi va faol ishtirokchisi bo'lib maydonga chiqmoqda.

Aholisining yarmidan ziyodini yoshlar tashkil etadigan O'zbekistonda ularning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi etib belgilangan.

Faqat keyingi yillarning o'zida yosh avlodni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va uyg'un rivojlantirishga, har bir navqiron inson jamiyatda munosib o'rin egallashiga qaratilgan bir qator qonunlar, Prezidentning farmon va qarorlari, hukumat qarorlari qabul qilindi.

Oliy Majlis palatalari huzurida Yoshlar parlamentlari tuzildi, Yoshlar ishlari agentligi va Yoshlar masalalari bo'yicha idoralararo kengash tashkil etildi.

Hozirgi vaqtda "O'zbekiston yoshlari – 2025" konsepsiyasi ishlab chiqilmoqda, yoshlar bilan ishlash samaradorligini baholashning yagona mezonlari, yoshlar siyosatini baholashning milliy indeksi joriy etilmoqda.

Bugungi kunda insoniyat duch kelayotgan ko'plab muammolar – tinchlik va xavfsizlikka tahdidlar, terrorizm va ekstremizm, irqchilik, iqlim o'zgarishlari, shuningdek, COVID-19 pandemiyasi – o'zaro kelishilgan global hamkorlikni va mavjud muammolarni hal etish jarayonlariga yoshlarni faol jalb qilishni talab etmoqda.

Shu munosabat bilan BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida O'zbekiston tomonidan ilgari surilgan Yoshlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning qabul qilinishi jahondagi ikki milliarddan ortiq yigit va qizlarning haq-huquqlarini ta'minlashda muhim ahamiyatga egadir. U yosh avlodni ma'rifiy ruhda tarbiyalash, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularning manfaatlarini himoya qilish, o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratishdek ezgu maqsadlarga xizmat qiladi.

Ushbu tashabbus xalqaro jamoatchilik tomonidan keng qo'llab-quvvatlanmoqda.

Bugungi forum ishtirokchilari ham ana shu tashabbusni qo'llab-quvvatlaydilar, hujjat loyihasini o'z amaliy takliflari bilan boyitadilar, deb ishonaman.

Qadrli yoshlar!

Bugun o'z ishini boshlayotgan Samarqand yoshlar forumi global miqyosdagi birdamlik, barqaror rivojlanish va inson huquqlarini, tinchlik va taraqqiyotni ta'minlash yo'lida navqiron avlod tomonidan qo'yilgan muhim amaliy qadam va qimmatli hissa bo'ladi, deb umid qilaman.

Forumning barcha ishtirokchilariga faoliyatlari samarali bo'lishini tilayman.

2020-yil 12-avgust

MUSTAQILLIK – O‘Z OLDIMIZGA QO‘YGAN BUYUK MAQSADLARGA ERISHISH YO‘LIDA KUCH-QUDRAT MANBAIDIR

Assalomu alaykum, qadrli va muhtaram vatandoshlar!

Avvalo, siz azizlarni, ko‘p millatli butun xalqimizni O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma to‘qqiz yillik bayrami bilan chin qalbidan tabriklayman.

Ayni paytda ushbu tantanali marosimni joylardagi studiyalarda, shuningdek, uylarida “oynayi jahon” orqali tomosha qilayotgan, mening tabrik so‘zlarimni eshitib turgan mo‘tabar otaxon va onaxonlarimizga, munis opa-singillarimizga, aziz yoshlarimizga, barcha-barcha yurtdoshlarimga o‘zimning yuksak ehtiromimni bildiraman.

Hammangizga ma‘lum, pandemiya tufayli bu yil Mustaqillik bayramini har doimgidek katta tantana va sayillar bilan nishonlay olmayapmiz.

Xalqimizning salomatligini o‘ylab, bayram tadbirlarini ixcham shaklda, onlayn rejimida o‘tkazmoqdamiz. Lekin, har yilgidek, mashhur san‘atkorlarimiz ushbu qutlug‘ sanaga atab katta-katta konsertlar, badiiy dasturlar tayyorlashgan va ular televideniye orqali xalqimizga taqdim etiladi.

Hech shubhasiz, barchamiz uchun eng ulug‘ va muqaddas bo‘lgan bu bayram shukuhi oilalarimiz davrasida, qalblarimizda, yuraklarimizda davom etadi.

Hurmatli do‘stlar!

Bashariyat tarixi shundan dalolat beradiki, har bir xalq faqat erkin va ozod bo‘lgan taqdirdagina o‘z hayoti va kelajagini

mustaqil barpo etish huquqiga ega bo'ladi. **“Haq berilmas, haq olinur!”** deb millat ozodligi yo'lida jonini fido qilgan ulug' ajdodlarimizning buyuk maqsadi ham shu edi.

Xalqimizning beqiyos jasorati va matonati bilan Birinchi Prezidentimiz muhtaram Islom Abdug'aniyevich Karimov boshchiligida qo'lga kiritilgan davlat mustaqilligi ana shu asriy orzumizni amalda ta'minlagan olamshumul voqeadir.

Biz qanday tahlikali va suronli davrlarni boshimizdan kechirmaylik, qanday yutuq va natijalarga erishgan bo'lmaylik, mustaqillik g'oyasi, istiqlol ruhi bizga doimo tog'dek tayanch bo'lmoqda.

Bugun cheksiz iftixor bilan ayta olamizki, donishmand xalqimizning uzoqni ko'ra olishi, birdamligi va fidoyi mehnati bilan barcha sinovlardan munosib o'tib kelmoqdamiz.

Shu nuqtayi nazardan, bizning insoniy qadr-qimmatimizni, g'urur va sha'nimizni, din-u diyonatimizni, milliy davlatchiligimizni tiklab bergan Mustaqillik kuni Vatanimizning shonli tarixida hamisha eng yorqin sahifa bo'lib qoladi.

Bugun jahon miqyosida yurtimiz haqida so'z ketganda **“Yangi O'zbekiston”** iborasi tilga olinmoqda. Bu keyingi yillarda taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo'yganimiz, erishayotgan zalvorli yutuqlarimizning e'tirofidir.

Xalqimizning ulug'vor qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo'ladi. Chunki bugungi O'zbekiston – kechagi O'zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas.

Istiqlol yillarida bosib o'tgan shonli yo'limizga nazar tashlab, ertangi kunimizga, o'z kuch va imkoniyatlarimizga bo'lgan ishonchimiz yanada ortmoqda. Mamlakatimizni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasiga muvofiq barcha soha va tar-

moqlarda amalga oshirayotgan islohotlarimiz bu borada hal qiluvchi omil bo'lmoqda.

“Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan da'vatkor g'oya hayotimizga tobora chuqur kirib bormoqda. Biz ayni shu asosda xalqimiz hayotini tubdan yaxshilash, inson huquq va erkinliklari, qonun ustuvorligi va ijtimoiy adolatni ta'minlash, innovatsion taraqqiyot borasida muhim qadamlarni qo'yimoqdamiz.

Keng jamoatchilik, el-yurtimiz barcha ijobiy o'zgarishlarning tashabbuskori va bunyodkoriga aylanmoqda. Mamlakatimiz fuqarolari qayerda bo'lmasin, davlat himoyasida ekanini, qonun va adolat kuchini his etib yashamoqda.

Bugun bir haqiqatni qat'iy ishonch bilan aytish mumkin: dunyoda turli xavf-xatarlar, manfaatlar to'qnashuvi kuchayib borayotgan hozirgi tahlikali vaziyatda O'zbekistonda shakllangan yangi tizim o'zini to'la oqlamoqda.

Aziz yurtdoshlar!

Sizlarga ma'lumki, shu yil boshida 2020-yil uchun ulkan reja va maqsadlarni belgilab olgan edik. Biroq jahon miqyosida yuzaga kelgan koronavirus pandemiyasi va iqtisodiy inqiroz, Buxoro va Sirdaryo viloyatlarida ro'y bergan tabiiy va texnogen ofatlar barchamizning irodamizni jiddiy sinovdan o'tkazdi. Tosh kelsa kemirib, suv kelsa simirib toblangan xalqimiz bu og'ir kunlardan ham o'zining sabr-matnati, mehr-oqibati va mehnatkashligi bilan yanada kuchli bo'lib o'tmoqda.

Hozirgi murakkab vaziyatda biz uchun g'oyat muhim ikkita vazifani samarali hal etish – eng dolzarb zaruratga aylanmoqda. Ya'ni, biz aholimizning sog'lig'i va hayotini asrash, shu bilan birga iqtisodiyotimizni tiklash, odamlarga ishlab daromad topishi uchun sharoit yaratib berish muammosini bir paytning o'zida hal etmoqdamiz.

Pandemiya davrida xalqimiz tom ma'noda qudratli kuchga aylandi. Buni "Saxovat va ko'mak" umumxalq harakati yana bir bor yaqqol namoyon etdi. Bu ezgu tashabbus ishbilarmon va tadbirkorlarni, fidoyi yoshlarimizni, barcha-barcha vatandoshlarimizni oliyjanob maqsad yo'lida birlashtirdi.

Hazrat Alisher Navoiyning:

*Davron elining jismida ham jon bo'lg'il,
Ham jonlariga moyayi darmon bo'lg'il, –*

degan so'zlari bugun yanada teran ma'no bilan yangramoqda.

Chindan ham, hozirgi davr har birimizni saxovat va himmat ko'rsatib, xayrli ishlarimiz bilan el-yurt dardiga darmon bo'lishga undamoqda.

Ayni vaqtda koronavirus mamlakatimiz tibbiyot tizimi uchun ham jiddiy sinov, ham ulkan tajriba maktabi bo'ldi.

Bu baloga qarshi kurashish bo'yicha so'nggi olti oy davomida misli ko'rilmagan ishlarni amalga oshirdik. Jumladan, ko'plab yangi shifoxonalar va karantin zonalari ishga tushirildi. Katta miqdorda qo'shimcha tibbiyot uskunalari va tez yordam mashinalari xarid qilindi. Eng ilg'or xorijiy amaliyot va o'zimizda to'plangan tajriba asosida davolash usullari takomillashtirib borilmoqda. Koronavirusga qarshi kurashda tun-u kun metin iroda bilan faoliyat yuritayotgan tibbiyot xodimlarining fidokorona mehnatini munosib qadrlash doimiy e'tiborimizda turibdi. Bunday chora-tadbirlarimiz natijasida minglab bemorlar shifo topib, oilasi bag'riga qaytmoqda.

Chet davlatlarga mehnat qilish va o'qishga ketib, pandemiya tufayli qiynalib qolgan yurtdoshlarimizni o'z uylariga qaytarish, tegishli yordam ko'rsatish bo'yicha amalga oshirgan katta ishlari-miz davom ettirilmoqda.

Hech kim hech qachon unutmazligi kerak: qanchalik qiyin bo'lmasin, qancha mablag' va imkoniyat talab etilmasin, O'zbekistonning bironta fuqarosi o'z holiga tashlab qo'yilmaydi.

Barchangizga yaxshi ma'lum, dunyoda ikki soha vakillari o'z kasbiga sadoqat borasida qasamyod qabul qiladi: bular – Vatan himoyachilari bo'lgan harbiylar va inson salomatligiga mas'ul shifokorlar. Buning bejiz emasligini bugun hayotning o'zi tasdiqlamoqda. Muqaddas qasamyodiga sodiq bo'lgan shifokorlarimiz hozirgi murakkab vaziyatda, kerak bo'lsa, aziz jonlarini fido qilib, qahramonlarcha mehnat qilmoqdalar.

Xalqimiz, davlatimiz sizlarning matonat va jasoratingizni hech qachon unutmaydi.

Biz nechog'lik harakat qilmaylik, afsuski, bu xavfli kasallik bir qancha vatandoshlarimizning umriga zomin bo'ldi. Bu og'ir yo'qotishlar yuraklarimizni larzaga soldi. Negaki, bu insonlarning har biri bizning jigarlarimiz edi.

Shu o'rinda yaqinlaridan judo bo'lgan yurtdoshlarimizga chuqur hamdardlik bildirib, ularga Yaratgandan sabr-toqat va bardosh tilayman.

Qadrlil vatandoshlar!

Xalqimizda **“Oqqan daryo – oqaveradi”** degan hikmatli gap bor. Buni bugungi murakkab vaziyatda amalga oshirayotgan ulkan ishlarimiz isbotlab turibdi.

Jahon banki, Xalqaro valuta jamg'armasi kabi nufuzli moliya tashkilotlari dunyodagi sanoqli mamlakatlar qatorida O'zbekistonda iqtisodiyotning pasayishiga yo'l qo'yilmaganini ta'kidlamoqda va keyingi yillarda sezilarli o'sish kutilayotganini prognoz qilmoqda. Bu albatta o'z vaqtida ko'rgan tezkor choralarimizning samarasidir.

Karantin cheklovlariga qaramasdan, sanoat va qishloq xo'jaligini rivojlantirish, zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini

barpo etish bo'yicha boshlagan keng ko'lamlı ishlarimizni izchıl davom ettirmoqdamız.

Aholimizning asosiy qismi o'zining daromad manbalari va turmush darajasini saqlab qolishiga erishdik. Karantin talablari joriy etilishi natijasida 72 ming 500 ta sanoat korxonasidan 16 ming 700 tasi o'z faoliyatini vaqtincha to'xtatgan edi. Bu borada qilgan tizimli ishlarimiz hisobidan 16 ming 600 ta korxonada ishlab chiqarish jarayoni tiklandi.

Mamlakatimiz korxonalari mahsulotlarini jahon bozorlariga olib chiqish bo'yicha belgilangan rejalar ham bajarilmoqda. Yil boshidan buyon 9 milliard dollarlik mahsulotni eksport qilishga erishganimiz ham buni tasdiqlab turibdi.

Shu o'rında bir raqamga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Bu yil respublikamızda birgina sanoat sohasida umumiy qiymati 11 milliard dollar bo'lgan loyihalar ishga tushiriladi.

Ana shunday yirik loyihalar qatorida yangi Toshkent metallurgiya zavodini alohida qayd etish zarur. Germaniya va Italiyaning zamonaviy texnologiyalari o'rnatilgan ushbu korxonada ekologik jihatdan eng toza va xavfsiz bo'lib, yiliga 500 ming tonna metall prokati ishlab chiqaradi.

"Navoiyazot" korxonasida yiliga 500 ming tonna azot kislotasi va 100 ming tonna polivinilxlorid ishlab chiqaradigan zavodlar foydalanishga topshirildi. Yil oxiriga qadar bu yerda yiliga 660 ming tonna ammiak va 577 ming tonna karbamid ishlab chiqaradigan zavodlar ham faoliyat boshlaydi. Yangitdan barpo etilayotgan "O'zbekiston JTL" zavodida "Sho'rtangaz-kimyo" kompleksining metan gazi asosida yiliga 1,5 million tonna sintetik yoqilg'i olish yo'lga qo'yilmoqda.

Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida rangli va qimmatbaho metallar tayyorlashni uch barobar ko'paytirishga doir, shuningdek, neft, kimyo, elektrotexnika, qurilish materiallari

sanoati, farmatsevtika, to'qimachilik, charm-poyabzal va boshqa tarmoqlar bo'yicha ham yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Iqtisodiy sohadagi ana shunday keng ko'lamli islohotlar tufayli xalqaro valuta zaxiralarimizning hajmi qariyb 5,5 milliard dollarga oshib, jami 34 milliard AQSH dollarini tashkil etmoqda. Bu, hech shubhasiz, katta yutug'imizdir.

Iqtisodiyotimizda barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashda qishloq xo'jaligi alohida rol o'ynamoqda. Sohani modernizatsiya qilish maqsadida xalqaro moliya tashkilotlarining mablag'lari hisobidan qiymati 1 milliard 200 million dollarlik loyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, har bir hududda zamonaviy agroxizmat markazlarini tashkil etish uchun Jahon bankining 500 million dollarlik mablag'i jalb etildi.

Biz keyingi yillarda qishloq xo'jaligini rivojlantirishga birinchi marta shunday ulkan moliyaviy resurslarni yo'naltirmoqdamiz.

Mirishkor dehqon va fermerlarimiz bu yilgi murakkab sharoitda fidokorona mehnat qilib, g'alladan olti yarim million tonnaga yaqin hosil yetishtirdilar. Chorvachilik, parrandachilik, bog'dorchilik, sabzavot va poliz ekinlari yetishtirish bo'yicha ham salmoqli natijalarga erishilmoqda.

Imkoniyatdan foydalanib, rizq-ro'zimiz bunyodkori bo'lgan dehqon va fermerlarimizga, yerning haqiqiy egasiga aylanayotgan klaster xo'jaliklari xodimlariga, barcha dala mehnatkashlariga samimiy minnatdorchilik bildirishga ruxsat bergaysiz.

Hurmatli do'stlar!

Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes sohasini rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Pandemiya davrida tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash hamda ular o'z faoliyatini davom ettirishi uchun biznes subyektlariga turli imtiyoz va yengilliklar berilgani sizlarga yaxshi ma'lum.

Bu yil "Har bir oila – tadbirkor" dasturini amalga oshirish uchun 4 trillion soʻmdan ziyod mablagʻ yoʻnaltiriladi.

Ishonchim komil, ana shunday tizimli ishlarimiz orqali yil yakuniga qadar ishlab chiqarish quvvatlarining uzluksiz faoliyatini va iqtisodiyotimiz barqarorligini, albatta, taʼminlaymiz.

Ulkan qurilish maydoniga aylangan mamlakatimizda koʻplab yangi-yangi korxonalar va turar joylar, yoʻl va koʻpriklar, infratuzilma obyektlari, ilm-fan, taʼlim, sogʻliqni saqlash, madaniyat va sport maskanlari barpo etilmoqda. Hozirgi vaqtda birgina ijtimoiy sohaning oʻzida 2 ming 400 ga yaqin obyektga qurilish ishlari jadal olib borilmoqda.

Poytaxtimizdagi kuni kecha foydalanishga topshirilgan yangi yer osti va yer usti metro liniyalari, Gʻalaba bogʻi, Adiblar xiyoboni singari muhtasham majmualar, barcha hududlarimizda qad koʻtarayotgan zamonaviy bino va inshootlar xalqimizning ulkan bunyodkorlik salohiyatidan yorqin dalolatdir.

Qadrli bayram ishtirokchilari!

Maʼlumki, milliy mustaqilligimizning bosh maqsadi yurtimizdagi har bir insonning izzat-hurmati va qadr-qimmatini joyiga qoʻyishdan iboratdir.

Biz ana shu ezgu ishni davom ettirib, ijtimoiy adolat tamoyili asosida aholining yordamga muhtoj qatlamlarini qoʻllab-quvvatlash, kambagʻallikni kamaytirishni davlat siyosati darajasiga koʻtardik. Jumladan, ijtimoiy nafaqa bilan taʼminlanadigan aholi soni qariyb 1,5 barobar oshirildi. Yil yakuniga qadar ularning soni hozirgi 774 mingdan 1 million 200 ming nafarga yetkaziladi. Ushbu toifani qoʻllab-quvvatlash va iqtisodiyotimizni tiklash uchun davlat budjetidan oʻn ikki yarim trillion soʻm mablagʻ ajratildi.

Keyingi paytda uyma-uy yurib oʻrganish orqali aholini ijtimoiy himoya qilish, ehtiyojmand oilalarni aniqlashning oʻziga

xos yangi tizimi shakllantirildi. Shu asosda, umumiy hisobda, moddiy yordam ko'rsatish uchun 417 milliard so'm mablag' ajratildi. Shuningdek, sentabr oyida moddiy yordam va ko'makka muhtoj, boquvchisini yo'qotgan oilalarning farzandlarini va nogironligi bo'lgan bolalarni qishki kiyim-bosh to'plamlari, maktab formasi va o'quv qurollari bilan ta'minlash maqsadida 426 milliard so'mga yaqin moddiy yordam ko'rsatiladi.

O'zbekiston tarixida ijtimoiy soha bo'yicha bunday keng ko'lamlı ishlar ilgari hech qachon bo'lmagan.

Bugungi qutlug' ayyomda Vatanimiz kelajagi bo'lgan yoshlarimizning kamoli yo'lida qilayotgan ishlarimizni esga olishimiz tabiiydir.

So'nggi to'rt yilda mamlakatimizda 43 ta yangi oliy ta'lim muassasasi tashkil etilib, ularning soni 121 taga yetdi. Bu yil oliy o'quv yurtlariga kirish uchun bir yarim millionga yaqin yoshlarimiz hujjat topshirdi. Bu raqam o'tgan yilga nisbatan 40 foiz ko'p demakdir.

Ushbu ko'rsatkichlar, avvalo, farzandlarimiz va ularning otionalari qalbidagi ertangi kunimizga, kelajakka bo'lgan katta orzu-umid va ishonchdan darak beradi.

Ana shu o'g'il-qizlarimiz yaqinda kirish imtihonlarini topshiradi. Kelinglar, bo'lg'usi sinovlarda hamma farzandlarimizga omad va zafarlar tilaylik!

Yosh avlod tarbiyasida hal qiluvchi o'rin tutadigan bog'chalar va maktablar tizimida ham ulkan o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Prezident maktablari, ixtisoslashgan va ijod maktablari barpo etish, "Zamonaviy maktab" dasturini joriy qilish borasidagi ishlarimiz ham uzluksiz davom ettirilmoqda.

Yurtimizda Yoshlar ishlari agentligi, Yoshlar masalalari bo'yicha idoralararo kengash tashkil etildi. Oliy Majlis palatalari huzurida Yoshlar parlamentlari, Innovatsion rivojlanish vazirli-

gi qoshida Yoshlar akademiyasi tuzildi. Hududlarda "Loyihalar fabrikasi" ish boshladi.

"Yoshlar – kelajagimiz" davlat dasturi doirasida iqtidorli va tashabbuskor o'g'il-qizlarimizning 8 mingdan ziyod biznes loyihalariga qariyb 1,7 trillion so'm miqdorida imtiyozli kreditlar ajratildi.

Farzandlarimizning iste'dod va qobiliyati, ezgu intilishlarini to'liq ro'yobga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish, hayotda munosib o'rin egallashlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish bundan buyon ham bosh maqsadimiz bo'lib qoladi.

Oila, onalik va bolalikni himoya qilish, xotin-qizlarning huquq va manfaatlari, ayollarning mehnat va turmush sharoitini yaxshilash, gender tenglikni ta'minlash borasidagi ishlarimiz ham izchil davom ettirilmoqda.

Xabaringiz bor, kam ta'minlangan oilalarda kamol topayotgan qizlarimizning bilim olish imkoniyatini kengaytirish uchun bu yil yangi tizim joriy etdik. Unga muvofiq, ushbu o'quv yilida oliy ta'lim dargohlarining kunduzgi bo'limlariga bunday qizlarimiz uchun davlat granti asosida 940 ta qo'shimcha o'rin ajratildi.

Aziz vatandoshlar!

Hozirgi paytda dunyo miqyosida raqobat qanday keskin tus olib borayotganini hammamiz ko'rib turibmiz. Bu shiddatli raqobatga faqat zamonaviy ilm-fan va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish orqali munosib javob bera olamiz. Shuning uchun ham ushbu strategik vazifa bizning faoliyatimizda ustuvor yo'nalishga aylanmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston olimlari fundamental fan va uning natijalarini amaliyotga tatbiq etish borasida bir qator yutuqlarni qo'lga kiritmoqdalar. Xususan, matematika, fizika, kimyo, biologiya, astronomiya, farmatsevtika, geologiya, seysmologiya va boshqa sohalarda jiddiy amaliy natijalarga erishilmoqda.

Matematika, kimyo, biologiya fanlarini rivojlantirish va ularni o'qitish borasidagi ishlarimiz yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

O'ylaymanki, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi xalqaro mukofotni ta'sis etganimiz matematika sohasida yosh iqtidor ega-larini rag'batlantirishda yana bir muhim omil bo'ladi.

Ma'lumki, har qanday mustaqil davlat mustahkam ma'naviy poydevorga ega bo'lgandagina yuksak taraqqiyot-ga erisha oladi.

Shu maqsadda biz "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" doirasida umumta'lim maktablarida birinchi marta "Tarbiya" fanini joriy etmoqdamiz.

Milliy davlatchiligimiz va o'zligimiz timsoli bo'lgan ona tili-mizni rivojlantirish bu borada eng muhim yo'nalish bo'lib qoladi. Xudo xohlasa, bu yil 21-oktabr – O'zbek tili bayrami kunini butun mamlakatimiz miqyosida keng nishonlaymiz.

Keyingi paytda qabul qilingan farmon va qarorlar asosida ma-daniyatimiz va san'atimiz rivoji yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

Mamlakatimizda diniy-ma'rifiy sohalar rivojiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi qurilishi jadal davom ettirilmoqda. Ushbu betakror majmua xalqimizning asr-lar davomida jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan ulkan hissasini namoyon etadi. Yaqinda Imom Moturidiy ilmiy-tadqiqot markazi-ni tashkil etish borasida boshlagan sa'y-harakatlarimiz ham mana shu xayrli ishlarning uzviy davomidir.

Mamlakatimizda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash bo'yicha ham katta ishlar amalga oshirilmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari kengashi sessiyasida Sud-huquq tizimida O'zbekiston erishayotgan amaliy natijalarning e'tirof etilgani bu boradagi faoliyatimizga berilgan xolis bahodir.

Yurtimizda birinchi marta “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi” qabul qilindi.

Shu yil avgust oyida yoshlar huquqlarini himoya qilishning dolzarb masalalariga bag‘ishlab Samarqand veb-forumi o‘tkazildi. U nafaqat mamlakatimiz, balki jahon yoshlari hayotini yaxshilash uchun global hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgani bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Yurtimizda sud-huquq tizimini takomillashtirish, jinoyatga oid qonunchilikni liberallashtirish, to‘g‘ri yo‘ldan adashgan insonlarni sog‘lom hayotga qaytarish yuzasidan ham tarixiy qadamlar tashlandi.

So‘nggi paytda jazoni o‘tayotgan shaxslarga nisbatan afv instituti keng qo‘llanayotgani xalqimizga xos bag‘rikenglik va insonparvarlikning amaliy ifodasidir. Ana shu ishlarimizning mantiqiy davomi sifatida Mustaqillik bayrami arafasida yana bir Farmonga imzo chekdim. Unga ko‘ra, qilmishiga chin dildan pushaymon bo‘lib, qat’iy tuzalish yo‘liga o‘tgan 73 nafar shaxs jazoni o‘tash muassasalaridan ozod qilinib, o‘z oilasi bag‘riga qaytarildi. Shuningdek, 40 nafar fuqaroning jazo muddatlari qisqartirildi.

Inson huquqlarining eng muhim sharti bo‘lgan shaxsning fuqaroligini tiklash bo‘yicha ham salmoqli qadamlar qo‘yildi. Ko‘p yillar davomida yurtimizda yashab kelayotgan bo‘lsa-da, fuqarolik ololmay yurgan, bu yuksak maqomni uzoq vaqt intiqib kutgan 50 mingdan ziyod kishiga O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi berildi.

Taraqqiyot kushandasi bo‘lmish illat – korrupsiyaga qarshi mamlakatimizda keng ko‘lamda kurash olib borilmoqda. Shu borada yangi tuzilma – Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligini tashkil etganimiz bu masalaning dolzarbligi va doimiy e‘tiborimizda bo‘lishidan dalolat beradi.

Jamiyatimiz hayotining barcha jabhalarini erkinlashtirish, soʻz va matbuot erkinligi, ochiqlik va oshkoralik tamoyillarini chuqur qaror toptirish, davlat hokimiyati idoralari faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazoratini oʻrnatish boʻyicha boshlagan ishlarimiz ortga qaytmas tus olganini yana bir bor taʼkidlamoqchiman.

Barchangiz xabardorsiz, hozirgi murakkab sharoitga qaramasdan, biz zimmamizga olgan barcha xalqaro majburiyatlar va kelishuvlarni toʻliq bajarib kelmoqdamiz. Xorijiy sheriklarimiz bilan oʻzaro manfaatli hamkorlikni faol rivojlantirmoqdamiz.

Fursatdan foydalanib, koronavirusga qarshi kurashda bizga amaliy koʻmak bergan Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon sogʻliqni saqlash tashkilotiga, shuningdek, Xitoy, Rossiya, AQSH, Turkiya, Janubiy Koreya, Birlashgan Arab Amirliklari, Germaniya, Yaponiya va boshqa hamkor davlatlarga xalqimiz nomidan samimiy tashakkur izhor etaman.

Xalqaro valuta jamgʻarmasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilma investitsiyalar banki va boshqa tashkilotlarga qoʻshma dastur va loyihalarni qoʻllab-quvvatlash hamda pandemiya oqibatlarini yumshatish borasida koʻrsatgan yordamlari uchun minnatdorlik bildiraman.

Ayni vaqtda bizni Mustaqillik bayrami bilan qutlayotgan barcha uzoq-yaqin davlatlarning xalqlariga, chet ellik doʻstlarimiz va hamkorlarimizga tinchlik-omonlik, farovonlik va ravnaq tilayman.

Muhtaram yurtdoshlar!

Bugungi ogʻir vaziyat har birimizdan oʻz faoliyatimiz va masʼuliyatimizni yanada kuchaytirishni talab etmoqda.

Xalqimizda “Koʻz – qoʻrqoq, qoʻl – botir”, degan chuqur maʼnoli ibora bor. Bugungi sharoitda bizning koʻzimiz ham,

qo'limiz ham, yuragimiz ham botir bo'lishi kerak. Belimizni mahkam bog'lab, pok niyat bilan mehnat qilsak, shubhasiz, ko'zlagan marralarimizga erishamiz.

Muqaddas kitoblarda aytilganidek, har qanday qiyinchilik ortidan, albatta, bir yengillik keladi. Barchamiz bunga ishonamiz va qodir Allohdan shuni so'raymiz.

Hali ko'p Navro'z va Hayit ayyomlarini, tarixiy sanalar va umumxalq bayramlarini hammamiz birgalikda shod-u xurramlik bilan o'tkazamiz, inshoolloh.

Mana, kelgusi yili davlatimiz mustaqilligiga o'ttiz yil to'ladi. Mamlakatimiz tarixidagi ushbu unutilmas shonli sanani har tomonlama munosib nishonlashni niyat qilganmiz. Ilohim, shu kunlarga sog'-omon, yorug' yuz bilan yetish hammamizga nasib etsin.

Ma'lumki, bugungi bayram arafasida turli soha va tarmoqlarda fidokorona mehnat qilayotgan yurtdoshlarimizning katta bir guruhi davlatimizning faxriy unvon, orden va medallari bilan taqdirlandi. Ularning barchasini qizg'in tabriklab, ijtimoiy faoliyatlari va shaxsiy hayotlarida yangi-yangi muvaffaqiyatlar tilayman.

Bugungi imkoniyatdan foydalanib, o'z insoniy burchi va fuqarolik mas'uliyatini chuqur anglab, istiqlolimizni mustahkamlash uchun fidokorona mehnat qilayotgan ishchi va xizmatchilarga, quruvchi va tadbirkorlarga, fermer va dehqonlarga, navqiron yoshlarimizga yana bir bor samimiy rahmat aytaman.

El-yurt manfaati yo'lida o'zini ayamadan xizmat qilayotgan hurmatli deputatlar va senatorlarimizga, hokimiyat idoralari xodimlari va mahalla faollariga, harbiy libos kiygan o'g'lonlarimizga, ilmiy va ijodkor ziyolilarga, muhtaram nuroniylarimizga, keng jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari vakillariga chin qalbimdan tashakkur izhor etaman.

Men turli sinov va kurashlarda toblangan, imon-irodasi mustahkam xalqimizning aql-zakovati va azm-u shijoatiga ishonaman.

Mana shunday buyuk insoniy fazilatlar sohibi bo'lgan, ayniqsa, bugungi sinovli kunlarda o'zining matonati va hamjihatligi bilan chinakam jasorat ko'rsatayotgan qahramon xalqimizga farzandlik mehri va sadoqati bilan bosh egib ta'zim qilaman.

Aziz va muhtaram vatandoshlarim!

Sizlarni O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma to'qqiz yillik bayrami bilan yana bir bor chin dildan tabriklayman.

Barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt va omad yor bo'lsin!

Farzandlar, nabiralar kamolini ko'rib yurish hammamizga nasib etsin!

Go'zal va betakror yurtimiz hamisha tinch va farovon bo'lsin!

Mehnatkash va oliyjanob, bag'rikeng xalqimiz doimo sog'omon bo'lsin!

Yaratganning o'zi barchamizni panohida asrasin!

Mustaqilligimiz abadiy bo'lsin!

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutq

2020-yil 31-avgust

O‘ZBEKISTON KENG KO‘LAMLI VA O‘ZARO MANFAATLI SHERIKLIKNI RIVOJLANTIRISH UCHUN DOIMO TAYYOR

Muhtaram Rais Vo‘lkan Bozkir janoblari!

Muhtaram Bosh kotib Antoniu Guterrish janoblari!

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Xonimlar va janoblar!

Bosh Assambleyaning yetmish beshinchi sessiyasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti tarixida birinchi marta butunlay yangi formatda – koronavirus pandemiyasi tufayli onlayn muloqot rejimida bo‘lib o‘tmoqda.

Bunday global falokat sayyoramizda so‘nggi yuz yilda kuzatilmagan edi. Bu ofat butun insoniyatning zaif jihatlari yaqqol ko‘rsatdi. Hozirgi tahlikali va murakkab vaziyat yer yuzidagi barcha davlatlar va xalqlar o‘zaro bog‘liq ekanini, o‘rtamizda muntazam muloqot, ishonch va yaqin hamkorlik o‘ta muhimligini isbotladi.

Shu yo‘lda barchamiz hukumatlar, parlamentlar va fuqarolik jamiyatlarining o‘zaro sa’y-harakatlarini birlashtirish, umumiy mas’uliyat tamoyillarini mustahkamlash, xalqaro sheriklikni muvofiq holda rivojlantirish, Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining maqomi va salohiyatini oshirish, vakolatlarini kengaytirish lozimligini chuqur angladik.

Maqsadimiz – har bir insonning asosiy huquq va erkinliklarini, salomatligi va farovonligini ta’minlaydigan adolatli global tizimni birgalikda yaratishdir.

Bu borada biz Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida **Pandemiyalar davrida davlatlarning ixtiyoriy majburiyatlari to'g'risidagi xalqaro kodeksni ishlab chiqishni taklif etamiz.** Ushbu hujjatda har bir davlatning o'z fuqarolari va xalqaro hamkorlari oldidagi majburiyatlari aks etishi lozim.

Hurmatli xonimlar va janoblar!

Biz O'zbekistonda COVID-19 qayd etilgan dastlabki kunnardan boshlab barcha sa'y-harakat va resurslarimizni bu xavfli kasallikni jilovlash va eng asosiysi – odamlar hayotini saqlab qolishga qaratdik.

Pandemiyaning salbiy oqibatlarini yumshatish uchun ijtimoiy himoya va sog'liqni saqlash tizimlari keskin kuchaytirilmoqda, aholiga, iqtisodiyot tarmoqlari va biznesga manzilli ko'mak ko'rsatilmoqda. Shu maqsadda maxsus jamg'armalar tuzildi.

Fursatdan foydalanib, sinovli damlarda bizga beg'araz yordam ko'rsatgan barcha do'st va hamkorlarimizga chuqur minnatdorlik izhor etaman.

Biz xalqaro hamjamiyatning pandemiyaga qarshi samarali kurashish bo'yicha barcha harakatlarini, jumladan, zarur dori-darmon hamda vaksinalar ishlab chiqish va ulardan keng foydalanishga qaratilgan tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaymiz.

Shuningdek, Bosh kotib Antoniu Guterrish janoblarining bugungi inqirozli vaziyatda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning dolzarb muammolariga bag'ishlangan sammitni o'tkazish bo'yicha taklifini ma'qullaymiz.

Hurmatli Bosh Assambleya sessiyasi ishtirokchilari!

Bundan uch yil muqaddam men Birlashgan Millatlar Tashkilotining oliy minbaridan O'zbekistonning tub islohotlarni amalga oshirish bo'yicha qarori qat'iy ekanini aytgan edim.

Jamiyatni siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy modernizatsiya qilish bo'yicha keng ko'lamlı chora-tadbirlarimiz natijasida yangi O'zbekiston shakllanmoqda. Bugungi kunda

mamlakatimizdagi demokratik o'zgarishlar ortga qaytmaydigan tus oldi.

O'tgan yili Parlamentga o'tkazilgan saylovlar aholi va partiyalarning siyosiy faolligi, fuqarolik jamiyati institutlarining roli, ommaviy axborot vositalarining ta'siri oshganini namoyish etdi.

Biz uchun gender tenglik siyosati ustuvor masalaga aylandi. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi o'rni tobora kuchaymoqda. Yangi Parlamentimizda ayol deputatlar soni ikki barobarga ko'paydi.

Inson huquqlari sohasidagi holat ham butunlay o'zgardi. Majburiy va bolalar mehnati to'liq tugatildi. Inson huquqlari bo'yicha Milliy strategiya qabul qilindi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining fuqaroligi bo'lmagan insonlar sonini kamaytirishga qaratilgan chaqirig'iga javoban shu yilning o'zida 50 ming yurtdoshimizga O'zbekiston fuqaroligi berildi.

Mamlakatimizda diniy erkinlik borasida ham vaziyat keskin yaxshilandi. Millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglikni yanada mustahkamlash biz uchun doimiy muhim vazifadir.

Sudlarning chinakam mustaqilligi va qonun ustuvorligini ta'minlashga yo'naltirilgan keng qamrovli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda.

Korrupsiyaga qarshi murossasiz kurash yangi bosqichga ko'tarildi. Bu borada muhim qonun hujjatlari qabul qilinib, mustaqil tuzilma – Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi.

Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlar jadal davom ettirilmoqda. Biz birinchi marta kambag'allikni kamaytirish haqidagi qat'iy qarorimizni ochiq e'lon qildik. Bunga tadbirkorlikni rivojlantirish va qo'shimcha ish o'rinlari yaratish, investitsiya va biznes muhitini yaxshilash hamda zamonaviy infratuzilmani barpo etish, odamlarni yangi kasb-hunarlariga o'rgatish

va aholiga manzilli ijtimoiy yordam ko'rsatish orqali erishmoqdamiz.

Mamlakatimiz aholisining yarmidan ko'pini yoshlar tashkil etadi. Respublikamizda har bir yigit-qizning jamiyatda munosib o'rin egallashi va o'z salohiyatini namoyon etishi uchun ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda Yoshlar parlamentlari, Yoshlar ishlari agentligi faoliyat ko'rsatmoqda.

Avgust oyida Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida yoshlar huquqlariga bag'ishlangan Samarqand xalqaro forumi muvaffaqiyatli o'tkazildi.

Fursatdan foydalanib, yana bir bor **Yoshlar huquqlari to'g'risidagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti konvensiyasini** qabul qilish bo'yicha O'zbekiston tashabbusini qo'llab-quvvatlashga chaqiraman.

Bundan tashqari, **Barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishish va inson huquqlarini ta'minlashda parlamentlar rolini oshirish to'g'risidagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining maxsus rezolutsiyasini** qabul qilishni taklif etamiz.

Hurmatli do'stlar!

Hozirgi vaqtda Markaziy Osiyo mintaqasida tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Biz mintaqada davlatlari o'rtasida yaxshi qo'shnichilik va o'zaro ishonch, do'stlik va hurmat muhitini yaratishga erishdik.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ilgari surilgan tashabbusga asosan muntazam o'tkazilayotgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari umumiy yutug'imiz bo'ldi.

Oxirgi to'rt yilda O'zbekistonning qo'shni davlatlar bilan o'zaro savdo hajmi salkam besh barobarga o'sdi.

Mamlakatlarimiz ushbu sinovli kunlarda bir-birini yolg'iz qoldirmasdan, o'zaro yelkadosh bo'ldilar.

Bugun Markaziy Osiyo davlatlari oldida muhim strategik vazifa turibdi. U ham bo'lsa, mintaqamizning global iqtisodiy, transport va tranzit yo'laklariga chuqur integratsiyasini ta'minlashdir.

Shu munosabat bilan Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida **Transport-kommunikatsiya aloqalarini rivojlantirish mintaqaviy markazini ochishni taklif etamiz.**

Bugungi kunda Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta'minlash sohasida ham samarali hamkorlik olib borilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Global antiterror strategiyasi muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Biz ushbu strategiya doirasidagi **Mintaqaviy qo'shma rejaning 10 yillik natijalari va kelgusi istiqbollari**ga bag'ishlangan xalqaro konferensiyani o'tkazish tarafdorimiz.

Ma'lumki, mintaqamizning ko'hna va boy madaniy merosi global ahamiyatga ega. Biz 2021-yilda UNESCO bilan hamkorlikda qadimiy Xiva shahrida **“Markaziy Osiyo jahon sivilizatsiyalari chorrahasida”** degan mavzuda xalqaro forumni o'tkazishga tayyormiz.

Hurmatli sessiya ishtirokchilari!

Biz Afg'onistonni Markaziy Osiyoning ajralmas qismi sifatida qabul qilamiz. 2018-yil mart oyida o'tkazilgan Afg'oniston bo'yicha oliy darajadagi Toshkent konferensiyasi afg'on muammosini yechish uchun xalqaro hamjamiyat sa'y-harakatlarini safarbar etishda yangi bosqich bo'ldi.

Biz joriy yilning sentabr oyida Doha shahrida afg'on siyosiy kuchlari o'rtasida boshlangan tinchlik muzokaralarini to'la qo'llab-quvvatlaymiz. Bu muzokaralar jafokash afg'on zaminida tinchlik va barqarorlik o'rnatishiga umid qilamiz.

Mintaqada iqtisodiy integratsiya jarayonlariga Afg'onistonni keng jalb etish maqsadida "Surxon – Puli Xumri" elektr uzatish tarmog'ini, Mozori Sharifdan Hind okeani portlariga chiqadigan temiryo'l qurilishi kabi yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga kirishdik.

Fikrimizcha, Afg'onistonda tinchlik va barqarorlik o'rnatish masalalari Birlashgan Millatlar Tashkilotining doimiy e'tibori markazida bo'lib qolishi zarur.

Faqat birgalikda va yaqin hamkorlik orqali biz afg'on xalqining ezgu orzu-umidlarini ro'yobga chiqarishimiz mumkin. Bu borada "Beqaror va vayronkor vaziyatdan – tinchlik va bunyodkorlik sari" degan tamoyil asosida ish olib borish muhimdir. Shu boisdan **Birlashgan Millatlar Tashkiloti huzurida afg'on xalqining dard-u tashvishini tinglaydigan, doimiy faoliyat ko'rsatadigan qo'mita tashkil etish lozim.** Ushbu qo'mitaning asosiy vazifasi Afg'onistonning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ko'mak berishdan iborat bo'lishi zarur.

Hurmatli davlat va hukumat rahbarlari!

Davrimizning o'tkir muammolaridan yana biri – global iqlim o'zgarishlaridir. Bugungi kunda har bir mamlakat bu jarayonning salbiy ta'sirini his etmoqda. Ming afsuski, bunday o'zgarishlar Markaziy Osiyo taraqqiyotiga ham katta xavf tug'dirmoqda.

E'tiboringizni yana bir bor Orol dengizi qurishining halokatli oqibatlariga qaratmoqchiman. Orolbo'yi hududi ekologik fojيانing markaziga aylandi. Biz mavjud ahvolni yaxshilash uchun bu yerda ikki million gektar yangi o'simlik maydonlari va daraxtzorlar yaratish, tuproq qatlamini shakllantirish bo'yicha ulkan ishlarni amalga oshirmoqdamiz.

Mamlakatimiz tashabbusi bilan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Orolbo'yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama sheriklik asosida Trast fondi tuzildi. Umid qila-

mizki, ushbu fond og'ir ekologik hududda yashayotgan aholiga amaliy yordam ko'rsatish uchun xalqaro hamjamiyatning tayanch platformasi bo'lib xizmat qiladi.

Biz Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi, deb e'lon qilish haqida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining maxsus rezolutsiyasini qabul qilishni taklif etamiz. Ushbu muhim hujjat tasdiqlangan sanani esa Xalqaro ekologik tizimlarni himoya qilish va tiklash kuni sifatida nishonlash maqsadga muvofiq bo'lardi.

Hurmatli xonimlar va janoblar!

So'zimning yakunida yana bir fikrni ta'kidlashni istardim. Jahonning turli nuqtalarida notinchlik saqlanib qolayotgani, ziddiyat va zo'ravonliklar ortib borayotgani, ekologik ofatlar va boshqa zamonaviy xatarlar qashshoqlik va kambag'allikning global muammolarini kuchaytirmoqda.

Bu muammolar, ayniqsa, pandemiya sharoitida keskin tus olmoqda. Tobora tashvishli ohang kasb etayotgan qashshoqlikning ovozi butun dunyo hamjamiyatini, barchamizni bezovta qilishi zarur.

Shu munosabat bilan qashshoqlikni tugatish va kambag'allikka qarshi kurashishni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi navbatdagi sessiyasining asosiy mavzularidan biri sifatida belgilash hamda ushbu masalalarga bag'ishlangan global sammitni o'tkazishni taklif etamiz.

Qadrli do'stlar!

Barchamizga ravshanki, pandemiyadan keyingi dunyoning ijtimoiy-iqtisodiy manzarasi butunlay boshqacha tus oladi.

Biz xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lidagi umumiy xatarlarga qarshi yangicha yondashuvlar asosida va yaqin hamkorlikda ishlashimiz zarur.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining muvofiqlashtiruvchi xalqaro tuzilma sifatidagi markaziy o'mini yanada kuchaytirish lozim.

O'zbekiston jahonning barcha mamlakatlari bilan keng ko'lamli va o'zaro manfaatli sheriklikni, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning institutlari bilan amaliy muloqotni rivojlantirish uchun doimo tayyor.

E'tiboringiz uchun rahmat.

*Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining
75-sessiyasidagi nutq*

2020-yil 23-sentabr

O'QITUVCHI VA MURABBIYLAR – YANGI O'ZBEKISTONNI BARPO ETISHDA KATTA KUCH, TAYANCH VA SUYANCHIMIZDIR

Assalomu alaykum, aziz yurtdoshlar!

Qadrli muallimlar!

Muhtaram ustozlar!

Bugun siz, azizlar bilan 1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni – umumxalq bayrami arafasida uchrashib turganimdan baxtiyorman.

Fursatdan foydalanib, sizlarni, joylardagi studiyalarda o'tirgan fidoyi ustozlarimizni, "oynayi jahon" orqali bugungi tantanali marosimni ko'rib turgan barcha yurtdoshlarimni ushbu qutlug' ayyom bilan samimiy muborakbod etaman.

Biz har birimiz hayotda qanday muvaffaqiyat va natijalarga erishgan bo'lsak, bu yutuqlarda sizlarning beqiyos hissangiz borligini doimo minnatdorlik bilan e'tirof etamiz. Shu bois mana shunday quvonchli kunda barcha shogirdlaringiz, butun xalqimiz nomidan sizlarga yuksak hurmat-ehtiromimiz, ezgu tilaklarimizni bildirib, chin dildan ta'zim qilamiz.

Ulug' shoirimiz mavlono Furqat ilm-ma'rifatni ko'ngillarining sururi, ko'rar ko'zlarning nuri, deb ta'riflaganini ham-mamiz yaxshi bilamiz.

Darhaqiqat, millionlab farzandlarimiz qalbiga ilm-fan ziyosini singdirib, ularni el-yurtga munosib insonlar etib tarbiyalayotgan zahmatkash va oliyjanob ustozlarimizga har qancha tahsinlar aytsak, arziydi.

Men bugun bildiradigan fikrlarni, avvalo, hurmatli muallim va o'qituvchilarga, qadrli tarbiyachilarga, barcha jonkuyar ziyolilarimizga yo'llangan murojaat sifatida qabul qilishingizni istardim.

Aziz do'stlar!

Xabaringiz bor, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida so'zlagan nutqimda men boshqa ko'pgina muhim masalalar qatorida Yoshlar huquqlari bo'yicha xalqaro konvensiyani qabul qilishga oid O'zbekiston tashabbusiga yana bir bor jahon hamjamiyatining e'tiborini qaratdim.

Yoshlar huquqi deganda, biz, birinchi navbatda, ularning tinch va sog'lom yashash hamda ta'lim olishga bo'lgan to'laqonli huquqini tushunamiz. Shu bois unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizning barkamol bo'lib voyaga yetishi, sifatli va mukammal ta'lim olishini ta'minlash biz uchun hamisha ustuvor vazifa hisoblanadi.

Butun dunyo davlatlari qatori O'zbekiston ham koronavirus pandemiyasini boshidan kechirayotgan hozirgi murakkab davrda mamlakatimiz ta'lim tizimi ham jiddiy sinovga duch keldi. Bugungi qiyin sharoitga qaramasdan, davlatimiz tomonidan o'z vaqtida ko'rilgan chora-tadbirlar va sizlarning fidokorona mehnatingiz bilan bu boradagi ishlarimiz izchil davom ettirilmoqda. Jumladan, qisqa muddat ichida yurtimizda "onlayn maktab" loyihasi va masofaviy ta'lim joriy etildi.

Yaqinda respublikamizning aksariyat maktablarida karantin qoidalariga amal qilgan holda yangi o'quv yili boshlandi. Ezgu an'anamizga muvofiq, qariyb 650 ming nafar 1-sinf o'quvchisiga Prezident sovg'alari sifatida 72 milliard so'mlik o'quv qurollari topshirildi. Shuningdek, moddiy yordam va ko'makka muhtoj, boquvchisini yo'qotgan oilalarning farzandlari va nogironligi bo'lgan bolalarga qishki kiyim-bosh to'plamlari, maktab formasi va o'quv qurollaridan iborat

426 milliard soʻmlik moddiy koʻmak berilgani ham ana shunday ezgu ishlarimiz qatoriga kiradi.

Ayni vaqtda, bugungi vaziyatdan kelib chiqqan holda, oʻquvchi va pedagoglarning salomatligini asrash masalasi barchamizning alohida eʼtiborimiz markazida turibdi. Shu maqsadda maktablarni zarur tibbiy va antiseptik vositalar bilan taʼminlash uchun Inqirozga qarshi kurashish jamgʻarmasidan 17 milliard soʻm mablagʻ ajratildi.

Xabaringiz bor, bu yil 1,5 millionga yaqin yoshlarimiz oliy oʻquv yurtlariga kirish uchun hujjat topshirdi. Bu koʻrsatkich oʻtgan yilga nisbatan 40 foizga koʻp demakdir. Biz mana shunday ogʻir vaziyatda test sinovlarini ochiq stadionlarda, epidemiologik xavfsizlik talablariga qatʼiy amal qilgan holda, muvaffaqiyatli oʻtkazishga erishdik.

Buyuk davlat arbobi Indira Gandining **“Bitta qiz bolani oʻqitsangiz, butun oilani oʻqitgan boʻlasiz”**, degan soʻzlarida katta hayotiy haqiqat borligini, albatta, hammamiz yaxshi tushunamiz. Shuning uchun joriy yilda qishloq joylarda yashayotgan, kam taʼminlangan oilalarga mansub qizlarimiz oliy oʻquv yurtlarining kunduzgi boʻlimida davlat granti asosida oʻqishlari uchun 940 ta oʻrin ajratdik.

Oʻylaymanki, qizlarimiz uchun yaratilgan bunday qoʻshimcha imkoniyat yana yuzlab oilalarga bilim va maʼrifat nurini olib kiradi. Bu, oʻz navbatida, yosh qizlarimizning kelajakda jamiyat uchun munosib kasb egalari boʻlib kamol topishiga puxta zamin yaratadi. Biz bu boradagi ishlarimiz koʻlamini bundan keyin ham yanada koʻpaytirib boramiz.

Hurmatli vatandoshlar!

Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham, bu – ilmfan, taʼlim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorugʻ

istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq.

Buyuk yunon olimi Arastuning "**Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi**", degan so'zlari bor.

Qarang, bu fikrlar miloddan avval aytilgan. Demak, insoniyat ongli hayot kechira boshlagan davrdan buyon ta'lim va tarbiya masalasi doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Bir o'ylab ko'raylik, dunyodagi rivojlangan davlatlar qanday qilib yuksak taraqqiyot va turmush farovonligiga erishmoqda? Eng avvalo, ilm-fan va ta'limga qaratilgan ulkan e'tibor tufayli emasmi?

Shuning uchun ham keyingi yillarda yurtimizni har tomonlama taraqqiy ettirish, yangi O'zbekistonni yaratish maqsadida barcha sohalar qatori ta'lim tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda.

Bu borada o'nlab muhim farmon, qaror va dasturlar qabul qilingani sizlarga yaxshi ma'lum. Mana, kuni kecha tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun ushbu soha taraqqiyotida, hech shubhasiz, yangi ufqlarni ochib beradi. Qonunga muvofiq, ta'lim olishning masofaviy, inkluziv shakllari joriy qilindi, ta'lim tashkilotlariga xorijiy muassasalar bilan qo'shma fakultet va o'quv markazlari tashkil qilishga ruxsat etildi. Shuningdek, o'qituvchilarga mualliflik dasturi va o'qitish uslublarini joriy etish, zamonaviy pedagogik shakllar, o'qitish va tarbiya usullarini erkin tanlash huquqi berildi.

Biz keng ko'lamlı demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali **O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans** poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Bu haqda gapirar ekanmiz, avvalo, Uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz, butun jamiyatimiz chuqur anglab olishi kerak.

Tarixga nazar solsak, Buyuk Ipak yo'lining chorrahasida joylashgan ona zaminimiz azaldan yuksak sivilizatsiya va madaniyat o'choqlaridan biri bo'lganini ko'ramiz. Xalqimizning boy ilmiy-madaniy merosi, toshga muhrlangan qadimiy yozuvlar, bebaho me'moriy obidalar, nodir qo'lyozmalar, turli osori-atiqalar davlatchilik tariximizning uch ming yillik teran ildizlaridan dalolat beradi.

Men yuqorida Arastuning fikrlarini bejiz eslamadim. Ham-mangizga yaxshi ma'lum, antik davrda Yunonistonda yongan ilm mash'alasi to'qqizinchi – o'n ikkinchi asrlarda Markaziy Osiyo hududida qayta porladi. Bu davrda yurtimiz hududida **Birinchi Renessans** yuzaga keldi va u butun dunyo tan oladigan mashhur daholarni yetishtirib berdi. Xususan, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy singari o'nlab buyuk allomalarimizning jahonshumul ilmiy-ijodiy kashfiyotlari umumbashariyat taraqqiyoti rivojiga beqiyos ta'sir ko'rsatdi.

“Islom madaniyatining oltin asri” deb e'tirof etiladigan bu davrda ona zaminimizdan yetishib chiqqan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Abul Mu'in Nasafiy kabi ulug' ulamolar butun musulmon olamining faxr-u iftixori va cheksiz g'ururi hisoblanadi.

O'n beshinchi asrda sohibqiron Amir Temur bobomiz asos solgan va uning munosib avlodlari davom ettirgan muhtasham saltanat yurtimizda **Ikkinchi Uyg'onish**, ya'ni **Ikkinchi Renessans** davrini boshlab berdi. Bu davrda Qozizoda Rumi, Mirzo Ulug'bek, G'iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi singari benazir olimlar, Lutfiy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi mumtoz shoir va mutafakkirlar maydonga chiqdi. Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamir kabi tarixchilar, Mahmud Muzahhib, Kamoliddin Behzod singa-

ri musavvirlar, ko'plab xattot va sozandalar, musiqashunos va me'morlarning shuhrati dunyoga yoyildi.

Donishmand xalqimiz har ikki Renessans davrida jahonning eng ilg'or, taraqqiy etgan xalqlari qatorida bo'lgani barchamizga ulkan g'urur va iftixor bag'ishlaydi.

Bir o'ylab ko'raylik, ajdodlarimiz bunday yuksak cho'qqilarga qanday erishganlar? Ular, eng avvalo, jaholatga qarshi ma'rifat bayrog'ini baland ko'tarib, o'z aql-zakovati va salohiyatini bashariyat yaratgan ilm-fan yutuqlarini chuqur o'rganish va boyitishga bag'ishlaganlar.

Tan olish kerakki, biz ana shunday bebaho merosga ko'pincha faqat tarixiy yodgorlikka qaraganday munosabatda bo'lib kelmoqdamiz. Bunday tengsiz boylikni amaliy hayotimizga tatbiq etishda beparvolik va e'tiborsizlikka yo'l qo'ymoqdamiz. Vaholanki, bunday noyob meros kamdan kam xalqlarga nasib etgan. Birgina Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti fondlarida saqlanayotgan 100 mingdan ortiq nodir qo'lyozmalarga dunyo ahli havas qiladi. Biz bu haqiqatni har tomonlama teran anglashimiz zarur.

Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma'naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o'lmas meros hamisha yonimizda bo'lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag'ishlashi lozim. Avvalambor, milliy ta'lim tizimini ana shunday ruh bilan sug'orishimiz kerak. Buning uchun olim va mutaxassislarimiz, hurmatli ulamolarimiz bu ma'naviy xazinani bugungi avlodlarga sodda va tushunarli, jozibali shakllarda yetkazib berishlari zarur.

Shu munosabat bilan Fanlar akademiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Madaniyat vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Musulmonlar idorasi, Xalqaro islom akademiyasi, Islom sivilizatsiyasi markazi buyuk mutafakkirlarimizning

ilmiy-ma'rifiy va madaniy merosini fundamental asosda nashrga tayyorlash, chop etish va keng ommaga yetkazish, shuningdek, uni o'rganish metodikasini ishlab chiqib, amalda qo'llash chora-tadbirlarini ko'rsin. Bu masalaga Bosh vazir o'rinbosari B. Musayev mas'ul etib belgilanadi.

Yana bir masalaga alohida to'xtalib o'tmoqchiman: ming af-suski, o'n oltinchi asrning ikkinchi yarmidan boshlab Markaziy Osiyo zaminida ichki urush va nizolar, hokimiyat uchun ku-rash avj oldi. Ayirmachilik va mahalliychilik kuchaydi, ma'rifat o'miga jaholat ildiz otdi. Natijada bir paytlar gullab-yashnagan o'lkamizda ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy inqiroz yuzaga keldi. Ilm-fan va tafakkur mash'ali so'na boshladi. Yurtimizning o'n to'qqizinchi asrga kelib qaramlikka tushib qolishida ayni shunday salbiy holatlar asosiy sabab bo'lgani hammamizga yaxshi ayon.

Ko'pchilik ziyolilar qatorida men ham bir fikrni hamisha katta armon bilan o'ylayman: mamlakatimizda Uchinchi Renes-sansni yigirmanchi asrda ma'rifatparvar jadid bobolarimiz amal-ga oshirishlari mumkin edi. Nega deganda, bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrlarini milliy uyg'onish g'oyasiga bag'ishlab, o'lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g'aflat botqog'idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safar-bar etdilar. Shu yo'lda ular o'zlarining aziz jonlarini ham qurbon qildilar. Ular **"Ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lmagay"** degan hadisi sharifni hayotiy e'tiqod deb bildilar. Milliy istiqlol, taraqqiyot va farovonlikka, avvalo, ma'rifat orqali, dunyoviy va diniy bilim, zamonaviy ilm-hunarlarini chuqur egallash orqali erishish mumkin, deb hisobladilar.

Bu davrda Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo'jayev, Abdurauf Fitrat, Ibrat domla, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Ashurali Zohiriy, Hoji Muin va boshqa yana yuzlab ulug'

insonlar milliy uygʻonish va millatparvarlik harakatining oldingi saflarida turdilar. Ular yangi usul maktablari bilan bir qatorda, odamlarning dunyoqarashi va turmush tarzini oʻzgartirishga qaratilgan gazeta-jurnallar, nashriyot va kutubxonalar, teatrlar tashkil etdilar.

Ming afsuski, jadid bobolarimiz oʻz oldiga qoʻygan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga mavjud vaziyat, ijtimoiy tuzum yoʻl bermadi. Maʼrifat fidoyilari oʻsha davrning turli johil kimsalarining tuhmat-malomatlariga duchor boʻldilar. Avval chor hukumati, keyinchalik sovet hukumati ularni ayovsiz quvgʻin va qatagʻon qildi. Shu tariqa milliy uygʻonish va taraqqiyot harakati el-yurtimiz uchun armon boʻlib qoldi.

Vatanimiz ozodligi va xalqimiz baxt-saodati yoʻlida jonini fido qilgan jadidlarning ilmiy-maʼrifiy, adabiy-badiiy merosi biz uchun bugun ham beqiyos ahamiyatga ega.

Birgina misolga eʼtiboringizni qaratmoqchiman.

Bu yil tavalludining 145 yilligi nishonlanayotgan ulugʻ maʼrifatparvar bobomiz Mahmudxoʻja Behbudiy oʻz vaqtida **biz uchun ikki emas, toʻrt tilni bilish zarur**, deb bong urgan edi. Behbudiy bobomizning ushbu daʼvati hozir ham gʻoyat dolzarb boʻlib turibdi.

Qadrli muallimlar, men bugun Oʻqituvchi va murabbiylar bayrami munosabati bilan bir guruh vatandoshlarimizni mukofotlash toʻgʻrisidagi Farmonni imzoladim. Ana shunday yurtdoshlarimiz orasida Vatanimiz istiqloli, xalqimizning ozodligi va erkinligi, obod va farovon hayotini taʼminlash yoʻlida fidokorlik koʻrsatib, milliy taʼlim va tarbiya tizimini yaratishga beqiyos hissa qoʻshgan Abdulla Avloniy, Mahmudxoʻja Behbudiy va Munavvarqori Abdurashidxonov “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlanganini sizlarga va butun elimizga mamnuniyat bilan aytmoqchiman.

ilmiy-ma'rifiy va madaniy merosini fundamental asosda nashrga tayyorlash, chop etish va keng ommaga yetkazish, shuningdek, uni o'rganish metodikasini ishlab chiqib, amalda qo'llash chora-tadbirlarini ko'rsin. Bu masalaga Bosh vazir o'rinbosari B. Musayev mas'ul etib belgilanadi.

Yana bir masalaga alohida to'xtalib o'tmoqchiman: ming af-suski, o'n oltinchi asrning ikkinchi yarmidan boshlab Markaziy Osiyo zaminida ichki urush va nizolar, hokimiyat uchun ku-rash avj oldi. Ayirmachilik va mahalliychilik kuchaydi, ma'rifat o'miga jaholat ildiz otdi. Natijada bir paytlar gullab-yashnagan o'lkamizda ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy inqiroz yuzaga keldi. Ilm-fan va tafakkur mash'ali so'na boshladi. Yurtimizning o'n to'qqizinchi asrga kelib qaramlikka tushib qolishida ayni shunday salbiy holatlar asosiy sabab bo'lgani hammamizga yaxshi ayon.

Ko'pchilik ziyolilar qatorida men ham bir fikrni hamisha katta armon bilan o'yalayman: mamlakatimizda Uchinchi Renes-sansni yigirmanchi asrda ma'rifatparvar jadid bobolarimiz amal-ga oshirishlari mumkin edi. Nega deganda, bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrlarini milliy uyg'onish g'oyasiga bag'ishlab, o'lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g'aflat botqog'idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safar-bar etdilar. Shu yo'lda ular o'zlarining aziz jonlarini ham qurbon qildilar. Ular **"Ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lmagay"** degan hadisi sharifni hayotiy e'tiqod deb bildilar. Milliy istiqlol, taraqqiyot va farovonlikka, avvalo, ma'rifat orqali, dunyoviy va diniy bilim, zamonaviy ilm-hunarlarini chuqur egallash orqali erishish mumkin, deb hisobladilar.

Bu davrda Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo'jayev, Abdurauf Fitrat, Ibrat domla, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Ashurali Zohiriy, Hoji Muin va boshqa yana yuzlab ulug'

insonlar milliy uygʻonish va millatparvarlik harakatining oldingi saflarida turdilar. Ular yangi usul maktablari bilan bir qatorda, odamlarning dunyoqarashi va turmush tarzini oʻzgartirishga qaratilgan gazeta-jurnallar, nashriyot va kutubxonalar, teatrlar tashkil etdilar.

Ming afsuski, jadid bobolarimiz oʻz oldiga qoʻygan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga mavjud vaziyat, ijtimoiy tuzum yoʻl bermadi. Maʼrifat fidoyilari oʻsha davrning turli johil kimsalarining tuhmat-malomatlariga duchor boʻldilar. Avval chor hukumati, keyinchalik sovet hukumati ularni ayovsiz quvgʻin va qatagʻon qildi. Shu tariqa milliy uygʻonish va taraqqiyot harakati el-yurtimiz uchun armon boʻlib qoldi.

Vatanimiz ozodligi va xalqimiz baxt-saodati yoʻlida jonini fido qilgan jadidlarning ilmiy-maʼrifiy, adabiy-badiiy merosi biz uchun bugun ham beqiyos ahamiyatga ega.

Birgina misolga eʼtiboringizni qaratmoqchiman.

Bu yil tavalludining 145 yilligi nishonlanayotgan ulugʻ maʼrifatparvar bobomiz Mahmudxoʻja Behbudiy oʻz vaqtida **biz uchun ikki emas, toʻrt tilni bilish zarur**, deb bong urgan edi. Behbudiy bobomizning ushbu daʼvati hozir ham gʻoyat dolzarb boʻlib turibdi.

Qadrli muallimlar, men bugun Oʻqituvchi va murabbiylar bayrami munosabati bilan bir guruh vatandoshlarimizni mukofotlash toʻgʻrisidagi Farmonni imzoladim. Ana shunday yurtdoshlarimiz orasida Vatanimiz istiqloli, xalqimizning ozodligi va erkinligi, obod va farovon hayotini taʼminlash yoʻlida fidokorlik koʻrsatib, milliy taʼlim va tarbiya tizimini yaratishga beqiyos hissa qoʻshgan Abdulla Avloniy, Mahmudxoʻja Behbudiy va Munavvarqori Abdurashidxonov “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlanganini sizlarga va butun elimizga mamnuniyat bilan aytmoqchiman.

Hozirgi vaqtda mustabid tuzum davrida siyosiy qatag'on qurboni bo'lgan ota-bobolarimizning hayoti va faoliyatini, xususan, jadidlar merosini yanada chuqur o'rganish va ularning xotirasini abadiylashtirish bo'yicha qaror loyihasi tayyorlanmoqda.

Hurmatli do'stlar!

"Oqqan daryo – oqaveradi", deydi dono xalqimiz. Bugun buyuk ajdodlarimizning bebaho merosiga tayanib, yangi Renessans poydevorini yaratish uchun bizda barcha imkoniyatlar mavjud, deyishga to'la asoslarimiz bor. Hamma gap ana shu imkoniyatlardan qay darajada oqilona foydalana olishimizga bog'liq.

Bu fikrlarga bir misol keltirmoqchiman.

Bilasizlar, Qorako'l tumanida hammamizga ma'lum bir maktab bor. Bu maktabni mashhur qilgan fidoyi muallim To'xtamurod Jumayev nomini ham barchamiz yaxshi bilamiz. Bu ajoyib pedagog o'zining tinimsiz izlanishi, yangi ta'lim metodikasi bilan oddiy bir qishloq maktabini respublika darajasidagi mashhur ta'lim dargohiga aylantirdi. Holbuki, ushbu maktab Buxoroning olis cho'l tumanida joylashgan bo'lib, zamonaviy sharoitga, qulay imkoniyatlarga ham ega emas edi.

Bugun ushbu maktab bitiruvchilarining 95 foizdan ortig'i oliy o'quv yurtlariga o'qishga kiryapti. Xalqaro olimpiadalardan eng ko'p medal olib kelayotganlar ham aynan shu maktabning o'quvchilari hisoblanadi. Mamlakatimizning barcha hududlaridan, hatto poytaxt Toshkentdan ham odamlar o'z farzandini Qorako'lga olib borib, ana shu maktabga o'qishga beryapti.

Biz bu ta'lim maskani erishayotgan katta yutuqlarni inobatga olib, o'tgan yili uni Xalqaro matematika maktabiga aylantirdik.

To'xtamurod domla ham jadid bobolarimiz kabi tinimsiz va fidokorona mehnat qilib, hozirgi davrning yangi usul maktabini yaratishga erishdi.

Mana, bugungi kunimizning haqiqiy ma'rifatparvari, davrimizning Avloniysi, Behbudiy domlasi, Munavvarqorisi!

Bunday ulkan natijaga erishish uchun, albatta, o'ziga xos o'qitish tizimi bo'lishi kerak. Ayni vaqtda bunday yutuqlar zamirida insonning o'z kasbiga, Vataniga mehri va sadoqati, yuksak mas'uliyat tuyg'usi mujassam, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Mana shu maktabda To'xtamurod aka boshchiligida har bir o'qituvchi shogirdlarini o'z bolasiday ko'rgan, bu yerda chinakam ijodiy musobaqa muhiti shakllangan va bu ishlar bugun o'zining munosib natijasini bermoqda.

Mohir pedagog To'xtamurod Jumayev ta'lim-tarbiya sohasida erishgan ulkan yutuqlari va ibratli faoliyati uchun Prezident farmoniga asosan davlatimizning yuksak mukofoti – “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlandilar.

Fursatdan foydalanib, To'xtamurod akani va mukofotga sazovor bo'lgan barcha o'qituvchi va murabbiylarimizni o'z nomimdan, xalqimiz nomidan samimiy muborakbod etaman.

Hurmatli yig'ilish ishtirokchilari, shu o'rinda savol tug'iladi: Qorako'l maktabi biz uchun zamonaviy maktabning haqiqiy andozasi emasmi? Nima uchun Xalq ta'limi vazirligi uning noyob tajribasini yetarlicha ommalashtirmayapti? Nima uchun boshqa maktab direktorlari bu ta'lim dargohidan ibrat olmayapti? Xalq ta'limi vaziri Sh. Shermatov nega uch yildan buyon bu jiddiy masalaga yetarlicha e'tibor bermayapti?

Afsuski, hammamiz “Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q” deb, beparvo bo'lib yuribmiz.

Nima uchun boshqa viloyatlarda, deylik, Andijonda, Farg'ona, Samarqand, Xorazm yoki Qashqadaryoda, Jizzax va Sirdaryoda bunday maktablar yo'q?

Vaholanki, bugungi kunda bizga mana shunday yuzlab maktablar, o'z kasbining chinakam ustasi va fidoyisi bo'lgan minglab murabbiylar suv bilan havoday zarur.

Shu munosabat bilan Xalq ta'limi vazirligi hududlar rahbarlari bilan birgalikda har bir tumanda kamida bittadan mana shunday maktab yaratish choralarini ko'rishi zarur.

Prezidentning har bir hududdagi vakillari, har bir viloyat va tumanning yetakchilari – bu hokimlar. Ma'mun akademiyasining beshigi, Muhammad Xorazmiy yurti bo'lgan Xorazm, Mirzo Ulug'bek kamolga yetgan Samarqand, dunyoga Bobur Mirzoni bergan Andijon, Ahmad Farg'oniy vatani bo'lgan Farg'ona viloyatlarining hokimlari bugun bu oqsoqlik va beparvolik to'g'risida nima deydilar?

O'zingiz rahbarlik qilayotgan viloyatlarda mana shunday namunali maktablar tashkil etish uchun sizlarga olti oy muhlat beramiz.

Albatta, yangi maktablarni qurish, chiroyli qilib jihozlash, bezash mumkin, lekin ularni zamonaviy ma'no-mazmun, ilm-ma'rifat, tarbiya bilan to'ldirish qo'limizdan keladimi?

Bu dolzarb masala ustida hokimlar bilan Vazirlar Mahkamasi, mutasaddi vazirliklar va idoralar rahbarlari birgalikda jiddiy ishlashlari talab etiladi.

Aziz do'stlar!

Biz Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo'yib, uni milliy g'oya darajasiga ko'tarmoqdamiz.

Biz maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo'lg'usi Renessansning to'rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz.

Men ishonaman – hurmatli ota-onalar bu tashabbusni, albatta, qo‘llab-quvvatlab, yangi Renessansning beshinchi halqasi, beshinchi ustuni bo‘ladilar. Va bu ma‘naviy-ma‘rifiy hayotimizdagi eng mustahkam ustun bo‘ladi, desam, o‘ylaymanki, sizlar to‘la qo‘llab-quvvatlaysizlar.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Barchangiz xabardorsiz, bugun yurtimizda bir-biri bilan chambarchas bog‘langan muhim sohalarni, ya‘ni maktabgacha ta‘lim, maktab va oliy ta‘lim tizimlari, ilmiy-tadqiqot muassasalarini rivojlantirish bo‘yicha beqiyos o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Lekin sir emas, maktabgacha ta‘lim sohasi bu boradagi islohotlardan yaqin vaqtgacha chetda qolib keldi.

Aslida, farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo‘g‘in hisoblangan maktabgacha ta‘lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o‘rni va ahamiyatini hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Aynan maktabgacha ta‘lim sohasiga bo‘lgan e‘tibor mamlakatning ertangi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi. Shularni nazarda tutib, biz yurtimizda ilk bor Maktabgacha ta‘lim vazirligini tashkil etdik.

Bugun yirik shaharlarimizdan tortib, chekka tumanlar, qishloq va ovullarimizda yangi-yangi zamonaviy bog‘chalar barpo etilmoqda. Qisqa vaqt, ya‘ni to‘rt yil ichida respublikamizda bog‘chalar soni 3 barobar oshib (5 ming 200 tadan 14 ming 200 taga), bolalarni qamrab olish darajasi 28 foizdan 54 foizga yetgani ana shunday amaliy harakatlarimiz natijasidir.

Sohaga davlat-xususiy sheriklik mexanizmi joriy etilishi tufayli 223 mingdan ortiq o‘ringa ega bo‘lgan 7 ming 400 ta xususiy bog‘cha tashkil qilindi. Bu maqsadlar uchun 1 trillion 850 milliard so‘m imtiyozli kredit mablag‘lari yo‘naltirilib, 20 mingga yaqin yangi ish o‘rni yaratildi.

Ko`rinib turibdiki, dastlabki natijalar yomon emas. Biroq hali bu borada qiladigan ishlarimiz anchagina.

Sohada davlat-xususiy sheriklik tizimini rivojlantirib, nodavlat sektorning ulushini 75 foizga yetkazish, maktabgacha ta'lim qamrovini esa 80 foizdan oshirish zarur.

Bolalar bog'chalari uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning amaldagi tizimi davr talablariga javob bermaydi. Qolaversa, maktabgacha ta'limda zamonaviy o'qitish shakllari, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish masalasi ham dolzarb bo'lib turibdi.

Vazirlar Mahkamasi ikki oy muddatda maktabgacha ta'lim sohasidagi ushbu muhim vazifalar ijrosi yuzasidan hukumat qarorini qabul qilsin.

Muhtaram do'stlar!

Xalqimiz hamisha ustozlarni e'zozlab, ularning hurmat-izzatini joyiga qo'yib kelgan. "Ustoz otangdek ulug'" degan hikmatli naql ham bejiz aytilmagan. Endi ana shu so'zlarni qog'ozda emas, amalda qaror toptiradigan, o'qituvchi-muallimning qadr-qimmatini joyiga qo'yadigan payt keldi.

Men bu gaplarni nima uchun aytayotganimni hammangiz yaxshi tushunib turibsiz, albatta.

Yashirib nima qildik, ko'p yillar davomida o'qituvchiga e'tibor borasida so'zimiz boshqa, ishimiz boshqa bo'lib keldi. Oqibatda soha xodimlari go'yoki keraksiz va himoyasiz qatlamga aylanib qoldi. Maktab o'qituvchilarining asosiy vazifasi bir chetda qolib, ularni o'zlariga mutlaqo aloqasi bo'lmagan ishlarga jalb etish chuqur ildiz oldi. Yanayam ochiqroq aytsak, muallimlarning "xo'jayini" ko'payib ketdi. Bunday nojo'ya ishlar nafaqat ta'lim sifatiga, balki soha xodimlarining o'z kasbiga bo'lgan munosabatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. Qanchadan qancha tajribali o'qituvchilar dili og'rib, sevgan kasbini noiloj tashlab ketganini ham bilamiz.

Mana, yaqin-yaqingacha o'qituvchi-muallimlar, ayrim joylarda o'quvchilar ham, to'rt oylab paxta yig'im-terimi, chopiq va yaganaga chiqarilgani sir emas. Natijada o'qituvchi bir oyda o'rtacha 80 soat dars o'tishi kerak bo'lsa, to'rt oyda 320 soat yo'qotadigan vaziyat vujudga keldi. O'z navbatida, o'quvchi bir oyda 136 soat saboq oladigan bo'lsa, to'rt oyda 544 soat darsni boy berishga majbur bo'ldi.

Agar bu raqamlarni o'n bir yilga ko'paytirsak, bilasizmi, qancha bo'ladi? Bu, axir, yuqori sinf o'quvchilari uchun belgilangan 8,5 ming soatlik o'quv dasturining qariyb 3 ming soati – 30 foizi dalada majburiy mehnatda o'tdi, degani emasmi? Boshqacha aytganda, bola 11 yil o'rniga atigi 7 yil o'qishga majbur bo'ldi.

Yaratganga shukrki, bunday salbiy holatlar endi tarixda qoldi. Hamma sohani o'z egasiga, jumladan, qishloq xo'jaligini ham fermer va klasterlarga topshirayotganimiz tufayli bunga erishmoqdamiz.

Keyingi to'rt yilda maktab o'qituvchilarining oylik maoshi bir yarim barobar ko'paytirildi. Davlat mukofotlari bilan taqdirlanayotgan ustozlar soni oshib boryapti. O'qituvchi tayyorlaydigan hisobotlar, qog'ozbozliklar soni keskin kamaytirildi.

O'zingiz o'ylang, to'rt yil oldin bunday o'zgarishlarni tasavvur qilib bo'larmidi?

Jamiyatda ustoz va murabbiylarga qaratilayotgan e'tibor tufayli qariyb 15 ming nafar erkak o'qituvchi maktablarga qaytdi. Ammo, shuni ta'kidlash kerakki, hali bu borada ko'zlangan natijaga erishganimiz yo'q. Hozirgi kunda ham xalq ta'limidagi pedagoglarning qariyb 70 foizini ayol o'qituvchilar tashkil etmoqda.

Albatta, hammamiz maktab davrini eslaganimizda, ko'z oldimizga, avvalo, talabchan va mehribon sinf rahbarimiz keladi. Nima uchun? Chunki maktabdagi har bir qadamimiz mana shu

aziz va oliyjanob insonlarning doimiy e'tibori va g'amxo'rligida bo'lgan. Hayotga ilk yo'llanmani ham bizga mana shu ustozlarimiz bergan.

Shu sababli biz sinf rahbarlarining mashaqqatli va mas'uliyatli mehnatini munosib rag'batlantirish chorasini ko'ryapmiz. Xususan, 2020-yil 1-oktabrdan boshlab 242 ming nafar sinf rahbari uchun qo'shimcha to'lov miqdori bir yarim barobar oshiriladi. Mazkur maqsadlar uchun yillik 400 milliard so'mdan ziyod qo'shimcha mablag' yo'naltiriladi.

O'rni kelganda aytmoqchimanki, men bugun imzolagan Farmon bilan birinchi marta 14 nafar sinf rahbari davlatimizning orden va medallari bilan taqdirlandi.

O'qituvchilarning doimiy va uzluksiz psixologik ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida Xalq ta'limi vazirligi qoshidagi hududiy malaka oshirish institutlarida sinf rahbarlarini tayyorlash bo'yicha alohida o'quv kurslarini tashkil etish kerak.

Bugungi kunda jamiyatimizda o'qituvchi va murabbiylarning qaddi, sha'ni va g'ururi tiklanayotgani barchamizni quvontiradi.

Ayni vaqtda bu o'ta muhim masala eng dolzarb vazifamiz ekanini alohida ta'kidlab, uni amalga oshirish butun jamiyatimizning burchiga aylanishini istardim.

Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni yechish imkoni tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi.

Hurmatli yig'ilish ishtirokchilari!

Mamlakatimizning kelgusi taraqqiyotini o'ylab, o'qituvchi va muallimlarning hayotimizdagi nufuzi va mavqeyini oshirish maqsadida ularning maqomini qonun darajasida belgilashni tak-

lif qilaman. Ushbu qonunda yoshlarga ta'lim va tarbiya berish jarayonida o'qituvchilar o'zlarining salohiyatini to'liq namoyon etishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ularni ijtimoiy, huquqiy, moddiy qo'llab-quvvatlash choralari kafolatlanishi kerak. Jumladan, maktab direktori, uning o'rinbosari, sinf rahbari, o'qituvchining maqomi aniq belgilanishi lozim.

O'qituvchilarga ustamalar to'lash, ularni rag'batlantirish mezonlari ham to'liq qayta ko'rib chiqilishi zarur. Amalda bu masala o'ta murakkabligi va ortiqcha qog'ozbozlik talab qilishi ham haqiqat. Bunda aksariyat eskirgan qonunosti hujjatlari qayta ko'rib chiqilib, bekor qilinsa, o'ylaymanki, maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'qituvchilarning huquqlari davlat himoyasida bo'lishini, ularning kasbiy faoliyatiga noqonuniy aralashuv, boshqa ishlarga jalb qilish javobgarlikka sabab bo'lishini qat'iy belgilash lozim.

Qonunda, shuningdek, maktab direktoriga qo'yiladigan talablar, uning asosiy vazifalari va faoliyatini baholash mezonlari hamda hisobot berish tartibini belgilash zarur.

Maktab direktori lavozimini tanlov asosida, maktabni kelgusi 5 yilda rivojlantirish bo'yicha eng yaxshi dasturga ega nomzod egallashi kerak. Endi maktab direktori yil yakuni bo'yicha dastur ijrosi haqida mahalliy Kengashda hisobot beradi va uning faoliyatiga xalq vakillari tomonidan ochiq-oydin baho berib boriladi. Maktab direktoriga intizomiy jazo berish va uni lavozimidan ozod etish masalalari ham mahalliy Kengashlar bilan kelishilgan holda amalga oshirilishi zarur.

Parlamentimiz a'zolaridan mahalliy Kengashlarning maktablar bilan ishlash tizimini alohida nazoratga olib, ushbu jarayonlarga yaqindan ko'mak berishlarini so'rayman. Oliy Majlis palatalari (T. Norboyeva, N. Ismoilov) ikki oy muddatda umumta'lim

maktablari bilan ishlashni yanada kuchaytirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kelgusi ikki yil davomida maktablarni moddiy-texnik jihatdan ta'minlash xarajatlarini 2 barobar oshirish, ularni zamonaviy jihozlar va ko'rgazma qurollari bilan to'liq ta'minlash lozim.

Afsuski, bugungi kunda tuman va shahar xalq ta'limi mudirlarining tizimdagi o'rni sezilmayapti. Ularning faoliyati, asosan, xo'jalik ishlarini nazorat qilish va tegishli jazo choralari qo'llashdan iborat bo'lib, ta'lim sifati bilan shug'ullanish ikkinchi darajali masalaga aylanib qolgan. Mazkur rahbarlarning tizimdagi rolini qayta ko'rib chiqish va ularning maqomini oshirishni davrning o'zi talab qilmoqda. Bundan buyon tuman xalq ta'limi bo'limi mudirlari hokimning maorif bo'yicha maslahatchisi sifatida faoliyat olib boradi va bevosita hokimlik binosida o'tiradi. Shunga mos ravishda ularga zarur vakolatlar beriladi.

Bundan tashqari, ta'lim sohasini rivojlantirish maqsadida tuman va shaharlarda alohida jamg'arma tashkil etsak, nima deysizlar?

Jamg'arma mablag'lari ilg'or va namunali maktab rahbarlari hamda xalq ta'limi bo'limlari metodistlarini rag'batlantirishga yo'naltiriladi.

Vazirlar Mahkamasi (J. Qo'chqorov), Moliya vazirligi (T. Ishmetov) bir oy muddatda ushbu jamg'armani tashkil etish va uning moliyaviy manbalarini shakllantirish bo'yicha qaror loyihasini tayyorlasin.

Qadrli do'stlar!

Keyingi vaqtda mamlakatimizda maktab ta'limi umummilliy harakatga aylanib, soha rivojida yangi davr boshlanganidan xabardorsiz. Ana shu harakatning amaliy ifodasi sifatida so'nggi ikki yilda 556 milliard so'm mablag' hisobidan 77 ta yangi mak-

tab qurildi. 1 ming 930 ta maktabda qayta qurish va ta'mirlash ishlari bajarildi.

Ayni paytgacha mavjud bo'lgan qishloq maktablaridagi "Qo'lbola pechka"lar ham to'liq almashtirilmoqda. Yuzlab maktablarda elektr energiyasi, toza ichimlik suvi ta'minoti, isitish tizimi yaxshilandi, oshxona, sport zallari va boshqa zarur binolar barpo etildi. 6 mingga yaqin maktab yuqori tezlikdagi internetga ulandi.

Shu bilan birga, xususiy ta'lim tizimiga keng yo'l ochilmoqda. Bu borada litsenziya olish tartibi soddalashtirildi. O'tgan uch yil davomida ularning soni 6 marta oshib, 140 taga yetgani diqqatga sazovordir.

Mutlaqo yangicha mazmun va shaklga ega bo'lgan Prezident maktablari hamda ijod maktablari bo'yicha ishlar faol davom ettirilmoqda.

Matematika hamda kimyo-biologiya fanlarini rivojlantirish bo'yicha qarorlar qabul qildik. Ularga asosan har bir tuman va shaharda ana shu fanlarga ixtisoslashgan maktablar bosqichma-bosqich tashkil etiladi. Shu yilning o'zida matematika yo'nalishida 56 ta, kimyo-biologiya yo'nalishida 27 ta maktab tashkil etilgani bu ishlarning boshlanishidir.

Matematika, kimyo, biologiya, axborot tizimlari va informatika fanlari bo'yicha sertifikat tizimini joriy etishni boshladik. O'rta ta'lim tizimida iqtidorli o'quvchilar va o'qituvchilar bilimni baholash tizimini kengaytirish maqsadida boshqa asosiy fanlar bo'yicha ham sertifikat tizimini joriy etish zarur.

Xabaringiz bor, poytaxtimizda Muhammad Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga ixtisoslashgan yangi maktab ochdik. Ayni paytda farzandlarimizning IT-texnologiyalarga qiziqishini yanada oshirish va ularning yetuk mutaxassis bo'lib yetishishi uchun sharoit yaratish maqsadida

joriy yilda – 14 ta, kelgusi yilda – 82 ta, 2022-yilda – 64 ta, 2023-yilda – 45 ta axborot texnologiyasiga ixtisoslashgan maktablar tashkil etiladi va barcha tuman va shaharlar qamrab olinadi.

O'qituvchilar ishini yengillashtirish va ularning salohiyatidan oqilona foydalanish uchun kelgusi yilda ta'limni raqamlashtirish ishlarini yakunlab, "Onlayn maktab", "Raqamli va xavfsiz maktab", "Elektron darslik", "Elektron kundalik" kabi tizimlar joriy etiladi. 2020-yil oxirigacha maktablarni keng polosali internet tarmog'iga ulash darajasi 70 foizga yetkaziladi.

Kelgusida barcha maktablar 100 foiz internet bilan ta'minlanadi va buning uchun Davlat budjeti mablag'lari yo'naltiriladi.

Biz xalqaro fan olimpiadalari g'oliblari va ularning o'qituvchilarini rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'ydik. Ilgari olimpiadada oltin yoki kumush medal olsa, sovrindor o'quvchiga ham, uni tayyorlagan o'qituvchiga ham nari borsa bitta faxriy yorliq berilardi. Hozir ular millionlab pul mukofoti bilan taqdirlanmoqda.

Bu rag'batlantirish tizimi amalda ijobiy natija bera boshlaganini alohida ta'kidlamoqchiman. Pandemiya sharoitiga qaramasdan, o'quvchi-yoshlarimiz xalqaro fan olimpiadalarida faol ishtirok etib, yuqori o'rinlarni egallayotgani barchamizni quvontiradi.

Xususan, bu yil 28 nafar iqtidorli o'g'il-qizimiz ana shunday olimpiadalarda 2 ta oltin, 8 ta kumush, 15 ta bronza medal hamda 3 ta diplomni qo'lga kiritgani alohida e'tiborga loyiq.

Ushbu yo'nalishdagi ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarish maqsadida, Xalq ta'limi vazirligi qoshidagi Fan olimpiadalari bo'yicha iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash departamenti faoliyatini kuchaytirish, vazirning birinchi o'rinbosarini bu masala bo'yicha bevosita mas'ul etib belgilash lozim.

Biz keyingi paytda ta'lim sohasida mutlaqo yangi tizim yaratish maqsadida tashkil etishni boshlagan Prezident va ijod maktablari zimmasiga barcha umumta'lim maktablari uchun o'rnak va andoza bo'lish vazifasi yuklatilgan. Afsuski, Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligining (S. Boboxo'jayev) bu boradagi jonbozligi va tashabbuskorligi hali-hanuz sezilmayapti.

Ayni vaqtda, ko'zlagan maqsadlarimizga erishish uchun maktabning ham mas'uliyatini oshiradigan vaqt keldi. Bu – davr talabi. “Qars ikki qo'ldan chiqadi”, deydi xalqimiz.

Bugun shiddat bilan rivojlanayotgan zamon har birimizdan doimo izlanib, tashabbus ko'rsatib, yangicha ishlashni talab etmoqda.

Bir o'ylab ko'raylik, nega qanchadan qancha maktablarda bitiruvchilarning 10 foizi ham oliygohlarga kira olmayapti? Otonalar repetitor yollab, pul to'lab bolalarini o'qishga tayyorlashga majbur bo'lyapti.

Savol tug'iladi: nima uchun aksariyat maktablarimiz 11 yil o'qitgan o'quvchilar oliygohga kira olmayapti-yu, repetitor 2 yilda bunga erishyapti?

Bu savollar har bir maktab o'qituvchisi, jamoasi va direktorini, har qaysi vijdonli pedagogni o'ylantirishi zarur, deb o'ylayman.

Endi maktab jamoatchilik oldida hisobot beradigan bo'ladi. Maktabni bitirgan o'quvchi oliygohga kirishi kerak yoki maktab davridayoq biror-bir kasb-hunarga ega bo'lishi shart. Aynan shu mezon asosida maktab jamoasi va direktori faoliyatiga baho beriladi.

Bugun har bir o'qituvchi va tarbiyachi, oliygoh domlasi ta'lim va ilm-fan sohasidagi eng so'nggi ijobiy yangiliklarni o'quv jarayonlariga tatbiq eta oladigan, chuqur bilim va

dunyoqarash egasi, bir soʻz bilan aytganda, zamonamiz va jamiyatimizning eng ilgʻor vakillari boʻlishlari kerak.

Bunday ustozlar qoʻlida taʼlim olgan farzandlarimiz biz orzu qilgan Oʻzbekistonning yorugʻ kelajagini bunyod etishga qodir avlod boʻlib kamol topadi. Lekin bu yuksak natijalarga erishish uchun taʼlim tizimidagi mavjud muammolarni hal qilishimiz lozim.

Bugun aniq va tabiiy fanlarni oʻqitish metodikasi murakkab tuzilgani, ularda nazariy bilimlar amaliyot bilan bogʻlanmagani, oʻquv dasturlarida uzviylik yoʻqligi, darsliklarning mazmuni va sifati qoniqarsiz ekani haqli eʼtirozlarga sabab boʻlmoqda. Amaldagi taʼlim standartlari hamda oʻquv dasturlari, asosan, oʻquvchini taʼlimning navbatdagi bosqichiga tayyorlashga yoʻnaltirilgan boʻlib, ularni erkin fikrlash va mustaqil hayotga tayyorlash masalasi eʼtibordan chetda qolmoqda. Bunday holatlarga barham berish uchun, xorijiy ekspertlar va tajribali oʻqituvchilarni keng jalb qilgan holda, umumiy taʼlimning Milliy oʻquv dasturi loyihasini ishlab chiqish va joriy oʻquv yili davomida uni ilmiy tadqiqot va taʼlim muassasalarida sinovdan oʻtkazish lozim.

Shuningdek, umumtaʼlim maktablarida darslik va oʻquv-metodik majmualarni tajriba-sinovdan hamda chet ellik mutaxassislar ishtirokida ekspertizadan oʻtkazish tizimi mavjud emas. Maktab darsliklarini yaratish va chop etishni tartibga solish masalasi ham dolzarb boʻlib qolmoqda.

Shu sababli Respublika taʼlim markazi faoliyati zamonaviy talablar asosida tubdan qayta koʻrib chiqilib, takomillashtirilishi kerak. Ushbu markazning faoliyati Vazirlar Mahkamasida Bosh vazir oʻrinbosari B. Musayev tomonidan shaxsan muvofiqlashtirishi va nazoratga olinishi zarur.

Boshlangʻich sinflardan boshlab farzandlarimizning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash, kelgusida ularni ixtisoslashgan sinf-

larda o'qitishni davom ettirish tizimini joriy etish lozim. Buning uchun Xalq ta'limi vazirligi, Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi navbatdagi o'quv yilidan boshlab 4-sinf bitiruvchilarini fanlar bo'yicha saralash va yo'naltirish tartibini amaliyotga kiritishi kerak.

Hozirgi paytda umumta'lim muassasalarining oliy ma'lumotli pedagog kadrlar bilan ta'minlanish darajasi 87 foizni tashkil etadi. Ko'plab maktablar, ayniqsa, chekka hududlardagi ta'lim maskanlarida bir qator fanlar bo'yicha malakali o'qituvchilar yetishmayapti. Shu munosabat bilan pedagog kadrlar tayyorlash masalasi hamisha e'tiborimiz markazida turishi zarur.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri rahbarlari o'z hududidagi pedagog kadrlar tayyorlaydigan universitet va institutlar bilan jiddiy ishlashi kerak. Ushbu oliy ta'lim dargohlarining professor-o'qituvchilariga ipoteka va iste'mol kreditlari ajratish, ularning sog'lig'ini mustahkamlash, sanatoriy va kurortlarda davolanishini tashkil etish masalalari shaxsan hudud rahbarining nazoratida turishi lozim. Chunki, e'tibor qaratadigan bo'lsak, joylardagi hamma mutaxassisning — fermer yoki injenerni olasizmi, boshqa kasb vakillarini olasizmi, hammasiga e'tibor va g'amxo'rlik qiladigan tashkilotlar bor. Faqat o'qituvchining, o'qituvchi tayyorlaydigan institutlarning, ta'bir joiz bo'lsa, joylarda "egasi" yo'q.

Takror aytaman, endi bu masala bilan shaxsan hokimlar shug'ullanadi.

Bugungi tez o'zgarayotgan zamonda, barcha sohalarda xodimlarning bilim va malakasini muntazam oshirib borish hal qiluvchi masalaga aylangan bir paytda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi bu talablardan orqada qolmoqda.

Xalq ta'limi vazirligining Abdulla Avloniy nomidagi Xalq ta'limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti bor. Ming afsuski, bu institutning ismi jismiga mos emas. Ulug' ma'rifatparvar ilgari surgan va muvaffaqiyatli amalga oshirgan g'oyalar, zamonaviy ta'lim metodikasini ishlab chiqish masalalari institut faoliyatida o'zining amaliy ifodasini topa olmayotganini aytishga majburmiz.

Shu munosabat bilan maktab direktorlari va o'qituvchilarining malakasini oshirish tizimini tanqidiy ko'rib chiqish zarur. Bu borada Abdulla Avloniy nomidagi institut faoliyatini tubdan qayta tashkil etish talab etiladi.

Mazkur ta'lim dargohi hududlardagi universitetlar va pedagogika institutlari bilan birgalikda tuman xalq ta'limi bo'limi mudirlari va maktab direktorlarining malakasini oshirish, o'qitishning zamonaviy metodikalarini yaratish, masofaviy ta'lim berish masalalariga alohida e'tibor qaratishi kerak.

Sohada raqobatni ta'minlash maqsadida nodavlat ta'lim tashkilotlarini ham malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimiga jalb qilish vaqti keldi. Bu jarayonda o'qitish xarajatlarini qoplash uchun Davlat budjetidan mablag' yo'naltiriladi.

O'mak ko'rsatgan o'qituvchilar uchun majburiy malaka oshirish talablarini bekor qilish, ularning faoliyatini bevosita o'quvchilari olgan bilim darajasi bilan baholashni nazarda tutish lozim. O'quvchilari xalqaro fan olimpiadalarida g'olib bo'lgan pedagoglarga oliy malaka toifasi to'g'ridan to'g'ri taqdim etilishi kerak.

Endilikda xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashning yangi tizimi joriy etiladi. Ya'ni o'qituvchilar bevosita malaka oshirish markazlariga bormasdan, masofadan turib o'z kasbiy ko'nikmalarini doimiy rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bundan tashqari, ta'lim sifati-

ni oshirishga ko'maklashadigan va o'qituvchilarning doimiy kasbiy rivojlanishiga amaliy yordam ko'rsatadigan ustoz-shogird tizimi tashkil qilinadi va ularning mehnati munosib rag'batlantiriladi.

Maktablarda informatika, kimyo, xorijiy tillar kabi fanlar bo'yicha o'qituvchilar yetishmovchiligini bartaraf etish maqsadida pedagogik bo'lmagan yo'nalishlar bo'yicha oliy ta'lim olayotgan yoshlar uchun qisqa muddatli pedagogik kurslar tashkil qilinadi.

Muallim va o'qituvchilarning bilimi va malakasini oshirish haqida gapirganda, bugun jamiyatimizda dolzarb bo'lib turgan yana bir masalaga to'xtalib o'tish zarur, deb o'ylayman.

Ayting-chi, o'qituvchi o'z ustida ishlashi, bilim va mahoratini oshirishi uchun qo'shimcha metodik yordamni qayerdan oladi? Albatta, shu sohaga oid kitob va qo'llanmalardan, maxsus pedagogik nashrlardan oladi.

Afsuski, biz keyingi yillarda "majburiy obuna" bahonasida ixtiyoriy obunani ham yo'q qildik. Buning natijasida maktab va oliygohlarning o'qituvchi va domlari o'zlari uchun zarur bo'lgan gazeta va jurnallardan ajralib qoldi. Shunday ayanchli holga keldikki, hatto ayrim rahbarlar gazeta o'qimasligi bilan maqtanadigan bo'ldilar.

O'zingiz bilasiz, dunyoda kompyuter texnologiyalari eng rivojlangan davlatlardan biri bu – Yaponiyadir. Lekin ushbu mamlakatda kuniga 3–4 million nusxada nashr etiladigan gazetalar borligiga nima deysiz? Aytmoqchimanki, hayotimizda radio-televideniye, internet bilan birga bosma nashrlarning ham o'z o'rnini bor.

Bugungi kunda bosma nashrlarni ta'lim muassasalariga, o'qituvchi-professorlarga yetkazib berish ham jiddiy muammoga aylangan. Chunki bu borada matbuot tarqatish va pochta tizimining faoliyati mutlaqo talabga javob bermaydi.

Shu munosabat bilan Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda bosma matbuot nashrlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, xususan, maktab va oliygohlarni pedagogik faoliyat uchun zarur nashrlar bilan ta'minlash, ularning kutubxonalarini o'quv va badiiy adabiyotlar bilan to'ldirish chora-tadbirlarini ishlab chiqsin va amalga oshirsin.

O'quvchilarning qobiliyatini yuzaga chiqarish, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan besh muhim tashabbus doirasida ham ijobiy ishlar olib borilmoqda. Bu boradagi amaliy harakatlarni davom ettirish, ayniqsa, musiqa va san'at, axborot texnologiyalari va sport to'garaklari faoliyatini yanada rivojlantirish, ularni zarur vosita va jihozlar bilan to'liq ta'minlash alohida diqqat markazida bo'lmog'i lozim.

Hammamizga ayonki, bugungi murakkab globallashuv davrida jamiyatimizda milliy g'oya va mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, yoshlarimizni turli zararli g'oya va tahdidlardan asrash, ularni o'z mustaqil fikriga ega, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalash har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli biz birinchi marta umumta'lim maktablarida "Tarbiya" fanini joriy etmoqdamiz.

Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning asriy qadriyatlarimiz asosida yaratgan "Turkiy "Guliston" yoxud axloq" asari sharqona tarbiyaning noyob qo'llanmasi sifatida bugungi kunda ham o'zining qadri va ahamiyatini yo'qotgan emas. Biz "Tarbiya" fanining nazariy asoslarini ishlab chiqishda mana shunday bebaho asarlardan samarali foydalanishimiz zarur.

Xabaringiz bor, bir yil oldin o'tkazilgan selektor yig'ilishida xalq ta'limini rivojlantirishni umummilliy maqsad, umumxalq harakati sifatida belgilab olgan edik. Ushbu harakat doirasida barcha pog'onadagi rahbarlar va ularning o'rinbosarlari maktablarni otaliqqa olgan edi. Shundan so'ng hokimlarimiz "urra-urra-

chilik” bilan bir muddat maktabga kirgandek bo’ldi, buni “oynayi jahon”da namoyish ham qildi. Lekin shu bilan tamom – maktab esimizdan chiqdi.

Takror aytaman, bugun maktabga kirmagan, maktabning, yosh avlodning dard-u tashvishlari bilan yashamagan rahbarni ertaga hayotning o’zi qabul qilmaydi.

Hozirgi vaqtda qishloq xo’jaligi sohasida ham institutsional islohotlar olib borilmoqda. Endi hokimlar ish vaqtining faqat 10–15 foizini qishloq xo’jaligi sohasiga sarflaydigan sharoit vujudga kelmoqda. Qolgan vaqtda ular ijtimoiy masalalar, avvalo, ta’lim-tarbiya, ma’naviyat bilan bevosita shug’ullanishlari lozim.

Mana, har bir hokim yoki uning o’rinbosarlari hamma fermerlarni nomma-nom biladi. Lekin maktab direktorlarini, ilg’or sinf rahbarlarini, faol o’qituvchilarni-chi? Bugun bu borada qaysi hokimni ibrat, namuna qilib ko’rsata olamiz? Afsuski, javob yo’q.

Shundan kelib chiqqan holda, har bir viloyat, tuman va shahar hokimi haftada bir kunni, albatta, maktabga bag’ishlashi kerak.

Maktab muammosiga birinchi darajali masala deb qarashimiz lozim. Maktab – faqatgina ta’lim beradigan maskan emas, barchamiz uchun yuksak ma’naviyat beshigiga, farzandlarimizni bolalikdan boshlab kasbga o’rgatuvchi dargohga aylanishi zarur.

Joriy o’quv yilidan boshlab professional ta’lim tizimida yangi shakldagi muassasalar tarmog’i yo’lga qo’yilayotganidan barchangiz xabardorsiz. Jumladan, xalqaro standartlarga mos 725 ta professional ta’lim muassasasi – kasb-hunar maktabi, kollej va texnikumlar yaqin kunlarda o’z faoliyatini boshlaydi. Ularda 200 mingdan ortiq o’quvchilar bugungi talablarga javob beradigan o’quv dasturlari asosida ta’lim oladi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi xalqaro mehnat bozori talablariga javob beradigan kadrlarni tayyorlash, professional ta'limning mazmuni va sifatini oshirish dasturini ishlab chiqsin. Hududlarning rahbarlari esa bitirib chiqayotgan yosh mutaxassislarni munosib ish bilan ta'minlash haqida bosh qotirishi zarur.

Qadrli yurtdoshlar!

Bugungi kunda jahondagi nufuzli oliy ta'lim muassasalari ilm-fanning yirik o'choqlari hisoblanishi hech kimga sir emas. Shuni hisobga olib, biz mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida tub islohotlarni amalga oshiryapmiz. Yangi-yangi oliy o'quv yurtlari, dunyodagi yetakchi universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda.

Misol uchun, so'nggi 4 yilda mamlakatimizda 47 ta yangi oliy ta'lim muassasasi, jumladan, xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilib, oliy o'quv yurtlarining soni 125 taga yetdi.

Davlat-xususiy sheriklik tizimi asosida nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyati yo'lga qo'yilmoqda. Aholi fikrini o'rgangan holda, sirtqi va kechki ta'lim shakllarini qayta tikladik, qabul kvotalari oshirilmoqda. Maktab bitiruvchilarini oliy ta'limga qamrab olish darajasi 2016-yilgi 9 foizdan 2020-yilda 25 foizga yetgan bo'lsa-da, biz bu ishlarni yanada kengaytirishimiz zarur.

Professor-o'qituvchilarning xorijdagi oliy ta'lim hamda ilmiy tadqiqot maskanlarida malaka oshirishi va stajirovka o'tashini ta'minlaydigan mexanizm yaratildi. Ularning oylik ish haqi miqdori 2018-yilga nisbatan o'rtacha 2,5 barobar oshirildi. Bu yildan boshlab 10 ta oliy ta'lim muassasasi o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazildi.

Ayni paytda oliy ta'lim sohasida bir qator muammolar saqlanib qolayotganini ta'kidlash lozim. Bu muammolar nimalardan iborat? Ularni hal etish uchun qanday tadbirlarni amalga oshirishimiz kerak?

Avvalo, sohada davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, ayniqsa, hududlarda nodavlat oliy o'quv yurtlarini tashkil etish sekin bormoqda. Mana, Farg'onada Koreya bilan, Xorazmda Malayziya bilan hamkorlikda oliy o'quv yurtlari tashkil etilyapti. Lekin nima uchun boshqa viloyatlarda bunday harakatlar sezilmayapti?

Aksariyat bitiruvchilarning bilim va malakasi mehnat bozori talablariga javob bermayotganini ham tan olishimiz kerak. Mahalliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyat hamda tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish darajasi juda past. Tizimda ilmiy darajali o'qituvchilar ulushi o'rtacha 37 foiz ekani bizni qoniqtirmaydi. Hududlarda bu ko'rsatkich yanayam past darajada saqlanib qolmoqda.

Oliy ta'lim maskanlarini ilmiy laboratoriyalar bilan jihozlash, tizimda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash darajasi ham past ekanini qayd etish lozim.

Sir emas, bugungi pandemiya juda ko'p sohalar qatorida sog'liqni saqlashning ilm-fan yo'nalishida ham hali bilimlarimiz zaif ekanini ko'rsatib qo'ydi. Barchamiz bundan jiddiy xulosa qilishimiz kerak.

Oliy ta'lim tizimining vazifasi faqat talabalarga dars berishdan iborat emas. Universitet va institutlarimiz ilm-fan sohasida ham faol ishlashi, yoshlarni ilmiy ishlarga, katta-katta loyihalarga jalb etishi kerak. Ushbu muassasalarda ilmiy tadqiqot ishlarini yanada rivojlantirish maqsadida ilmiy-texnik dasturlar doirasida amalga oshiriladigan loyihalar ko'lamini 3 barobar kengaytirish, doktoranturaga qabul kvotalarini 4 marta ko'paytirish zarur.

Bugun "raqamli iqtisodiyot" degan tushuncha dunyoda eng dolzarb masalaga aylanganini barchamiz ko'rib turibmiz. Ayni paytda axborot texnologiyalari sohasida chuqur bilim va malakaga ega bo'lgan, ulardan unumli foydalana oladigan zamonaviy mutaxassislar milliy iqtisodiyotimiz uchun nihoyatda zarur. Bar-

chamiz bu masalani chuqur anglagan holda, shu maqsadga erishish uchun jiddiy harakat qilishimiz shart. Bu ishga bugun kirishmasak, ertaga kech bo'ladi.

Vazirlar Mahkamasi ushbu ustuvor vazifalar ijrosi yuzasidan alohida dastur ishlab chiqishi zarur.

Muhtaram do'stlar!

Yodingizda bo'lsa, davlat rahbari sifatidagi mening birinchi uchrashuvim 2016-yil 30-dekabrda mamlakatimiz akademiklari bilan bo'lib o'tgan edi. Bu paytda Fanlar akademiyasi muammolar girdobiga botib qolgan, unga oxirgi saylovlar 1995-yilda o'tkazilgan edi. Oqibatda o'tgan davr mobaynida akademiklarning soni 2 barobar qisqarib, 63 nafar akademik qolgan edi, xolos.

Biz akademiyani, ta'bir joiz bo'lsa, reanimatsiya holatidan chiqarib, sog'lom, to'laqonli faoliyatga qaytarish uchun zarur amaliy choralarni ko'rdik. 32 nafar yangi akademik saylandi. Fanlar akademiyasining faoliyatini Davlat budjetidan moliyalashtirish tizimi yo'lga qo'yildi. Bir qator ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlar faoliyati qayta tiklandi. Jumladan, 40 ta ilmiy laboratoriya zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlandi. Ushbu maqsadlar uchun birgina Fanlar akademiyasining institutlariga qariyb 300 milliard so'm mablag' yo'naltirildi.

Biz jamiyatimizda ilm-fanning qadrini keskin oshirish, olimlar va tadqiqotchilar uchun sharoit va imkoniyatlarni kengaytirish yo'lida jiddiy harakat qilyapmiz. Ayni paytda ta'kidlash lozimki, o'sha uchrashuvda bildirilgan aksariyat vazifa va topshiriqlar bugun ham dolzarb bo'lib, ularni to'laqonli amalga oshirish uchun barchamiz mas'ulmiz.

Fanlar akademiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi bir oy muddatda O'zbekistonda ilm-fan sohalarini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi loyihasini kiritsin.

Shaxsan men jonkuyar olimlarimiz buyuk ajdodlarimizning ilmiy an'analarini munosib davom ettirgan holda, ilm-fanni taraqqiyotimizning drayveriga aylantirib, mamlakat rivojiga xizmat qiladigan muhim kashfiyotlar yaratishlariga ishonaman.

Qadrli vatandoshlar!

Barchamiz yaxshi bilamizki, insonning ongi va dunyoqarashi, fikri o'zgarmasa, jamiyat o'zgarmaydi. Jamiyat o'zgarmagan joyda hech qanday ijobiy natija ham, taraqqiyot ham bo'lmaydi. Odamlarning ong-u tafakkurini o'zgartiruvchi kuch esa, hech shubhasiz, avvalo, o'qituvchi-murabbiylar, oliygoh domlalari, ilm-fan arboblari, madaniyat va san'at, adabiyot namoyandalaridir.

Bugun biz yashayotgan jamiyatga yangi fikr, yangi g'oya, eng muhimi, islohotlarni amalga oshirishga qodir bo'lgan yangi avlod kadrlari kerak. Albatta, xalqimizning mardona mehnati, o'qituvchi va murabbiylarning jonbozligi tufayli ta'lim sohasini tubdan modernizatsiya qilish bo'yicha ko'p ish qildik. Lekin hammamiz yaxshi tushunamizki, bular – katta maqsad yo'lida tashlangan dastlabki qadamlar, xolos.

Barchangiz guvohsiz, bugun zamon shiddat bilan o'zgarib, barcha sohalar qatori ta'lim tizimi oldiga ham o'ta dolzarb va murakkab vazifalarni qo'ymoqda. Biz dunyo miqyosidagi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta'lim tizimini yaratishimiz zarur. Shu maqsadda, avvalo, ta'lim maskanlarining moddiy-texnik bazasini, kadrlar salohiyatini mustahkamlash, darsliklar va o'quv qo'llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, o'quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish, soha xodimlarining ish haqini bosqichma-bosqich oshirib borish, ularning mashaqqatli mehnatini munosib qadrlash bundan buyon ham doimiy e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Bugun men, avvalo, ta'lim-tarbiya sohasi fidoyilariga, barcha yurtdoshlarimizga murojaat qilib aytmoqchiman: **aziz do'stlar,**

birodarlar, agar intilsak, astoydil harakat qilsak, har qanday baland marrani egallash qo'limizdan keladi. Biz ma'rifat borasida, ta'bir joiz bo'lsa, "iligi to'q" xalqmiz. Ilm-fanga intilish bizning qonimizda, bugungi til bilan aytganda, genimizda bor.

Hammamiz yaxshi tushunamiz, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish – besh-o'n yilda bo'ladigan ish emas. Buning uchun, avvalo, yuzlab, minglab iste'dodli kadrlar, fidoyi shaxslar kerak.

Biz Xudo bergan iste'dodga parvarish zarurligini, agar o'z vaqtida sharoit yaratib berilmasa, har qanday iqtidor ham so'nib qolishi mumkinligini yaxshi anglaymiz.

Mana, Temuriylar davrini eslaylik, G'aznaviylar, Xorazmshohlar, Navoiylar zamonini yodga olaylik. Agar davlat tomonidan e'tibor va homiylik bo'lmasa, ijodiy muhit yaratib berilmasa, ulug' allomalarimizning salohiyati bu darajada yorqin namoyon bo'lmas edi.

Bugun davlatimiz tomonidan ilm-fan, ta'lim va tarbiya, madaniyatni rivojlantirish uchun qancha kuch, qancha mablag' kerak bo'lsa, hammasini topamiz. Qanday imkoniyat zarur bo'lsa – yaratamiz. Ba'zi odamlar, pandemiya davrida shu gaplar zarurmi, deb o'ylashi ham mumkin. Bunday tor qarash bilan yashaydigan kishilar yanglishadi. Xudo xohlasa, koronavirus pandemiyasi ham ertami-kechmi, albatta, tarixga aylanadi.

Bu kasallik boshlangan mart oyidayoq biz ushbu og'ir sinovdan munosib holda, yanada kuchli bo'lib o'tishimiz kerak, deb o'z oldimizga ulkan vazifa qo'ygan edik. Bugun ana shu maqsadlarimiz asta-sekin amalga oshmoqda. Biz barchamiz ulug' ajdodlarimizdan ibrat olib, ularga munosib bo'lib, doimo ezgu orzu-intilishlar bilan yashashimiz kerak.

Bugungi fursatdan foydalanib, men yil boshida Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomadagi bir fikrga e'tiboringizni qarataishni o'rinli, deb bilaman. Ya'ni: "Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir".

Chindan ham, bugun biz ulug' niyatlar bilan poydevor qo'yayotgan yangi Uyg'onish davri mamlakatimizda mana shunday ulkan boylik yaratishga, xalqimizning hayotini farovon qilishga va kelgusi avlodlarga o'zimizdan munosib meros qoldirishga xizmat qiladi.

Ishonamanki, o'z tarixida ne-ne buyuk ishlarni sharaf bilan amalga oshirgan xalqimizning intellektual va ma'naviy salohiyati, kuch-qudrati va oliyjanob fazilatlariga tayanib, o'z oldimizga qo'ygan ulug' va ezgu maqsadlarimizga, albatta, erishamiz.

Aziz muallimlar, muhtaram domlalar!

Men yangi O'zbekistonni – obod va farovon, demokratik mamlakatni barpo etishda siz, muhtaram pedagoglarni, professor-o'qituvchilarni o'zim uchun eng katta kuch, tayanch va suyanch, deb bilaman. Sizlarning hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan faoliyatingizni qo'llab-quvvatlash, sizlar uchun munosib mehnat va turmush sharoiti yaratib berishni Prezident sifatida o'zimning muqaddas burchim, deb hisoblayman.

Sizlarni qutlug' bayramingiz bilan yana bir bor chin yurakdan tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, baxt-u saodat, mas'uliyatli va sharafli faoliyatingizda muvaffaqiyatlar, xonadonlaringizga fayz-u baraka tilayman.

Doimo farzandlaringiz, shogirdlaringiz, el-u yurtimiz hurmati va ardog'ida bo'lish baxti nasib etsin, aziz ustozlar!

E'tiboringiz uchun rahmat.

*O'qituvchi va murabbiylar kuniga
bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutq
2020-yil 30-sentabr*

O'ZBEK TILI BAYRAMI MUNOSABATI BILAN O'ZBEKISTON XALQIGA TABRIK

Muhtaram vatandoshlar!

Siz azizlarni, sizlar orqali butun xalqimizni bugungi qutlug' ayyom – O'zbek tili bayrami bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

1989-yil 21-oktabrda, g'oyat murakkab ijtimoiy-siyosiy sharoitda yurtimizda "Davlat tili haqida"gi qonunning qabul qilinishi milliy mustaqillik sari qo'yilgan muhim qadam bo'lganini barchamiz yaxshi eslaymiz.

Jamoatchiligimiz, xalqimizning xohish-istaklarini inobatga olib, o'tgan yili ushbu tarixiy sanani O'zbek tili bayrami kuni sifatida belgilash to'g'risida qonun qabul qilganimizdan ham-mangiz xabardorsiz. Bugun mamlakatimizda birinchi marta keng nishonlanayotgan ana shu bayram ma'naviy hayotimizdan mustahkam va munosib o'rin oladi, deb ishonaman.

Hurmatli yurtdoshlar!

Bugungi kunda biz yangi O'zbekistonni, yangi Renessans poydevorini barpo etishdek ezgu maqsadlarimizga erishishda, hech shubhasiz, ona tilimizning hayotbaxsh qudratiga tayanamiz.

Chunki necha asrlar osha ajdodlarimizdan bizga bezavol o'tib kelayotgan ona tilimizning ravnaqi va istiqboli haqida qayg'urish – bu millatning o'zligini anglashi, uning ma'naviy kamolotini yuksaltirish uchun kurash demakdir. Davlat tilining obro'-e'tibori – butun xalq, butun jamiyatning obro'-e'tiboridir.

Hozirgi vaqtda Yer yuzida o'zbek tilida so'zlashuvchilar soni qariyb 50 million kishini tashkil etishi uning dunyodagi yirik tillardan biriga aylanib borayotganidan dalolat beradi.

Ayni vaqtda yurtimizda istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlarning madaniyati va urf-odatlarini, xususan, ularning ona tillarini rivojlantirish uchun ham zarur sharoitlar yaratilmoqda. Turli hududlarda tashkil etilgan 140 ga yaqin milliy madaniyat markazlari ana shu maqsadlarga xizmat qilmoqda. Ko'plab ta'lim-tarbiya maskanlari, ommaviy axborot vositalari o'zbek tili bilan birga, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman tillarida faoliyat ko'rsatmoqda. Xorijiy tillarga ixtisoslashgan hamda ta'lim chet tillarda olib boriladigan ta'lim muassasalari soni oshib bormoqda.

Bugungi kunda xorijiy davlatlardagi 65 ta oliy o'quv yurtida o'zbek tili va adabiyoti o'rganilmoqda, ushbu sohada ilmiy izlanish va tadqiqotlar olib borayotgan chet ellik olimlar safi tobora kengaymoqda.

Kuni kecha Afg'oniston Islom Respublikasida O'zbek tili kuniga bag'ishlangan bayram tadbirlari birinchi marta davlat miqyosida nishonlanganini mamlakatimiz jamoatchiligi, butun o'zbek xalqi katta mamnuniyat va xursandchilik bilan olqishladi.

Fursatdan foydalanib, qardosh Afg'oniston davlati rahbariyatiga o'zbek tiliga rasmiy til maqomini berib, unga ko'rsatayotgan yuksak e'tibor va hurmati uchun yana bir bor chin dildan minnatdorlik bildiraman. Bu ko'hna zaminda yashayotgan barcha millatdoshlarimizni bugungi qutlug' bayram bilan el-yurtimiz nomidan samimiy muborakbod etaman.

Muhtaram yurtdoshlar!

Mamlakatimizda o'zbek tilini zamon talablari asosida rivojlantirish, uning davlat tili sifatidagi o'zni va nufuzini yanada

mustahkamlash borasida oldimizda katta va mas'uliyatli vazifalar turibdi.

Shu maqsadda "Davlat tili haqida"gi qonun loyihasining yangi tahriri hamda shu munosabat bilan ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqidagi qonun loyihalari tayyorlanib, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga ko'rib chiqish uchun kiritildi.

Xabaringiz bor, kuni kecha "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmoni imzolandi.

Farmonga muvofiq, o'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash, O'zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o'zbek tilini o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalish va istiqboldagi vazifalar belgilab berildi.

Farmon ijrosini ta'minlash uchun davlat boshqaruvi, zamonaviy va innovatsion texnologiyalar, sanoat, bank-moliya tizimi, huquqshunoslik, diplomatiya, tibbiyot sohalarida, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar va harbiy muassasalar faoliyatida to'liq davlat tilida ish yuritish bo'yicha boshlagan ishlarimizni kuchaytirishimiz kerak.

Hozirgi kunda mamlakatimizda yashayotgan, O'zbekistonimizni yagona va ahil oila deb biladigan turli millat va elatlar vakillari ham o'zbek tilini o'rganishga katta qiziqish va istak bildirayotganlari ayniqsa e'tiborlidir.

Shu munosabat bilan bu borada motivatsiya omillarini kuchaytirish, maxsus darslik, lug'at va qo'llanmalar, video va

audiomateriallar, zamonaviy o'qitish uslublarini keng joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Bugungi globallashtirilgan dunyoda tillarning bir-biriga o'zaro ta'siri, jumladan, chetdan so'z qabul qilish ko'lami va sur'ati ortib bormoqda. Afsuski, yurtimizda bu jarayon aniq tizim va ilmiy yondashuvlarsiz yuz berayotganini tan olgan holda, mavjud holatni bartaraf etish uchun ta'sirchan choralar ko'rish lozim.

Ayni vaqtda o'zbek tili alohida fan sifatida o'qitilayotgan xorijiy universitet va markazlar bilan yaqin hamkorlik o'rnatish, ular uchun o'quv adabiyotlari yaratish borasida ham faol ish olib borishimiz lozim.

Jahon adabiyoti durdonalarini o'zbek tiliga hamda o'zbek adabiyotining sara namunalarini chet tillarga tarjima qilish va nashr etish, bu yo'nalishda shakllangan ijodiy maktablarni rivojlantirish, yuqori malakali tarjimon-adiblar hamda mutaxassislarni tayyorlash ishlariga jiddiy e'tibor qaratishimiz darkor.

Mamlakatimizda "O'zbek xalq ijodi yodgorliklari", "Qoraqalpoq adabiyoti durdonalari", "Birinchi kitobim", "Jahon adabiyoti durdonalari" kabi seriyalarni nashr etish bo'yicha boshlangan ishlarni tizimli asosda davom ettirish kerak.

Shuningdek, o'zbek tilining jahon maydonida, xususan, Internet axborot tarmog'ida munosib o'rin egallashini ta'minlash, ona tilimizda ko'plab yangi kompyuter dasturlarini yaratish bo'yicha ham oldimizda turgan muhim va dolzarb vazifalarni hal qilishimiz zarur.

Ushbu qutlug' bayram arafasida qabul qilingan "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qaror ham o'zbek tili va adabiyotini, milliy madaniyatimizni yanada ravnaq toptirishga qaratilgan amaliy harakatlarimiz bilan uyg'un va hamohangdir.

Hurmatli do'stlar!

Atoqli ma'rifatparvar Abdulla Avloniy bobomiz aytganidek, **til – millat ruhini yuksaltiruvchi buyuk kuchdir.**

Shu ma'noda, ona Vatanga muhabbat va sadoqat – ona tiliga muhabbat va sadoqatdan boshlanadi, desak, yanglishmagan bo'lamiz.

Men mana shunday qarash va tushuncha har bir yurtdoshimizning hayotiy e'tiqodiga aylanadi, bu borada muhtaram ziyolilarimiz, faol yoshlarimiz, keng jamoatchiligimiz barchaga o'rnak va namuna bo'ladilar, deb ishonaman.

Aziz va qadrli vatandoshlarim!

Sizlarni O'zbek tili bayrami bilan yana bir bor samimiy tabriklayman.

Barchangizga sog'lik-omonlik, baxt-u saodat, xonadonlaringizga tinchlik-xotirjamlik, fayz-u baraka tilayman.

O'zbek tilimiz hamisha bezavol yashasin, doimo mag'rur yangrasin!

2020-yil 21-oktabr

**BUTUN MINTAQADA TINCHLIK
VA TARAQQIYOTNI
TA'MINLASH MANFAATLARI YO'LIDA**

Muhtaram Rais janoblari!

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Forum ishtirokchilari!

Xonimlar va janoblar!

Shimoliy iqtisodiy hamkorlik ikkinchi xalqaro forumining barcha ishtirokchilarini qutlash menga ulkan mamnuniyat bag'ishlaydi.

Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje In Janobi Oliylariga koronavirus oqibatlarini birgalikda yengib o'tish va sherikligimizni kengaytirish masalalariga bag'ishlangan ushbu muhim tadbirda ishtirok etish taklifi uchun minnatdorlik bildiraman.

Jahondagi mushkul vaziyat va global inqiroz sharoitida aynan shunday ko'p tomonlama muloqot yangi xatar va tahdidlarga samarali qarshi turish uchun imkoniyat yaratib, mamlakatlari-
miz barqarorligi, farovonligi va izchil taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiladi.

Hurmatli forum ishtirokchilari!

Biz O'zbekistonda Koreya Respublikasi Prezidentining keng Yevroosiyo makonida xavfsizlikni ta'minlash va ko'p qirrali hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan "Yangi shimoliy siyosati"ni yuksak baholaymiz.

Mintaqaviy siyosatning eng muhim jihatlari va hamkorligimiz istiqbollari-
gacha qisqacha to'xtalib o'tmoqchiman.

Birinchidan, COVID-19ning global miqyosda tarqalishi mintaqada davlatlari o'rtasida yaqin muvofiqlashuv va keng xalqaro hamkorlik bo'lishi zarurligini ko'rsatdi.

Koreyalik va boshqa sheriklarimizni O'zbekistonda ushbu kasallikka qarshi kurashishda ko'rsatilgan ko'mak uchun minnatdorlik bildiraman.

Birgalikdagi ishlarni quyidagi yo'nalishlarda davom ettirishni taklif etaman:

– Koreya kompaniyalari bilan birgalikda tashkil etilayotgan farmatsevtika klasteri negizida samarali vaksina va zardoblar, kasalliklarni tez va aniq tashxislash tizimlarini ishlab chiqish;

– zamonaviy laboratoriyalar tashkil etish va chegaralarimizdagi sanitariya nazorati punktlarini modernizatsiya qilish;

– Koreya Respublikasining yetakchi oliy ta'lim muassasalari ishtirokida epidemiolog va virusolog vrachlarni tayyorlash;

– tibbiy chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tashkil etish;

– mintaqada epidemiologik vaziyatni monitoring qilish va barvaqt prognozashtirishning integratsiyalashgan tizimini joriy etish.

Ikkinchidan, biz Koreya Respublikasini mamlakatimizga raqamli va "yashil" texnologiyalarni keltirishda asosiy hamkorlardan biri deb bilamiz.

Bugungi kunda Koreyaning yetakchi kompaniya va banklari ishtirokida O'zbekistonda yuqori texnologik tarmoqlarda o'nlab yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Biz koreyalik investorlar faoliyatini bundan buyon ham har tomonlama qo'llab-quvvatlaymiz va rag'batlantiramiz.

Shuningdek, Seul shahrida bo'lib o'tadigan "Yashil" taraqqiyot va 2030-yilga qadar global maqsadlar uchun sheriklik xalqaro sammitida faol ishtirok etishga tayyormiz.

Uchinchidan, “Yangi shimoliy siyosat”ning izchil amalga oshirilishi samarali mintaqaviy transport yo‘laklarini rivojlantirishning dolzarb ahamiyatini ko‘rsatmoqda.

Bu borada so‘z yuritilganda, avvalo, Transsibir magistrali va “G‘arbiy Yevropa – G‘arbiy Xitoy” yo‘lagi marshrutlarini mintaqamizdagi yangi temir yo‘llar qurish loyihalari bilan o‘zaro bog‘lash zarurligini qayd etish lozim.

Bunday sharoitda Koreya yarimoroli Tinch okeani mintaqasini Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlari bilan bog‘laydigan g‘oyatda muhim kommunikatsiya ko‘prigi bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Ushbu noyob imkoniyatlarni ekspertlar darajasida ko‘rib chiqishni taklif etamiz.

To‘rtinchidan, sherikligimizni mustahkamlashda “Markaziy Osiyo – Koreya Respublikasi” forumi muhim rol o‘ynaydi.

Uning doirasida yangi tashabbus va loyihalar amalga oshirilmoqda, investitsiyalar, innovatsiyalar, transport, sog‘liqni saqlash, ta‘lim va madaniyat sohalaridagi o‘zaro manfaatli hamkorlik kengayib bormoqda.

Shu bilan birga, bugungi kunda hamkorligimizni yangi, yanada yuqori bosqichga olib chiqish hamda Forum yig‘ilishini davlatlarimiz hukumatlari rahbarlari ishtirokida o‘tkazishga obyektiv zarurat sezilmoqda.

Ishonchim komil, birgalikda “Markaziy Osiyo – Koreya Respublikasi” forumini ustuvor dastur va loyihalarni ilgari surishning ta‘sirchan mexanizmiga aylantiramiz.

Beshinchidan, Prezident Mun Chje Inning Koreya yarimorolida mustahkam tinchlikka erishish borasidagi faol sa‘y-harakatlarini O‘zbekiston har tomonlama qo‘llab-quvvatlaydi hamda ularga mintaqaviy va global xavfsizlikni ta‘minlashga muhim hissa sifatida qaraydi.

Biz Markaziy Osiyoda yadroviy quoldan xoli hudud yaratish borasida noyob tajriba to'pladik. O'zbekiston tashabbusi bilan ilgari surilgan tegishli shartnoma ishtirokchilar o'rtasida murakkab kelishish jarayonidan o'tib, eng yirik yadroviy davlatlarning zarur kafolatlarini olgan.

Bugungi kunda ushbu shartnoma Markaziy Osiyoda yadroviy xavfsizlikni ta'minlashning samarali siyosiy-huquqiy mexanizmi hisoblanadi.

Keng tajriba almashish maqsadida **Yadroviy qurolsizlanish, yadroviy quoldan xoli hududlar yaratish masalalari bo'yicha xalqaro ekspertlik forumini o'tkazishni taklif etamiz.**

Muhtaram xonimlar va janoblar!

Koreya Respublikasi O'zbekiston Respublikasining alohida ahamiyatga ega, ishonchli strategik sherigidir. Mamlakatlari-miz o'rtasidagi diplomatik, savdo va madaniy aloqalar bir necha ming yillik tarixga ega. Do'stligimiz xalqlarimizning o'xshash mentaliteti, milliy qadriyat va an'analariga asoslangan.

O'zbekistondagi ko'p sonli koreys diasporasi buzilmas rishtalarimizni mustahkamlab turuvchi muhim omildir. Bu fuqarolarimiz mamlakat rivojiga munosib hissa qo'shib kelmoqdalar.

So'zim yakunida yana bir bor ishonch bilan aytmoqchiman: bugungi forum mamlakatlarimizning uzoq muddatli va serqirra hamkorligini butun mintaqa tinchligi va ravnaqi yo'lida rivojlantirish uchun yangi istiqbollar ochib beradi.

E'tiboringiz uchun rahmat.

*Videoanjuman shaklida o'tkazilgan
Shimoliy iqtisodiy hamkorlik
ikkinchi xalqaro forumidagi nutq*

2020-yil 30-oktabr

XALQARO IQTISODIY MULOQOTNI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILI

Hurmatli davlat va hukumat rahbarlari!

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari va ko'rgazma ishtirokchilari!

Avvalambor, Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin Janobi Oliylariga Import mahsulotlari uchinchi Xitoy xalqaro ko'rgazmasining ochilish marosimida ishtirok etish taklifi uchun minnatdorlik bildirishga ijozat bergaysiz.

Ushbu tadbirga o'z mamlakatlarining iqtisodiy muvaffaqiyatlari, eng yangi ishlanma va mahsulotlarini namoyish etish maqsadida yig'ilgan barcha ishtirokchilarni qutlayman.

Bugun EKSP0 – 2020 ko'rgazmasida 180 mamlakat va xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirok etmoqda.

Bu XXRning xorijiy sheriklar bilan munosabatlari sur'ati ortib borayotganining yorqin dalilidir.

Afsuski, koronavirus pandemiyasi xalqaro iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Jahon savdosi hajmlari kamaydi, global ishlab chiqarish zanjirlari va savdo aloqalari qisman uzildi.

Pandemiya keltirib chiqargan global ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz ikki tomonlama va mintaqaviy darajada yanada yaqin muvofiqlashuv va hamkorlikka o'tkir zarurat borligini ko'rsatdi.

EKSPOdek yirik tadbirning o'tkazilayotgani Xitoyning milliy iqtisodiyotni tiklashda erishayotgan muvaffaqiyatlaridan hamda keng ko'lamlı xalqaro savdo-iqtisodiy hamkorlik nihoyatda zarur ekanidan dalolat beradi.

Bunday xalqaro maydonlar iqtisodiy muloqotni rivojlantirish va pandemiya keltirib chiqargan global ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni tez fursatda hal etishning muhim omili bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Fursatdan foydalanib, koronavirus infeksiyasiga qarshi kurashishda O'zbekistonga ko'rsatilgan salmoqli yordam va ko'mak uchun Xitoy Xalq Respublikasi rahbariyatiga samimiy minnatdorlik bildirmoqchiman.

Hurmatli ko'rgazma ishtirokchilari!

O'zbekiston Xitoy bilan iqtisodiyotlarimiz o'zaro birbirini to'ldirib turishi asosida keng iqtisodiy sheriklikda katta istiqbollarni ko'rmoqda.

Mamlakatimiz Shanxayda o'tkazilgan avvalgi EKSPPO ko'rgazmalarida faol ishtirok etdi, bu ikki tomonlama savdo va investitsiyaviy hamkorlikka katta sur'at bag'ishladi.

Bu safar ham O'zbekiston kompaniyalari, pandemiyaga qaramay, ushbu tadbirda keng ishtirok etmoqda.

Qadrli do'stlar!

Xitoy Xalq Respublikasi Raisining savdo sohasida barqarorlikni ta'minlash, savdo to'siqlarini bartaraf etish, shuningdek, turli mamlakatlar iqtisodiyotlarining o'zaro bog'liqligini mustahkamlash orqali global iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga qaratilgan yangi strategik kursi O'zbekistonda yuksak baholanmoqda.

Savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishning eng muhim jihatlariga to'xtalishni istardim.

Birinchidan, O'zbekistonda milliy iqtisodiyotni, shu jumladan, tashqi savdo rejimini liberallashtirish izchil amalga oshirilmoqda.

Jahon savdo tashkilotiga kirish va yanada qulay investitsiya muhitini yaratish bo'yicha masalalar hal qilinmoqda.

Normativ-huquqiy bazamizni xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish borasida faol ish olib bormoqdamiz. Bojxonatarif, fiskal tartibga solish va eksport-import protseduralari mexanizmlarini takomillashtiryapmiz, ularni sezilarli darajada soddalashtiryapmiz, "yashil yo'laklar"ni shakllantirish davom etmoqda.

Ikki mamlakat bozorlarida talab yuqori bo'lgan mahsulotlar nomenklaturasini kelishish va ularni ishlab chiqarish loyihalariga investitsiyalar yo'naltirilishini rag'batlantirish taklif etiladi.

Ikkinchidan, transport sohasidagi hamkorlikni kuchaytirish muhim yo'nalish hisoblanadi.

O'zbekistonda transport-tranzit salohiyatini jadal rivojlantirish, mintaqada quruqlikdagi kommunikatsiyalarning samarali tizimini shakllantirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Biz mintaqaviy va hududlararo o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash uchun keng istiqbollar ochib berayotgan "Bir makon, bir yo'l" tashabbusini faol qo'llab-quvvatladik.

Bugun Markaziy Osiyo, Buyuk Ipak yo'li davrlarida bo'lganidek, Yevropa va Osiyo o'rtasidagi savdo-iqtisodiy va transport-tranzit yo'laklarining xabiga aylanishi mumkin.

Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston yangi multimodal transport yo'lagi ochilganini olqishlaymiz, ushbu marshrut bo'ylab temiryo'l qurish loyihasini tezlashtirish tarafdorimiz.

Shuningdek, "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi doirasida "quruqlikdagi portlar", logistika va ulgurji-distribyutorlik markazlarining integratsiyalashgan tarmog'ini shakllantirish borasidagi sa'y-harakatlarni birlashtirishni taklif etamiz.

Markaziy va Janubiy Osiyo temiryo'llari tizimlarini bog'laydigan yangi transport yo'laklarini yaratish borasidagi tashabbuslar katta ahamiyatga ega. Bu Yevroosiyo qit'asidagi quruqlik transporti tizimini tutashtirish imkonini beradi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida BMT shafeligida Transport-kommunikatsiya aloqalarini rivojlantirish mintaqaviy markazini ochish taklifini ilgari surgan edim.

Ushbu tashabbus sheriklar va xalqaro tashkilotlar tomonidan faol qo'llab-quvvatlanishiga umid qilamiz.

Uchinchidan, hozirgi vaqtda O'zbekiston o'zining industrial taraqqiyotini jadallashtirmoqda. Biz xomashyo eksportini qisqartirish, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va ko'paytirish siyosatini amalga oshiryapmiz.

Shu ma'noda, sanoat kooperatsiyasini faol rivojlantirish, birinchi navbatda, mineral-xomashyo resurslarni chuqur qayta ishlash va eksport bozorlariga chiqish uchun yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha yangi qo'shma korxonalar tashkil etish tarafdorimiz.

Shu maqsadda sanoat kooperatsiyasi bo'yicha qo'shma dastur qabul qilishni hamda qo'shma investitsiya fondlari, sarmoyalarni kafolatlash va sug'urtalash kabi vositalar yordamida ikki mamlakat biznes vakillarini aniq loyihalarni amalga oshirishga rag'batlantirishni taklif etamiz.

To'rtinchidan, pandemiya munosabati bilan iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonlarini tezlashtirish alohida dolzarb ahamiyat kasb etdi.

Xalqaro savdo, bojxona rasmiylashtiruvi, transport, ta'lim sohalariga axborot texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha qo'shma chora-tadbirlarni ishlab chiqishni taklif etamiz.

Elektron savdo maydonchalaridan foydalanish hisobiga savdo hajmlarini yanada oshirish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston elektron tijorat sohasida istiqbolli takliflarni amalga oshirishda hamkorlikka tayyor.

Beshinchidan, COVID-19 pandemiyasi bilan bog'liq vaziyat global kun tartibining asosiy masalasi bo'lib qolmoqda. Ushbu inqiroz uzoq davom etishi ehtimoldan xoli emas.

O'z-o'zidan ravshanki, ishlab chiqarish sur'atlarining pasayishi, tibbiy tovarlarga ehtiyojlarning ortishi, moliyaviy beqarorlik va global yetkazib berish zanjirlarining buzilishi sharoitida hech bir mamlakat yakka holda pandemiyaning salbiy oqibatlarini yengib o'ta olmaydi.

Vaziyat ushbu hayotiy muhim masalada jipslashishni, muvofiqlashgan va, eng muhimi, samarali harakatlarni taqozo etmoqda.

Shu munosabat bilan tibbiyot sohasidagi hamkorlikni, pandemiya va transchegaraviy tUSDagi epidemiologik tahdidlarga qarshi kurashishda tajriba almashishni kuchaytirishni taklif etamiz.

Muhtaram xonimlar va janoblar!

EKSPO – 2020 yakunlari jahon savdosini tiklash va xalqaro iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish jarayoniga qo'shimcha sur'at bag'ishlashiga ishonamiz.

Ko'rgazmaning barcha ishtirokchilari faoliyatiga muvaffaqiyatlar tilayman.

E'tiboringiz uchun rahmat.

*Import mahsulotlari uchinchi
Xitoy xalqaro ko'rgazmasining
videoanjuman shaklida o'tkazilgan
ochilish marosimidagi nutq*

2020-yil 4-noyabr

O'ZBEKISTON SOG'LIQNI SAQLASH SOHASI XODIMLARIGA

Qadrli do'stlar!

Avvalo, o'z hayotini el-yurt salomatligini asrashdek g'oyat mas'uliyatli va sharafli ishga bag'ishlagan siz, azizlarni kasb bayramingiz – Tibbiyot xodimlari kuni bilan chin qalbindan samimiy tabriklab, barchangizga o'zimning chuqur hurmatim va ezgu tilaklarimni bildirishdan mamnunman.

Xalqimiz sizlarni dunyodagi eng ulug' kasb egalari, muqaddas qasamyodiga sodiq, o'z ishiga fidoyi insonlar deb biladi va mashaqqatli mehnatingizni yuksak qadrlaydi.

Ayniqsa, hozirgi murakkab pandemiya sharoitida chinakam salomatlik posbonlari bo'lib maydonga chiqayotganingiz har qanday tahsin va tasannolarga munosibdir.

Ushbu xavfli kasallikka chalingan ming-minglab yurtdoshlarimizning shifo topib, oilasi bag'riga qaytayotganida, hech shubhasiz, sizlarning beqiyos xizmatlaringiz bor.

Fursatdan foydalanib, bu mashaqqatli kurashning oldingi safarida turib, o'z hayotini xavf-xatarga qo'yib, jasorat va matonat namunasini ko'rsatib kelayotgan barcha tibbiyot xodimlariga o'z nomimdan, butun xalqimiz nomidan yana bir bor chuqur minnatdorlik bildiraman.

Hurmatli tibbiyot xodimlari!

Biz o'z oldimizga xalqimizni har tomonlama rozi qilishdek ulug' vazifani qo'ygan ekanmiz, bu maqsadga erishish yo'lida sog'liqni saqlash tizimini jadal rivojlantirishga birinchi darajali ahamiyat qaratmoqdamiz.

Keyingi to'rt yilda bu borada sizlar bilan birga ulkan ishlarni amalga oshirdik. Bu davrda sohaga doir 200 ga yaqin me'yoriy-huquqiy hujjat, jumladan, O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilinganini qayd etish lozim.

Yurtimizda birlamchi tibbiy-sanitariya, shoshilinch va tez tibbiy yordam, ixtisoslashtirilgan xizmatlar takomillashib bormoqda. Onalar va bolalar o'limining oldini olish, kasalliklarni barvaqt aniqlash, oilalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, tibbiy madaniyatni oshirish, aholining o'rtacha umr ko'rish darajasini uzaytirish bo'yicha sezilarli natijalar qo'lga kiritilmoqda.

Ma'lumki, 2020-yil O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimi uchun mislsiz sinov, ayni vaqtda izchil rivojlanish, yangi tajriba orttirish yili bo'ldi.

Soha rivoji uchun Davlat budjetidan 14,8 trillion so'm yoki 2019-yilga nisbatan 1,2 barobar ko'p mablag' ajratilgani, shuningdek, Investitsiya dasturiga muvofiq ushbu tizimga 1,15 trillion so'm mablag' yo'naltirilgani mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, katta ishlarni amalga oshirish imkonini berdi. Jumladan, markazda va joylarda qisqa muddatda davolash-profilaktika muassasalari, karantin zonalari hamda saralash-taqsimlash markazlari barpo etildi, Toshkent viloyatining Zangiota tumanida 4 ming o'rinli ko'p tarmoqli maxsus shifoxona ishga tushirildi.

O'z vaqtida ko'rilgan bunday chora-tadbirlarimiz bugun ijobiy natija berayotganini alohida ta'kidlash lozim.

Ayni vaqtda reproduktiv yoshdagi va homilador ayollar hamda bolalarga tibbiy yordam ko'rsatish sifatini oshirish va ko'lamini kengaytirish maqsadida zamonaviy tibbiyot markazlari, xususan, Toshkent shahrida Ikkinchi perinatal markaz, ilg'or tibbiy texnologiyalar bilan jihozlangan, yiliga 1500 dan ziyod

murakkab tibbiy amaliyotni bajarish imkonini beradigan Bolalar milliy tibbiyot markazi foydalanishga topshirildi.

Soha xodimlarining mehnatini munosib rag'batlantirish, oylik maoshlarini ko'paytirish, pandemiya sharoitida ishlayotgan shifokorlarga qo'shimcha haq to'lash bo'yicha yangi tizim joriy etildi.

Bu yil olis qishloq va ovullarda 798 ta oilaviy poliklinika tashkil etilib, ularda ijtimoiy dorixona, kecha-yu kunduz ishlaydigan tez tibbiy yordam shoxobchasi, ayollar maslahatxonalarini, qizlar salomatligi xonalari faoliyati yo'lga qo'yilgani ham muhim ishlarimiz qatoriga kiradi. Shuningdek, akusher-ginekolog, xirurg, stomatolog, terapevt, pediatr kabi 5 ta yo'nalishdagi tor soha mutaxassislari faoliyatini yo'lga qo'yish hisobidan qishloq ahliga malakali ambulatoriya yordami ko'rsatadigan tizim ish boshladi.

Keyingi yillarda respublikamizda ixtisoslashgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlarining umumiy soni 18 taga yetkazildi, hududlarimizda ularning 18 ta filiali tashkil etildi. Ushbu markazlarda buyrak va jigar transplantatsiyasi bilan bog'liq murakkab operatsiyalar o'tkazilmoqda. Hatto viloyatlarimiz markazlarida ham ochiq yurakda kardiojarrohlik operatsiyalari amalga oshirilmoqda.

Hozirgi vaqtda yurtimizda 5805 ta xususiy tibbiyot muassasasi faoliyat ko'rsatmoqda. Ular tibbiy xizmat sifatini oshirish va raqobat muhitini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Ayni paytda 70 dan ortiq xususiy tibbiyot muassasasi koronavirus infeksiyasi bo'yicha laboratoriya xizmatlarini ko'rsatish, 25 ta shunday klinika esa diagnostika va davolash bilan shug'ullanmoqda. Aytish kerakki, xususiy sektorni kuchaytirish borasidagi ishlarimiz bugungi murakkab vaziyatda o'zini to'la oqlamoqda.

Davlat-xususiy sheriklik tizimi asosidagi tibbiy obyektlar soni ham ko'payib bormoqda. Joriy yilda umumiy qiymati 51,4 mil-

liard so'mni tashkil etadigan 9 ta davlat-xususiy sheriklik hamda 187 ta outsorsing shaklidagi loyihalar amalga oshirilgani ham shundan dalolat beradi.

Respublikamizda Tez tibbiy yordamni rivojlantirish jamg'armasini tashkil etganimizdan xabaringiz bor. Jamg'arma mablag'lari hisobidan Toshkent shahar tez tibbiy yordam stansiyasi 150 ta zamonaviy "Ford" tibbiy yordam avtomashinasi bilan ta'minlandi. Natijada yurtimiz bo'yicha tez tibbiy yordam avtomashinalari soni 2514 taga yetdi. Eng muhimi, mazkur tizimda xizmat sifati yaxshilanib bormoqda.

Mamlakatimizda birinchi marta Gemodializ xizmatlari bo'yicha konsepsiya ishlab chiqilib, hozirgi kunda uni amalga oshirishga kirishildi.

Yana bir muhim masala – soha uchun yuksak malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha ham muhim loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu borada 2020-yilda tibbiyot yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlariga qabul kvotalari bakalavriat bosqichi uchun 27 foiz, magistratura yo'nalishida 28 foiz va klinik ordinatura tizimida 22 foizga oshirilgani va yangi mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilgani g'oyat muhim ahamiyatga egadir.

Hozirgi vaqtda Germaniya, Italiya, Rossiya, Koreya Respublikasi, Turkiya, Belarus, Ukraina kabi davlatlarning oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda talabalar zarur mutaxassisliklar bo'yicha qo'shma ta'lim dasturlari asosida o'qitilmoqda.

Muhtaram soha xodimlari!

Albatta, sog'liqni saqlash tizimidagi barcha islohotlarimiz natijasi, avvalo, hurmatli shifokor va hamshiralar, yoshlarga tibbiyot sirlarini o'rgatayotgan professor-o'qituvchilar, ilmiy xodimlarning fidokorona mehnati, mahorat va tajribasiga bog'liq ekanini ham-mamiz yaxshi tushunamiz.

Tibbiyot xodimlari kuni arafasida o'tkazilgan katta anjuman-
da sizlar bilan birga mamlakatimiz sog'liqni saqlash tizimini
bugungi kun talablari asosida rivojlantirish, sohaning moddiy-
texnika bazasini mustahkamlash, kasalliklarning oldini olish,
profilaktika ishlarini kuchaytirish, ayniqsa, sog'lom turmush tarzi
tamoyillarini keng joriy etish, diagnostika va davolash jarayon-
lariga raqamli texnologiyalar, innovatsion yondashuvlarni tatbiq
qilish bilan bog'liq eng muhim va dolzarb vazifalarni belgilab
oldik.

**Butun xalqimiz qatori bugungi og'ir sinovlardan mar-
dona o'tayotgan, zamonamizning chinakam qahramonlari
bo'lgan siz, tibbiyot xodimlari ana shunday mas'uliyatli
vazifalarni ado etishda faol ishtirok etib, barchaga o'rnak
va namuna bo'lasizlar, deb ishonaman.**

Sizlarning mashaqqatli va oliyjanob mehnatingizni munosib
qadrlash, tizim uchun malakali kadrlar tayyorlash, mamlakatimiz
sog'liqni saqlash sohasining raqobatbardoshligini oshirish, Jahon
sog'liqni saqlash tashkiloti va xorijiy tibbiyot markazlari bilan
amaliy hamkorlikni kuchaytirish, telemeditsinani rivojlantirish
masalalari bundan buyon ham doimiy e'tiborimiz markazida
bo'ladi.

Sizlarni qutlug' kasb bayramingiz bilan yana bir bor samimiy
muborakbod etib, barchangizga baxt-saodat, xonadonlaringizga
fayz-u baraka tilayman.

Qo'lingiz dard ko'rmasin, hamisha sog'-omon bo'ling, aziz
shifokorlar!

2020-yil 7-noyabr

SHANXAY RUHI – KO‘P TOMONLAMA HAMKORLIK VA RIVOJLANISHNING NOYOB TAJRIBASI

Muhtaram Vladimir Vladimirovich!

Hurmatli davlat rahbarlari!

Shanxay hamkorlik tashkiloti sammitining barcha ishtirokchilarini chin qalbimdan qutlayman.

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Vladimirovich Putinga ushbu uchrashuvimizni tashkil etgani uchun samimiy minnatdorlik bildiraman.

Rossiyaning SHHTdagi raisligi pandemiya tufayli yuzaga kelgan barcha qiyinchiliklarga qaramasdan g‘oyat samarali bo‘lganini alohida ta’kidlamoqchiman.

Bugun ko‘rib chiqish uchun tayyorlangan hujjatlar, shubhasiz, Tashkilotimizning roli va xalqaro nufuzini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Hurmatli Sadir Nurxojoyevich Japarovni sammitimizda ko‘rib turganimdan mamnunman.

O‘zbekiston qardosh Qirg‘izistonning eng yaqin qo‘shnisi va strategik sherigi sifatida mamlakat xalqining tinch taraqqiyot va farovonlik sari intilishini har tomonlama qo‘llab-quvvatlaydi.

Biz, shuningdek, Tog‘li Qorabog‘ mojarosi hududidagi o‘t ochish va barcha harbiy harakatlarni butunlay to‘xtatish to‘g‘risida Rossiya Federatsiyasining faol ko‘magida erishilgan kelishuvlarni olqishlaymiz. Ushbu hududda tinch hayot va barqarorlik tez fursatda tiklanishiga umid bildiramiz.

Hurmatli hamkasblar!

Bugungi kunda SHHT o'z taraqqiyotining prinsipial jihatdan yangi bosqichida turibdi.

Savdo-iqtisodiy aloqalarning keskin qisqarishi, ishlab chiqarish hajmlarining kamayishi, ishsizlikning ortishiga olib kelgan pandemiya rivojlanishimiz sur'atlariga g'oyat salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bilan bir qatorda, dunyoning ayrim mintaqalarida harbiy-siyosiy vaziyat keskinlashyapti, millatlararo va dinlararo ziddiyatlar kuchaymoqda.

Ushbu global xatar va tahdidlarni yaxshi qo'shnichilik, teng huquqlilik, o'zaro ishonch va manfaatlarni hisobga olish borasida shakllangan an'analarimizni asrash va boyitish yo'li bilangina yengib o'tish mumkin.

Bugungi kunda umumiy boyligimiz bo'lgan qadriyatlar – birgalikda taraqqiyot sari intilish, madaniyatlar xilma-xilligiga hurmat, ko'p tomonlama hamkorlikning noyob tajribasini o'zida mujassam etgan "Shanxay ruhi"ni mustahkamlash har qachongidan ham muhimdir.

Har birimiz kuchli bo'lgan taqdirdagina, SHHT ham kuchli bo'ladi. Buning uchun bir-birimizni qo'llab-quvvatlashimiz, kun tartibimizdagi asosiy masalalarga birgalikda murosa izlashimiz, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega.

Bugun aynan shunday yondashuv Yevroosiyo makonida xavfsizlik va barqaror taraqqiyotni ta'minlashning bosh shartiga aylanmoqda.

Bu mamlakatlarimiz xalqlarining manfaatlari va orzu-intilishlariga mosdir.

Hurmatli sammit ishtirokchilari!

SHHTning dolzarb vazifalari yuzasidan nuqtayi nazarimizga qisqacha to'xtalib o'tishga ijozat bergaysiz.

Birinchidan, iqtisodiyot sohasidagi hamkorlikni kuchaytirish masalalari alohida e'tiborni talab qilmoqda.

Bizning asosiy maqsadimiz – savdo-iqtisodiy aloqalar va sanoat kooperatsiyasini jonlantirishdan iborat.

Ishonamanki, bunga erishishning eng samarali usuli o‘zaro savdodagi to‘siqlarni bartaraf etish, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish, ularni uyg‘unlashtirish va raqamlashtirish, mamlakatlarimiz o‘rtasidagi elektron tijoratni rivojlantirish, o‘zaro investitsiyalarni rag‘batlantirishni nazarda tutadigan inqirozga qarshi qo‘shma dasturlarni amalga oshirishdan iboratdir.

Pandemiya sharoitida savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy aloqalarimizni rivojlantirishga yangi, shu jumladan, “nostandart” yondashuvlarni birgalikda ishlab chiqishni taklif etaman.

Ushbu dasturlar Savdo-iqtisodiy hamkorlik dasturini amalga oshirish bo‘yicha SHHT rejasining asosi bo‘lishi lozim.

Oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi hamkorlik dasturini amalga oshirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhim hayotiy ahamiyatga ega.

Shuningdek, mamlakatlarimiz ishbilarmon doiralari o‘rtasida Sanoat kooperatsiyasini rag‘batlantirish dasturini qabul qilish tarafdorimiz.

Ikkinchidan, pandemiya raqamlashtirish jarayonini tezlashtirdi. Axborot texnologiyalari iqtisodiy o‘sish “drayveri”ga aylanib bormoqda.

O‘zaro kelishilgan o‘quv dasturlari asosida aholini o‘qitish, soha mutaxassislarini tayyorlashga qaratilgan SHHTning raqamli savodxonlikni rivojlantirish dasturini ishlab chiqishni taklif etaman.

Ushbu sammitning Raqamli iqtisodiyot sohasidagi hamkorlikka doir bayonoti bugun o‘z vaqtida qabul qilinmoqda, deb hisoblaymiz.

Uchinchidan, bugungi sharoitda birgalikdagi sa’y-harakatlarni aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash va kambag‘allikni qisqartirishga yo‘naltirish muhimdir.

Bu boradagi hamkorligimizni muvofiqlashtirish maqsadida kambag'allikka qarshi kurashish uchun mas'ul vazirlik va idoralar rahbarlarining yig'ilishlarini o'tkazish mexanizmini yaratish zarur, deb hisoblayman.

SHHTga a'zo davlatlarning mazkur yo'nalishdagi hamkorligi dasturini ishlab chiqish, shuningdek, uni amalga oshirish bo'yicha kelishilgan choralarni ishlab chiqish uchun O'zbekistonda xalqaro forum o'tkazishni taklif etaman.

Ushbu tashabbusni ro'yobga chiqarishda Xitoy Xalq Respublikasining muvaffaqiyatli tajribasi foydali bo'lishiga ishonaman.

To'rtinchidan, mamlakatlarimizda aholi sog'lig'iga xavf tug'dirayotgan yangi xatar va tahdidlarga birgalikda qarshi kurashish ko'lamini kengaytirish juda muhim ahamiyatga ega.

Bugun insoniyat ilgari ma'lum bo'lmagan infeksiyalarga duch kelmoqda. Ularga qarshi kurashish kundalik turmushimizning bir qismiga aylanmoqda.

Shu munosabat bilan bugungi sammitda Epidemiya tahdidlariga qarshi kurash bo'yicha qo'shma chora-tadbirlarning kompleks rejasi qabul qilinishini olqishlaymiz.

Uning amalga oshirilishini ta'minlash, xavfli yuqumli kasalliklarning tarqalishi to'g'risidagi axborot bilan samarali almashinuvni yo'lga qo'yish muhimdir.

Mamlakatlarimizning sohaga ixtisoslashgan shifoxonalari o'rtasida natijador hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadida Epidemiyaga olib keluvchi kasalliklarga qarshi kurash bo'yicha tibbiyot muassasalari tarmog'ini yaratishni taklif etamiz.

Ushbu tarmoq doirasida yuqumli kasalliklarni diagnostika, profilaktika qilish va davolash bo'yicha tajriba almashish, vrachlar qo'shma guruhlarini faoliyatini tashkil etish va ularni tayyorlashga qaratilgan o'zaro manfaatli loyihalarni amalga oshirish mumkin.

Fursatdan foydalanib, barcha sheriklarimizga, avvalo, Rossiya va Xitoyga koronavirus infeksiyasiga qarshi kurashda ko'rsatilgan katta yordam uchun minnatdorlik bildiraman.

Pandemiya sharoitida sog'liqni saqlashga yangi masofaviy texnologiyalarni joriy etish zarurati ham ortib bormoqda.

Shu munosabat bilan Telemeditsina sohasidagi hamkorlik konsepsiyasini ishlab chiqishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Konsepsiyada vrachlarni keng turdagi kasalliklarni davolashda telemeditsina uslublarini egallash uchun o'qitish hamda mazkur sohadagi ilg'or tajriba almashishni nazarda tutish muhim.

Beshinchidan, bugungi sharoitda terrorizm, ekstremizm va narkobiznes tahdidlari nafaqat susaymayapti, balki kuchayib, yangi shakllar kasb etmoqda.

Yoshlarni yollash va radikallashtirish, terrorchilarni moliyallashtirishda axborot texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlarning roli ortib bormoqda.

Shu nuqtayi nazardan, SHHTning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasini Tashkilotimiz makonida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha prinsipial jihatdan yangi vazifalarni hal qilishga moslashtirish zarurati ortib bormoqda.

Shu munosabat bilan, vakolatli idoralarning amaliy muloqotlarini bir necha barobar ko'paytirish, hamkorlikning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish zarur, deb hisoblaymiz.

Joriy vaziyatni muntazam muhokama qilish, shu jumladan, axborot makonidagi xatar va tahdidlarga qarshi kurashish borasidagi qo'shma chora-tadbirlarni kelishgan holda amalga oshirish muhim.

SHHT mintaqasida tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga qo'shadigan umumiy hissamiz pirovard natijada shunga bog'liq.

Yuqorida aytib o'tilgan, barcha yo'nalishlarda kuzatuvchi mamlakatlar, muloqot bo'yicha sheriklar va xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni faollashtirishni taklif etamiz.

Muhtaram davlat rahbarlari!

Bugun Afg'onistonda uzoq kutilgan tinchlikka erishish bo'yicha tarixiy imkoniyatni qo'ldan boy bermaslik har qachongidan ham muhimdir.

Ushbu mamlakatdagi xavfsizlik va tinchlik masalasiga butun SHHT mintaqasining barqarorligi va iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashning muhim tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim. Xalqaro hamjamiyat, jumladan, SHHT davlatlarining sa'y-harakatlari tufayli Afg'onistonda nizoni tinch yo'l bilan bartaraf etishda umidbaxsh istiqbollar ko'rinmoqda.

Tinchlikka erishish, Afg'oniston xalqiga iqtisodiy yordam ko'rsatish yo'lidagi ijobiy intilishlarni qo'llab-quvvatlash uchun sa'y-harakatlarni birlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Ishonchim komil, Afg'onistonning mintaqaviy savdo-iqtisodiy jarayonlarga jalb etilishi ham ushbu mamlakatning tinch va barqaror taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan, "SHHT – Afg'oniston" muloqot guruhi doirasida Afg'onistonning ijtimoiy-iqtisodiy tiklanishiga ko'maklashish yuzasidan amaliy chora-tadbirlar rejasini tez fursatda ishlab chiqish va qabul qilish tarafdorimiz.

Afg'onistonga uning Markaziy va Janubiy Osiyoni bog'lab turuvchi ko'priksifatidagi tarixiy rolini qaytarishga xizmat qiladigan transport yo'laklarini barpo etish tashabbuslari SHHTning barcha mamlakatlari uchun yangi istiqbollar ochadi.

Shu va boshqa masalalarni 2021-yil aprel oyida Toshkentda o'tkaziladigan **"Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o'zaro bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar"** xalqaro konferensiyasida muhokama qilishni taklif etamiz.

Shu bilan bir qatorda, kelgusi yili, Tashkilotimizning 20 yil-
ligi arafasida, **“SHHTning zamonaviy xalqaro munosabatlar
tizimidagi roli” xalqaro konferensiyasini o‘tkazish taklifini il-
gari surmoqchiman.**

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Tojikiston Prezidenti Emomali Sharipovich Rahmonni
SHHTdagi raislikni qabul qilgani bilan tabriklashga hamda ushbu
sharafi va mas’uliyatli vazifani bajarishda katta muvaffaqiyatlar
tilashga ijozat bergaysiz.

E’tiboringiz uchun rahmat.

*Shanxay hamkorlik tashkilotining
onlayn formatida o‘tgan navbatdagi
sammitidagi nutq*

2020-yil 10-noyabr

O'ZBEKISTON KASABA UYUSHMALARI FEDERATSIYASINING SAKKIZINCHI QURULTOYI ISHTIROKCHILARIGA

Hurmatli do'stlar!

Avvalo, siz, azizlarni mamlakatimiz hayotidagi muhim voqea – O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining sakkizinchi qurultoyi ochilishi bilan chin qalbimdan tabriklab, barchangizga o'zimning cheksiz ehtiromim va ezgu tilaklarimni bildiraman.

Sizlarga yaxshi ma'lumki, dunyodagi har bir davlatning milliy taraqqiyotida, avvalo, inson mehnati va salohiyati beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Shuning uchun ham respublikamizda mehnat munosabatlarini tubdan isloh qilish, fuqarolarimizning mehnat sohasidagi konstitutsiyaviy huquqlarini ro'yobga chiqarish, bandlik masalasini hal etish, kambag'allikni qisqartirishga katta e'tibor berilmoqda.

Ana shunday yondashuv asosida keyingi to'rt yilda ushbu yo'nalishdagi milliy qonunchiligimizni takomillashtirish, aholining qonuniy daromad topishi, tadbirkorlik bilan shug'ullanishi uchun qulay imkoniyatlar yaratish, majburiy mehnatga barham berish bo'yicha keng ko'lamlı ishlar amalga oshirildi. Shu borada biz erishgan natijalar jahon hamjamiyati, jumladan, BMT, Xalqaro mehnat tashkiloti, UNISEF kabi nufuzli xalqaro tuzilmalar tomonidan tan olinmoqda.

Bularning barchasida mehnatkashlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishdek oliyjanob maqsad yo'lida 14 ta tarmoq va

14 ta hududiy bo'linmani, 5,5 milliondan ortiq a'zolarni birlashtirgan, jamiyatimiz hayotida alohida o'rin tutadigan O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining munosib hissasi borligini el-yurtimiz yaxshi biladi va yuksak qadrlaydi.

Darhaqiqat, sizlarning bevosita ishtirokingizda mehnat munosabatlarini takomillashtirish, ijtimoiy yordam va adolat tamoyillarini mustahkamlash, fuqarolarning faolligini oshirish bo'yicha keng ko'lamlı ishlar olib borilmoqda.

Ayniqsa, koronavirus pandemiyasi va global iqtisodiy inqiroz sharoitida aholi va iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarimizni amalga oshirishda mamlakatimizdagi eng yirik fuqarolik instituti bo'lgan O'zbekiston kasaba uyushmalari chinakam jonbozlik ko'rsatmoqda.

Ushbu tizim rivojida so'nggi yillarda qator normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, "Kasaba uyushmalari to'g'risida"gi qonunning qabul qilingani, Xalqaro mehnat tashkiloti, Xalqaro kasaba uyushmalari konfederatsiyasi va boshqa xalqaro tuzilmalar bilan yaqin aloqalarni yo'lga qo'yganimiz, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi aholining mehnat huquqlari va ijtimoiy himoyasini ta'minlashda Hukumatning teng huquqli hamkoriga aylanib borayotgani muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Ayni shu asosda xalq bilan samarali muloqot olib borishda kasaba uyushmalari eng xalqchil va demokratik tuzilma sifatida o'zini yaqqol namoyon etib, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha umummilliy harakatimizda faol qatnashmoqda.

Buyuk Amir Temur bobomizning **"Millatning dardlariga darmon bo'lmoq – vazifangizdir"**, degan da'vatiga amal qilib kelayotgan tashkilot faollari so'nggi yillarda mamlakatimizdagi 2 million 160 mingta oilaning turmush sharoiti bilan chuqur tanishib, 650 mingta muammoni aniqlagani va ularning

556 mingtasi o'z yechimini topgani, kasaba uyushmalari ishtirokida 7 mingta uy-joy to'liq ta'mirlangani e'tiborga molikdir.

Shuningdek, 1400 ta oila yangi uy-joylar, 28 ming oila maishiy texnikalar bilan ta'minlangani, ehtiyojmand oilalarga mansub 2400 nafar bemorga bepul tibbiy yordam ko'rsatilgani, ayniqsa, diqqatga sazovordir.

Kasaba uyushmalari Federatsiyasi tashkil etgan xayriya aksiyasi doirasida moddiy ahvoli og'ir bo'lgan 642 ming nafardan ortiq kishi ishga joylashtirilgani, qariyb to'rt mingta to'ylar o'tkazib berilgani ham ana shunday ezgu va xayrli ishlar qatoriga kiradi.

Bundan tashqari, Federatsiya tomonidan ishchi-xodimlarning 35 mingdan ortiq murojaat va shikoyatlari ko'rib chiqilib, 13 ming 500 nafarga yaqin fuqaroning qonuniy huquqlari tiklandi, arizachilar foydasiga 13 milliard so'mlik mablag' undirib berildi.

Pandemiyaning birinchi kunlaridan boshlab kun-u tun faoliyat yuritib kelayotgan O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining "ishonch telefoni"ga kelib tushgan 50 mingdan ziyod murojaatning aksariyati ijobiy hal etilgani ham ushbu tizimda fuqarolar muammolari bilan ishlash bo'yicha salohiyat va imkoniyatlar katta ekanini ko'rsatadi.

Buxoro va Sirdaryo viloyatlarida yuz bergan tabiiy va texnogen ofat oqibatlarini bartaraf etishda kasaba uyushmalari faollari aholiga birinchilar qatorida yelkadosh bo'lganlarini ta'kidlash lozim.

Yurtimizda gender tenglikni ta'minlash tobora ustuvor ahamiyat kasb etib borayotgan hozirgi paytda kasaba uyushmalari hurmatli ayollarimizning huquq va manfaatlarini himoya qilish, xotin-qizlarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi o'rmini kuchaytirishda o'mak va namuna ko'rsatmoqda.

Shuningdek, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, yosh avlodni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash

masalalari ham ushbu tizim vakillarining doimiy e'tiborida bo'lib kelmoqda.

Sizlarning tashabbusingiz bilan ichki va tashqi turizm hamda tibbiy sayyohlikni rivojlantirish bo'yicha ham bir qator ishlar qilinmoqda. Turli tashkilot va muassasalar xodimlari va ularning oila a'zolari, keksa avlod vakillari, ehtiyojmand oilalarga mansub ayollar va bolalar, shuningdek, Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari, jami 800 ming kishi turli yo'nalishlar bo'yicha sayohatga olib borilganini alohida qayd etish o'rinlidir.

Albatta, o'zining ezgu g'oyalari, amaliy ishlari bilan jamiyatimiz hayotiga g'oyat yaqin bo'lgan ushbu xalqchil tuzilmaning e'tibor va g'amxo'rligini bugun yurtimizda har bir jamoa, har bir mehnatkash his qilib yashamoqda. Bu – kasaba uyushmalari faoliyatining eng muhim natijasi, desak, ayni haqiqat bo'ladi.

Fursatdan foydalanib, respublikamizda tinchlik-osoyishtalik, mehr-oqibat va saxovat, o'zaro yordam va hamjihatlik muhitini mustahkamlashga qo'shayotgan ulkan hissangiz, fidokorona mehnatingiz uchun sizlarga o'z nomimdan, butun xalqimiz nomidan chuqur minnatdorlik bildiraman.

Muhtaram yurtdoshlar!

Jonajon O'zbekistonimiz yangi Uyg'onish va taraqqiyot davriga qadam qo'ygan, ana shu yuksak maqsad yo'lida buyuk ishlar amalga oshirilayotgan hozirgi kunda xalqimizni yanada katta marralar sari safarbar etishda kasaba uyushmalarining roli va ta'siri tobora ortib bormoqda.

Ishonchim komil, mazkur qurultoy kasaba uyushmalari faoliyatini chuqur tanqidiy tahlil qilib, oldinda turgan vazifalarni aniq belgilab olish, ish samarasini yanada oshirish bo'yicha yangi taklif va tashabbuslarni ilgari surish uchun muhim muloqot maydoni bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu anjuman o'z saflarida millionlab odamlarni birlashtirgan kasaba uyushmalari tarixida yangi davrni boshlab beradi, deb umid bildiraman.

Shu munosabat bilan qurultoy qatnashchilariga bir taklif bilan murojaat qilmoqchiman: O'zbekiston kasaba uyushmalarining mamlakatimiz ijtimoiy hayotidagi ulkan o'rni va ahamiyatini e'tiborga olib, respublikamizda **11-noyabr sanasini Kasaba uyushmalari kuni** deb belgilash maqsadga muvofiq bo'lur edi.

Shu bilan birga, mazkur soha uchun zamonaviy bilim va malakaga ega bo'lgan, ijtimoiy munosabatlar nazariyasi va amaliyotini, bu boradagi xalqaro tajribani puxta biladigan yetuk kadrlarni tayyorlash maqsadida **Kasaba uyushmalari akademiyasini** tashkil etish masalasini ham ko'rib chiqishni taklif etaman.

Hurmatli qurultoy ishtirokchilari!

Xalqimizda "**Odam qadrin mehnat oshirar**", degan chuqur ma'noli maqol bor.

Haqiqatan ham, halol va oliyjanob mehnat insonni ulug'laydi, uning oila va jamiyatda, el-yurt o'rtasida munosib obro'-e'tibor topishiga xizmat qiladi.

Aminmanki, o'z hayotini sharafli vazifaga – mehnat va mehnat egalarining huquqlari muhofazasiga bag'ishlagan yurtdoshlarimiz har qanday yuksak hurmat va ehtiromga munosibdir.

Sizlarning timsolingizda biz ana shunday jonkuyar va fidoyi insonlarni ko'ramiz, mehnatkashlarning huquq va manfaatlarini yanada ishonchli ta'minlashda sizlarni davlat idoralarining yaqin hamkori va ko'makchisi, deb bilamiz.

Barchangizni bugungi anjuman bilan yana bir bor qutlab, mas'uliyatli va serqirra faoliyatingizda sihat-salomatlik, omad va zafarlar, qurultoy ishiga esa muvaffaqiyatlar tilayman.

2020-yil 11-noyabr

SAN'ATNING BOSH VAZIFASI – INSONNI EZGULIK RUHIDA TARBIYALASHDIR

Assalomu alaykum, hurmatli do'stlar!

Bugun siz, aziz san'atkorlarimiz bilan yaxshi kayfiyatda, ezgu niyatlar, katta maqsadlar bilan uchrashib turganimdan xursandman.

Sizlarning har biringizni o'zining noyob iste'dodini, bilim va mahoratini milliy kino san'atimizga bag'ishlagan jonkuyar, fidoyi insonlar, deb bilaman.

Albatta, kino qanchalik murakkab va mashaqqatli san'at ekanini hammamiz yaxshi tushunamiz. Ayni paytda bu san'atni xalqimiz uchun, jamiyatimiz uchun nihoyatda zarur ekanini ham barchamiz e'tirof etamiz.

Sizlar bilan avvalgi uchrashuvlarimizda kinoning ma'naviy hayotimizda tutgan muhim o'rni haqida ko'p gaplashganmiz. Ushbu sohani rivojlantirish, bu boradagi mavjud muammolarni hal etish bo'yicha atroflicha fikrlashganmiz. Shu yo'nalishda zarur farmon va qarorlar qabul qilganimiz ham sizlarga yaxshi ma'lum, albatta.

O'tgan qisqa davrda sohaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, kadrlar salohiyatini oshirish, o'zbek kinosining avvalgi shuhratini tiklash, milliy filmlarimiz jahon ekranlarida raqobatbardosh bo'lishi uchun bir qator muhim ishlarni amalga oshirdik.

Qanchalik qiyin bo'lmasin, kino san'atini rivojlantirish uchun davlat budjetidan katta-katta mablag'larni yo'naltiryapmiz. Bu raqam 2019-yilda – 56,2 milliard so'mni, 2020-yilda –

80 milliard so'mni tashkil etgani ham soha rivojiga qanchalik katta e'tibor berilayotganini ko'rsatib turibdi, deb o'ylayman.

“O'zbekfilm” kinostudiyasi hududi ilgari qanday xarobahvolda bo'lganiga barchangiz guvohsiz. Bu joydagi ko'plab bino va inshootlar, yer maydonlari ijaraga berib yuborilganidan ham xabardorsiz.

Mana, ularning hammasini qonuniy ravishda studiyaning o'ziga – haqiqiy egasiga qaytardik. Bu yerda katta hajmdagi qurilish va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Barcha pavilyonlar ta'mirlanib, yangi filmlar olish uchun qulay va zamonaviy sharoitlar yaratildi.

Hozirgi vaqtda “O'zbekfilm” va hujjatli filmlar studiyasini zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlash ishlari olib borilmoqda. Bu ishlarni izchil davom ettiramiz.

Hurmatli ijodkorlar!

Xabaringiz bor, bugungi kunda biz milliy taraqqiyotimizning yangi davriga qadam qo'ydik. Jamiyatimiz hayotida “**Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari**” degan g'oya tobora chuqur o'rin egallamoqda. Mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimiz uchun ulug'vor maqsad sifatida belgiladik. Uchinchi Renessansning beshta ustuni bo'lsa, uning eng muhim bo'g'ini, hech shubhasiz, ijodkor ziyolilar, xususan, kino san'ati vakillaridir.

Xalqimizning yuragidan chuqur joy olgan “Alisher Navoiy”, “Tohir va Zuhra”, “O'tkan kunlar”, “Yor-yor”, “Mahallada duduv gap”, “Maftuningman” singari qanday betakror filmlarimiz bor. Kino san'atimizning Nabi G'aniyev, Komil Yormatov, Yo'l-dosh A'zamov, Latif Fayziyev, Shuhrat Abbosov, Melis Abzalov kabi mashhur rejissorlari xalqimizning faxri hisoblanadi. Razzoq Hamroyev, Shukur Burhonov, Nabi Rahimov, San'at Devonov, Obid Jalilov, Abbas Bakirov, Lutfixonim Sarimsoqova, Mar-

yam Yoqubova, Hamza Umarov, O'lmas Alixo'jayev singari atoqli artistlarimiz haqida har qancha gapirsak arziydi. Bugungi kunda ularning ishini Jahongir Qosimov, Zulfiqor Musoqov, Hilol Nasimov, Bahodir Odilov singari tajribali rejissorlarimiz, Yolqin To'ychiyev, Ayub Shahobiddinov, Jahongir Ahmedov, Umid Hamdamov kabi iste'dodli yoshlarimiz munosib davom ettirishmoqda.

So'nggi paytlarda sizlarning ijodiy mehnatingiz natijasida milliy kino san'atimizni yangi bosqichga ko'targan bir qator filmlar suratga olingani hammamizni quvontiradi. Yurtdoshlarimiz sizlardan ana shunday yetuk asarlar kutayotgan edi. "Imom Termiziy", "Islomxo'ja", "Qo'qon shamoli", "Elparvar", "Said va Saida", "Ibrat" kabi bir qator badiiy asarlar nafaqat kino sohasida, ayni paytda jamiyatimizning ma'naviy hayotida ham muhim voqea bo'ldi.

Ayniqsa, "Ilhaq" filmi alohida ta'kidlab o'tishni istardim. Bu film Ikkinchi jahon urushida xalqimiz ko'rsatgan buyuk qahramonlikni yorqin ko'rsatib berdi. Ushbu asar o'zbek xalqining, o'zbek onalarining jasorati va matonatiga qo'yilgan badiiy yodgorlik bo'ldi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizning dunyoqarashini boyitadigan ana shunday asarlarni yanada ko'paytirishimiz kerak. Farzandlarimizga har tomonlama o'rnak, namuna bo'ladigan bugungi kun qahramonlari obrazini ekranga olib chiqishimiz zarur.

Ko'rib turibsizlar, hozirgi vaqtda jamiyatimizda ochiqlik, oshkoralik, erkinlik muhiti tobora kuchayib bormoqda. Lekin "Derazani ochganda toza havo bilan birga chang-g'ubor ham kiradi", degan gap bor. Xo'sh, bu chang-g'ubordan, ya'ni, bizga yot bo'lgan zararli g'oya va ta'sirlardan farzandlarimizni, yoshlarimizni qanday va nima hisobidan himoya qilishimiz mumkin?

Bugungi kunda dunyoning juda ko'p o'lka va mintaqalarida asrlar davomida shakllangan insoniy qadriyatlar yemirilib bormoqda. Odamiylik, mehr-oqibat, oilaga, ota-onaga, farzandlarga sadoqat, or-nomus, hayo kabi ezgu tushunchalar, ming afsuski, unutilmoqda. Ularning o'mini xudbinlik, nafs balosi, yovuzlik, radikalizm g'oyalari va xurujlari egallamoqda. Ayniqsa, pandemiya sharoitida jahonning ko'plab hududlarida betoqatlik, tajovuzkor kayfiyatlar tobora kuchaymoqda. Ana shunday keskin, murakkab vaziyatda, ulug' mutafakkirlar aytganidek, dunyoni ezgulik, mehr-shafqat, insoniylik qutqaradi. Bunday og'ir paytda haqiqiy san'at insonga ko'makka kelishi, unga ma'naviy madad berishi kerak.

Aslida, har qanday san'atning maqsad-mohiyati, bosh vazifasi – insonga insonligini anglatib turishdan, uni ezgulik ruhida tarbiyalashdan iborat bo'lishi kerak. Sizlar bu haqiqatni barchadan ko'ra chuqurroq va kengroq tushunasizlar, deb ishonaman.

Shu ma'noda, biz, avvalo, milliy o'zligimizni chuqur anglab, san'atimiz, madaniyatimiz, adabiyotimizni yangi, yuksak bosqichga olib chiqish orqali jamiyatimizni, bolalarimizni mafkuraviy hujumlardan asrashimiz mumkin. Bu yo'lda xalqimiz, el-yurtimiz siz, ijodkor ziyolilarga, kino san'ati namoyandalariga ishonadi. Sizlardan bugungi kunning eng o'tkir va dolzarb ma'naviy muammolariga javob kutadi.

Takror aytaman, hozirgi vaqtda dunyoda hamma sohada kuchli raqobat ketmoqda. Ayniqsa, yoshlarning qalbi va ongini egallash uchun kurash tobora avj olmoqda. Biz mana shu keskin raqobatga bardosh bera olamizmi, bu kurashga tayyormizmi, degan savol barchamizni o'ylantirishi kerak.

Bugungi intellektual va madaniy salohiyat musobaqasida biz aholimizni, avvalambor, yoshlarimizni begona g'oyalar ta'siriga

tashlab qo'ymasligimiz zarur va shart. O'zbek tomoshabini faqat chet el kinolari ta'siriga tushib qolmasligi, aksincha, milliy tariximiz, san'atimiz, adabiyotimiz, azaliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiya topishi kerak.

Albatta, biz o'tgan to'rt yil davomida kino san'ati sohasida ham ko'p ish qildik. Lekin qiladigan ishlarimiz yanada ko'p. Hayotimizda muammolar ham yetarli.

Jamiyatimizda bilimsizlik, korrupsiya, tamagirlik, byurokратиya, loqaydlik, jaholat keltirib chiqarayotgan muammolarni ham-mangiz ko'rib turibsiz. Mana shunday o'tkir masalalarni dadil ko'tarib chiqishda, gumanizm va ezgulikni tarannum etishda ham kino san'ati namoyandalari barchaga o'rnak bo'lishini istardim.

Menga kinochilardan, kino ijodkorlaridan ko'plab xatlar, murojaatlar kelib tushyapti. Biz bugun ijodkor ziyolilar, jumladan, kinochilar uchun ham munosib turmush va mehnat sharoitlarini yaratishga intilyapmiz.

Bugun mana shu tarixiy maskanda turib yangi, zamonaviy Kinochilar uyini ikki yil davomida qurib berish bo'yicha hukumat rahbariga topshiriq bermoqchiman. Bu binoni dunyodagi eng ilg'or me'moriy yutuqlar asosida bunyod etamiz. Ishonchim komilki, u ilgarigi Kinochilar uyidan har tomonlama muhtasham va go'zal bo'ladi.

Kinochilarni, xususan, bu sohaga kirib kelayotgan iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash uchun shu hududda imtiyozli ipoteka krediti asosida ikkita 16 qavatli uy quriladi.

Hamma sohada bo'lganidek, kino san'atining bugungi va er-tangi kunini iste'dodli va bilimli, yetuk kadrlar hal qiladi. Ana shunday mutaxassislarni tayyorlash maqsadida hozirgi vaqtda Rossiyadagi mashhur kinematografiya instituti – Rossiya davlat kinematografiya instituti yoki qisqacha VGIK bilan hamkorlik olib bormoqdamiz.

Bir qator yosh rejissor va ssenaristlarni ana shu oliygohga o'qishga yuboryapmiz. Kelgusida Toshkentda ushbu institutning bo'limini ochamiz. Shuningdek, iqtidorli yoshlarimiz boshqa rivojlangan davlatlardagi kino kurslarida ham tahsil olib kelmoqda. Lekin bu yo'nalishdagi ishlarimizni zamonaviy va tizimli asosda olib borish, soha uchun chuqur bilim va malakaga ega bo'lgan, yuksak saviyali, vatanparvar kadrlarni tayyorlash maqsadida Kino akademiyasini tashkil etishni taklif qilaman.

Hammamiz yaxshi bilamizki, har bir ijodkor – alohida bir olam. Har bir ijodkorning o'z hayotiy prinsiplari, ijodiy yondashuvlari, mezonlari bo'ladi. Chinakam ijodkorlar hech qachon saf tortib bitta chiziqdan yurmasligini ham barchamiz yaxshi bilamiz. Shu ma'noda, bugun kinochilarimiz orasida yuz berayotgan ba'zi bahs va tortishuvlarni ham tabiiy hol, deb qabul qilamiz. Faqat men sizlardan kutadigan narsa shuki, bunday bahs-munozaralar parokandalikka emas, birlashishga, ijodiy yuksalishga xizmat qilsin. Shaxsiy manfaatlar, shaxsiy ambitsiyalar emas, balki uning o'miga jamiyatimiz, xalqimizning manfaatlari hammamiz uchun doimo birinchi o'rinda turishi kerak. Men barcha kino san'ati vakillari bu masalani to'g'ri tushunib, to'g'ri xulosa chiqaradilar, deb ishonaman.

Hurmatli ijodkorlar!

Biz dunyo kino sanoatida yuz berayotgan ijodiy va iqtisodiy jarayonlarni ham chuqur o'rganishimiz zarur. Zamonaviy o'zbek kinoindustriyasini tashkil etish, yangi kinoteatrlar tarmog'ini kengaytirish, prokat tizimini jonlantirish, soha xodimlarining mehnatini rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratamiz.

Shukurlar bo'lsinki, pandemiya tufayli duch kelgan turli qiyinchilik va muammolarga qaramasdan, iqtisodiyotimizni asta-sekin tiklab olyapmiz. Sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, tadbirkorlik sohalari jonlanmoqda. Eksport salohiyatimiz ham

ortib bormoqda. Demოqchimanki, davlatimiz faqat kinodan keladigan daromadga ko'z tikib qolgani yo'q. Kinodan daromad tushgan taqdirda ham, biz bu mablag'ni faqat shu san'at rivoji uchun, kinochilarimizga qo'shimcha imkoniyatlar yaratish, soha xodimlarini, ayniqsa, yosh ijodkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash uchun sarflaymiz.

Ishonchim komilki, sizlar yaratadigan eng yaxshi asarlar hali oldinda. Nasib etsa, milliy kino san'atimiz nafaqat mamlakatimizda, balki jahon miqyosida ham katta shuhrat qozonadi. Bu yo'lda davlatimiz, jamiyatimiz sizlarga eng yaqin ko'makdosh bo'lishga tayyor.

Barchangizga yangi ijodiy yutuq va omadlar tilayman. Doimo sog'-omon bo'linglar.

E'tiboringiz uchun rahmat.

Kino ijodkorlari bilan uchrashuvdagi nutq

2020-yil 20-noyabr

YANGI O‘ZBEKISTONNING YORQIN SAHIFASI

Aziz vatandoshlar!

Hurmatli mehmonlar!

Xonimlar va janoblar!

Bugun barchamiz tom ma'noda tarixiy va unutilmas bir voqea-ning guvohi bo'lib turibmiz.

Bugun O'zbekistonda yirik zamonaviy sanoat korxonasi—Toshkent metallurgiya zavodi ishga tushirilmoqda. Mamlakatimizning iqtisodiy hayotida g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lgan mana shunday ulkan ishlab chiqarish majmuasi bunyod etilgani bilan barchangizni chin qalbimdan tabriklayman. Bugungi marosimda bizning quvonchimizga sherik bo'layotgan hurmatli xorijiy hamkorlarimiz – Rossiya Federatsiyasi sanoat va savdo vaziri Denis Valentinovich Manturov, “Metprom” kompaniyasi direktorlar kengashi raisi Stanislav Sergeevich Lazutkin, Rossiya Federatsiyasining O'zbekistondagi elchisi Vladimir Lvovich Tyurdenev, Italiya Respublikasining “Daniyeli” kompaniyasi bosh direktori Daniyeli Jakomo Mareski janoblariga va barcha mehmonlarimizga chuqur minnatdorlik bildiraman.

Hurmatli do'stlar!

Sizlarga ma'lumki, biz bundan uch yil avval – 2017-yilning fevral oyida yaxshi niyatlar bilan ushbu korxonaning tamal toshini qo'ygan edik. O'tgan qisqa davrda barcha qiyinchiliklarga, jumladan, koronavirus pandemiyasiga qaramasdan, minglab fidoyi insonlarning bilim va tajribasi, mahorati va mehnati evaziga mana shu ulkan zavod qad rostladi. Bu yirik majmuani

bunyod etish uchun 420 million dollarlik mablag' sarflandi. Fursatdan foydalanib, korxonani bunyod etishda faol ishtirok etgan mohir loyihachi va quruvchilarga, qo'ligul ishchi va muhandislarga, pudratchi tashkilotlar va barcha mutasaddilarga, xorijiy hamkorlarimizga o'z nomimdan, xalqimiz nomidan samimiy ta-shakkur izhor etaman.

Qadrli yurtdoshlar!

Keyingi yillarda mamlakatimizda barcha soha va tarmoqlarni tubdan yangilash va modernizatsiya qilishga qaratilgan keng miq-yosli islohotlar olib borilmoqda.

Biz innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish, zamonaviy sanoat, qulay sarmoyaviy muhitni yaratish, xorijiy davlatlar va yetakchi kompaniyalar bilan hamkorlik aloqalarini kengaytirishga alohida e'tibor bermoqdamiz. Bugun har jihatdan noyob bo'lgan Toshkent metallurgiya zavodining ishga tushirilishi bu boradagi sa'y-harakatlarimizning yana bir amaliy namoyonidir.

Hammangiz bilasiz, O'zbekiston iqtisodiyotining zaif nuqta-laridan biri – bizda qora metallurgiya sanoatining yetarli darajada rivojlanmagani bilan bog'liq. Qaysi sohani olmang, ko'p yillardan buyon bu masala biz uchun jiddiy muammo bo'lib kelayotgan edi.

Yangi zavod eng avvalo milliy iqtisodiyotimizning metal-lurgiya mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini ta'minlashga qara-tilgani bilan ahamiyatlidir. Ular ilgari respublikamizga asosan chetdan olib kelinardi.

Ushbu korxonada yiliga 500 ming tonna rux va polimer qoplamali metall listlar ishlab chiqariladi. Mazkur mahsulotlar qurilish materiallari yoki metall konstruksiyalar bo'ladimi, maishiy texnika, elektrotexnika va oziq-ovqat sanoati bo'ladimi – yuzlab korxonalarimizning ehtiyojini ta'minlash im- konini beradi.

Majmua ishga tushirilishi bilan kimyo sanoati korxonalarini va rangli metall ishlab chiqaruvchilar o'rtasida yaqin kooperatsiya aloqalari yo'lga qo'yiladi. Kelajakda ushbu zavod mahalliy avtomobilsozlik va qishloq xo'jaligi mashinasozligi korxonalarini ehtiyojini ham qoplashga xizmat qiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, hozirning o'zidayoq zavod mahsulotlariga o'nlab korxonalardan buyurtmalar kelib tushmoqda.

Toshkent metallurgiya zavodi mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotiga salmoqli hissa qo'shadi. Muxtasar aytganda, yangi zavod jadal sur'atlar bilan rivojlanib, sanoatimiz lokomotivlaridan biriga aylanadi, deb aytishga barcha asosimiz bor.

Birinchidan, talab yuqori bo'lgan metallurgiya mahsulotini ishlab chiqarish zanjiri shakllanadi.

Korxonada faoliyatining birinchi bosqichida import o'rini bosadigan mahsulot ishlab chiqarish hisobidan 400 million dollarga yaqin mablag' tejaladi.

Mahalliy korxonalarimiz avval xorijdan olib kelingan xomashyo o'rni endilikda zavodda tayyorlanadigan listlardan foydalanishi hisobiga mahalliylashtirish darajasi sezilarli ravishda oshadi. Misol uchun, sendvich panellar va tom yopish tunukalari tannarxida respublikamizda ishlab chiqarilgan mahsulotning ulushi 50 foizdan 90 foizgacha yetadi. Shuningdek, bu ko'rsatkich ventilatsiya va havoni tozalash tizimlari bo'yicha 30 foizdan 50 foizgacha, maishiy elektrotexnika ishlab chiqarishda – 35 foizdan 50 foizgacha oshadi. Ya'ni sanoat kooperatsiyasining kengayishi va mahalliy xomashyo negizida hududlarda yuzlab yangi raqobatbardosh sanoat korxonalarining barpo etilishi uchun shart-sharoitlar yaratiladi.

Shu asosda turdosh tarmoqlar bilan birga 5 mingta yangi ish o'rni tashkil etiladi. Bu esa qanchadan qancha yoshlarimiz uchun yangi ish joylari, daromad va oilaviy farovonlik

manbai bo'lib xizmat qilishini, o'ylaymanki, tushunish qiyin emas.

Shuningdek, korxonada tomonidan yiliga 90 million dollarlik mahsulot chetga eksport qilinadi.

Ikkinchidan, metallurgiya sohasida ishlab chiqarish klasterini barpo etishga sharoit yaratiladi.

Birinchi bosqichda xomashyo Rossiyadan olib kelinadi. Tez orada yangi korxonada Bekobod metallurgiya zavodi bilan yaqin hamkorlikda faoliyat yuritadi. Hozirgi paytda Bekobodda qiymati 800 million dollar bo'lgan 1 million tonna mahsulot chiqarish quvvatiga ega quyuv-prokat majmuasini barpo etish boshlandi va uning mahsuloti ushbu zavod uchun xomashyo bo'lib xizmat qiladi. Shuning o'zi rux va polimer qoplamali listlarning mahalliy-lashtirish darajasini 90 foizga yetkazish imkonini beradi.

Harakatlarimizning asosiy maqsadi – yaqin yillarda yaxlit “noldan tayyor mahsulotgacha” bo'lgan metall ishlab chiqarish klasterini yaratishdan iborat. Shuning uchun biz yurtimizdagi 2 milliard tonna qora metall zaxirasiga ega Tebinbuloq va boshqa konlarda yetakchi xorijiy kompaniyalar bilan geologik qidiruvlar o'tkazdik va bu borada texnik iqtisodiy loyihalar ishlab chiqilmoqda.

Uchinchidan, texnik va texnologik ta'minlanishi jihatidan ushbu zavod xalqaro miqyosdagi eng yirik majmualar qatoriga kiradi.

Bu yerda dunyoning 27 ta mamlakati, jumladan, Italiya, Germaniya, Rossiya, Avstriya, Shveysariya, Janubiy Koreya kabi davlatlarda tayyorlangan asbob-uskunalar o'rnatilgan. Xususan, korxonada ishlab chiqarish, texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va nazorat qilish, rejalashtirish va boshqarishning to'rt pog'onali tizimi joriy etilganini alohida qayd etish lozim.

To'rtinchidan, zavod ekologik talablarga javob beradigan, ta'bir joiz bo'lsa, "eng yashil" korxonalaridan biri ekani biz uchun muhim ahamiyatga ega.

Korxonada chiqindilarni qisqartirib, qat'iy ekologik me'yorlarga amal qiladigan, chiqindi gazlarni ushlab qoladigan, oqova suvlarini tozalaydigan va boshqa zarur uskunalari bilan jihozlangan.

Hurmatli marosim qatnashchilari!

Ma'lumki, ushbu korxonada Toshkent shahri tarkibida yaqinda tashkil etilgan Yangihayot tumanida ish boshlayapti.

Yangihayot tumani yangi O'zbekistonni rivojlantirishga kompleks yondashuvning namunasi, desak, to'g'ri bo'ladi. Mazkur hududda bir vaqtning o'zida shinam turar joylar, zamonaviy sanoat quvvatlari, yangi transport infratuzilmasi, jumladan, yer usti metrosi va yo'l o'tkazgichlar, ijtimoiy obyektlar qurilishi jadal olib borilmoqda.

Urbanizatsiya, aholi uchun qulay bo'lgan sifatli shahar muhitini yaratishga oid bunday zamonaviy yondashuvni biz butun O'zbekiston bo'ylab keng joriy etmoqdamiz. Xususan, yaqin kelajakda Namangan, Andijon, Samarqand va boshqa yirik shaharlarimizda ham ayni shunday hududlar barpo etishni rejalashtirganmiz.

Bularning barchasi fuqarolik va sanoat qurilishining jadal rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratadi, yangi zavod mahsulotlariga ham, turdosh tarmoqlar mahsulotlariga ham barqaror talabni vujudga keltiradi.

Aziz do'stlar!

Toshkent metallurgiya zavodining ishga tushirilishi mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantirishga ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu majmuani bunyod etishda O'zbekistondagi ko'plab qurilish korxonalarining mingga yaqin muhandis va ishchi-

lari ishtirok etdilar. Zavod qurilishi ular uchun yangi tajriba maydoniga, mahorat maktabiga aylandi.

Korxonada muhandislar, loyihachilar, metallurglar va boshqa mutaxassislarning yangi avlodi shakllanayotgani, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega. Ularning aksariyati rivojlangan davlatlardagi tarmoq korxonalarida malaka oshirib kelgan yigit-qizlardir. Mana shunday navqiron yoshlarimizning eng yuqori xalqaro standartlar darajasida ishlashga qodir ekani barchamizni quvontiradi. Kelajakda ularning bilim va salohiyati yuzlab yangi zamonaviy korxonalar uchun mustahkam poydevor bo'ladi, deb ishonamiz.

Hurmatli do'stlar!

Ushbu yangi qudratli korxonada O'zbekiston – Rossiya strategik sherikligi mustahkamlanib borayotganining yana bir yorqin timsolidir.

Keyingi to'rt yilda Rossiya Prezidenti Vladimir Vladimirovich Putin bilan samarali muloqotlarimiz, siyosiy irodamiz va o'zaro qo'llab-quvvatlashimiz natijasida ikki tomonlama munosabatlarda ulkan yutuqlarga erishilganini mamnuniyat bilan qayd etib o'tmoqchiman.

Biz savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy sohalardagi hamkorlikni, O'zbekistonda yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish borasidagi ishlarni yuksak darajaga olib chiqishga muvaffaq bo'ldik.

Mazkur davrda ikki tomonlama savdo hajmi hamda Rossiyadan iqtisodiyotimizga kiritilgan investitsiyalar miqdori ikki barobar ortib, mingdan ziyod yangi korxonalar tashkil etildi.

Biz hozirgina Rossiya Federatsiyasi sanoat va savdo vaziri Denis Valentinovich Manturov bilan o'tkazgan uchrashuvimizda mana shunday loyihalarni amalga oshirishni har tomonlama muhokama qilib oldik va kelgusidagi hamkorlik rejalarimizni ko'rib chiqdik. Bu o'rinda iqtisodiyotning turli tarmoqlarida

yuqori texnologik ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish bo'yicha yangi loyihalar portfeli haqida so'z bormoqda.

Xususan, yaqin kelajakda Toshkent metallurgiya zavodi kabi o'nlab yirik va innovatsion korxonalarni ishga tushirish maqsadida bugun O'zbekiston va Rossiya korxonalari o'rtasidagi sanoat kooperatsiyasi bo'yicha yangi uzoq muddatli dastur ustida ish olib boryapmiz.

Fursatdan foydalanib, ushbu muhim loyihani amalga oshirishda faol ishtirok etgan Rossiyaning yetakchi korxonalar, kompaniya va banklariga, boshqa xorijiy sheriklarimizga minnatdorlik bildiraman.

O'zbekiston va Rossiya sherikligini biz uchun ustuvor bo'lgan ta'lim sohasida ham mustahkamlashga katta e'tibor bermoqdamiz. Chunki, mamlakatimizda ishlab chiqarishni tubdan yangilash va ilm-fanga asoslangan texnologiyalarni joriy etish, hech shubhasiz, yangi avlod kadrlarini shakllantirishni taqozo etadi.

Shu maqsadda keyingi uch yilda O'zbekistonda Rossiyaning yetakchi oliy ta'lim muassasalarining 8 ta yangi filiali tashkil etildi. Jumladan, metallurgiya tarmog'i uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlaydigan "Moskva po'lat va qotishmalar instituti" Rossiya milliy texnologik tadqiqotlar universiteti filiali ochildi.

Shu o'rinda zavodni texnologik jihozlashda Italiyaning yetakchi "Daniyeli" kompaniyasi biz bilan hamkorlik qilganini mamnuniyat bilan ta'kidlayman. Bugun biz O'zbekiston – Italiya munosabatlarining istiqbollari ustida ishlamoqdamiz. Ushbu loyiha mamlakatlarimizning yuqori texnologiyalar sohasidagi o'zaro manfaatli hamkorligiga yorqin misol bo'ladi, deb ishonaman.

Bunday noyob loyiha O'zbekiston, Rossiya, Italiya, Turkiya va boshqa mamlakatlar kompaniyalari, loyiha institutlari va banklari o'rtasidagi xalqaro kooperatsiya va o'zaro muvofiqlashtirilgan faoliyat tufayli amalga oshirildi. Uni moliyalashtirishda "Rosek-

simbank”, EKSAR sug’urta agentligi, O‘zbekiston tomonidan esa Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi, “Asaka” bank va “O‘zsanoatqurilishbank” ishtirok etdi.

Bu ishlarda bugungi marosimimizda qatnashayotgan hurmatli xorijiy hamkorlarimizning shaxsiy ishtirokini alohida qayd etmoqchiman.

Aziz do‘stlar!

Hurmatli mehmonlar!

Bugun ishga tushirilayotgan Toshkent metallurgiya zavodi, hech shubhasiz, yangi O‘zbekiston tarixining yangi va yorqin sahifasi bo‘lib qoladi.

Ishonchim komilki, ushbu korxonaning ko‘p millatli navqiron mehnat jamoasi O‘zbekistonimizni har tomonlama rivojlantirish, dunyo miqyosida raqobatbardosh mamlakatga aylantirishga munosib hissa qo‘shadi.

Bugungi quvonchli voqea munosabati bilan sizlarni yana bir bor samimiy muborakbod etib, barchangizga mustahkam sog‘liq, baxt-saodat, jonajon Vatanimiz ravnaqi yo‘lida olib borayotgan bunyodkorlik ishlaringizda yangi yutuq va omadlar tilayman.

E’tiboringiz uchun rahmat.

*Toshkent metallurgiya zavodining
ochilish marosimidagi nutq*

2020-yil 4-dekabr

**MAMLAKATIMIZ KONSTITUTSIYASI
QABUL QILINGANINING 28 YILLIGI
MUNOSABATI BILAN O‘ZBEKISTON
XALQIGA BAYRAM TABRIGI**

Muhtaram vatandoshlar!

Sizlarni ulug‘ ayyom – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 28 yillik bayrami bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etib, barchangizga o‘zimning yuksak hurmat-ehtiromim va ezgu tilaklarimni bildiraman.

Qadrli do‘stlar!

Dunyo miqyosida avj olgan koronavirus pandemiyasi tufayli bu yil Konstitutsiya kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimlarni keng miqyosda o‘tkazishning, afsuski, imkoni bo‘lmayapti. Lekin, shunga qaramasdan, bu bayramning ruhi va shukuhi qalblarimizda, yuraklarimizda davom etmoqda. Bu ayyom yurtimizning mehnat jamoalari, ta‘lim maskanlari, mahallalarda shod-u xurramlik bilan nishonlanmoqda.

Konstitutsiyamizning qoida va tamoyillaridan kelib chiqib, biz bundan to‘rt yil oldin Harakatlar strategiyasini qabul qildik hamda keng ko‘lamli va shiddatli demokratik islohotlarni boshladik. Ularning huquqiy asosini Konstitutsiyamizga 7 marta kiritilgan o‘zgartishlar, qabul qilingan 5 ta kodeks va 250 ga yaqin qonunlar tashkil etmoqda.

O‘tgan qisqa davrda jamiyatimizning siyosiy-huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy qiyofasi, odamlarimizning dunyoqarashi butunlay o‘zgargani, har bir yurtdoshimiz mamlakatimizning taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shayotgani Bosh qomusimizning hayotbaxsh qudrati va ulkan salohiyatidan dalolat beradi.

Ana shu ulkan salohiyatga tayanib, xalqimiz bugungi kunda murakkab sinovlarni mardona yengib, yurtimizda erkin, obod va farovon hayot – yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida fido-korona mehnat qilmoqda.

“Yangi O‘zbekiston” degan ibora xalqaro maydonda na- faqat yangi tushuncha, balki real ijtimoiy hodisa sifatida qa- bul qilinmoqda.

Konstitutsiyamiz yaratib bergan ulkan huquqiy imkoniyatlar- ning samarasi bo‘lgan bunday yutuq va natijalar barchamizga, albatta, yuksak g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi.

Hurmatli yurtdoshlar!

“Xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbaidir” degan konstitutsiyaviy norma asosida mamlakatimizda xalq dav- lat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qiladigan, Konstitutsiya va qonun ustun bo‘lgan samarali va barqaror tizim shakllanmoqda.

Ana shunday konstitutsiyaviy poydevorga asoslangan ushbu tizim dunyo shiddat bilan o‘zgarib borayotgan hozirgi murakkab vaziyatda turli tahdid va sinovlar, jumladan, global pandemiya- ga qarshi kurashda, Buxoro va Sirdaryo viloyatlarida yuz bergan tabiiy va texnogen ofatlarning oqibatlarini bartaraf etishda o‘zini to‘la oqladi.

Konstitutsiyamiz mohiyatiga chuqur singdirilgan demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqat hamda insonparvarlik tamoyillarini ta‘minlash bo‘yicha mamlakatimizda tizimli va ortga qaytmaydi- gan demokratik islohotlar amalga oshirilmoqda.

Avvalo, Asosiy Qonunimizda kafolatlangan malakali tibbiy xizmatdan foydalanish va kuchli ijtimoiy himoyani ta‘minlash bo‘yicha har bir insonning huquqlarini qo‘llab- quvvatlash va amalga oshirishda barcha imkoniyatlar ishga solinmoqda.

Pandemiya davrida aholi sog'lig'ini saqlash, ishsiz qolgan fuqarolarga yordam berishga, tadbirkorlarga birinchi darajali e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, 10 trillion so'm fondga ega bo'lgan Inqirozga qarshi kurashish jamg'armasi tashkil etilib, uning mablag'lari sog'liqni saqlash, ijtimoiy infratuzilmalar, aholi va korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga yo'naltirildi.

Yil davomida 500 mingdan ortiq tadbirkor va 8 milliondan ziyod fuqaro uchun 34 trillion so'mga yaqin imtiyozlar berildi, ijtimoiy nafaqalar, moddiy yordam va bandlikni oshirishga 2,6 trillion so'm qo'shimcha mablag' ajratildi.

O'tkir ijtimoiy muammo bo'lib kelayotgan aholini arzon uy-joylar bilan ta'minlash bo'yicha davlat dasturi doirasida faqat joriy yilning o'zida 13 mingdan ziyod yurtdoshlarimizga yangi uylarning kaliti topshirildi.

Shu bilan birga, Sardoba tumanida ofatdan zarar ko'rgan xonadonlar uchun ko'p qavatli yangi uylar, ijtimoiy infratuzilma obyektlarini o'z ichiga olgan go'zal va zamonaviy shaharcha bunyod etildi.

Og'ir turmush sharoitida yashayotgan mingdan ortiq xotin-qizlarga uy-joy bo'yicha boshlang'ich badallar to'lab berilgani ham ana shunday ezgu ishlarimiz qatoriga kiradi.

Faol gender siyosati doirasida xotin-qizlarimizning ijtimoiy-siyosiy mavqeyini mustahkamlash bo'yicha jadal ishlar davom ettirilmoqda.

Bularning barchasi pandemiya va uning oqibatida yuzaga kelgan iqtisodiy va ijtimoiy inqirozning salbiy ta'sirini yumshatish imkonini bermoqda va xalqimizning ertangi kunga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Qadrli yurtdoshlar!

Konstitutsiyamizda o'z ifodasini topgan adolat prinsipini amalda ta'minlash bo'yicha ham katta ishlar olib borilmoqda.

Jumladan, kambag'allikni qisqartirish maqsadida ijtimoiy yordamning yangi va samarali mexanizmlari joriy etilmoqda.

Uyma-uy yurib aholi muammolarini o'rganish natijasida 2,5 milliondan ziyod a'zosi bo'lgan 590 mingdan ortiq oilani qo'llab-quvvatlash uchun 840 milliard so'm mablag' ajratildi. Xususan, har bir xonadondagi ayollar va yoshlarning ehtiyoji, hayotiy muammolari aniqlanib, 300 mingga yaqin oilaning mehnatga layoqatli a'zolari ish bilan ta'minlandi.

Eng muhimi, odamlarda erkin mehnat qilish, ishbilarmonlik va tadbirkorlik hisobidan kambag'allikdan chiqish tajribasi va ko'nikmasi shakllanmoqda.

Yurt boshiga ish tushgan og'ir kunlarda biznes hamjamiyati, tadbirkor va fermerlarimiz, mehr-oqibatli fuqarolarimiz ishtirokida tashkil etilgan "Saxovat va ko'mak" umumxalq harakati insonparvarlikning yana bir yuksak namoyoni bo'ldi. Umumxalq harakati doirasida aholining ijtimoiy yordamga muhtoj toifalariga 204 milliard so'mlik yordam ko'rsatildi.

"Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi", degan g'oya asosida umummilliy ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga misli ko'rilmagan e'tibor qaratilmoqda. Ilm-fan, madaniyat va san'at, adabiyot, sport sohalarini rivojlantirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, yoshlarning, ayniqsa, qizlarimizning iste'dod va qobiliyatini ro'yobga chiqarish borasida ham ko'p ishlar qilinmoqda.

Bularning barchasi yurtimizda **Uchinchi Renessans** – milliy taraqqiyotimizning yangi davri poydevorini yaratishga xizmat qiladi.

Yana bir muhim konstitutsiyaviy tamoyil – inson huquq va manfaatlarini ta'minlash bo'yicha barcha sohalarda, ayniqsa, sud-huquq tizimida chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning tasdig'ini keyingi to'rt yilda 2 ming 600 nafar fuqaroga nisbatan oqlov hukmi chiqarilib, 2 ming 400 nafar shaxs sud zalidan ozod

qilingani, 7 ta sud bosqichi 3 bosqichga keltirilib, sud tizimi “**bir sud – bir instansiya**” tamoyili asosida qayta tashkil etilayotganida ko‘rish mumkin.

Mamlakatimizda Inson huquqlari bo‘yicha Milliy strategiya izchil amalga oshirilmoqda.

Afv institutini qo‘llash borasidagi ishlarimiz ham tizimli ravishda davom ettirilmoqda. Shu yilning o‘zida bilib-bilmay jinoyatga qo‘l urgan va o‘z qilmishidan pushaymon bo‘lgan 300 dan ortiq shaxs afv etilib, jazoni o‘tash joylaridan ozod qilindi, 200 nafar mahkumning jazo muddatlari qisqartirildi.

Uzoq vaqt fuqarolikka ega bo‘lmay kelgan insonlar bugungi kunda o‘zlarini to‘laqonli O‘zbekiston fuqarolari deb his etmoqda. O‘tgan yigirma besh yilda 482 nafar shaxsga fuqarolik berilgan bo‘lsa, bugungi kunda 50 mingdan ziyod kishi shu huquqqa ega bo‘lmoqda.

Bu esa Birlashgan Millatlar Tashkilotining fuqaroligi bo‘lmagan insonlar sonini kamaytirishga qaratilgan chaqirig‘iga munosib javob bo‘ladi.

Toshkent shahri va Toshkent viloyatida ko‘chmas mulk sotib olish bilan bog‘liq cheklovlar bekor qilingani tufayli 40 mingdan ortiq fuqaro poytaxt mintaqasida sotib olgan uy-joylarini o‘z nomiga rasmiylashtirish imkoniga ega bo‘ldi.

Muhtaram vatandoshlar!

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, inson huquq va erkinliklarini ta‘minlash, xalq farovonligini oshirish borasida olib borilayotgan izchil siyosat jahon hamjamiyati tomonidan keng e‘tirof etilmoqda.

Bu haqda so‘z yuritganda, shu yil sentabr oyida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida O‘zbekiston tomonidan ilgari surilgan bir qator global va mintaqaviy tashabbuslar, aniq amaliy takliflar xalqaro miqyosda keng qo‘llab-quvvatlanganini ta‘kidlash o‘rinlidir.

Oktabr oyida esa mamlakatimiz milliy davlatchiligimiz tarixida ilk bor Birlashgan Millatlar Tashkilotining asosiy organlaridan biri bo'lgan Inson huquqlari kengashiga a'zo etib saylandi.

Bu – biz olib borayotgan ochiq va faol tashqi siyosatning yana bir katta yutug'i, desak, har tomonlama to'g'ri bo'ladi.

Mamlakatimizda investitsiya va biznes muhiti yaxshilanayotgani, turizm va eksport salohiyati yuksalib borayotgani, Xalqaro mehnat tashkilotining standart va qoidalari hayotga faol tatbiq etilayotgani tufayli O'zbekistonning xalqaro reytinglardagi o'rni yil sayin yuksalmoqda.

Pandemiya va global iqtisodiy inqiroz sababli yuzaga kelgan turli to'siq va muammolarga qaramasdan, tashqi aloqalarimiz to'xtab qolmadi. Qo'shni va hamkor davlatlar bilan siyosiy va savdo-iqtisodiy, gumanitar sohalardagi aloqalar uzluksiz davom etmoqda.

Xorijiy mamlakatlardagi fuqarolarimizning mavjud muammolarini tezkor va ijobiy hal etish, ularga amaliy huquqiy yordam ko'rsatish hamda Vatanimizga qaytarish borasida bu yil aniq chora-tadbirlar amalga oshirilgani xalqimizga yaxshi ma'lum. Xususan, pandemiya davrida 500 mingdan ziyod O'zbekiston fuqarosi yurtimizga olib kelindi. Chet ellarda qiyin ahvolga tushib qolgan 100 mingga yaqin yurtdoshimizga turli yordamlar ko'rsatildi. Yolg'on va'dalarga aldanib, mamlakatimizdan chiqib ketgan va qurolli mojarolar bo'layotgan Yaqin Sharq mintaqasida og'ir kunlarni boshidan o'tkazayotgan fuqarolarimiz, asosan ayollar va bolalarni mamlakatimizga qaytarib olib kelish bo'yicha insonparvarlik tadbirlari davom ettirilmoqda.

Shu munosabat bilan yana bir bor ta'kidlab aytmoqchiman: **O'zbekiston fuqarolari hamisha o'z davlati va Konstitutsiyasi himoyasida bo'ladi va biz bu tamoyilni bundan buyon ham qat'iy amalga oshiramiz.**

Hurmatli do'stlar!

Keyingi yillarda erishgan ijobiy natijalarimiz biz ko'zlayotgan ulug'vor maqsadlar yo'lidagi dastlabki qadamlar ekanini yaxshi tushunamiz. Bu borada hali oldimizda ulkan vazifalar turibdi.

Birinchidan, Konstitutsiya va qonunlarimizni yanada takomillashtirishni bugun hayotning o'zi talab etmoqda. Jumladan, xalqimiz manfaatlariga, hayotimizning barcha sohalarini erkinlashtirishga xizmat qiladigan qonunlarni qabul qilish, davr talablariga javob bermaydigan qonun hujjatlarini bekor qilib, qonunchilik bazasini ixchamlashtirish, biznes faoliyatini tartibga solish borasidagi ortiqcha normalarni kamaytirish zarur.

Ushbu vazifalarni bajarishda siyosiy partiyalar va fuqarolik jamiyati institutlari yanada faol bo'ladilar, deb o'ylayman.

Ikkinchidan, taraqqiyot kushandasi bo'lgan korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishning ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va amalga oshirish lozim.

So'nggi ikki yilda noqonuniy xatti-harakati bilan davlatga 2 trillion so'm zarar yetkazgan 1986 nafar mansabdor shaxs korrupsiyaga oid jinoyatlari uchun jinoiy javobgarlikka tortilgani bu masala naqadar dolzarb ekanini ko'rsatadi.

Mazkur yo'nalishdagi ishlarimizni tizimli va kompleks davom ettirish uchun 2021–2025-yillarga mo'ljallangan Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy strategiyasi ustida ish olib bormoqdamiz.

Shu o'rinda yana bir bor ta'kidlab aytaman: bu masala biz uchun o'ta muhim va ustuvor vazifa bo'lib qoladi. Chunki korrupsiya – bu davlatimizni ich-ichidan yemirib, milliy xavfsizligimizga raxna soladigan g'oyat xatarli tahdid va unga qarshi murossasiz kurash olib borish – barchamizning burchimizdir.

Uchinchidan, mamlakatimizda tinchlik-osoyishtalik, millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglikni mustahkamlash, jamoat tartibini saqlash masalalariga yanada kuchli e'tibor qara-

tishimiz zarur. **“Qonun – ustuvor, jinoyatga – jazo muqarrar”** degan konstitutsiyaviy tamoyilni amalda ta’minlash uchun huquq-tartibot idoralarining bor kuch va imkoniyatlari safarbar etiladi.

To’rtinchidan, muhtaram nuroniylarimiz, hurmatli xotinqizlarimiz, aziz yoshlarimizning hayotiy manfaatlarini ta’minlash, xonadon va mahallalarimizda, yagona va ahil oila bo’lib yashayotgan ko’p millatli yurtimizda tinchlik va hamjihatlik muhitini mustahkamlash biz uchun bundan buyon ham ustuvor vazifa bo’lib qoladi.

Beshinchidan, so’z va matbuot erkinligi, ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta’minlash, davlat hokimiyati idoralari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o’rnatishga qaratilgan ishlarimizning ta’sirchanligini yanada oshiramiz.

Bir haqiqat hammamizga ayon bo’lishi kerak: barcha sohalarda amalga oshirayotgan islohotlarimiz qatori jamiyatimizda ochiqlik va oshkoralik, o’zini o’zi tanqid va demokratik yangilanish jarayonlari endi hech qachon ortga qaytmaydi va biz bu yo’lni qat’iy davom ettiramiz.

Aziz va muhtaram vatandoshlar!

Xalqimiz hayotini yanada obod va farovon qilish, yurtimizda yashayotgan, millati, tili va dinidan qat’i nazar, har bir insonga e’tibor va g’amxo’rlik ko’rsatish – davlatimiz va jamiyatimizning bosh vazifasidir.

Mana shunday ezgu va sharafli maqsad yo’lida keksa-yu yosh barcha vatandoshlarimiz bir tan-u bir jon bo’lib harakat qiladilar, yangi O’zbekiston bunyodkori bo’lib maydonga chiqadilar, deb ishonaman.

Sizlarni Konstitutsiya kuni bayrami bilan yana bir bor chin qalbimdan tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt, shaxsiy va ijtimoiy hayotda katta muvaffaqiyatlar tilayman. Xonadonlarimizni, go’zal yurtimizni tinchlik-osoyishtalik, fayz-u baraka aslo tark etmasin!

Barcha ezgu orzu-niyatlarimiz ro’yobga chiqsin!

Yaratganning o’zi hammamizni panohida asrasin!

2020-yil 7-dekabr

MULOQOT VA AMALIY FAOLIYATLARNING YANGI BOSQICHI

Muhtaram Aleksandr Grigoryevich!

Muhtaram Nursulton Abishevich!

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Oliy darajadagi Yevroosiyo iqtisodiy kengashiga taklif qilindim va soʻzga chiqayotganimdan cheksiz minnatdorman.

Avvalo, Oʻzbekiston Respublikasining Yevroosiyo iqtisodiy kengashiga kuzatuvchi davlat maqomida qatnashish haqida bergan arizasini qoʻllab-quvvatlagan barcha hamkor davlatlarning boshliqlariga minnatdorchiligimni izhor qilishimga ijozat berishingizni soʻrayman.

Biz Oʻzbekistonda Yevroosiyo iqtisodiy kengashi faoliyatiga bogʻliq integratsiya jarayonlarini har doim katta xayrixohlik bilan kuzatib kelamiz. Mazkur tashkilotning obroʻ-eʻtibori xalqaro miqyosda oshayotgani, xorijiy mamlakatlar bilan amaliy hamkorlik ufqlari tobora kengayib borayotganini alohida mamnuniyat bilan taʼkidlaymiz.

Hurmatli hamkasblar!

Oʻzbekiston Respublikasi hozir keng koʻlamli islohotlar arafasida turibdi. Bugun biz ochiq iqtisodiy siyosat davrini boshdan kechiryapmiz, savdo-sotiqni liberallashtirish yoʻlini izchil davom ettiryapmiz. Bu yil Jahon savdo tashkilotiga aʼzo boʻlish uchun muzokaralarni qaytadan boshladik, sanoatni va infratuzilmalarni yangilash uchun jadal harakat qilyapmiz, ishchanlik muhitini hamda investitsiya iqlimini yanada mukammallashtirish choralarini koʻryapmiz.

O'zbekiston barcha xorijiy sheriklar bilan savdo-iqtisodiy aloqalar va o'zaro hamkorlikni yanada mustahkamlashdan manfaatdordir.

Biz Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan mustahkam va ko'p tarmoqli yangi hamkorlikni rivojlantirishga katta ahamiyat beramiz.

Bu quyidagi muhim jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Birinchidan, yevroosiyo mamlakatlari bizning asosiy savdo hamkorimiz hisoblanadi. Keyingi yillarda O'zbekistonning hamkorlik mamlakatlari bilan savdo aloqalari ikki baravar ko'paydi. Ba'zi hamkorlik mamlakatlari bilan bu aloqalar hatto pandemiya sharoitida ham sezilarli darajada rivojlanib borayotgani ma'lum.

Mamlakatlarimiz orasidagi mavjud katta imkoniyatlardan to'la foydalanishimiz, savdo munosabatlariga bog'liq har xil g'ovlar va to'siqlarni hamjihat bo'lib bartaraf etishimiz, birgalikda yangi bozorlar yaratishimiz zarur.

Ikkinchidan, mamlakatlarimizning iqtisodiyoti ko'p jihatlardan bir-biriga bog'liq. Hatto ikki yil oldin biz ko'p masalalarda raqobatlashar edik. Bugun yetakchi korxonalarimiz samarali kooperatsiyalar barpo etishib, birgalikda uchinchi mamlakat bozorlarida ham hamkorlik qilmoqdalar.

So'nggi yillarning o'zida mamlakatlarimiz ishtirokida minglab yangi qo'shma korxonalar barpo etildi. Metallurgiya, energetika, mashinasozlik, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoati hamda boshqa tarmoqlarda ko'plab ulkan loyihalar hayotga tatbiq etilmoqda.

Biz sanoat kooperatsiyalari hamda ilg'or tajribalar va innovatsion yondashuvlar asosida yaratilgan qo'shma korxonalarni yanada ko'paytirishdan manfaatdormiz.

Bunday loyihalarni amalga oshirishda ko'mak berish uchun Yevroosiyo taraqqiyot banki bilan hamkorlik masalasini birgalikda ko'rib chiqmoqdamiz.

Uchinchidan, bizning transport va infrastruktura aloqalarimiz o'zaro bir-biri bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Ishonamanki, bu yo'nalishda o'zaro kelishilgan yechimlarni birgalikda ishlab chiqish, transport yo'laklaridan samarali foydalanish ularning raqobatbardoshligini yanada oshiradi va yuk tashish imkoniyatlarini kengaytiradi.

To'rtinchidan, bugungi kunda ulkan Yevroosiyo hududlari doirasidagi o'zaro manfaatli munosabatlar mehnat resurslarini keng ko'lamda safarbar qilishni taqozo etadi.

Bu borada ham yaqin hamkorlik qilish aholi bandligini yuqori darajada ta'minlash va mamlakatlarimiz iqtisodiyotini yuksak malakali kadrlar bilan boyitishdek dolzarb muammoni ijobiy hal qilishga yordam beradi.

Hurmatli hamkasblar!

Mana shu muhim masalalarni hisobga olgan holda O'zbekiston parlamenti Yevroosiyo Hamdo'stligi Mamlakatlari bilan hamkorlik qilish uchun kuzatuvchi davlat sifatida qatnashish haqida qaror chiqardi.

Bizning fikrimizcha, bu mamlakatlarimiz orasidagi o'zaro muloqot va amaliy faoliyatlar darajasini yuksaltirishga hamda hamdo'stlik doirasida ro'y berayotgan ijobiy jarayonlarni yanada chuqur anglashimizga yordam beradi.

Shu munosabat bilan biz bunday hamkorlik mamlakatlarimiz o'rtasidagi milliy manfaatlarga asoslanishi, o'zaro tenglik, sherikchilik mezonlariga mos kelishi kerak deb hisoblaymiz.

Yana bir marta bizni qo'llab-quvvatlaganlaringiz va O'zbekistonni Yevroosiyo iqtisodiy kengashiga kuzatuvchi maqomida qabul qilganingiz uchun minnatdorchilik bildi-

ramiz. Bugun qabul qilingan mazkur qaror mamlakatlarimiz o'rtasidagi do'stona munosabatlar va keng ko'lamlı iqtisodiy aloqalarning yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi, deb ishonamiz.

E'tiboringiz uchun rahmat!

*Oliy darajadagi Yevroosiyo iqtisodiy
kengashining videoanjuman shaklida o'tgan*

yig'ilishidagi nutq

2020-yil 11-dekabr

O‘ZBEKISTON QISHLOQ XO‘JALIGI XODIMLARIGA

Muhtaram vatandoshlar!

Hurmatli dehqon va fermerlar, agroklaster egalari!

Avvalo, siz azizlarni, sizlarning timsolingizda butun xalqimizni Qishloq xo‘jaligi xodimlari kuni bilan chin qalbidan tabriklab, barchangizga eng ezgu va samimiy tilaklarimni bildirishga ijozat etgaysiz.

Ushbu qutlug‘ ayyomda rizq-ro‘zimiz bunyodkorlari – mishkor dehqon va fermerlar, zahmatkash chorvador va pillakorlar, mohir suvchi va irrigatorlar, o‘z ishining haqiqiy ustasi bo‘lgan mexanizator va agronomlar, sohaning jonkuyar olimlari va mutaxassislarimizga chuqur hurmat bajo keltirib, chin dildan ta‘zim qilamiz.

Dunyodagi eng qadimiy va oliyjanob kasb egalari hisoblangan, el-yurt dasturxonini to‘kin va farovon etadigan g‘oyat muhim sohaning zalvorli yukini o‘z yelkasida ko‘tarib kelayotgan sizlar kabi minglab yurtdoshlarimizning fidoyi mehnati va jasorati har qanday yuksak e‘tirofga munosibdir.

Buyuk ajdodimiz Alisher Navoiy sizlarning sha‘ningizni ulug‘lab: **“Olam ma‘murlig‘i alardin, olam ahli masrurlig‘i alardin. Har qayon qilsalar harakat, elga ham qut yetkurur, ham barakat”**, deb aytgan so‘zlarida chindan ham teran haqiqat mujassam.

Shu xursandchilik kunlarda barchamiz sizlarni bayram bilan muborakbod etar ekanmiz, bu yilgi mashaqqatli mehnatingiz,

erishilgan natijalar va oldimizda turgan rejalar haqida fikr yuritishimiz tabiiy, albatta.

Hammamizga yaxshi ayon, bu yil butun insoniyat uchun jiddiy sinov davri bo'ldi. Shunday qiyin sharoitda el-yurtimiz, xususan, zahmatkash dehqon va fermerlarimiz koronavirus pandemiyasi bilan bir qatorda, ayrim hududlarimizda yuz bergan tabiiy va texnogen ofatlarni ham mardonavor yengib, yuksak marralarni qo'lga kiritganini minnatdorlik bilan ta'kidlaymiz. Jumladan, Sirdaryo viloyatining Sardoba, Oqoltin, Mirzaobod tumanlarida 19 ming gektardan ziyod maydondagi paxta, g'alla va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlarini qayta ekishga to'g'ri keldi. Buxoro viloyatidagi kuchli dovul oqibatida 26 ming gektar maydonda paxta va g'alla nihollariga zarar yetdi.

Albatta, qishloq xo'jaligi sohasida oson va yengil yilning o'zi bo'lmaydi. Tabiat injiqliklari, suv resurslarining cheklangani, turli hasharot va zararkunandalar bilan kurashish har bir dehqondan katta azm-u shijoat, mirishkorlik va tajribani talab etadi. Xalqimiz sizlarning ana shunday ibratli fazilatlaringizni yaxshi biladi va yuksak qadrlaydi.

Joriy yilda yurtimizda olti yarim million tonnaga yaqin g'alla, 3 million tonnadan ziyod paxta, 21 ming tonna pilla, 22 million tonna meva-sabzavot, ikki yarim million tonna go'sht va 11 million tonnadan ziyod sut mahsulotlari yetishtirilgani, avvalo, sizlarning mashaqqatli va halol mehnatingiz samarasidir.

Bu haqda gapirganda, g'alladan yuqori hosildorlikka erishgan Yozyovon tumanidagi "Bahrombek", Termiz tumanidagi "Davron Namuna", G'ijduvon tumanidagi "Sodiq Zafar saxovati", Yangibozor tumanidagi "Jo'rabek Qumobod", Baliqchi tumanidagi "Xolmirza Boltaboyev", Sayhunobod tumanidagi "Qurama", Narpay tumanidagi "Azamat Siroj", Nukus tumanidagi "Sho'rtanbay-baxtli-el", Qiziltepa tumanidagi "Ulug'di-

yor kelajagi”, Uychi tumanidagi “Zamin”, Paxtakor tumanidagi “Safarov Bahrom” fermer xo‘jaliklari hamda Pop va Mingbuloq tumanlaridagi “Art soft teks”, Rishton tumanidagi “Qahramon”, Do‘stlik tumanidagi “Sangzor biznes parranda”, Navbahor tumanidagi “Navoiy asl chorvasi” va Qorovulbozor tumanidagi “Ochil fayz biznes” g‘allachilik klasterlarining nomlarini mamnuniyat bilan e‘tirof etamiz.

Paxtadan mo‘l hosil yetishtirishda Uchko‘prik tumanidagi “Mirjalol Guliston durdonasi”, Qiziltepa tumanidagi “Safar obod bog‘i”, G‘uzor tumanidagi “Jahongir Norboy o‘g‘li”, Bog‘ot tumanidagi “Xolmurod o‘g‘li Mansur”, Namangan tumanidagi “G‘afurjon ota”, Narpay tumanidagi “Abdusalom Xo‘shmatov”, Buloqboshi tumanidagi “Zoirjon Nizomov”, Romitan tumanidagi “Navobod”, Sirdaryo tumanidagi “Xudoyqul o‘g‘li Sulaymon”, Oqqo‘rg‘on tumanidagi “Olloberdi Murod” fermer xo‘jaliklari, shuningdek, Quyichirchiq tumanidagi “TST klaster”, Namangan tumanidagi “Toshbuloq teks”, Jarqo‘rg‘on tumanidagi “Termiz Jayhun klaster”, Qo‘rg‘ontepa tumanidagi “Xanteks grupp” va Hazorasp tumanidagi “Hazorasp teks” kabi paxta-to‘qimachilik klasterlari barchaga namuna bo‘ldilar.

Fursatdan foydalanib, boy bilim va tajribasi, omilkorlik xislatlarini namoyon etib, ilm-fan yutuqlarini samarali qo‘llash hisobidan yuksak xirmon yaratgan barcha dehqon va fermerlarimizga o‘z nomimdan, xalqimiz nomidan chuqur minnatdorlik bildiraman.

Aziz do‘stlar!

Barchangiz guvoh bo‘lib turibsiz, bugungi murakkab va qaltis davr dunyo miqyosida agrar sohaning hal qiluvchi o‘rni va ahamiyatini yana bir bor yaqqol ko‘rsatib bermoqda. Mavjud resurs va imkoniyatlardan oqilona foydalanib, aholini qishloq xo‘jalik mahsulotlari bilan kafolatli ta‘minlash, sohada yangi ish o‘rinlari

yaratish, manfaatdorlikni yanada oshirish, ilg'or yondashuvlarni joriy etish eng muhim masalaga aylanmoqda.

Shuning uchun biz iqtisodiyotimizni, jumladan, qishloq xo'jaligi sohasini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish, fermer, klaster hamda kooperatsiyalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash masalasiga har doimgidan ham ko'proq ahamiyat bermoqdamiz. Xususan, bu yil qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining 5 ta qonuni, Prezidentning 12 ta farmoni va 30 dan ortiq qarori hamda hukumatning ko'plab qarorlari ayni shu yo'nalishga qaratilgandir.

Qishloq xo'jaligi tarmog'iga bozor mexanizmlari, jumladan, agroklastar tizimining joriy etilgani qisqa fursatda o'zining ijobiy samarasini berayotganidan barchangiz yaxshi xabardorsiz.

Bugungi kunda mamlakatimizda 97 ta paxta-to'qimachilik, 149 ta meva-sabzavotchilik, 65 ta g'allachilik, 35 ta sholichilik va 7 ta dorivor o'simliklar yetishtirishga ixtisoslashgan klasterlar va 11 ta paxta-to'qimachilik kooperatsiyalari faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, qoramolchilik yo'nalishida 34 ta, parrandachilik bo'yicha 10 ta, baliqchilik tarmog'ida 36 ta, asalarichilik yo'nalishida 15 ta fermer xo'jaligida klaster usulida mahsulot yetishtirish yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga, keyingi ikki yilda respublikada pillachilik sohasida 62 ta klaster ishga tushirilib, ular tomonidan 600 milliard so'mga yaqin mahsulot ishlab chiqarildi.

Joriy yilning o'tgan davrida respublika bo'yicha 11 mingga yaqin, ya'ni 90 foiz fermer xo'jaliklari ko'p tarmoqli xo'jaliklarga aylantirildi. Buning natijasida qariyb 37 ming aholi ish bilan ta'minlandi.

Xabaringiz bor, biz so'nggi yillarda aholi tomorqalaridan unumli foydalanish bo'yicha qator qarorlar qabul qildik. Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, uning hududiy organlari, mahalla fuqarolar yig'inlarida tomorqa xo'jaliklari bo'yicha alohida o'rinbosar lavozimi joriy etildi. Shaxsiy tomorqa xo'jalik-

lari samaradorligini oshirishga qaratilayotgan ana shunday chora-tadbirlar natijasida bu yil respublika bo'yicha to'rt yarim million aholiga tegishli 432 ming gektar tomorqa maydonlarida ekinlar to'liq ekilishi ta'minlandi. Hisob-kitoblarga ko'ra, bu maydonlarda 10 million tonnadan ziyod mahsulot yetishtirildi.

Davlat tomonidan shaxsiy tomorqa egalariga artezian quduqlari qazish hamda ixcham issiqxonalar qurish uchun subsidiyalar va imtiyozli kreditlar ajratilayotgani ham aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning yana bir o'ziga xos yo'nalishiga aylandi. Ushbu ezgu maqsadlar uchun O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi huzuridagi Jamg'armadan 65 yarim milliard so'm, tomorqa xizmati korxonalari, qishloq xo'jaligi kooperativlari va fermerlarni qo'llab-quvvatlash uchun esa 110 milliard so'mga yaqin mablag' yo'naltirildi.

Bundan tashqari, **“Har bir yoshga – bir gektar”** dasturi doirasida g'alladan bo'shagan maydonlarning 84 ming gektari 266 mingta kam ta'minlangan oilalar va ishsiz yoshlarga berilib, ularga fermer xo'jaliklari va tomorqa xizmati korxonalari birlashtirildi. Ushbu dastur natijasida 1 million tonnadan ziyod mahsulot yetishtirildi. Amalga oshirilgan ana shunday islohotlar va tarkibiy o'zgarishlar natijasida bu yil jahonda yuz berayotgan pandemiyaning salbiy ta'siriga qaramasdan, 822 million dollardan ziyod miqdordagi qariyb 1,5 million tonna meva-sabzavot 70 dan ortiq davlatga eksport qilindi.

Albatta, bugun hech bir sohada ilm-fan yutuqlari va innovatsion texnologiyalarni amaliyotda qo'llamasdan turib taraqqiyotga erishib bo'lmaydi. Bu esa keng va zamonaviy bilimga ega kadrlarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish, xorijiy tajribalarni o'zlashtirish kabi dolzarb vazifalarni oldimizga qo'yimoqda.

Shu maqsadda agrar sohaga ixtisoslashgan oliy o'quv yurtlarida ta'lim sifatini tubdan oshirish, taraqqiy etgan davlatlarning

nufuzli ta'lim dargohlari bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish, urug'chilik, naslchilik va veterinariya yo'nalishidagi ilmiy muassasalar faoliyatini takomillashtirish borasida ham salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

2020–2021-o'quv yilidan boshlab mavjud qishloq xo'jaligi oliygohlari bilan bir qatorda, Guliston, Buxoro, Qarshi, Namangan, Samarqand, Farg'ona, Urganch davlat universitetlarida agrar soha mutaxassislarini tayyorlash uchun bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha qabul kvotalari ajratildi.

Sohadagi ilg'or tajribalarga tayangan holda, hududlarda "Tuproq klinikasi" mobil laboratoriyalari tashkil etilib, sho'rlanish, suv, shamol eroziyasi, ozuqa elementlari kamayishining oldini olish, tuproq unumdorligi va mahsuldorligini oshirish borasida fermer xo'jaliklari va klasterlariga zarur xizmatlar ko'rsatmoqda.

Shu o'rinda paxta maydonlari hamda bog', uzumzor va issiqxona xo'jaliklarida suv tejevchi texnologiyalarni joriy etish xarajatlarining bir qismi davlat tomonidan qoplab berilayotganini alohida qayd etish lozim.

Joriy yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga yo'naltirilgan 677 milliard so'mlik 80 ga yaqin loyiha, 1 trillion 240 milliard so'mlik investitsiya mablag'lari asosida 12 ta agrologistika markazi ishga tushirilib, qariyb uch yarim ming yangi ish o'rni yaratildi. Shuningdek, paxtachilik klasterlari, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik, quyonchilik tarmoqlarida hamda zamonaviy issiqxonalarining barpo etilishi natijasida 14 mingga yaqin aholi ish bilan ta'minlandi.

Ayni paytda chorvachilikda naslchilikni yaxshilash, zotdor chorva mollarini ko'paytirish, ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarini rivojlantirish, ushbu sohaga davlat tomonidan subsidiyalar ajratib berish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan,

o'tgan davrda chorvachilik xo'jaliklariga ushbu maqsadlar uchun 20 milliard so'mga yaqin subsidiyalar ajratildi.

Aziz do'stlar!

Dunyoda global oziq-ovqat yetishmovchiligi xavfi yuzaga kelayotgan bugungi vaziyatda bizda ichki bozorimizni to'liq ta'minlash bilan birga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmini ikki barobar oshirish va eksportni ko'paytirish uchun barcha sharoitlar mavjud ekanini alohida ta'kid-lamoqchiman.

Kelgusida qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish bo'yicha kompleks dasturlarni amaliyotga tatbiq etish, zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda mahsulot turlari va eksport hajmini yanada oshirish ustuvor masala bo'lib qoladi.

Tuproq unumdorligini saqlash, sohani zarur texnikalar bilan ta'minlash va xizmat ko'rsatish ishlarini yaxshilash, ilg'or bilim va ko'nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash faoliyatini takomillashtirishga e'tiborni yanada kuchaytiramiz.

Sohaga ilm-fan yutuqlari va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bundan buyon ham ustuvor vazifalarimizdan bo'lib qoladi.

Mamlakatimizning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, el-yurtimiz dasturxonini yanada farovon qilishda fidoyi qishloq xo'jaligi xodimlari bundan keyin ham o'zlarining bor bilim va tajribalarini, kuch-g'ayrat va imkoniyatlarini safarbar etadilar, deb qat'iy ishonaman.

Muhtaram dehqon va fermerlar, aziz suvchilar va paxta-to'qimachilik klasterlari xodimlari!

Sizlarni yana bir bor Qishloq xo'jaligi xodimlari kuni bilan – mehnat va hosil bayrami bilan chin dildan tabriklayman.

Barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt-saodat, mas'uliyatli va sharafli mehnat faoliyatingizda ulkan zafarlar, xonadonlaringizga qut-baraka va xotirjamlik hamisha yor bo'lishini tilayman.

2020-yil 12-dekabr

MDH: AMALIY HAMKORLIKNING QUDRATI OSHMOQDA

Hurmatli Kengash ishtirokchilari!

O'zbekiston Respublikasi Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi birlashmasiga siyosiy, savdo-iqtisodiy hamda insonparvarlik sohasidagi keng ko'lamli hamkorlik aloqalarini kuchaytiruvchi muhim va samarali faoliyat maydoni sifatida qaraydi.

Bugungi Kengash ishlari favqulodda sharoitlarda o'tmoqda. Bugun biz jahonda yangi murakkab tartib-intizomlar shakllanayotganligining, qarama-qarshiliklar, noaniq jarayonlar kuchayib borayotganligining guvohi bo'lib turibmiz.

Koronavirus pandemiyasi vaziyatni o'zgartirib, uning oqibatlari tobora globallashib bormoqda. Bularning hammasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotimizga, mamlakatlarimiz fuqarolari hayotiga, kayfiyatiga turlicha ta'sir ko'rsatmoqda.

Mohiyat e'tiboriga ko'ra biz hisoblashishimiz lozim bo'lgan yangi vaziyat shakllanib bormoqda.

Ishonamanki, MDHning katta qudratga ega bo'lgan yuksak salohiyati bilan kuch-harakatlarimizni birlashtirib, ishonch va imkoniyatlarimizni, kuch-qudratimizni ishga solib o'zaro hamjihatlikda, hamkorlikda harakat qilsak, bu inqirozdan tezroq chiqib ketish yo'llarini topa olamiz.

Shuni alohida ta'kidlamoqchimanki, O'zbekiston hamkorlikda nostandart, yangi, foydali yechimlarni topib, mavjud favqulodda vaziyatdan chiqib ketish yo'lida birgalikda harakat qilishga har doim tayyor.

Hurmatli hamkasblar!

Bu yil hammamiz uchun og'ir keldi. Biz MDHning ayrim mamlakatlaridagi mushkul vaziyatlardan bezovta bo'lib, ularni hamdardlik bilan kuzatdik.

Siyosiy iroda va o'z vaqtida ko'rilgan favqulodda choralar tufayli vaziyat yengillashib, ahvol o'z tabiiy o'zaniga qaytdi.

Rossiya Prezidenti Vladimir Vladimirovich Putinning faol ko'magi bilan Tog'li Qorabog'dagi harbiy harakatlar o'z vaqtida to'xtatildi. To'qnashuvlarning Birlashgan Millatlar Tashkilotining qaroriga mos keladigan ijobiy yechimlari topildi. Ular barcha MDH mamlakatlari uchun ham tinchlik va xotirjamlik ruhi qaror topishida katta rol o'ynadi.

Hurmatli davlat boshliqlari!

O'zbekiston Respublikasi yangi hamkorlik darajasiga bosqichma-bosqich ko'tarilib borish, tashkilotimiz doirasida qabul qilingan hujjatlarning hayotga tatbiq etishdagi samaradorligi va amaliy ahamiyatini oshirish tamoyilini yoqlaydi.

Bugun qabul qilinadigan MDHni yanada rivojlantirish Konsepsiyasi yangi maqsadlarimiz va nufuzli vazifalarimizga doir ustuvor yo'nalishlarimizni belgilab berishiga ishonaman.

Bu Konsepsiyani tayyorlashda faol ishtirok etganlarning hammasiga cheksiz minnatdorchilik bildiraman.

Ko'p tarmoqli rivojlanish tamoyillarini qamrab olgan hamkorlik rejalarini yanada kengaytirish borasida ayrim takliflarimni o'rta tashlamoqchiman.

Birinchidan, bugungi sharoitda eng ustuvor vazifamiz mamlakatimizning iqtisodi, savdo va kooperativ aloqalarini jadallik bilan tiklab olishimiz lozim.

Bu masalalar shu yili qabul qilingan MDH mamlakatlari-ning Iqtisodiy rivojlantirish strategiyasida ham o'z ifodasini topgan.

Shu o'rinda duch kelgan ayrim qiyinchiliklarga qaramay, O'zbekistonning MDH mamlakatlari bilan tovar aylanmasi barqaror bo'lib turibdi. Hatto ayrim sheriklarimiz bilan tovar aylanmasi mazkur yilda 20 foizga oshgan.

Biz Shartnoma doirasida MDH mamlakatlari bilan o'zaro hamkorlik doirasini yanada kengaytirish niyatidamiz.

“Yashil” va soddalashtirilgan yo'laklarni amaliyotda keng qo'llashni, mamlakatlarimiz o'rtasida yagona elektron savdo maydonchalari yaratishni amalga oshirmoqchimiz.

O'z navbatida MDH doirasida elektron savdoni rivojlantirish uchun “Yo'l xaritasi”da ishtirok etishga da'vat etamiz.

Ikkinchidan, savdo-sanoat kooperatsiyasi Kompleks dasturini tuzish ishlarini rejalashtirdik.

Bu yerda agrosanoat sektorida, mashinasozlik, elektrotexnika, yengil va oziq-ovqat sanoatida, farmatsevtika va boshqa e'tiborli sohalarda qo'shma klasterlar tuzish haqida gap bormoqda.

Mazkur dastur hamda boshqa innovatsiya loyihalari va ilg'or texnologiyalar taqdimotini kelgusi yili Toshkentda bo'ladigan MDH mamlakatlari Forumida o'tkazish niyatidamiz.

Uchinchidan, transport yo'laklarining raqobatbardoshligini oshirish, texnik reglamentlar va standartlarning bir-biriga uyg'unligi, kelishilgan tarif siyosatini belgilash va birgalikda preferensiya o'tkazish transport jabhalariga bog'liq muhim masalalardan hisoblanadi.

Biz yana o'zaro kelishilgan va barcha sanitariya talablariga mos bo'lgan aviaaloqalarni tezroq tiklash tarafdorimiz. Bu ish insonparvarlik va turistik aloqalar uchun juda zarur.

To'rtinchidan, mamlakatimizda mehnat faoliyatini olib borayotgan MDH mamlakatlari fuqarolarining ijtimoiy va huquqiy manfaatlarini tiklash masalasi ham dolzarbligicha turibdi.

Bizningcha, mehnat migrantlarining hujjatlarini tan olishga doir yagona mexanizmlarni yaratish vaqti keldi. Bu masalada davlat va biznes hamda ishlovchilarning xohish-istaklari oqilona hisobga olinishi zarur.

Shu maqsadda mehnat migrantlari masalasida o'zaro hamkorlik Dasturini yaratish zarur deb hisoblaymiz.

Beshinchidan, bugungi kunda yuqumli kasalliklar va epidemiyalar favqulodda keng tarqalayotgani munosabati bilan ularni o'z vaqtida tez aniqlash va davolashga qaratilgan samarali monitoring tizimini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan MDH doirasida maxsus Shartnoma tayyorlash muhimdir.

Kasalliklarning vaqtida oldini olish, fuqarolarimizni ommaviy jismoniy tarbiya mashqlariga jalb qilish maqsadida barcha hamdo'stlik mamlakatlarida "MDHning salomatlik marafoni" tadbirini o'tkazishni va uni an'anaviy sport bayramiga aylantirishni taklif etamiz.

Oltinchidan, biz fan, maorif, madaniyatga doir an'analarimizni mustahkamlashga har doim katta ahamiyat beramiz. O'zbekistonda bo'ladigan MDHning navbatdagi Forumi doirasida mamlakatimizning madaniy merosiga bag'ishlangan konferensiya o'tkazishni taklif qilamiz.

Hurmatli davlat boshliqlari!

Xavfsizlikka qarshi da'vatlar va chaqiriqlar haqida gap ketganda Afg'onistonda sezila boshlagan tinchlik jarayonini har tomonlama qo'llab-quvvatlash lozim, deb ta'kidlayman. Bu mamlakatda tinchlik o'rnatilgani butun MDH hududlarida ham xavfsizlik va mo'tadillik mustahkamlanganini ko'rsatadi. Bu osoyishtalik bizning mamlakatimiz va Janubiy Osiyo mamlakatlari o'rtasida savdo-iqtisodiy aloqalar o'rnatishda katta imkoniyatlar yaratadi.

Yangi, kutilmagan vaziyatlar ham mafkuraviy va axborot sohalarida xavfsizlik ta'minlanishini taqozo qiladi. Biz mana shu dolzarb masalaga bag'ishlangan va pandemiya tufayli orqaga surilgan Xalqaro ekspertlar forumini, albatta, o'tkazamiz.

Yana bir muhim masala – MDH mamlakatlarida huquqni himoya qilish organlari faoliyatini kuchaytirish va bu borada o'zaro yordam ko'rsatish masalasi. Bu borada axborot olish uchun Yagona elektron platforma barpo etish maqsadga muvofiqdir.

Biz MDHning Terrorchilikka qarshi kurash markazini deradikalizatsiyalash sohasida, jumladan, qurolli mojarolar hududidan qaytib kelgan shaxslarni tinch hayotga jalb qilish Dasturini ishlab chiqishga da'vat etamiz.

Muhtaram davlat boshliqlari!

Sizlarga yaxshi ma'lumki, yangi yilda MDH tuzilganiga 30 yil to'ladi.

Bu tarixiy davr MDH katta yaratuvchilik qudratiga ega ekanligini hamda tarixiy zaruratligini yaqqol namoyish etdi.

Ishonamanki, bugungi sammit yakunlari mazkur tashkilot bundan-da rivojlanishi va qudrat kasb etishi, xalqaro nufuzi yanada mustahkamlanishi uchun muhim dastur bo'lib qoladi.

So'zimning oxirida quyidagilarni ta'kidlamoqchiman: biz hamkorligimizni yanada mustahkamlash uchun bugun muhokama qilingan masalalarni hayotga tatbiq eta olsak, MDH yubileyiga yuksak natijalar bilan borgan bo'lamiz. Bu mamlakatlarimizning yanada yuksalishi, gullab-yashnashi va rivojlanishi uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

*MDH davlatlari boshliqlari
Kengashining onlayn formatida bo'lib
o'tgan yig'ilishidagi nutq*

2020-yil 18-dekabr

YURT ISHONCHI VA UMIDINI OQLASH – ENG ULUG‘ BAXT

Hurmatli forum ishtirokchilari! Qadrli yoshlar!

Sizlar bilan bugun mamlakatimizda birinchi bor o‘tkazilayotgan O‘zbekiston yoshlari forumida uchrashib turganimdan g‘oyat xursandman.

Ushbu muhtasham zalda to‘plangan, shuningdek, shahar va tumanlardagi studiyalarda o‘tirgan faol va tashabbuskor o‘g‘il-qizlarimizni, butun mamlakatimiz yoshlarini bugungi anjuman bilan chin qalbidan samimiy tabriklayman.

Men har gal yoshlarimiz bilan uchrashganimda sizlarning g‘ayrat-shijoatingizdan kuch-quvvat olaman, ko‘nglim tog‘day ko‘tariladi. Har biringiz jonajon Vatanimiz va xalqimizga sidqidildan xizmat qilish orzusi bilan yonib yashayotganingizni yaxshi bilaman. Sizlarni **O‘zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasi** sifatida yuksak qadrlayman.

Biz yurtimizda qanday islohotlarga qo‘l urmaylik, avvalo, siz kabi yoshlarga, sizlarning kuch-g‘ayratingiz va azm-u shijoatingizga suyanamiz.

Barchangiz yaxshi bilasiz, biz bugun o‘z oldimizga ulkan marralarni qo‘yganmiz. Ona Vatanimizda **Uchinchi Renessans** poydevorini yaratishga kirishdik.

Biz oila, maktabgacha ta‘lim, maktab va oliy ta‘limni hamda ilmiy-madaniy dargohlarni bo‘lg‘usi Renessansning eng muhim bo‘g‘inlari deb hisoblaymiz. Shu sababli ushbu sohalarda tub islohotlarni izchil amalga oshirmoqdamiz.

Ishonamanki, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi poydevorini yaratishda sizlar singari fidoyi va vatanparvar yoshlarimiz faol ishtirok etib, munosib hissa qo'shadilar.

Barchangizga ayonki, bugun dunyo shiddat bilan o'zgar-moqda. Har kuni yangi-yangi muammo va vazifalar paydo bo'lmoqda. Ayniqsa, yakunlanib borayotgan yilimiz insoniyat uchun juda og'ir va sinovli bo'ldi. Koronavirus pandemiyasidan millionlab odamlar aziyat chekdi.

Shunday murakkab davrda mard va fidoyi yoshlarimizning oldingi saflarda turganiga hammamiz guvoh bo'ldik.

El boshiga ish tushganda, yoshlarimiz, kerak bo'lsa, aziz jonlarini garovga qo'yib, xalqimiz dardiga darmon bo'ldilar. Sizlarning tengdoshlaringiz uyma-uy yurib, karantin davrida qiynalgan oilalarga amaliy yordam berdilar. Ayniqsa, **“Saxovat va ko'mak”** umumxalq harakatida minglab o'g'il-qizlarimiz ko'ngilli sifatida faoliyat olib borganini bugun alohida ta'kidlab o'tmoqchiman.

Yuragida ezgulik va mehr-oqibat tuyg'ulari jo'sh urgan ana shunday yoshlarimizga, ularga ta'lim-tarbiya bergan ota-onalari va ustoz-murabbiylariga bugun yana bir bor samimiy minnatdorchilik bildiraman.

Aziz farzandlarim!

Xabaringiz bor, yaqinda yoshlar bilan ishlash bo'yicha Toshkent shahri namunasi yaratildi. Ushbu tajriba doirasida poytaxtimizda o'tkazilgan **“Yoshlar oyligi”**da o'g'il-qizlarimizning muammolari, taklif va istaklari **“mahallabay”** o'rganildi. Ularning yechimlari bo'yicha manzilli dasturlar ishlab chiqildi.

Bu ezgu tashabbus mamlakatimiz bo'ylab keng qanot yozdi. Shuningdek, barcha shahar va tumanlarda Yoshlar festivallari bo'lib o'tdi. Ko'pchiligingiz ushbu tadbirlar doirasida qator va-

zirlar, hokimlar, bankirlar va boshqa mutasaddilar bilan ochiq muloqot qildingiz.

Men ham mazkur jarayonlarni televideniye orqali har kuni kuzatib bordim. Yoshlarimizning dolzarb masalalarni dadil ko'tarib chiqishi, tashabbuslari va shijoati menga juda ma'qul bo'ldi. Dunyoqarashi keng, jonkuyar, ilg'or fikrli farzandlarimiz ko'pligini ko'rib, to'g'risi, nihoyatda quvondim.

Endi biz Toshkent shahri tajribasini butun mamlakat bo'ylab keng joriy qilamiz. Bu borada Toshkent, Qashqadaryo va Xorazm viloyatlarida allaqachon amaliy ishlar boshlab yuborilgan.

Yoshlarga doir siyosatimizni samarali amalga oshirish, ularning ijtimoiy muammolarini tizimli o'rganish va muvofiqlashtirish vazifasi mutasaddi tashkilotlarga yuklatildi.

Bundan buyon viloyat, tuman va shahar hokimlari, vazirlar va boshqa mas'ul rahbarlar joylarda yoshlar bilan uchrashuvlarni doimiy ravishda tashkil etib boradilar. Hokimlar va sektor rahbarlari yoshlar muammolarini hal etishga qaratilgan amaliy "yo'l xaritalari"ni ishlab chiqib, ijrosini ta'minlaydilar. Shu masala bo'yicha har 6 oyda mahalliy kengashlarga hisobot beradilar va kelgusi yarim yillik uchun aniq rejalarni belgilab oladilar.

Savdo-sanoat palatasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan birgalikda "Yoshlar: 1+1" dasturi doirasida palataning hududiy o'quv markazlarida uyushmagan va ishsiz yoshlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitishni tashkil etadi.

Savdo-sanoat palatasi yig'ilishida "**Har bir tadbirkor – yoshlarga madadkor**" tamoyili asosida 1 nafar tadbirkorga 1 nafardan ishsiz yoshlarni biriktirish yuzasidan xayrli tashabbus e'lon qilindi. Bu tashabbus ko'plab tadbirkorlarimiz tomonidan qizg'in qo'llab-quvvatlandi.

Kelgusi yilda kamida 500 ming yoshga ish joyi yaratishi mumkin bo'lgan ushbu harakatni biz ham, albatta, ma'qullaymiz.

“Hunarli kishi xor bo‘lmas”, deydi xalqimiz. Ammo keyingi paytlarda farzandlarimizning usta hunarmandlar qo‘lida kasb-hunar o‘rganishiga yetarli e‘tibor bermay qo‘ydik. Vaholanki, ustoz ko‘rgan o‘g‘il-qizlarimiz domlasiga munosib bo‘lishga intiladi, hayotda ularning ko‘magi bilan o‘z o‘rnini topadi. Shu bois hududlarda **“Ustoz – shogird”** an‘anasini yanada kuchaytirsak, o‘ylaymanki, nur ustiga a‘lo nur bo‘ladi.

Bu ezgu ishga jalb etiladigan hunarmand ustalarni Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasidan moddiy rag‘batlantirish tizimi joriy etiladi. Bu muhim vazifalarni joylarda amalga oshirish uchun Savdo-sanoat palatasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari shaxsan mas‘ul bo‘ladilar.

Barchangizga yaxshi ma‘lumki, ayni paytda yurtimizda erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini tezkor rivojlantirish bo‘yicha yetarli tajriba to‘plandi. Endi, orttirgan tajribamiz asosida respublikamizning barcha shahar va tumanlarida **“Yoshlar kichik sanoat zonalarini”** tashkil etiladi. Ushbu sanoat zonalarida yoshlar loyihalarini amalga oshirishga ko‘maklashish uchun zarur bo‘ladigan barcha infratuzilma obyektlari joylashtiriladi.

Tijorat banklarining hududlarda faoliyat boshlagan **“Loyihalar fabrikalari”** yoshlarimizning ilg‘or g‘oyalari asosida loyihaviy taklif va biznes rejalarini tayyorlab beradi.

Yoshlar loyihalarini moliyalashtirish uchun Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi qoshida alohida jamg‘arma tashkil etilib, ushbu jamg‘armaga 100 million dollar mablag‘ ajratiladi. Ushbu jamg‘arma yoshlarning loyihalariga qulay shartlarda va past foizlarda kredit beradi.

Bundan tashqari, kichik sanoat zonalarida ishlab chiqarish binolari qurilib, yoshlarga imtiyozli shartlarda ijara va lizing asosida beriladi.

Joylarda "Yoshlar kichik sanoat zonalari"ni tashkil etish bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari bir hafta muddatda taklif kiritadilar. Yoshlar loyihalarini qo'llab-quvvatlashda soliq va boshqa imtiyozlarni berish yuzasidan qaror qabul qilinadi.

Hurmatli yig'ilish qatnashchilari!

O'rni kelganda ta'kidlash kerakki, yoshlarimiz muammolarini tizimli hal etish borasida ko'plab kamchiliklar haligacha saqlanib qolmoqda.

Albatta, bugun o'z tengdoshlariga ibrat bo'layotgan, jamiyatdagi o'zgarishlarda faol ishtirok etib kelayotgan g'ayratli yoshlar juda ko'p. Lekin hayotda o'z o'rini topishga qiynalayotgan, yo'ldan adashgan, ko'makka muhtoj yoshlar ham, afsuski, yo'q emas.

Shuning uchun Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Yoshlar ishlari agentligi bilan birga yoshlar, ayniqsa, ularning uyushmagan qatlami bilan mas'ullar o'rtasida to'g'ridan to'g'ri muloqot o'rnatishga xizmat qiluvchi "**Yoshlar murojaati**" elektron platformasini yaratishi kerak bo'ladi.

Yaqinda o'tkazilgan ijtimoiy so'rovlar aksariyat yoshlarimizda ijobiy motivatsiya, biznes va tadbirkorlik sohasida zarur bilim va malaka yetishmasligini ko'rsatdi. Demak, ularga tadbirkorlik asoslarini o'rgatishga qaratilgan ishlarimizni yanada kuchaytirishimiz lozim.

Shuni inobatga olib, "Mikrokreditbank" kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qib, sertifikat olgan yoshlarga imtiyozli foizlarda mikrokreditlar ajratish choralarini ko'rsin. Bunday kreditlar 3 yil imtiyozli davri bilan 7 yil muddatga beriladi. Bank tomonidan ushbu maqsadlar uchun kelgusi yilda 45 million dollarlik mikrokreditlar ajratiladi.

Shuningdek, **Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi** orqali har bir viloyatga yoshlarning tadbirkorlik loyihalari uchun 100 milliard soʻmdan kredit mablagʻlari yoʻnaltiriladi.

Ushbu dasturlar orqali yoshlarning biznes loyihalari samarali amalga oshirilishiga joylarda hokimlar va sektor rahbarlari shaxsan masʼul boʻladilar.

Bugun oʻgʻil-qizlarimizni qiynayotgan jiddiy muammolardan biri – oʻqishni tamomlagan yoshlar bandligini taʼminlashdir. Koʻplab maktab va kollej bitiruvchilari, baʼzan oliy maʼlumotli yigit-qizlar ham ish topishda qiyinchilikka uchramoqdalar.

Maʼlumki, bu yildan Andijon, Fargʻona va Namangan viloyatlarida 7–11-sinf oʻquvchilariga maktabda taʼlim berish bilan birga ularni kasbga oʻrgatish tizimi joriy etildi.

Oʻquvchi 11-sinfga oʻtdimi, u tuman yoki shahar hokimligining bevosita nazoratida boʻlishi lozim. Agar bola oliy oʻquv yurtiga kira olmasa, mahalliy rahbarlar uni, albatta, ish bilan taʼminlashi shart. Buning uchun ish beruvchilar yosh mutaxassisni oʻz jamoasiga qabul qilishdan manfaatdor boʻlishi kerak.

Shu sababli Vazirlar Mahkamasiga ish beruvchilarga yosh kadrlarni ishlatgan davri uchun tegishli imtiyozlar taqdim etish masalasini koʻrib chiqish vazifasi topshiriladi.

Qadrli yoshlar!

Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar farzandlarini qoʻllab-quvvatlash, yosh oilalarni uy-joy bilan taʼminlash ham ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Oʻtgan uch yilda respublikamizda 5 mingdan ortiq yosh oila uchun arzon uy-joylar qurildi va ularga 200 milliard soʻm miqdoridagi boshlangʻich badal pullari toʻlab berildi. Mana shunday ezgu ishlarimizning mantiqiy davomi sifatida 2021–2023-yillarda Yoshlar uylarini qurish dasturi amalga oshiriladi.

Hurmatli o'g'il-qizlarim!

Xalqimiz azaldan oilani muqaddas bilib, uni doimo asrab-avaylab keladi. Oila qanchalik mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shunchalik barqaror bo'ladi.

Bir narsani unutmasligimiz lozim: xonadonlarimizdagi tinchlik-totuvlik, avvalo, oiladagi sog'lom muhit, mustaqil hayot ostonasida turgan qizlarimizni oilaviy turmushga tayyorlash bilan bevosita bog'liq.

Afsuski, bu muhim masalaga loqaydlik va e'tiborsizligimiz natijasida joriy yilning o'tgan 11 oyida yosh oilalar o'rtasida 25 ming ajralishlar qayd etilgan. Bu salbiy holat barchamizni jiddiy bezovta qilishi va qattiq tashvishga solishi kerak.

Axir, o'zingiz o'ylang, 25 ming ajralish – agar har bir oilaning kamida uch nafar a'zosi bo'lsa, bu – 100 ming odam hayotining barbod bo'lgani emasmi?! Buning oqibatida qanchadan qancha begunoh bolalar tirik yetim bo'lib qoladi. Qancha insonning taqdiri izdan chiqib, sarson-sargardon bo'ladi.

Nega mana shu oilalarni saqlab qolish uchun mahallada harakat qilmadik, yoshlarga to'g'ri yo'lni ko'rsatmadik?

Men, bugungi imkoniyatdan foydalanib, keng jamoatchilikka, avvalambor, ko'pni ko'rgan mo'tabar nuroniylarimizga, oqila va mehribon onalarimizga murojaat etmoqchiman. Bu og'riqli masalada bizga yordam beringlar, deb iltimos qilaman.

Oilaviy nizolarning oldini olish, ajrimlarni kamaytirish borasida siz, aziz yoshlarimiz ham tashabbus va faollik ko'rsatsangiz, men barchangizdan cheksiz minnatdor bo'lar edim.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Bugungi forum sizlarning kelgusidagi maqsad va rejalaringizni belgilab olish uchun qulay bo'lgan katta imkoniyatdir.

Buyuk ajdodimiz Muhammad Xorazmiyning: "So'z – gul, ish – meva", degan hikmatli so'zlari bor. O'ylaymanki, bugun

belgilab oladigan rejalarimiz qanchalik pishiq-puxta bo'lsa, ishingiz ham shunchalik yaxshi samara beradi.

Sizlar ko'p kitob o'qigan, bilimli avlod vakillari sifatida yurtimiz o'tmishda jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini yaxshi bilasiz.

Siz – Xorazmiylar, Farg'oniylar, Beruniy va Ibn Sinolar, Ulug'bek, Navoiy va Boburlar, Buxoriylar va Termiziylar avlodisiz.

Ana shunday buyuk vatandoshlarimiz yaratgan bebaho bilim va kashfiyotlar bugun ham insoniyatga beqiyos xizmat qilmoqda.

Bu o'rinda, qomusiy olim Muhammad Xorazmiy asos solgan ilm – "algoritm"ni eslashning o'zi kifoya. Bu ulug' zotning ulkan xizmatlarini butun bashariyat hanuzgacha minnatdorlik bilan eslamogda. Uning olamshumul kashfiyotlari bugungi axborot texnologiyalarini yaratishda ham mustahkam asos bo'lmoqda.

Ispaniyaning Madrid shahridagi Komplutense universitetida alloma bobomizning haykali o'ratildi. 500 yillik tarixga ega bu nufuzli universitet mamlakatda birinchi o'rinda turadigan oliygoh hisoblanadi. Mashhur ajdodimiz xotirasiga ko'rsatilgan bunday ulkan ehtiromni biz ayni vaqtda xalqimizga, uning qadimiy tarixi va boy ilmiy merosiga ko'rsatilgan yuksak hurmat ramzi sifatida qabul qilamiz.

Fursatdan foydalanib, Ispaniya hukumatiga, universitet rahbariyati va ilmiy jamoasiga butun el-yurtimiz va yoshlarimiz nomidan samimiy tashakkur bildiraman.

Atoqli shoir Abdulla Oripov yozganiday, Beruniy bobomizning "aql mash'ali" butun bashariyatni haligacha hayratga solib kelayotganini siz, aziz yoshlar yaxshi bilasizlar, albatta.

Eng muhimi, bu ulug' allomalarimiz o'zlarining olamshumul kashfiyot va ixtirolarini sizning yoshingizda – ayni kuchga

to'lgan navqiron chog'larida amalga oshirganlar. Siz ham buyuk ajdodlardan ibrat olib, hayotda mo'jizalar yaratishga astoydil intilishingiz kerak.

O'z tajribamdan kelib chiqib, sizlarga aytadigan maslahatim shu: **ilmni qadrlang, ilmga intiling! Bir soniya vaqtingiz ham bekor o'tmasin! Yoshlik – umrning eng bebaho davri. Ilm va bilim – o'tda yonmaydigan, suvda cho'kmaydigan, hech kim sizdan tortib ololmaydigan boylik ekanini aslo unutmang!**

Sizlar – mustaqillik farzandlarisiz. Ota-bobolaringiz ko'rgan to'siq va qiyinchiliklarni ko'rmay, ozod Vatanda erkin nafas olib voyaga yetyapsizlar.

Yuksak maqsadlar yo'lida siz – yoshlar hal qiluvchi kuch bo'lishingiz kerak.

Men sizlarning zimmangizga yuklangan ana shunday ulkan mas'uliyatni, tom ma'nodagi tarixiy vazifani sharaf bilan ado etishingizga qat'iy ishonaman.

Sizlar zamonaviy ilm-fan va yuqori texnologiyalarni mukammal egallashingiz uchun barcha kuch va imkoniyatlarni ishga solayapmiz.

Men hududlarga borganimda, sizlarning tengdoshlaringiz bilan uchrashib, ularni qiynayotgan dolzarb muammolarni o'rganishga alohida vaqt ajrataman.

Dunyoda globallashuv va raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi vaziyatda barcha sohalarda yuksak bilimli kadrlarni tayyorlamasak, taraqqiyotdan ortda qolib ketishimiz mumkin.

Shu maqsadda ta'lim tizimida tub islohotlarni amalga oshiryapmiz. Sohada mutlaqo yangi tizim – Prezident va ijod maktablarini, matematika, kimyo, biologiya fanlari bo'yicha maxsus maktablarni tashkil etyapmiz. Yoshlarimizga IT-texnologiyalarni chuqur o'rgatadigan ta'lim maskanlarining soni kun sayin ko'payib bormoqda.

Biz bu ishlarimizning ilk mevalarini ko'ra boshladik. So'ngi uch yilda mamlakatimiz yoshlari nufuzli xalqaro tanlov va musobaqalarda besh yarim ming sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritdilar.

Toshkent shahridagi Prezident maktabi o'quvchisi Firdavs Abduqayumov IELTS dasturi bo'yicha yuqori ball to'plab, AQSHning Jon Keroll universitetida tahsil olish uchun 96 ming dollarlik grant sohibiga aylandi.

Firdavs o'g'limni, uning ota-onasi va ustozlarini chin dildan tabriklab, ularga sihat-salomatlik tilayman.

Firdavsning izdoshi sifatida, Toshkent shahridagi Prezident maktabidan Temur Sulaymonov grant asosida, Namangandagi maktabdan Mironshoh Inomjonov va Azimjon Alijonov hamda boshqa ko'plab o'quvchilar nufuzli xorijiy ilm dargohlariga o'qishga kirganlar va ularning soni kun sayin oshib bormoqda. Biz bunday iqtidorli yoshlarga o'z vaqtida har tomonlama e'tibor qaratib, qo'llab-quvvatlasak, o'ylaymanki, ular katta-katta zafarlarni qo'lga kiritadilar.

Shu sababli yoshlarimizning nufuzli xorijiy oliygohlarda tahsil olishi uchun har tomonlama ko'maklashishga alohida e'tibor qaratamiz. Jumladan, xalqaro ta'lim dasturlari bo'yicha eng yuqori ball to'plagan iqtidorli yoshlarga imtihon topshirish xarajatlari to'liq qoplab beriladi.

Hurmatli tadbir ishtirokchilari!

Bugun umumxalq harakatiga aylangan besh muhim tashabbusni amalga oshirishda yoshlarimiz faol ishtirok etayotgani bizni cheksiz quvontiradi.

Albatta, bu yo'nalishda ma'lum natijalarga erishgan bo'lsak ham, hali qiladigan ishlarimiz judayam ko'p. Joylardagi madaniyat markazlari, sport zallarini ta'mirlash va jihozlash, yangilarini qurish haqida bugun jiddiy bosh qotirishimiz kerak.

Shu munosabat bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga bir oy muddatda besh muhim tashabbusni amalga oshirish bo'yicha qaror qabul qilish topshiriladi.

Ushbu qarorlarda joylardagi 459 ta madaniyat markazida zamonaviy sharoitlar tashkil etish, ularni ta'mirlash va jihozlash ko'zda tutilishi lozim.

Bu muammoni, albatta, hal qilamiz. Lekin meni masalaning boshqa jihati ko'proq o'ylantiradi. Madaniyat va san'at yo'nalishida o'qishni tamomlagan yoshlarimizning ko'pchiligi poytaxtda qolishni afzal ko'ryapti. Bu ahvolda katta xarajatlar evaziga joylarda barpo etilayotgan madaniyat va ma'rifat markazlarida ertaga kim ishlaydi? Qishloqlardagi yosh iqtidor egalarini kim izlab topadi, ularni kim tarbiyalaydi?

Shu munosabat bilan viloyat hokimlari har qaysi tuman va shahardan 5 nafargacha yoshlarni madaniyat va san'at oliygohlarida mahalliy budjet hisobidan o'qitadi. Kelgusida ularni o'z hududida uy-joy va mutaxassisligi bo'yicha ish bilan ta'minlash choralari ko'radi.

Vazirlar Mahkamasi Madaniyat vazirligi, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, hudud rahbarlari bilan birgalikda ushbu masala bo'yicha ikki oy muddatda alohida dastur ishlab chiqadi.

Yana bir muammo – joylarda iste'dodli bolalarning aksariyati o'z qobiliyatini ro'yobga chiqarish uchun tegishli sharoitga ega emas. Talantli yoshlarni aniqlash, ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha joylardagi ishlar talab darajasida emas.

Misol uchun, qaysi hududdan qancha Zulfiyachi qizlar chiqdi? Nechtasi "Nihol" mukofoti sovrindori bo'ldi? Qaysi yosh shoir yoki yozuvchining kitobi nashr etildi? Qaysi yosh talant respublika yoki xalqaro tanlovlarda, sport musobaqalari va fan olimpiadalarida g'olib bo'ldi?

Agar masalaga chuqurroq qaraydigan bo'lsak, ertaga mana shunday yoshlar tuman yoki shaharning "oltin fondi"ga aylanadi va ular shu hududning obro'sini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Shuning uchun har qaysi tuman va shahar hokimiga 10-15 nafar mana shunday iste'dodli yoshlarni saralab, ularni har tomonlama tarbiyalash va muntazam rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish vazifasi topshiriladi.

Yana bir muhim masala. Xabaringiz bor, yaqinda yangi bir tajribani joriy qildik. Unga ko'ra, ayni kunlarda hokimlar yil yakuni bo'yicha o'z hududlarida amalga oshirilgan ishlar, mavjud kamchilik va muammolar hamda kelgusi rejalari haqida mahalliy kengashlar oldida hisobot beryaptilar.

Afsuski, yoshlar tarbiyasi, ularning muammolari va yechimlari hali ushbu hisobotlarda o'z aksini topmayapti. Viloyatlar, tuman va shahar rahbarlari kelgusi yildagi ish rejalarida bu muhim masalaga ustuvor darajada ahamiyat qaratishlari zarur.

Keyingi yilda ham joylarda izlanuvchan yigit-qizlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida "**Yoshlar texnoparklari**" qurilishini davom ettiramiz.

Joriy yilda yoshlar o'rtasida eng yaxshi ilmiy ishlanmalar uchun umumiy qiymati 30 milliard so'mdan ortiq bo'lgan "**Yosh olimlar**" innovatsion loyihalar tanlovi e'lon qilingan edi.

Innovatsion rivojlanish vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi 2021-yildan boshlab maktab o'quvchilari va oliy o'quv yurtlari talabalari o'rtasida "**Bo'lajak olim**" tanlovini tashkil qilsin. Bu orqali yoshlarning eng yaxshi innovatsion hamda startup loyihalariga 50 milliard so'm mablag' yo'naltirilsin.

Bu ishlarni davom ettirgan holda, kelgusi yilda 100 dan ziyod shahar va tumanlarimizda IT sohasini chuqur o'rgatadigan zamonaviy o'quv markazlarini tashkil qilamiz.

Shu maqsadda yangi yildan Toshkent viloyatida Axborot texnologiyalari universiteti filiali hamda barcha hududlarda mazkur yoʻnalishda texnikumlar oʻz faoliyatini boshlaydi.

Shuningdek, keyingi yildan yoshlarimizga xalqaro IT sertifikatlarini olish xarajatlarining 50 foizgacha boʻlgan qismi budjetdan qoplab beriladi.

Yaqin ikki yilda **“Bir million dasturchi”** loyihasi doirasida 300 ming nafar yoshlar kompyuter dasturlash asoslariga bepul oʻqitiladi.

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda bir oy muddatda ushbu loyiha doirasida sohaga qiziqadigan yoshlarni aniqlash, oʻqitish va ish bilan taʼminlashga qaratilgan dastur ishlab chiqsin.

Bundan tashqari, oʻrta maktablarda hamda oliy taʼlim muassasalarida yoshlarning iqtidorlarini toʻla roʻyobga chiqarish uchun tizimli ishlarni yoʻlga qoʻyish lozim. Bunda yoshlar yetakchilari, birinchi navbatda, oʻzlari tashabbuskor boʻlishlari kerak.

Yoshlarimizning liderlik qobiliyatini kuchaytirish, ularning faolligini oshirish, har tomonlama qoʻllab-quvvatlash, ilgʻor ish tajribalarini ommalashtirish uchun **“Kamalak yulduzlari”**, **“Yilning eng faol yoshlar yetakchisi”**, **“Yil sardori”** kabi koʻrik-tanlovlarni oʻtkazish, oʻylaymanki, maqsadga muvofiq boʻladi. Shu bilan bir qatorda, oliy oʻquv yurtlari oʻrtasida **Talabalar festivali**, **Intellectual oʻyinlar haftaligi**, **“Yil talabasi”** singari koʻrik-tanlov va musobaqalarni oʻtkazish ularning intellektual salohiyatini va tashkilotchilik qobiliyatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi, Xalq taʼlimi vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Rektorlar Oliy

Kengashi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi birgalikda 2021-yildan e'tiboran, ushbu tanlovlarni tashkil etish va yuqori saviyada o'tkazish, g'oliblarni munosib rag'batlantirish yuzasidan chora-tadbirlar dasturini tasdiqlasin.

Aziz yoshlar!

Sizlarga yana bir muhim yangilikni aytib o'tmoqchiman. Keyingi yildan oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarida eng yuqori ball to'plagan 200 nafar yoshlar uchun **Prezident granti** joriy etiladi. Agar mavjud Prezident stipendiyasi faqat bir o'quv yili uchun mo'ljallangan bo'lsa, ushbu grant talaba o'qishni bitirguniga qadar, ya'ni to'rt yil davomida to'lab boriladi.

Shuningdek, kelgusi o'quv yilidan boshlab, respublikamizdagi xorijiy oliy o'quv yurtlarining bakalavriat bosqichi talabarlari uchun ham Prezident va davlat stipendiyalari joriy etiladi. Chunki bunday ta'lim maskanlarida ta'lim olayotgan yoshlar ham o'zimizning farzandlarimiz. Ular ham ertaga yurtimiz taraqqiyoti uchun xizmat qiladi. Shunday ekan, ularga bugun g'amxo'rlik qilib, iste'dodini rag'batlantirsak, o'ylaymanki, bu ham adolatdan bo'ladi.

Ilm yo'lini tanlagan iqtidorli yoshlarimizni qo'llab-quvvatlash maqsadida keyingi yildan boshlab magistratura va doktorantura bosqichlari uchun Prezident stipendiyasi kvotasini ikki barobarga oshiramiz.

Ishonchim komil, albatta, bunday imkoniyat va imtiyozlarga, avvalo, yangi Renessans poydevorining chinakam bunyodkorlari sazovor bo'ladi.

Yana bir dolzarb masala. Yurtimizda bir necha farzandi oliygohlarda tahsil olayotgan ota-onalarning aksariyati, ochig'ini aytganda, o'qish xarajatlarini qoplashda qiynaladilar. Shuning uchun ikki va undan ortiq farzandi oliy o'quv yurtida shartnoma asosida o'qiyotgan oilalarga **imtiyozli ta'lim krediti** berish tarti-

bi ishlab chiqiladi. Bunda kreditni o'qish davri tugab, yoshlarimiz ishga joylashgandan so'ng qaytarish nazarda tutiladi.

Moliya vazirligi tijorat banklariga ushbu arzon kreditlar uchun maqsadli resurslar ajratilishini ta'minlasin.

Hurmatli kelajagimiz vorislari!

Xabaringiz bor, 2021-yili buyuk bobomiz Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini sizlar bilan keng nishonlaymiz.

Yoshlarimizga hazrat Navoiy ijodini chuqur o'rgatishni tizimli yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega. Alisher Navoiy asarlarining bugungi yoshlar tushunadigan ixcham namunalarini yaratib, turli mobil ilova va elektron dasturlar ishlab chiqish kerak. Bu masalaga Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti rahbarlari mas'ul etib belgilanadi.

Ayni vaqtda, biz atoqli shoir va adiblarimiz Abdulla Oripov, O'tkir Hoshimov, buyuk san'atkor Botir Zokirovning yubiley sanalarini ham keng nishonlaymiz.

Bu borada belgilangan tadbirlarni xalqimiz, avvalambor, yoshlarimizning xotirasida yorqin iz qoldiradigan darajada, chinakam adabiyot va san'at bayramlari sifatida o'tkazishimiz kerak. Shu maqsadda **“Abdulla Oripov izdoshlari”**, **“O'tkir Hoshimov asarlari bilimdoni”**, **“Botir Zokirov san'ati davomchilari”** ko'rik-tanlovlarining tuman, shahar, viloyat va respublika bosqichlarini tashkil etib, g'oliblarni munosib taqdirlash zarur.

Madaniyat vazirligi, Yozuvchilar uyushmasi, Badiiy akademiya, mahalliy hokimliklar mazkur tadbirlarni yuqori darajada o'tkazish choralarini ko'rishi lozim.

Hurmatli do'stlar!

Jahon tarixi shundan dalolat beradiki, har qanday yangi sivilizatsiya, yangi Uyg'onish davri kitob va kutubxonalardan

boshlanadi. Biz ham yangi Renessansning ilk qadami sifatida Toshkent shahrida zamonaviy, muhtasham kutubxona barpo etsak, nima deysizlar?

Bu ma'rifat saroyi ilm-fanning so'nggi yutuqlari asosida jihozlanadi. Bu dargohda yurtimiz va jahondagi eng nodir, noyob va bebaho asarlar jamlanadi. U buyuk ajdodlarimizning boy merosi va nomlarini butun dunyoga tarannum etadigan, barcha yurtdoshlarimiz, birinchi navbatda, siz, qadrli farzandlarimiz uchun chinakam ziyo maskaniga, g'urur va iftixorimiz ramziga aylanadi, deb ishonaman.

Aziz yoshlar!

Mana, yaqinda mamlakatimizning sport hayotida quvonchli yangilik bo'ldi. Osiyo Olimpiya Kengashining qaroriga ko'ra, 2025-yilda Yoshlar o'rtasidagi Osiyo o'yinlariga Toshkent shahri mezbonlik qilishi belgilandi.

Bu musobaqada Osiyo qit'asidagi 45 ta davlat yoshlari 20 ga yaqin sport turi bo'yicha o'zaro bellashadilar. Bunday nufuzli xalqaro sport o'yinlarining O'zbekistonda birinchi marotaba o'tkazilishi barchamizga faxr-iftixor bag'ishlaydi, albatta. Shu bilan birga, u bizga g'oyat katta mas'uliyat ham yuklaydi. Mana, sizlar kabi navqiron va azamat yoshlarning o'z kuch va mahoratini ko'rsatib, Vatanimiz bayrog'ini yuksaklarga ko'tarishlari uchun yana bir zo'r imkoniyat!

Shu munosabat bilan ushbu sport bayramini yuqori saviyada o'tkazish va unga iqtidorli yoshlarimizni tayyorlashga hozirdanoq kirishishimiz lozim. Shu maqsadda Osiyo o'yinlari dasturiga kiritilgan sport turlari bo'yicha tuman, shahar, viloyat va respublika chempionatlari, "Hokim kubogi" musobaqalarini tashkil etish kerak.

Vazirlar Mahkamasi ushbu masala bo'yicha tegishli qaror loyihasini ikki oy muddatda tayyorlab kiritsin.

Yurtimizda yosh avlodning jismoniy va ma'naviy yetuk bo'lib ulg'ayishi, jumladan, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish, ommaviy sportga keng jalb etish maqsadida **“Sog'lom turmush tarzi”** elektron platformasi ishlab chiqilmoqda. Hududlarda piyoda va velosipedda yurishga mo'ljallangan **“Salomatlik yo'laklari”** barpo etilmoqda.

Keyingi yillarda mahallalarda tashkil etilgan sport maydonchalari yoshlarning sevimli maskaniga aylandi. Bu ishlarni yanada rivojlantiramiz. Ayni paytda maktab sport zallaridan darsdan tashqari vaqtlarda ham unumli foydalanish choralari ko'riladi.

Bundan tashqari, 2021-yildan boshlab yoshlar o'rtasida har yili **“Jismoniy tayyorgarlik darajasi”** sport sinovlarini o'tkazish tizimi yo'lga qo'yiladi. Ushbu sinov talablarini bajarganlarga sport razryadlari beriladi, muddatli harbiy xizmatga borish va **“Temurbeklar maktabi”**ga kirishda imtiyozlar joriy etiladi.

Eng muhimi, mana shunday sinovlarda toblanib, irodasi chinikkan farzandlarimiz jismoniy va ma'naviy jihatdan barkamol insonlar bo'lib voyaga yetadi.

Bir paytlar **“Vatanparvar”** tashkiloti yoshlarga nafaqat harbiy sohada, balki katta hayotda ham zarur bo'ladigan musobaqa va sport o'yinlarini tashkil etardi, ularni texnik kasblarga o'rgatardi. Shu sababli yigit-qizlarimiz o'rtasida unga qiziqish yuqori edi. Afsuski, keyingi paytlarda uning faoliyati susayib ketdi. Tashkilotning avvalgi nufuzini tiklashimiz zarur.

Shahar va tuman hokimlari, sektor rahbarlariga, har bir hudud va soha kesimida **“Vatanparvar”** tashkiloti bazasida yoshlarni mehnat bozorida ehtiyoj yuqori bo'lgan kasblarga o'qitish vazifasi topshiriladi.

Aziz farzandlarim!

Yoshlar tarbiyasi haqida gap ketganda, yana bir muhim masalaga e'tibor qaratishingizni istardim. Men bu o'rinda yoshlar ma'naviyati bilan bog'liq ayrim muammolarni nazarda tutyapman.

O'zingiz guvohsiz, jahonning ko'plab mintaqalarida hamon keskin vaziyat saqlanib qolmoqda. Turli nizo va ziddiyatlar avj olmoqda.

Hozir butun dunyoda terrorizm, ekstremizm va boshqa tahdidlar internet makoniga kirib, moslashib olgan. Shuning uchun ularga qarshi kurashish oson kechmayapti.

Afsuski, ba'zi yoshlarimizda internetdan to'g'ri foydalanish ko'nikma va madaniyati yetarli emas. Ayrim yigit-qizlar internetni axborot, bilim va ma'rifat manbai deb emas, balki shunchaki ko'ngilochar vosita deb bilishadi.

Mana shunday mafkuraviy kurash sharoitida yoshlarimiz sezgir va ogoh bo'lishi, har bir masalada, avvalo, Vatan manfaatini o'ylab ish tutishi zarur.

Ilm-ma'rifat va kasb-hunarga intilish, oilani muqaddas bilish, ma'naviy poklik, kattalarga hurmat, kichiklarga shafqat, ezgu qadriyatlarga sadoqat kabi fazilatlar azaldan xalqimiz va millatimizning qonida bo'lib kelgan. Biz mana shunday bebaho merosimizni nafaqat asrashimiz, balki uni yanada boyitishimiz, kelgusi avlodlarga bezavol yetkazishimiz kerak.

Shu o'rinda, men hurmatli ota-onalar, bobolarimiz va momolarimizni, jonkuyar ustoz va murabbiylarni, muhtaram ziyolilarimiz, keng jamoatchiligimizni bu masalaga befarq bo'lmasdan, yoshlar tarbiyasiga qaratilgan ishlarimizni yanada kuchaytirishga da'vat etaman.

Qanchalik qiyin bo'lmasin, biz yoshlar tarbiyasi bo'yicha o'zimizga xos va ta'sirchan, bugungi kunga hamohang usullarni

izlab topishimiz kerak. Jondan aziz farzandlarimizni buzg'unchi va zararli g'oyalar, jinoyatchilik, giyohvandlik, loqaydlik, ma'naviy qashshoqlik, iste'molchilik kayfiyatidan asrashimiz zarur. Bunday salbiy holatlarni bartaraf etishda barchamiz, avvalo, siz, aziz yoshlar faol bo'lishingiz kerak.

Xalqimizning ma'naviy qudrati va boqiy qadriyatlarini asrab-avaylash va butun dunyoga tarannum etishga sizlar, albatta, qodirsiz.

Qadrli yosh do'stlarim!

Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini to'laqonli ro'yobga chiqarish uchun bundan keyin ham barcha resurs va imkoniyatlarni keng safarbar qilamiz. Biz uchun bu borada mayda masalaning o'zi yo'q. Sizlarning kelajagingiz bilan bog'liq har qanday vazifa – birlamchi ahamiyatga ega.

Yoshlar bilan ishlash Prezidentdan tortib vazirgacha, hokimdan tortib mahalla raisigacha – hammamizning eng asosiy ishimizga aylanishi zarur.

Bundan buyon barcha darajadagi rahbarlar faoliyatiga yoshlar bilan ishlash, ularning muammolarini bartaraf etish yuzasidan amalga oshirgan ishlariga qarab baho beriladi.

Fursatdan foydalanib, yana bir bor takrorlayman. Yoshlar tarbiyasi bilan, ularning muammolarini yechish bilan bugun shug'ullanmasak, ertaga kech bo'ladi. Bu, avvalo, yosh avlodimizga nisbatan xiyonat bo'ladi.

Har qaysi hokim, har bir vazir, har qaysi mahalla raisi: **“Bugun men yoshlar uchun nima ish qildim? Ertaga yoshlar manfaati uchun yana nimalar qilishim kerak?”** degan savollarga javob beradigan, shunday e'tiqod bilan yashaydigan vaqt keldi. Yosh avlodimiz hayotini yaxshilash, ularning orzu-intilishlarini ro'yobga chiqarish haqida bosh qotirmaydigan, bu masalaga

beparvo bo'lgan rahbarlarning biz bilan yelkadosh va safdosh bo'lishga haqqi yo'q.

Aziz farzandlarim!

Xalqimiz, Vatanimiz sizlardan buyuk ishlar kutayotganini hech qachon yodingizdan chiqarmang!

Yurtning yuksak ishonchi va umidini to'la oqlash, unga munosib bo'lish – dunyodagi eng ulug' baxtdir.

Shunday sharaf, barchangizga nasib etsin!

Fursatdan foydalanib, sizlarga sihat-salomatlik, ulkan yutuq va zafarlar tilayman.

Hamisha sog'-omon bo'ling, aziz bolalarim!

O'zbekiston yoshlari forumida so'zlangan nutq

2020-yil 25-dekabr

VATAN ISHONCHIGA SAZOVOR BO‘LISH – YUKSAK SHARAF

Assalomu alaykum, qadrli do‘stlar!

Aziz vatandoshlar!

Avvalambor, mana shu muhtasham zalda, sizlar bilan bayramona kayfiyatda uchrashib turganimdan baxtiyorman.

Xabaringiz bor, biz keyingi yillarda yaxshi an’anani yo‘lga qo‘yib, yurtdoshlarimizga mukofotlarni har qaysi bayram kunida topshirib kelayotgan edik. Afsuski, bu yilgi pandemiya sharoitida odamlarimizning sog‘lig‘ini asrash uchun ushbu xayrli tadbirni biroz keyinga surishga to‘g‘ri keldi.

“Ezgulikning kechi yo‘q”, deydilar. Nasib etgan ekan, mana, bugun sizlar bilan Yangi yil bayrami arafasida yuzma-yuz ko‘rishib, diydorlashib turibmiz.

So‘zimning avvalida barchangizni yuksak davlat mukofotlari bilan samimiy muborakbod etib, sizlarga o‘zimning chuqur hurmat va ehtiromimni bildiraman.

Muhtaram do‘stlar!

Hammamizga ayonki, hayot doimo bir tekis kechmaydi. Xursandchilik bilan birga turli sinovlar, qiyinchilik va muammolar yonma-yon yuradi. Bu haqiqatni 2020-yilda yanada chuqur his etyapmiz. Koronavirus kasalligi butun insoniyat boshiga katta tashvish soldi. Afsuski, bu balo hali chekingani yo‘q.

Biz pandemiyaga qarshi kurashish bilan birga yana boshqa sinovlarga ham duch keldik. Buxoro va Sirdaryo viloyatlarida ro‘y bergan ofatlarni ham yengib o‘tishimizga to‘g‘ri keldi. El-

yurtimiz bu muammolar qarshisida sarosimaga tushib qolgani yo'q. Aksincha, bu qiyinchiliklar bizni yanada birlashtirdi, irodamizni chiniqtirdi.

Murakkab vaziyatga qaramasdan, ko'pni ko'rgan, azm-u shijoatli xalqimizning fidokorona mehnati bilan bu sinovlarni mardona yengib o'tyapmiz.

Baraka – hamjihatlikda, degan gap hayotimizda yana bir bor o'z tasdig'ini topdi. Pandemiya va global inqiroz oqibatlarini kamaytirish bo'yicha ko'rayotgan chora-tadbirlarimiz o'z samarasini bermoqda.

Aholi sog'lig'ini asrash, iqtisodiyotning barqaror ishlashini ta'minlashga erishdik. Yurtimizda bunyodkorlik ishlari jadal davom etmoqda. Yuqori texnologiyalarga asoslangan zamonaviy korxonalar, yangi transport tizimlari barpo etilmoqda. Mana, yaqinda muhim ahamiyatga ega bo'lgan Toshkent metallurgiya zavodini ishga tushirdik. Poytaxtimizda yangi yer osti va yer usti metro liniyalari foydalanishga topshirildi. Toshkent shahrida ulkan va noyob Bolalar tibbiyot markazi, muhtasham G'alaba bog'i, Adiblar xiyobonini bunyod etdik. Barcha viloyat va tumanlarimizda zamonaviy uy-joylar, yo'l va ko'priklar, yangi-yangi bog'chalar, maktablar, madaniyat va san'at hamda sport maskanlari qad rostlamoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochilmoqda. Davlat dasturlari asosida shahar va qishloqlarimiz, yurtimiz qiyofasi tobora obod bo'lib bormoqda. Mirishkor dehqon va fermerlarimiz paxta, g'alla va boshqa ekinlardan mo'l hosil yetishtirdilar.

Xabaringiz bor, biz yurtimizda kambag'allikning oldini olish bo'yicha yil boshida muhim ishlarni boshlagan edik. Turmush sharoiti og'ir bo'lgan oilalarga aniq va manzilli ijtimoiy yordam ko'rsatish maqsadida "Temir daftar" deb nom olgan yangi ti-

zim yo'lga qo'yildi. Yoshlar va xotin-qizlarning muammolarini yechish bo'yicha ham yangi yondashuvlarni joriy etdik.

Xalqimiz manfaatlaridan kelib chiqib, "Saxovat va ko'mak" umumxalq harakatini amalga oshirdik. Bu ezgu tashabbusni barcha saxovatpesha insonlar faol qo'llab-quvvatladi. Ushbu oliyjanob harakat xalqaro jamoatchilik tomonidan ham yuksak baholandi.

Agar amalga oshirgan ishlarimiz ko'lamini tahlil qilsak, bu yilgi natijalarimiz har yilgidan kam emasligiga ishonch hosil qilamiz.

Biz ushbu marralarga erishish uchun pandemiya sharoitida – shuni alohida ta'kidlamoqchiman – g'oyat murakkab bir vaziyatda ish olib bordik. Buning uchun 2–3 karra ko'proq mehnat qilishga, izlanish, yangi imkoniyat va resurslarni qidirib topishga to'g'ri keldi.

Avvalo, fidoyi shifokorlarimiz o'z jonini garovga qo'yib, xalqimiz sog'lig'ini asrash uchun beqiyos jasorat va matonat ko'rsatdilar. Bu borada milliy armiyamiz, Milliy gvardiya, Ichki ishlar va Favqulodda vaziyatlar vazirliklarining mard va jasur xodimlarining xizmatlarini alohida qadrlaymiz.

Ayni vaqtda bunyodkor quruvchilar, saxovatli tadbirkorlar, mahalla faollari, muhtaram nuroniylarimiz, navqiron yoshlarimiz, ilm-fan, madaniyat va sport sohasi vakillari el-yurtimizga haqiqiy tayanch va suyanch bo'lib maydonga chiqdilar.

Har qanday sinovni birdamlik bilan yengib o'tadigan xalqimiz mana shunday og'ir kunlarda qudratli kuchga aylandi.

Fursatdan foydalanib, sabr-matonatli, zahmatkash, oliyjanob va fidoyi xalqimizga ko'rsatgan buyuk qahramonligi uchun yana bir bor bosh egib, ta'zim qilaman.

Aziz do'stlar!

Albatta, har qanday mukofot – bu, avvalo, el-yurt e'tirofi, Vatan ishonchidir.

Har qaysi odam, u qaysi yoshda bo'lmasin, qaysi soha yoki lavozimda ishlamasin, o'z mehnatining e'tirofini, qadr topganini ko'rar ekan, o'zini, albatta, baxtli deb his qiladi.

Ulug' alloma bobomiz Abu Rayhon Beruniy: **“Har bir insonning qadr-qimmati, o'z ishini qanday bajarishi bilan belgilanadi”**, deb bejiz aytmagan.

Biz sizlar singari ming-minglab yurtdoshlarimizni, o'z ishini yuksak mas'uliyat bilan ado etib, jamiyat o'rtasida obro'-e'tibor topgan, barchaga o'rnak bo'lib kelayotgan insonlar, deb bilamiz.

Aslida, murakkab va og'ir sharoitda ham davlat ishini bajarib, ham ro'zg'orini tebratib kelayotgan, hayotning turli sinovlarini mardona yengib o'tayotgan har bir yurtdoshimizni bugungi kunning chinakam qahramonlari deb aytsak, arziydi.

Menga qolsa, ana shunday insonlarning barchasiga mukofot berishga tayyorman.

Yangi O'zbekistonni bunyod etish yo'lida minglab fuqarolarimiz chinakam mehnat jasoratini namoyon etmoqda. Ana shunday yurtdoshlarimizning xizmatlarini munosib e'tirof etish maqsadida bu yil “O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan geolog” faxriy unvoni, “Oliy Darajali Do'stlik”, I va II darajali “Salomatlik” hamda “Faxriy murabbiy” ordenlari, “Sog'lom turmush” medali kabi yangi davlat mukofotlari ta'sis etildi.

Bundan tashqari, “Mehr-saxovat” ko'krak nishonini ta'sis etganimiz ham sizlarga yaxshi ma'lum.

Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash yo'lida ezgu ishlari bilan namuna bo'lib kelayotgan qariyb 25 ming vatandoshimiz ushbu medal bilan taqdirlandi.

Mamlakatimiz taraqqiyoti uchun fidokorona mehnat qilayotgan yuzlab hamyurtlarimizga shu kunlarda joylarda davlat mukofotlari – faxriy unvon, orden va medallar tantanali ravishda topshirildi.

Fursatdan foydalanib, ana shu vatandoshlarimizning barchasini sizlarning nomingizdan, o'z nomimdan samimiy tabriklashga ijozat bergaysiz.

Muhtaram yurtdoshlar!

Xabaringiz bor, Mustaqillik bayrami arafasida xalqimiz ozodligi yo'lida jonini qurbon qilgan jadid bobolarimiz – Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy va Munavvarqori Abdurashidxonov "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlandi. Bunday ehtirom ulug' ajdodlarimizning o'lmas merosi bugungi kunda ham xalqimizga beqiyos ma'naviy kuch-quvvat bag'ishlab kelayotganidan dalolat beradi. Ayni vaqtda el-yurtimizning milliy uyg'onish va taraqqiyotga intilishi barqaror ekanini namoyon etadi.

Bugungi qutlug' ayyomda yuksak mukofotlar bilan taqdirlangan tibbiyot sohasining fidoyi xodimlariga yana bir bor xalqimizning tashakkurini yetkazmoqchiman. Ular eng qiyin paytda tun-u kun tinim bilmasdan mashaqqatli mehnat qildilar. Xususan, bugun davramizda o'tirgan Abduhakim Hojiboyev, Anvar Alimov, Habibulla Oqilov, Xayrulla Mustafoyev, Jumanazar Beknazarov, Venera Barotova, Flora Inoyatova, G'ayrat Qoriyev, Irina Liverko, Erkin Musaboyev, Nargiza Parpiyeva, Anvar Sagirov ana shunday yurtdoshlarimizning munosib vakillaridir.

Shuningdek, kovid markazlarini tashkil etishda jonbozlik ko'rsatgan Hoshim Usmonov, To'lqin Isoqulov, Xudoyqul Rahimqulov singari harbiy shifokorlarimizning xizmatlarini minnatdorlik bilan e'tirof etamiz.

Mana shunday og'ir sharoitda iqtisodiyotimiz barqarorligini ta'minlashga, sanoat, qishloq xo'jaligi, tadbirkorlik va fermerlik harakatini rivojlantirishga katta hissa qo'shayotgan Masturaxon Sayfitdinova, Qobiljon Obidov, Maryam Niyozova, Rahimjon Muhammedov kabi yurtdoshlarimizni chin yurakdan qutlaymiz.

Davlat va jamoat ishlaridagi ko'p yillik faoliyati uchun Vatanimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlangan Qutbidin Burhonov, Sayitquli Oqqiyev, Haydar Abdurahmonov, Jalil Sultonov, Amin Tojiyev, Abdil To'xtashev, Qaldibek Seydanov, Umida Teshaboyeva, Yelena Borisova, Umida Solihboyeva, Bahrom Abduhalimov, O'rozboq Ubaydullayev va boshqa vatandoshlarimizni samimiy muborakbod etamiz.

Muslihiddin Muhiddinov, Muhayyo Shoumarova, Igor Kudryavsev, Tursun Shodiyev, Irina Tokareva singari hurmatli olimlarimizga, ta'lim sohasi jonkuyarlariga ezgu tilaklarimizni bildiramiz.

Shular qatorida Usmon Azimov, Xurshid Do'stmuhammedov, Mahamatali Yunusov, Kamola Oqilova, Oygul Nodirova, Jasvandbek Annazarov singari ijodkor ziyolilarimizni, Ravshan Haydarov, Odil Ahmedov kabi mashhur sportchilarimizni ham chin qalbdan tabriklab, yangi yutuqlar tilaymiz.

O'zining yorqin ijodi bilan madaniyatimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shib kelayotgan Abdulahad Abdurashidov, Baxtiyor Ixtiyorov, Lutfulla Sa'dullayev, G'ulomjon Yoqubov, Ma'murjon (*Mansur*) Toshmatov, Muyassar Razzoqova singari mashhur san'atkorlarimizning nomlarini hurmat va ehtirom bilan tilga olamiz.

Muhtaram do'stlar!

Aziz va qadrlil vatandoshlar!

Bugun sizlarning mana shunday quvonchingiz, ko'tarinki kayfiyatingizdan men o'zim uchun ham katta kuch, katta quvvat oldim.

Barchangizga yuksak unvonlar, orden va medallar muborak bo'lsin!

Hammamiz bugun yaxshi orzular va ulug' maqsadlar bilan yangi yil ostonasida turibmiz.

Biz barchamiz ahil va hamjihat bo'lib, xalqimizga sadoqat bilan mehnat qilib, yangi O'zbekiston poydevorini yaratayotganimiz bilan faxrlanamiz.

Niyatimiz bitta – kirib kelayotgan 2021-yil har tomonlama barakali, yutuq va zafarlarga boy bo'lsin!

Barchangizga sihat-salomatlik, mehnat faoliyatingiz va shaxsiy hayotingizda ulkan yutuq va omadlar tilayman.

Xonadonlaringizdan tinchlik-xotirjamlik, oilaviy baxt, fayz-u baraka arimasin!

Dunyomiz tinch bo'lsin, bag'rikeng va oliyjanob xalqimizni, jonajon Vatanimizni Alloh taolo hamisha o'z panohida asrasin!

Sizlarga katta rahmat!

*Vatanimiz mustaqilligining 29 yillik bayrami
arafasida davlat mukofotlari bilan taqdirlangan bir guruh
yurtdoshlarimizga mukofotlarni topshirish
marosimidagi nutq*

2020-yil 28-dekabr

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING OLIV MAJLISGA MUROJAATNOMASI

Assalomu alaykum, hurmatli deputat va senatorlar!

Aziz yurtdoshlar!

Muhtaram mehmonlar!

Xonimlar va janoblar!

Oliy Majlisga va xalqimizga yo‘llanayotgan bu yilgi Murojaatnoma, o‘tgan yillardan farqli ravishda, murakkab bir davrga to‘g‘ri kelmoqda.

Barchamiz yaxshi bilamizki, bugungi kunda butun insoniyat koronavirus pandemiyasi degan global ofatni boshidan o‘tkazmoqda. Bunday ulkan falokat jahon miqyosida so‘nggi yuz yilda ro‘y bermagan, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Oxirgi ma‘lumotlarga ko‘ra, dunyoning 191 mamlakatida 81 million kishi koronavirus bilan kasallangan. Ulardan 1 million 765 ming nafari vafot etgan.

Pandemiya jahon iqtisodiyoti uchun – shunga e‘tibor bering – har oyda qariyb 400 milliard dollar miqdorida zarar keltirmoqda. Bugungi kunga qadar dunyo bo‘yicha 500 millionta ish o‘mi yo‘qotilgan.

Afsuski, bu ofat butun insoniyat qatori xalqimiz uchun ham kutilmagan tashvish va murakkab muammolarni keltirib chiqardi. Buxoro va Sardobada yuz bergan tabiiy va texnogen ofatlar ham el-yurtimizning irodasini yana bir bor sinovdan o‘tkazdi.

Xalqimizning bukilmas irodasi, fidokorona mehnati va matonati, aholi va davlat organlarining birgalikdagi sa‘y-

harakatlari tufayli mavjud qiyinchiliklarni mardona yengib o'tmoqdamiz.

Xabaringiz bor, pandemiyaning birinchi kunlaridan boshlab butun boshqaruv tizimi va barcha tibbiyot muassasalari favqulodda ish rejimiga o'tkazildi.

Qisqa muddatda Toshkent shahri va hududlarda barcha sharoitlarga ega bo'lgan qariyb 30 ming o'rinli davolash maskanlari tashkil etildi. Ular zarur dori-darmon, himoya va eng zamonaviy diagnostika vositalari bilan ta'minlandi. Pandemiya qarshi kurashish uchun 200 mingdan ziyod tibbiyot xodimi, jumladan, chet ellik 150 nafar yuqori malakali shifokor va mutaxassislar jalb etildi.

Xorijdan 600 mingdan ortiq vatandoshlarimiz yurtimizga olib kelindi. Chet elda qiyin ahvolga tushib qolgan 100 mingga yaqin fuqarolarimizga zarur yordamlar ko'rsatildi.

Pandemiya oqibatlarini yumshatish va bartaraf etish uchun davlat tomonidan jami 82 trillion so'mlik kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, Inqirozga qarshi jamg'arma tashkil etilib, koronavirusga qarshi kurashish, aholi va korxonalarini qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq tadbirlarga budjetdan 16 trillion so'mdan ortiq mablag' yo'naltirildi. Shuningdek, davlat korxonalariga va 500 mingdan ziyod tadbirkorlik subyekti hamda qariyb 8 million fuqaroga jami 66 trillion so'mlik soliq imtiyozlari, kredit muddatlarini uzaytirish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha amaliy yordamlar berildi.

"Saxovat va ko'mak" umumxalq harakati doirasida fidoyi va oliyjanob vatandoshlarimizning faol ishtirokida 800 mingdan ziyod ehtiyojmand oilalarga 1 trillion so'mdan ortiq moddiy yordam ko'rsatildi.

O'z paytida ko'rilgan tezkor va tizimli choralarimiz natijasida ushbu xatarli kasallikning keng tarqalishiga yo'l qo'yilmadi.

Yurtimizda osoyishta hayot, barqaror iqtisodiy rivojlanish davom etmoqda.

Karantin talablarini to'g'ri qabul qilib, ularga amal qilgan, sabr-toqatli, oliyjanob xalqimizga, o'ta xatarli vaziyatda o'zini ayamadan mardona mehnat qilgan jonkuyar shifokorlarga, "Saxovat va ko'mak" umumxalq harakatida munosib ishtirok etgan barcha tadbirkor va fuqarolarimizga yana bir bor o'zimning chuqur minnatdorchiligimni izhor etaman.

Pandemiyaga qarshi kurashda bizga amaliy ko'mak bergan Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, xalqaro moliya institutlari, Rossiya, Xitoy, AQSH, Turkiya, Birlashgan Arab Amirliklari, Janubiy Koreya, Yaponiya, Germaniya kabi davlatlar rahbarlariga tashakkur bildiraman.

Mamlakatimiz bilan yaqin do'stlik va hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga munosib hissa qo'shib kelayotgan chet davlatlarning hurmatli elchilari, xalqaro tashkilotlar vakillariga rahmat aytib, ezgu tilaklarimni bildirishdan mamnunman.

Hurmatli parlament a'zolari!

Qadrli do'stlar!

Joriy yilda "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish" Davlat dasturiga muvofiq, yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha barcha sohalarda islohotlarni qat'iy davom ettirdik.

Xalqaro valuta jamg'armasi va xalqaro reyting agentliklari tahlillariga ko'ra, bu yilgi sinovlarga qaramasdan, O'zbekiston dunyoning sanoqli davlatlari qatorida ijobiy o'sish sur'atlarini saqlab qoldi.

Yevropa Ittifoqi tuzilmalari bilan yaqin hamkorlikda mamlakatimizga kengaytirilgan savdo preferensiyalari – "GSP+" tizimini tatbiq etish bo'yicha muhim qadamlar tashlandi. Ushbu tizim kelgusida respublikamizda ishlab chiqariladigan 6 mingdan ziyod turdagi mahsulotlarni Yevropa bozoriga boj to'lamasdan olib

kirish imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, birgina to'qimachilik mahsulotlarining yillik eksportini 300 million dollarga oshirish uchun sharoit yaratadi.

Joriy yilda mamlakatimizning xalqaro moliya bozorlariga chiqish imkoniyatlari yanada yaxshilandi, ilk bor milliy valuta-da 2 trillion so'mlik davlat yevroobligatsiyalari past foizlarda joylashtirildi.

Bu yil respublikamizda 197 ta yirik, minglab kichik va o'rta korxonalar hamda infratuzilma obyektlari barpo etildi. Jumladan, "Navoiyazot"da ammiak va karbamid ishlab chiqarish kompleksi hamda azot kislotasi zavodi, Muborak, Gazli va Sho'rtan neft-gaz korxonalarida suyultirilgan gaz ishlab chiqarish qurilmalari, Toshkent metallurgiya zavodi kabi yirik quvvatlar ishga tushirildi.

Birgina energetika sohasida xorijiy investorlar bilan davlat-xususiy sheriklik asosida 6 ta yangi elektr stansiyasini barpo etish ishlari boshlandi. Ularning umumiy qiymati 2 milliard dollar bo'lib, 2 ming 700 megavatt quvvatga ega.

Toshkent shahrida 2 ta yangi metro stansiyasi va ilk bor 18 kilometrlik yer usti metrosi foydalanishga topshirildi.

Qishloq xo'jaligidagi islohotlar, yer maydonlari to'liq xususiy klaster va kooperatsiyalarga berilgani paxtachilikda hosildorlikni bir yilda o'rtacha 10 foizga oshirish imkonini yaratdi.

Meva-sabzavotchilik, g'allachilik va chorvachilikda ham 500 ga yaqin klaster va kooperatsiyalar faoliyati yo'lga qo'yildi. Buning natijasida, pandemiyaning salbiy ta'siriga qaramasdan, 1 milliard dollarlik meva-sabzavot eksport qilindi.

Bu yil 91 ming gektar yer maydoni qaytadan foydalanishga kiritildi. 133 ming gektar yoki o'tgan yilga nisbatan 2 barobar ko'p maydonda suvni tejaydigan texnologiyalar joriy etildi.

Tadbirkorlikni keng qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'plab imtiyoz va yengilliklar berildi. Tadbirkorlik subyektlariga 100 trillion

soʻm yoki 2016-yilga nisbatan qariyb 4 barobar koʻp kreditlar ajratildi.

2020-yil aholini ijtimoiy himoya qilish borasida tub buri-lish yili boʻldi, desak, mubolagʻa boʻlmaydi.

Avvalo, aholining muayyan qatlami oʻrtasida kambagʻallik mavjudligini birinchi marta tan olib, uni qisqartirish boʻyicha keng qamrovli ishlarni boshladik.

Barcha tuman va shaharlarda, har bir mahallada ehtiyojmand oilalar, ayollar va yoshlar bilan manzilli ishlash boʻyicha mutlaqo yangi – “temir daftar” tizimi joriy etildi. Qisqa muddatda bu tizim orqali 527 ming fuqaroning bandligi taʼminlandi.

Bundan tashqari, oʻzini oʻzi band qilgan aholi uchun soliq imtiyozlari berilishi hamda koʻpgina cheklovlarning bekor qilinishi tufayli 500 ming nafar fuqaro mehnat faoliyatini qonuniy tarzda yoʻlga qoʻydi.

Dehqon xoʻjaligi va tomorqa yer egalariga 300 milliard soʻm imtiyozli kredit va subsidiya ajratilgani ham qishloq aholisini ijtimoiy qoʻllab-quvvatlashda yangi yoʻnalishga aylandi.

Toshkent shahri, Andijon, Jizzax, Qashqadaryo, Samarqand, Sirdaryo va Fargʻona viloyatlarida tashkil etilgan “IT-Parklar”da 500 dan ortiq zamonaviy kompaniyalar ish boshladi.

Yakunlanayotgan yilda markazlashgan ichimlik suv taʼminotini yaxshilash uchun 3 trillion soʻm yoki 2016-yilga nisbatan 5 barobar koʻp mablagʻ ajratildi. Natijada, aholining toza ichimlik suvi bilan taʼminlanish darajasi 73 foizga yetdi.

Birgina joriy yilda ijtimoiy nafaqa oluvchilar qamrovi 2 barobar-ga oshirilib, 1 million 200 ming nafarga yetkazildi. Ushbu maqsad-larga budjetdan 2016-yilga nisbatan 5 barobar koʻp mablagʻ ajratildi.

Kichik yoshdagi bolalarni maktabgacha taʼlim bilan qamrab olish darajasi 4 yil davomida 2 barobar ortib, 60 foizga yetdi. Bogʻchalar soni esa 3 barobarga koʻpayib, 14 mingdan oshdi.

Bu yil oliy ta'limga qabul parametrlari 2016-yilga nisbatan 2,5 barobarga o'sdi, yoshlarimizni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 9 foizdan 25 foizga yetdi.

Ehtiyojmand oilalarning mingga yaqin qizlari ilk bor oliy o'quv yurtlariga alohida davlat grantlari asosida qabul qilindi.

O'zbekiston "Ochiq ma'lumotlarni kuzatish" xalqaro indeksida 125 pog'onaga ko'tarilib, 44-o'rinni egalladi. Bunda davlat va jamiyat boshqaruvi sohasidagi 20 ta yo'nalish bo'yicha ko'rsatkichlarni oshkor qilib borish amaliyoti joriy etilgani muhim ahamiyat kasb etdi.

"Iqtisodiy erkinlik" reytingida ham mamlakatimizning 26 pog'ona ko'tarilgani islohotlarimizning xalqaro maydondagi yana bir e'tirofi bo'ldi.

Sud-huquq sohasi, jumladan, jinoiy jazolarni liberallashtirish borasidagi islohotlarimiz ham izchil davom ettirildi. Natijada, bu yil sudlangan shaxslarning 74 foiziga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar tayinlandi.

Jazo muddatini o'tayotgan va tuzalish yo'liga qat'iy kirgan 616 nafar fuqaro afv etildi.

Sudlar mustaqilligi ta'minlanishi natijasida joriy yilning o'zida 719 nafar fuqaroga nisbatan oqlov hukmi chiqarildi.

O'zbekiston fuqarolari qayerda bo'lmasin, ularning konstitutsiyaviy huquqlari ishonchli himoya qilinmoqda. "Mehr-3" operatsiyasi amalga oshirilib, Suriyadan yana 98 nafar fuqaro, asosan, ayollar va bolalar Vatanimizga olib kelingani buning yaqqol tasdig'idir.

Jahonda kechayotgan murakkab geosiyosiy jarayonlar, koronavirus pandemiyasi va global iqtisodiy inqiroz sharoitida O'zbekiston ochiq va pragmatik tashqi siyosatni faol olib bormoqda. Xalqaro maydondagi qat'iy sa'y-harakatlarimiz natijasida yurtimizning nufuzi va obro'-e'tibori tobora yuksalmoqda.

Mamlakatimiz tarixda birinchi marta Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha kengashiga a'zo etib saylandi. Yaqinda AQSH davlat departamenti tomonidan O'zbekiston diniy erkinlik sohasidagi "maxsus kuzatuvdagi davlatlar" ro'yxatidan chiqarilgani ham keng ko'lamlı demokratik islohotlarimizning e'tirofidir.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining oliy minbaridan ilgari surgan global va mintaqaviy tashabbuslarimiz dunyo hamjamiyati tomonidan katta qiziqish bilan qabul qilinib, qo'llab-quvvatlanmoqda.

Qadrli xalq noiblari!

Aziz yurtdoshlar!

Barchangizga ma'lumki, kirib kelayotgan 2021-yilda O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligiga 30 yil to'ladi. Albatta, bu tarixiy sanani siz, azizlar va butun xalqimiz bilan birgalikda **"Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik!"** degan ezgu g'oya asosida keng bayram qilamiz.

Bugun kelgusi yil uchun reja va dasturlarimizni aniq belgilab olar ekanmiz, mustaqillik yillarida erishgan yutuqlarimizni yanada mustahkamlab, eng muhim va ustuvor sohalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratamiz, albatta.

Ta'kidlash kerakki, pandemiya barchamizga tibbiyotning birlamchi bo'g'ini – tez yordam xizmati, sanitariya-epidemiologiya tizimini tubdan isloh qilish muhim hayotiy zarurat ekanini yana bir bor ko'rsatdi.

Hozirgi vaqtda dunyoning boshqa mintaqalarida kuzatilyotgan "pandemiyaning navbatdagi to'lqini" va u bilan bog'liq xavf-xatarlar hammamizni yanada hushyor va ogoh bo'lishga undamoqda.

Buyuk ajdodimiz Imom Moturidiy hazratlarining **"Tiriklik hikmatini sog'liqda deb bilgin"**, degan chuqur ma'noli

soʻzlari naqadar toʻgʻri ekanini hayotning oʻzi bugun qayta-qayta isbotlamoqda.

Shu bois mavjud imkoniyat va salohiyatimiz, pandemiya davrida orttirgan tajribamiz hamda xorijdagi ilgʻor yutuqlardan foydalanib, aholi salomatligini asrash va mustahkamlash borasidagi tub islohotlarimizni yangi bosqichga koʻtarishimiz zarur. Bunda aholi, ayniqsa, yoshlarimiz oʻrtasida sogʻlom turmush tarzini keng targʻib etish – eng ustuvor yoʻnalishlardan biri boʻlishi lozim.

Umuman, har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini taʼminlaydigan yosh avlodning sogʻlom va barkamol boʻlib voyaga yetishi hal qiluvchi oʻrin tutadi. Shu sababli biz islohotlarimiz koʻlami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azm-u shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz.

Biz oʻz oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulugʻ maqsadni qoʻygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulugʻbeklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, taʼlim va tarbiyani rivojlantirish, sogʻlom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy gʻoyamizning asosiy ustunlari boʻlib xizmat qilishi lozim.

Ushbu maqsad yoʻlida yoshlarimiz oʻz oldiga katta marralarni qoʻyib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama koʻmak berish – barchamiz uchun eng ustuvor vazifa boʻlishi zarur. Shundagina farzandlarimiz xalqimizning asriy orzu-umidlarini roʻyobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanadi.

Shu maqsadda **“Yangi Oʻzbekiston – maktab ostonasidan, taʼlim-tarbiya tizimidan boshlanadi”**, degan gʻoya asosida keng koʻlamli islohotlarni amalga oshiramiz.

Birinchidan, yosh avlodga bog'cha, maktab va oliygohda sifatli ta'lim-tarbiya berishni yo'lga qo'yamiz, ular jismoniy va ma'naviy sog'lom, vatanparvar insonlar bo'lib ulg'ayishi uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etamiz.

Ikkinchidan, yoshlarni zamonaviy bilim va tajriba, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar etib voyaga yetkazamiz.

Uchinchidan, o'g'il-qizlarimizni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasb-hunarlarga o'rgatish, ularda tadbirkorlik ko'nikmalari va mehnatsevarlik fazilatlarini shakllantirish hamda tashabbuslarini ro'yobga chiqarish, ish va uy-joy bilan ta'minlashga ustuvor ahamiyat qaratamiz.

Bir so'z bilan aytganda, bola tug'ilganidan boshlab, 30 yoshgacha bo'lgan davrda uni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o'rin topishi uchun ko'mak beradigan, yaxlit va uzluksiz tizim yaratiladi.

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, yosh avlodni har tomonlama barkamol etib voyaga yetkazish uchun sarflangan sarmoya jamiyatga o'n, yuz barobar ko'p foyda keltiradi.

Buyuk bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino, bundan ming yil oldin **"Dovyurak va botir insonlar kelajakda sodir bo'ladigan qiyinchiliklardan qo'rqmaydi"**, deb bejiz aytmagan.

Yaqinda Qashqadaryo, Xorazm viloyatlarida va Toshkent shahrining Chilonzor tumanida bo'lib o'tgan uchrashuvlarda yoshlarimiz tomonidan bildirilgan dadil fikr va tashabbuslar meni juda quvontirdi.

Ayniqsa, kuni kecha Yoshlar forumida o'g'il-qizlarimizning yonib turgan ko'zlarida ulkan azm-u shijoatni, bilimga tashnalik va yangilikka intilishni ko'rib, yanada ruhlandim va ulardan kuch oldim. Ibn Sino bobomiz aytgan dovyurak va botir yoshlar aynan shu farzandlarim ekaniga yana bir bor amin bo'ldim.

Agar katta avlodning bilimi va tajribasini, uzoqni ko'ra olish fazilatlarini yoshlarimizdagi g'ayrat-shijoat, mardlik va fidoyilik bilan birlashtira olsak, ko'zlagan marralarga, albatta, yetamiz.

Yangi O'zbekistonni ana shunday bilimli va bunyodkor yoshlarimiz bilan birgalikda barpo etamiz.

Ana shu muhim yo'nalishlarda boshlagan ishlarimizni davom ettirish va yangi, yuksak bosqichga ko'tarish maqsadida kirib kelayotgan 2021-yilga mamlakatimizda **“Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”** deb nom berishni taklif etaman.

2021-yil nomida belgilangan sohalarni tubdan isloh qilish va yanada rivojlantirish bo'yicha quyidagi keng ko'lamli ishlarni amalga oshirishimiz lozim.

Birinchidan, bola dunyoga kelganidan boshlab, unda aynan maktabgacha bo'lgan yoshda aqliy faollik oshadi, axloqiy-estetik va jismoniy xislatlar shakllanadi.

Shu bois ham kelgusi yillarda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish borasidagi strategik maqsadimiz – bog'cha yoshidagi har bir bolani ushbu ta'lim yo'nalishi bilan to'liq qamrab olish uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iborat.

Kelgusi yil yakuni bilan maktabgacha ta'lim qamrovini 65 foizga, 2023-yil oxirida esa 75 foizga yetkazishimiz kerak. Bu ishlarga budjetdan 600 milliard so'm subsidiya berish hisobidan qo'shimcha ravishda 2 mingta nodavlat bog'cha tashkil etilib, xususiy sektor ulushi 25 foizga yetkaziladi.

Shuningdek, 2021-yilda maktabga tayyorlashning bepul tizimi bilan 560 ming nafar 6 yoshli bolalar yoki ularning 82 foizi qamrab olinadi.

Uzoq qishloqlarda maktabgacha ta'limning muqobil shakllari yanada kengaytiriladi. Bunda UNISEF hamda Jahon ban-

ki bilan hamkorlikda imkoniyati cheklangan bolalar uchun maktabgacha ta'limni uyda berish modeli ham yo'lga qo'yiladi.

Ikkinchidan, maktab ta'limini tubdan yaxshilash va uning sifatini oshirish, muallimlarga munosib sharoit yaratish borasidagi islohotlar jadal davom ettiriladi.

Kelgusi yili 30 ta yangi maktab qurish, 320 ta maktabni ta'mirlash va moddiy-texnik bazasini yaxshilash maqsadida budjetdan 2 trillion so'm ajratiladi.

Sohada yagona "elektron ta'lim" tizimini joriy etishga kelgusi 2 yilda 250 milliard so'm yo'naltiriladi. Ta'lim sifatini tubdan yaxshilash maqsadida, avvalo, o'quv dasturlari, o'qituvchi va domlalar uchun metodik qo'llanmalarni ilg'or xalqaro mezonlarga moslashtirish lozim.

Bolalarning tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun ularga sermazmun va tushunarli darsliklar yaratish zarur. Bu borada kelgusi o'quv yilida boshlang'ich sinflarda davlat ta'lim standarti o'rniga, ilg'or xorijiy tajriba asosida, bolaga ortiqcha yuklama bermaydigan "Milliy o'quv dasturi" joriy etiladi.

Umumta'lim maktablaridagi ta'lim sifati poytaxtda ham, olis qishloqlarda ham yuqori bo'lishi shart. Buning uchun chekka hududlarda maktablarni malakali kadrlar bilan ta'minlash, ta'lim sifatini yaxshilash bo'yicha alohida dastur amalga oshiriladi. Jumladan, boshqa tumandagi olis maktabga borib, dars beradigan o'qituvchilar oyligiga 50 foiz, boshqa viloyatga borib ishlasa – 100 foiz ustama haq to'lanadi.

Shuningdek, hududlarda xususiy maktablar faoliyatini rag'batlantirish uchun budjetdan subsidiyalar ajratiladi.

Yoshlarning iqtidori va salohiyatini to'g'ri yo'naltirishga qaratilgan uzluksiz tizim yaratiladi.

Kelgusi yilda yurtimizda 10 ta Prezident maktabi, kimyo-biologiya, matematika, axborot texnologiyalariga ixtisoslashgan 197 ta maktab o'z faoliyatini boshlaydi.

Iqtidorli o'g'il-qizlarimizning yuqori texnologiyalar va bilimlarni chuqur o'zlashtirishiga keng sharoit yaratish hamda raqobatbardosh milliy kadrlarning yangi avlodini tayyorlash maqsadida Toshkent shahrida yangi zamonaviy universitet tashkil etamiz. Ushbu oliygohda chet eldagi yetakchi olimlar va professor-o'qituvchilar jalb qilinib, yoshlarga eng zamonaviy dasturlar asosida ta'lim-tarbiya beriladi.

Bolalarimizning mehnat ko'nikmalarini maktab davridan boshlab shakllantirib borish maqsadida "kasbga o'rgatish tizimi" joriy etiladi.

Yana bir masala – pedagoglar malakasini oshirish, ularning mashaqqatli mehnatini rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Ma'lumki, muallimlar hozirgi vaqtda har 5 yilda malaka oshiradi. Bundan buyon ularning "hayot davomida o'qish" tamoyili asosida o'z malakasini uzluksiz oshirib borishi yo'lga qo'yiladi.

Shuningdek, o'qituvchilarning o'z fanini bilishi, pedagogik mahorati va psixologik tayyorgarligidan kelib chiqib, toifa berish mezonlari ham qayta ko'rib chiqiladi.

Yana bir bor takrorlayman, **jamiyatda o'qituvchi kasbi eng nufuzli va obro'li kasb bo'lishi lozim.** Muallimlarimiz bolalarga sifatli ta'lim berish va o'z ustida ishlashdan boshqa narsa haqida o'ylamasligi uchun davlat barcha sharoitlarni yaratib berishi zarur. Shu bois o'qituvchi, murabbiy va metodistlar mehnatiga munosib haq to'lash bo'yicha boshlagan ishlarimiz kelgusi yilda ham davom ettiriladi. Buning uchun xalq ta'limi xodimlarini rag'batlantirish hududiy jamg'armalariga 330 milliard so'm yo'naltiriladi.

Shu bilan birga, 240 mingdan ziyod maktab o'qituvchilariga sinf rahbarligi uchun ustama to'lovlar 1,5 barobarga oshirilib, budjetdan 400 milliard so'm qo'shimcha mablag' ajratiladi.

Uchinchidan, oliy ta'limning qamrovi va sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Keyingi yildan boshlab oliy ta'limga ajratiladigan davlat grantlari soni kamida 25 foizga oshiriladi.

Oliy o'quv yurtlariga qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar sonini 2 barobarga ko'paytirib, 2 mingtaga yetkazamiz. A'lo baholarga o'qiyotgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj qizlar uchun maxsus stipendiyalar joriy etiladi.

Hozirgi vaqtda yoshlar eng nufuzli oliygohlarga kirish uchun intiladi, lekin oliy o'quv yurtlari o'rtasida bilimli va iqtidorli yoshlarni jalb qilish bo'yicha raqobat yo'q.

Shu sababli xususiy oliygohlarga ham zarur mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha davlat buyurtmasi berish tizimi yo'lga qo'yiladi.

Oliygothlar va ta'lim tizimining quyi bo'g'inlari o'rtasidagi uzviylikni kuchaytirish maqsadida 65 ta akademik litsey oliy o'quv yurtlari tasarrufiga o'tkaziladi. Shuningdek, 187 ta texnikum ham o'z yo'nalishi bo'yicha turdosh oliygoth va tarmoq korxonalariga biriktiriladi.

Nufuzli xorijiy universitetlar, ilmiy va innovatsion markazlar bilan aloqalarni kuchaytirish, ular bilan kadrlar tayyorlash bo'yicha hamkorlikni yanada kengaytirishimiz zarur.

Shu munosabat bilan kelgusi yilda "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali yetakchi xorijiy oliy o'quv yurtlarining magistratura va doktoranturasida o'qishga yuboriladigan yoshlar soni 5 barobarga oshiriladi. Bu dastur orqali ilk bor bakalavr yo'nalishida chet ellarga 100 nafar o'g'il-qizlarimizni yuboramiz. Keyingi yillardan ularning soni 2-3 barobarga ko'paytiriladi.

Yangi yilda yurtimizdagi 30 ta yetakchi oliygohga o'quv dasturlarini ishlab chiqish, qabul kvotasi va moliyaviy masalalarni mustaqil hal qilish huquqi beriladi.

To'rtinchidan, mamlakat taraqqiyotining zamini, hech shubhasiz, ilm-fan va innovatsiyalardir.

Kelgusi yilda ilm-fan sohasida oliygohlar va ilmiy tashkilotlardagi doktorantlar soni 4,5 mingtaga yetkaziladi yoki 2017-yilga nisbatan 3 barobarga oshiriladi. Ushbu maqsadlar uchun budjetdan qo'shimcha 240 milliard so'm ajratiladi.

Ilg'or xalqaro amaliyot asosida dotsent va professor ilmiy unvonlari, falsafa va fan doktori ilmiy darajalarini berish vakolati o'z yo'nalishi bo'yicha nufuzli bo'lgan oliygohlarning ilmiy kengashlariga o'tkaziladi.

Joriy yilda ilk bor matematika, kimyo-biologiya va geologiya fanlarini ta'lim va ilmning ustuvor yo'nalishi sifatida belgilab, ularni kompleks rivojlantirish choralari ko'rildi. Jumladan, 98 ta ixtisoslashgan maktablar hamda Geologiya fanlari universiteti tashkil etildi. O'quv dasturlari tubdan qayta ko'rib chiqildi, o'qituvchilarning ish haqi oshirildi.

Endi keyingi yil uchun ustuvor ilm-fan yo'nalishlarini belgilab olishimiz kerak.

Agar tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, dunyodagi deyarli barcha kashfiyot va texnologiyalarni yaratishda fizika fani fundamental asos bo'lganini ko'ramiz. Haqiqatan ham, fizika qonuniyatlarini chuqur egallamasdan turib, mashinasozlik, elektrotexnika, IT, suv va energiyani tejaydigan texnologiyalar kabi bugun zamon talab qilayotgan sohalarda natijaga erishib bo'lmaydi.

Buyuk mutafakkir shoirimiz Mir Alisher Navoiy o'z davrida yoshlarga murojaat qilib, "Quyoshliq istasang, kasbi kamol et", deb yozganlar. Chindan ham, odamlarga Quyoshdek

beminnat nur taratishni, yaxshilik qilishni istaydigan inson kamolotga intilib, turli ilm va kasb-hunarlarini o'zlashtirishi lozim.

Hozirgi davrda xorijiy tillarni mukammal o'rganmasdan turib, buyuk bobomiz aytgan ana shunday marralarga erishib bo'lmaydi, desak, adashmagan bo'lamiz. Bunday o'tkir talabga amal qilib, kelgusi yilda fizika va chet tillarini o'rganishni ustuvor yo'nalish etib belgilashni taklif etaman.

Shu maqsadda kelgusi yilda ta'limning barcha bo'g'inlarida ushbu fanlarni o'qitish sifatini tubdan oshirish, ixtisoslashgan maktablar ochish, malakali pedagoglarni jalb etish kabi tizimli ishlar amalga oshiriladi.

Fizika bo'yicha Ahmad Farg'oniy nomidagi xalqaro fan olimpiadasi tashkil etiladi. Shuningdek, fizika yo'nalishida ilmiy izlanishlar ko'lami va sifatini oshirish, yosh olimlarga zarur shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Beshinchidan, yoshlar o'rtasida bandlikni ta'minlash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash masalasi e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Buning uchun kelgusi yilda professional ta'lim tizimi mehnat bozoridagi talab va xalqaro andozalarga mos yangicha yondashuvlar asosida isloh qilinadi.

Bundan buyon ishchi kasblar bo'yicha talab qo'yishda malaka asosiy o'ringa chiqadi.

Shuning uchun Hukumat kelgusi yil 1-yanvardan talab yuqori bo'lgan ishchi kasblar bo'yicha fuqarolarning malaka darajasini tasdiqlash tizimini joriy etsin.

Xabaringiz bor, Yoshlar forumidagi uchrashuvimizda yoshlar tadbirkorligi va bandligini ta'minlash uchun 100 million dollar ajratish to'g'risida qaror qabul qildik.

Bundan tashqari, yoshlarning biznes loyihalarini kreditlash hamda ularni kasb-hunarga o'qitish uchun 1 trillion so'm va 50 million dollar ajratiladi.

Oltinchidan, ehtiyojmand oilalarning farzandlari, chin yetim, nogironligi bo'lgan va davolanishga muhtoj bolalarga alohida mehr-muruvvat ko'rsatish bo'yicha yangi tizim joriy etiladi.

Hozirgi kunda respublikamizda alohida e'tiborga muhtoj 18 yoshgacha bo'lgan 150 ming nafar farzandlarimiz bor. Ularning ta'lim olishi, aniq bir kasbni egallashi uchun ko'maklashish, og'ir kasallikka chalinganlarni davolash, chin yetimlarga hayotda o'z o'rmini topishga yordam berish, uy-joy bilan ta'minlash – nafaqat vazifamiz, avvalo, insoniy burchimizdir.

2021-yilda birinchi marta budjetdan 900 nafar chin yetim yoshlarni uy-joy bilan ta'minlashga 50 milliard so'm ajratiladi.

Umuman, bunday ezgu ishlarni tizimli yo'lga qo'yish uchun Bolalarni qo'llab-quvvatlash jamoat fondini tashkil etib, unga budjetdan 100 milliard so'm yo'naltirsak, o'yalaymanki, sizlar ham bu tashabbusni qo'llab-quvvatlaysiz. Bu mablag'lar yil davomida ko'paytirib boriladi.

Bu tashabbus umumxalq harakatiga aylanishi, saxovatpesha hamyurtlarimiz ushbu xayrli ishga munosib hissa qo'shishiga ishonchim komil.

Oliy Majlis palatalari Bolalarni qo'llab-quvvatlash jamoat fondi faoliyatini qonun darajasida mustahkamlab, bu borada faollik ko'rsatgan yurtdoshlarimizni rag'batlantirishni ham nazarda tutishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, Bolalar Ombudsmani to'g'risidagi qonunni qabul qilishning ham vaqti-soati keldi.

Umuman, yoshlarimizni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha yuqorida qayd etilgan forumda juda ko'plab masalalar yechimini kelishib oldik. Shuning uchun bugun ular to'g'risida batafsil to'xtalmadim.

Barchamiz uchun endigi vazifa – ushbu tashabbus va takliflarni to‘liq amalga oshirishdan iborat.

Hurmatli yig‘ilish ishtirokchilari!

2021-yil uchun yana bir muhim yo‘nalish sifatida belgilangan tibbiyot sohasida quyidagi ustuvor vazifalarga alohida e‘tibor qaratiladi.

Birinchidan, kelgusi yilda ham koronavirus pandemiyasiga qarshi kurashni tizimli ravishda davom ettirish – eng muhim vazifalarimizdan biri bo‘ladi.

Bu ishlar uchun 2021-yil Davlat budjetida 3 trillion so‘m zaxira shakllantirildi. Ushbu mablag‘lar hisobidan, albatta, aholini koronavirusga qarshi emlash tadbirlari ham amalga oshiriladi.

Sanitariya-epidemiologiya xizmati sifatini oshirish, uning moddiy-texnik bazasini yaxshilash va zamonaviy laboratoriyalar tashkil etishga 200 million dollar yo‘naltiriladi.

Pandemiya saboqlaridan kelib chiqqan holda, tibbiyot sohasini raqamlashtirish ko‘lami yanada kengaytiriladi. Jumladan, barcha tibbiyot muassasalarida masofaviy xizmatlarni ko‘paytirish, poliklinika va kasalxonalarni elektron ish yuritishga o‘tkazish choralari ko‘riladi. Shuningdek, respublika ixtisoslashgan tibbiyot markazlari va ularning filiallari o‘rtasida telemeditsina yo‘lga qo‘yilib, diagnostika va davolash uchun joylardagi imkoniyatlar yanada kengaytiriladi.

Ikkinchidan, ona va bola sog‘lig‘iga e‘tibor – jamiyatga, kelajakka e‘tibordir.

Shu maqsadda keyingi yildan boshlab, 15 yoshgacha bo‘lgan bolalar va homilador ayollarga 7 turdagi vitaminlar, bolalar uchun parazitar kasalliklarga qarshi dori vositalari bepul tarqatiladi. Bu jarayon bilan 2021-yilda – 11 million nafar, 2022-yilda – 17 million nafar aholi qamrab olinadi va bu ishlarga 100 milliard so‘m mablag‘ yo‘naltiriladi.

Ayollar va bolalarni yod, temir, foliy kislotasi, vitaminlar va parazitlarga qarshi dorilar bilan bepul ta'minlash orqali aholi o'rtasida kamqonlik 25 foizga kamaytiriladi.

Uchinchidan, tibbiyotning birlamchi bo'g'inini kuchaytirish, ayniqsa, qishloq va mahallalarda tibbiy xizmatni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish zarur.

Bu borada birlamchi bo'g'inda umumiy amaliyot shifokori o'miga oilaviy shifokor va unga yordamchi sifatida 5 nafar o'rta tibbiyot xodimidan iborat "tibbiy brigadalar" tashkil etiladi.

Har bir mahallada, eng avvalo, 5 yoshgacha bolalar, shuningdek, tug'ish yoshidagi va homilador ayollar, nogironligi bo'lganlar, qon tomir, onkologik, endokrin kabi kasalliklarga moyilligi bo'lgan fuqarolar bilan ishlashning alohida tizimi joriy etiladi.

Shu bilan birga, davlat tomonidan bepul tibbiy xizmatlar va dori vositalari ro'yxati qayta shakllantirilib, ular bilan aholini kafolatli ta'minlash tizimi bosqichma-bosqich yo'lga qo'yiladi.

Shuningdek, tibbiy xizmatlar ko'rsatishda birlamchi bo'g'in qamrovini kengaytirish maqsadida kelgusi 3 yilda 315 ta "oilaviy shifokor" punkti va 85 ta oilaviy poliklinika ishga tushiriladi.

Bundan tashqari, "qishloq shifokori" dasturi doirasida olis hududlarda ish boshlaydigan mingdan ortiq vrachga 30 million so'mdan yordam puli beriladi hamda ular xizmat uylari bilan ta'minlanadi.

Olis va chekka hududlarda birlamchi va ixtisoslashgan tibbiy yordam ko'rsatish va ehtiyojmand aholi uchun skrining tadbirlariga xususiy shifoxonalar ham jalb etilib, ularga subsidiya ajratiladi.

O'rta bo'g'in tibbiyot xodimlari – hamshira va feldsherlarning obro'si va mavqeyini oshirishga alohida urg'u beramiz. Jumladan, 47 ta Ibn Sino nomidagi texnikumlarni har yili bitiradigan

20 mingdan ortiq o'g'il-qizlarimiz tibbiyotning bir nechta sohalarida kasb egasi bo'lib chiqadi.

Shuningdek, o'rta bo'g'in tibbiyot xodimlariga "hamshiralik ishi" bilan mustaqil shug'ullanish uchun ruxsat beriladi.

To'rtinchidan, hozirgi kunda 12 mingdan ziyod fuqaromiz oqqon va og'ir irsiy gematologik kasallikdan aziyat chekmoqda.

Shu sababli kelgusi yilda onko-gematologiya sohasi hamda davolash qiyin bo'lgan kasalliklar bo'yicha murakkab diagnostika va tibbiy amaliyotlar uchun budjetdan 250 milliard so'm ajratiladi.

O'tkir buyrak yetishmovchiligi bo'lgan 5 mingdan ortiq bemor esa ilk bor bepul gemodializ xizmati bilan qamrab olinadi va shu maqsadlar uchun budjetdan 140 milliard so'm yo'naltiriladi.

Shuningdek, endokrin kasalliklarni aniqlash va davolash maqsadida hududiy shifoxonalarda maxsus bo'limlar tashkil etiladi. Buning uchun 2021-yilda budjetdan 150 milliard so'm ajratiladi.

Yana bir masala – aholimizning katta qismini qiynaydigan o'tkir qon tomir kasalliklari bo'yicha 35 ta tumanlararo markaz tashkil etamiz. Ushbu markazlar aholiga infarkt va insult holatlarida tezkor va malakali tibbiy yordam ko'rsatish orqali o'lim va nogironlikni kamaytirishga xizmat qiladi. Shu tariqa har yili kamida 30 ming nafar insonning hayoti saqlab qolinadi.

Beshinchidan, jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish – aholi salomatligini ta'minlashda muhim omildir.

Kelgusi yilda 70 ta jismoniy tarbiya va sport muassasasi, 16 mingta bog'cha va maktablarni sport jihozlari bilan ta'minlashga 100 milliard so'm ajratiladi. Shuningdek, barcha tuman markazlari va shaharlarda maxsus piyodalar va velosiped yo'laklari barpo etiladi.

Aholini ommaviy sport turlariga keng jalb qilish orqali 2021-yilda qamrov hozirgi 19 foizdan 25 foizga yetkaziladi.

Sport haqida gapirganda, yana bir muhim vazifa oldimizda turganini ta'kidlab o'tmoqchiman.

Yaqinda Osiyo olimpiya kengashi 2025-yilda Yoshlar o'rtasida Osiyo o'yinlarini Toshkent shahrida o'tkazish bo'yicha qaror qabul qildi. Bu mamlakatimizga ko'rsatilgan katta ishonch, desak, to'g'ri bo'ladi. Ayni vaqtda buning mas'uliyati ham katta ekanini, o'ylaymanki, barchamiz yaxshi tushunamiz. Qit'amiz miqyosidagi ushbu musobaqaga hozirdan boshlab puxta tayyorgarlik ko'rishimiz lozim.

Oltinchidan, xalqimizning madaniy-ma'rifiy hayotini yuksaltirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Bunda madaniyat va san'at muassasalari faoliyatini jonlantirish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga budjetdan 420 milliard so'm yo'naltiriladi. Jumladan, hududlarda 22 ta teatr va madaniyat obyekti quriladi va rekonstruksiya qilinadi.

Toshkent shahrining markazida Milliy akademik drama teatri, mashhur yapon arxitektori Tadao Ando loyihasi asosida yangi san'at muzeyi, zamonaviy kutubxona hamda Alisher Navoiy nomidagi xalqaro ijod maktabidan iborat madaniyat va ma'rifat majmuasini barpo etish bo'yicha amaliy ishlar boshlanadi. Mustaqilligimizning 30 yilligiga bag'ishlab poytaxtimiz markazida "Istiqlol" majmuasi qad rostlaydi.

Ilgari ko'p yillar davomida o'tkazib kelingan Toshkent xalqaro kinofestivali – "Ipak yo'li durdonasi" Toshkent xalqaro kinofestivali nomi bilan qayta tashkil etiladi.

Shu o'rinda yana bir muhim masalaga alohida to'xtalib o'tmoqchiman. Boy tariximiz durdonasi bo'lgan madaniy merosimizni asrab-avaylab, kelajak avlodlar uchun bezavol yetkazishimiz zarur. Hozirgi vaqtda ularning soni 7 mingdan ziyodni tashkil etadi.

Afsuski, keyingi paytlarda bebaho madaniy merosimiz bo'lgan ayrim obidalarimizga zarar yetkazish holatlari uchrayotgani bu borada e'tibor susayganidan dalolat beradi. Bu ish nafaqat Madaniyat vazirligi, balki mahalliy hokimliklar, mahalla, ommaviy axborot vositalari va keng jamoatchilikning ham diqqat markazida bo'lishi kerak.

Hukumat bir oy muddatda madaniy meros obyektlarining hisobini yuritish, saqlash va himoyasini ta'minlash bo'yicha alohida dastur qabul qilishi lozim.

Qadrli xalq vakillari!

Yangi yilda iqtisodiy islohotlarning pirovard maqsadi kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishdan iborat bo'ladi. Ushbu strategik maqsadlarga hamma uchun teng imkoniyat yaratadigan yuqori iqtisodiy o'sish hisobiga erishiladi.

So'nggi 4 yilda iqtisodiyotimizning barcha jabhalariga bozor mexanizmlarini joriy etish borasida jiddiy qadamlar tashlandi. Endigi vazifa – chuqur tarkibiy islohotlar orqali uzoq muddatli barqaror o'sishning poydevorini yaratishdan iborat. Shularni inobatga olib, keyingi yilda quyidagi yo'nalishlarda keng qamrovli ishlarni amalga oshiramiz.

Birinchidan, kambag'allikni qisqartirish borasida kompleks yondashuv va nostandart usullarni joriy etamiz.

Bir haqiqatni aniq tushunib olishimiz kerak – kambag'allik masalasi kredit, ijtimoiy nafaqa yoki uy berish bilan o'z-o'zidan hal bo'lib qolmaydi. Buning uchun ta'lim, sog'liqni saqlash, kasb-hunarga o'qitish, ichimlik suvi, energiya va yo'l infratuzilmasi bilan bog'liq kompleks muammolarni hal etib borish kerak.

Nima uchun biz "temir daftar"ni joriy etdik? Bundan maqsad – ehtiyojmand aholini to'g'ri aniqlash va shu asosda, ular bilan manzilli ishlashni tashkil etishdir.

Kelgusi yildan to'liq ishga tushadigan "Ijtimoiy reyestr"da "temir daftar"dagi barcha ma'lumotlar qamrab olinib, ehtiyojmand oilalarga 30 dan ziyod ijtimoiy xizmatlar elektron shaklda ko'rsatiladi.

Birinchi navbatda, kambag'al aholining asosiy ehtiyojlarini kafolatli ta'minlashimiz lozim. Bu masalada xalqaro ekspertlar bilan chuqur tahlil asosidagi hisob-kitoblar yakuniga yetkazilmoqda. Kelgusi yil 1-martdan boshlab aholining minimal iste'mol xarajatlari miqdori e'lon qilinadi.

Hukumat ikki oy muddatda ijtimoiy kafolatlarni bir tizimga keltirib, ularni minimal me'yorlar darajasida bosqichma-bosqich ta'minlash bo'yicha dastur ishlab chiqsin.

"Temir daftar"ga kiritilgan har bir fuqaroni kambag'allikdan chiqarish bo'yicha "motivatsiya, ko'nikma va moliyaviy ko'mak" tamoyili asosida yangi mexanizm joriy etiladi.

Kambag'allikdan chiqib ketish uchun eng muhim omil – bu insonning intilishi, o'z kuchiga tayangan holda, aniq maqsad sari harakati bo'lishi kerak. Shu maqsadda kelgusi yili mahallalarda aholini kasb-hunarga o'qitish bo'yicha mingdan ziyod markazlar tashkil etiladi. Bunda kasb-hunarga o'qitilgan har bir shaxs uchun o'quv markazlariga 1 million so'mgacha subsidiya berilib, buning uchun budjetdan 100 milliard so'm ajratiladi. O'quv kurslarini tamomlab, o'z biznesini boshlamoqchi bo'lgan fuqarolarga asbob-uskuna xarid qilish uchun 7 million so'mgacha subsidiyalar beriladi.

Shuningdek, har bir tumanning imkoniyati va rivojlanish yo'nalishidan kelib chiqib, dehqonchilik bilan shug'ullanadigan oilalarga 10 sotixdan 1 gektargacha yer maydonlari ajratiladi.

Ehtiyojmand aholi bandligini ta'minlashga Bandlikka ko'maklashish hamda Jamoat ishlari jamg'armalaridan 500 milliard so'm yo'naltiriladi.

Pandemiya sharoitida o'z ishini yo'qotgan aholining kambag'allikka tushib qolishiga yo'l qo'ymasligimiz kerak. Shuning uchun kelgusi yildan boshlab yangicha tizim joriy etiladi. Unga ko'ra, vaqtincha ishsizlik nafaqasi 3 barobar oshiriladi va bunda 6 ta hujjat talab etiladigan eski byurokratik tartib bekor qilinadi.

Kambag'allikni qisqartirish borasida hududlardagi haqiqiy holatga baho berish, amalga oshirilayotgan ishlar ijrosini nazorat qilish Oliy Majlis palatalari va mahalliy Kengashlarning diqqat markazida bo'lishi lozim.

Har bir tuman va shahar hokimi bir oy muddatda o'z hududida kambag'allikni qisqartirish bo'yicha manzilli dastur ishlab chiqib, uning ijrosi bo'yicha har chorakda mahalliy Kengashlarda hamda ommaviy axborot vositalari orqali xalqqa hisobot berib borishi zarur. Bu masala barcha rahbarlarning birinchi darajali vazifasi va ish samarasini baholaydigan asosiy mezonga aylinishi kerak.

Ikkinchidan, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda davlat kompaniyalarini transformatsiya qilishni jadalashtirish kerak.

Hozirgi vaqtda davlat ishtirokidagi korxonalarining aksariyati moliyaviy barqaror bo'lmagani uchun davlatga og'ir yuk bo'lib qolmoqda. Shuning uchun joriy yildan barcha davlat korxonalarini isloh qilish dasturi amalga oshirilmoqda. Jumladan, kelgusi yilda Navoiy kon-metallurgiya kombinati, "O'zbekneftgaz", "O'zbekgidroenergo", "O'zavtosanoat" aksiyadorlik jamiyatlari xalqaro moliya bozoriga chiqib, davlat kafolatisiz mablag' jalb qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Tan olish kerak, mutaxassislarning bilim va malakasi, yirik korxonalarining texnik imkoniyatlari ularni mustaqil transformatsiya qilish uchun yetarli emas. Shuning uchun elektr energetikasi, neft-gaz va kimyo sanoati, mashinasozlikdagi yirik

korxonalar hamda tijorat banklarini isloh qilishga Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki hamda “MakKinzi”, “Boston konsalting Grupp”, “Rotshild” kabi xalqaro tan olingan kompaniyalar jalb etildi.

2021-yilda strategik ahamiyatga ega bo‘lgan 32 ta yirik korxonalar va tarmoqni transformatsiya qilish ishlari amalga oshiriladi. Banklar faoliyatiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish e’tiborimiz markazida bo‘ladi.

2021-yilda “Sanoatqurilishbank”, “Asaka bank”, “Ipotekabank”, “Aloqabank”, “Turonbank” hamda “Qishloq qurilish bank”ni xususiylashtirishga tayyorlaymiz. Kamida bitta yirik bankdagi davlat ulushi strategik investorlarga to‘liq sotiladi. Bu borada yetakchi Yevropa banklari bilan muzokaralar olib borilmoqda.

Tarkibiy islohotlarning yana bir yo‘nalishi – bu davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini kamaytirishdir.

Biz davlat aktivlarini ochiq-oshkora va samarali sotish uchun, xalqaro moliyaviy va huquqiy maslahatchilarni jalb etgan holda, qator korxonalarini xususiylashtirishga oid keng qamrovli ishlarni boshladik.

Kelgusi yilda “Farg‘ona azot” va “Dehqonobod kaliy” zavodlari, “Koka-kola ichimligi” korxonasi, “Bildirsoy” va “Chorvoq” oromgohlari, “Ichan qal‘a” va “Hayat Rejensi” mehmonxonalarini, “Poytaxt” biznes majmuasi, alkogol, yog‘-moy kabi tarmoqlardagi 83 ta yirik korxonadagi davlat ulushi sotuvga qo‘yiladi.

Umuman olganda, davlat ulushi bo‘lgan korxonalar soni kelgusi ikki yilda kamida 3 barobar qisqartiriladi.

Uchinchidan, tovar va moliya bozorlarida erkin raqobat muhitini shakllantirish hamda tadbirkorlarga xomashyo sotib olish uchun teng imkoniyatlar yaratish zarur.

Hozirgi kunda elektr energiyasi, gaz, qimmatbaho metallar, mineral o'g'itlar, transport xizmatlari kabi yo'nalishlarda monopol bozorlar mavjud bo'lib, ularda ko'plab muammolar saqlanib qolmoqda.

Shu o'rinda bir masalaga alohida to'xtalib o'tmoqchiman. Iqtisodiy faollik va aholi daromadlari o'sgani sayin, energiya resurslariga bo'lgan talab ortib boradi. Shuning uchun neft-gaz va energetika sohalaridagi islohotlarni va boshlangan yirik loyihalarni yakuniga yetkazishimiz lozim. Jumladan, 2021-yilda davlat va xususiy elektr stansiyalari hamda iste'molchilar o'rtasida elektr energiyasi ulgurji bozorini shakllantirish boshlanadi.

Shuningdek, tabiiy gaz ta'minotida monopoliyani bekor qilib, bozor mexanizmlarini joriy etamiz. Bunda ishlab chiqaruvchi va importyorlarga birja orqali tabiiy gazni sotish, ulgurji iste'molchilar esa gazni sotib olish huquqiga ega bo'ladi. "O'ztransgaz" kompaniyasi esa faqat gazni transportirovka qiladi.

Suyultirilgan gaz bozorida xususiy sektor ishtirokini kengaytirish maqsadida uning importiga o'rnatilgan bojlar bekor qilinadi.

Zargarlik sohasida ham tadbirkorlarga xomashyo sotib olish uchun keng imkoniyatlar yaratiladi. Bunda kelgusi yil 1-martdan boshlab, kumushni birja orqali ishlab chiqaruvchilarga erkin sotish tartibi o'rnatiladi.

Avtomobil sanoatida sog'lom raqobat muhitini rivojlantirish va korxonalariga teng sharoitlar yaratish orqali sohada ishlab chiqaruvchilar soni ko'paytiriladi.

2021-yildan boshlab oziq-ovqat, neft va elektrotexnika kabi tarmoqlarda 73 ta aksiz solig'i bekor qilinadi. Yana bir masala – hozirgi kunda davlat xaridlarida atigi 4 foiz tadbirkor qatnashmoqda.

Kelgusi yilda 24 ta yirik davlat korxonasiga davlat xaridi bo'yicha ochiq-oshkora talablar joriy etiladi. Natijada mahal-

liy tadbirkorlarimiz har yili kamida 10 trillion so‘mlik mahsulotlarini ushbu korxonalariga sotish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Bundan buyon barcha davlat xaridlari jamoatchilik va parlament nazoratida bo‘ladi.

To‘rtinchidan, iqtisodiy o‘shishga, avvalo, raqobatdosh sanoat zanjirlarini yaratish hamda bunday loyihalarga investitsiyalarni ko‘paytirish orqali erishiladi.

Garvard universiteti tadqiqotlariga ko‘ra, mamlakatimiz 50 dan ortiq sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda barcha imkoniyatlar va nisbiy ustunliklarga ega. Ayniqsa, neft-gaz-kimyoy, metallurgiya, mashinasozlik, elektrotexnika, farmatsevtika, qurilish materiallari, to‘qimachilik, charm-poyabzal, oziq-ovqat hamda “yashil iqtisodiyot” bilan bog‘liq sanoat tarmoqlari iqtisodiyotimiz “drayverlari”ga aylanishi uchun barcha yetarli sharoitlar mavjud.

Bu tarmoqlarda xususiy sektorning tashabbuslari va yangi loyihalarini qo‘llab-quvvatlash hamda kooperatsiyani rivojlantirish bo‘yicha barcha choralar ko‘rilishi lozim.

Hozirgi kunda G‘ozg‘ondagi dekorativ toshlar, Namangan-dagi tayyor kiyim-bosh, Toshkent shahri Yashnobod tumanidagi “Texnopark” kabi sanoat klasterlari o‘z samarasini ko‘rsatib, shu tizim afzalliklarini namoyon etmoqda.

Hukumat kelgusi yil 1-aprelgacha istiqbolli sanoat klasterlari ro‘yxatini aniqlab, ularni jadal rivojlantirish uchun alohida dastur ishlab chiqsin.

Shuningdek, “bojxona hududida qayta ishlash rejimi”da sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni ko‘paytirish zarur.

Shu bilan birga investitsiya siyosatini yuritishda davlat ishtirokini pasaytirib, xususiy va to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar ulushini oshirish kerak.

Geologiya sohasida joriy yilda 21 ta kon va istiqbolli maydonlar ochiq auksion orqali investorlarga sotildi. 2021-yil-

da yana 50 ta kon va istiqbolli maydonlar mahalliy va chet ellik investorlarga ochiq mexanizmlar asosida sotiladi. Bunday ishlarni boshqa yo'nalishlarda ham davom ettirishimiz kerak.

Umuman olganda, kelgusi yilda 23 milliard dollar qiymatidagi investitsiyalarni o'zlashtirish zarur. Natijada 226 ta yirik sanoat va infratuzilma obyektlari ishga tushiriladi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinatida 2 ta yirik metallurgiya zavodi, Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida texnogen rudani qayta ishlash zavodi, shuningdek, respublikamiz bo'yicha to'qimachilik, qurilish materiallari, charm-poyabzal, oziq-ovqat va farmatsevtika tarmoqlarida yuzlab yangi ishlab chiqarish quvvatlari barpo etiladi.

Birgina Toshkentdagi "Yashnobod" texnoparkida yana 11 ta zamonaviy elektrotexnika korxonasi ishga tushirilib, u yerdagi jami korxonalar soni 17 taga va ishlovchilar soni 11 mingtaga yetkaziladi.

Toshkent, Navoiy, Samarqand, Surxondaryo viloyatlarida jami quvvati 760 megavatt bo'lgan yangi elektr stansiyalari ishga tushiriladi.

Qashqadaryo viloyatida qiymati 3 milliard 600 million dollar bo'lgan, yiliga 1,5 million tonna kerosin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gaz ishlab chiqaradigan majmua to'liq mahsulot berishni boshlaydi.

Beshinchidan, makroiqtisodiy barqarorlik – iqtisodiy islohotlarning mustahkam poydevoridir.

Shuning uchun kelgusi yilda inflatsiyaviy targetlash doirasida narx-navo o'sishini 10 foizdan oshirmaslik Markaziy bank va Hukumatning asosiy vazifasi bo'ladi. Bu borada global pandemiya oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratish zarurligini yana bir bor tasdiqladi. Shu boisdan ham asosiy oziq-ovqat mahsulotlari narxining keskin oshib ketishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida import sohasidagi boj

to'lovlari bo'yicha berilgan imtiyozlar yana bir yilga uzaytiriladi.

Umuman, xalqimiz xotirjam bo'lishi kerak: sifatli oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, bu borada kafolatlangan zaxirani yaratish va ularni bozorga uzluksiz yetkazib berish hamda narx-navo barqarorligini ta'minlash ishlariga ustuvor darajada e'tibor qaratiladi. Buning uchun Hukumat va hokimliklar tomonidan barcha choralar ko'riladi hamda bu masala Prezidentning doimiy nazoratida bo'ladi.

Shuningdek, 2021-yilda iqtisodiyotning kamida 5 foizga o'sishini, budget defitsiti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 5,4 foizdan oshmasligini ta'minlashimiz zarur. Kelgusi 2 yilda esa budget defitsitini 2 foizdan oshirmaslik bo'yicha Hukumat zarur chora-tadbirlarni belgilashi lozim.

Mana, valuta bozori erkinlashganiga ham 3 yildan oshdi. Shu davrda erkin valuta ayirboshlash bo'yicha yurtimizda yetarli tajriba to'plandi. Endi iqtisodiyotimizning xorijiy valutaga bog'liqlik darajasini bosqichma-bosqich kamaytirish kerak. Shu maqsadda kelgusi yilda valuta kreditlari ulushini hozirgi 50 foizdan 45 foizga, ya'ni kamida 2 milliard dollarga pasaytirish lozim.

Yangi yilda milliy valutada chiqariladigan xalqaro obligatsiyalar ulushini hozirgi 25 foizdan kamida 40 foizga oshirish zarur.

Shu bilan birga kelasi yili banklararo valuta bozori "onlayn" platformaga o'tkaziladi va tadbirkorlarga valutani bevosita bankning o'zidan sotib olish uchun imkoniyat yaratiladi. Natijada tadbirkorlar valutani hozirgidek 4 kunda emas, yarim soatda sotib olishi mumkin bo'ladi.

Yana bir masala – hozirgi kunda O'zbekistonning davlat tashqi qarzi Jahon banki va Xalqaro valuta jamg'armasi mezonlariga ko'ra xavfsiz hisoblanadi. Ayni vaqtda tashqi qarz hisobidan hududlarda amalga oshiriladigan loyihalar bundan buyon mahalliy

Kengashlar va jamoatchilik muhokamasidan o'tkaziladi. Ularning natijalari to'g'risida jamoatchilikka hisobot berish tizimi yo'lga qo'yiladi. Shuningdek, davlat nomidan tashqi qarz olish kamaytirilib, investitsiya va infratuzilma loyihalariga ko'proq xususiy kapital jalb etiladi. Masalan, keyingi yilda davlat-xususiy sheriklik asosida 40 dan ortiq yirik va o'rta loyihalarni amalga oshirish boshlanadi.

Markaziy bank moliya bozorida raqobatni oshirish maqsadida 1-fevralga qadar bank bo'lmagan kredit tashkilotlari to'g'risida qonun loyihasini kiritsin.

Shuningdek, mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo'yicha huquqiy bazani yaratish vaqti-soati keldi. Bunga Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlari jalb etiladi.

Oltinchidan, tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha yanada qulay sharoitlar yaratiladi.

Bir narsani alohida ta'kidlash kerak, pandemiya davrida iqtisodiyotning barqaror ishlashi uchun tadbirkorlar davlat bilan teppa-teng hissa qo'shdilar. Shuning uchun barchamiz tadbirkorlarga yelkadosh bo'lib, ularni doimo qo'llab-quvvatlashimiz shart. Bu borada ishbilarmonlarning haq-huquqlarini, ayniqsa, xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash – barcha darajadagi davlat organlarining asosiy vazifasi bo'lishi lozim.

Shu bilan birga ayrim joylarda davlat organlari tizimidagi rahbar va mutasaddilar tomonidan tadbirkorlarning mulkka doir huquqlarini buzish holatlari davom etmoqda. Bunday mansabdorlarni ma'muriy javobgarlikka tortish bo'yicha Biznes-ombudsmanga vakolat berishni taklif etaman.

Kelgusi yilda "Soliqchi – ko'makchi" tamoyili asosida tadbirkorlar uchun ularning biznes hamkorining soliq qarzdorligi haqidagi ma'lumotlarni olish imkoniyati yaratiladi.

Tadbirkorlarga yanada qulaylik yaratish maqsadida 105 ta litsenziya va ruxsatnoma turlari bekor qilinadi, 115 tasi bo'yicha esa tartib-qoidalar soddalashtiriladi.

Pandemiya sharoitida aylanma mablag' tanqisligiga duch kelgan tadbirkorlarimiz oyoqqa turib olishlari uchun ularga ko'mak berishni davom ettiramiz.

Turizm, transport va umumiy ovqatlanish sohalariga berilgan imtiyozlar kelgusi yil yakunigacha uzaytiriladi. Shuningdek, 20 mingta tadbirkorning 400 milliard so'mlik yer va mol-mulk solig'ini to'lash muddatini yana bir yilga uzaytirishni taklif etaman.

Bundan tashqari, 1 milliard so'mgacha davlat xaridlari doirasida avans miqdori 30 foizga yetkaziladi.

Umuman, tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni davom ettirish maqsadida oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida kelgusi yilda 6 trillion so'm imtiyozli kreditlar ajratiladi. Shuningdek, Hukumat tomonidan Jahon banki bilan birgalikda boshlangan qishloqlarda tadbirkorlikni rivojlantirish dasturini kengaytirish uchun qo'shimcha 100 million dollar yo'naltiriladi.

Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq 5 mingga yaqin normativ-huquqiy hujjatlar qayta ko'rib chiqilib, ularning soni qisqartiriladi hamda Tadbirkorlik kodeksi ishlab chiqiladi.

Xabaringiz bor, bundan 4 yil oldin tadbirkorlik subyektlarida tekshirishlar o'tkazishga moratoriy e'lon qilgan edik. Buning natijasida o'tgan davrda tadbirkorlar soni 2 barobar ko'payib, 400 mingtaga yetdi. Shuning uchun moratoriy muddatini yana bir yilga uzaytirishni taklif etaman.

Shu bilan birga Hukumat tomonidan bozorda teng raqobat muhitini yaratish va halol-pok tadbirkorlarni – takror aytaman – zamonaviy texnologiyalar asosida ishlayotgan vijdonli tadbirkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida "yashirin iqtisodiyot"ni qisqartirishga qaratilgan mexanizmlar joriy etiladi.

Yettinchidan, kambag'allikni qisqartirish va qishloq aholisi daromadlarini ko'paytirishda eng tez natija beradigan omil—bu qishloq xo'jaligida hosildorlik va samaradorlikni keskin oshirishdir.

Bunda har gektar yerdan olinadigan daromadni hozirgi o'rtacha 2 ming dollardan kamida 5 ming dollargacha yetkazish ustuvor vazifa qilib qo'yiladi. Buning uchun qishloq xo'jaligiga eng ilg'or texnologiyalar, suvni tejaydigan va biotexnologiyalarni, urug'chilik, ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi yutuqlarni keng joriy etishimiz lozim.

Avvalo, fermer va dehqonlarning yerdan manfaatdorligini oshirish kerak. Manfaatdorlik va adolat bo'lgan joyda, albatta, o'zgarish va o'sish bo'ladi. Bu borada yerdan foydalanish huquqlarini kafolatlash va yerlarni bozor aktivlariga aylantirish masalasini ko'rib chiqish vaqti keldi.

Shuning uchun Hukumat ikki oy muddatda yerdan foydalanish huquqini mustahkamlash, uning iqtisodiy qiymatini belgilash va moliyaviy oborotga kiritish mexanizmlarini joriy qilish bo'yicha taklif kiritsin.

Kelgusi yili barcha viloyatlarda Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar markazlari tashkil etilib, ularda "yagona darcha" tamoyili asosida 100 dan ortiq agroxizmatlar ko'rsatish yo'lga qo'yiladi. Bu markazlar orqali yerning sifatini yaxshilash, kasalliklarga qarshi kurashish, urug'liklarni tanlash bilan bog'liq muhim xizmatlar ko'rsatiladi.

Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, raqamlashtirish, yerning unumdorligini oshirish, zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etishga ilk bor 600 million dollardan ziyod kredit va grant mablag'lari jalb qilinadi.

Suvni tejaydigan texnologiyalar joriy etiladigan yer maydonlari 5 barobarga ko'paytirilib, 430 ming gektarga yetkaziladi, 90 ming gektar yangi yerlar o'zlashtiriladi.

Sakkizinchidan, barcha viloyat, tuman va shahar hokimlari birinchi marta 2020-yil boshida o'z zimmasiga olgan majburiyat va rejalari ijrosi haqida mahalliy Kengashlar oldida hisobot berdi.

Bugungi kunda ishimizdagi eng katta kamchilik – bilim yetishmasligi, afsuski, barcha sohalarda sezilmoqda. Holbuki, birorta hududni ham, tarmoqni ham zamonaviy ilm va bilimlarsiz rivojlantirib bo'lmaydi.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning 50 foizidan ortig'i "bilimlar iqtisodiyoti" hisobidan, ya'ni innovatsiyalar va yuqori malakali kadrlar tomonidan yaratilayotgani buni yaqqol isbotlamoqda.

Bundan buyon har bir qishloq yoki mahalla o'z yo'nalishi va "o'sish nuqtalari"dan kelib chiqib rivojlantiriladi. Buning uchun kelgusi yilda 3 trillion so'mlik mablag'ga ega bo'ladigan hududlar infratuzilmasini rivojlantirish jamg'armasini tuzishni taklif etaman. Jamg'arma mablag'lari mahalliy Kengashlar takliflariga asosan infratuzilma loyihalarini qo'shma moliyalashtirishga yo'naltiriladi.

Shuningdek, 84 ta tuman va shaharda sanoat salohiyatini yanada oshirish uchun 100 ta texnopark, kichik sanoat zonalari, hududiy klaster va logistika markazlari tashkil etiladi.

Kelgusi yilda erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini zarur infratuzilmalar bilan ta'minlash uchun 1,6 trillion so'm yo'naltiriladi.

Hukumat hududlarda 130 ming kilometr uzunlikdagi past kuchlanishli elektr tarmoqlari va 40 mingdan ortiq transformatorni bosqichma-bosqich yangilash dasturini kelgusi yil 1-aprelga qadar tasdiqlashi zarur. Shuningdek, 5 mingdan ortiq ta'mirtalab ko'priknini tiklash bo'yicha dastur qabul qilinadi. Bu ishlarga 2021-yilda 400 milliard so'm mablag' yo'naltiriladi.

Yana bir muhim masala – so'nggi 3 yilda "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida 5 millionga yaqin aholi

yashaydigan 1 ming 200 ta mahalla va qishloqlar qiyofasi tubdan o'zgardi. Lekin pandemiya tufayli ushbu yo'nalishdagi ishlari-mizni vaqtincha to'xtatishga majbur bo'lgan edik.

Hukumat bir oy muddatda 2021-yil uchun "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlarini ishlab chiqib, tasdiqlasin. Ushbu dasturlarni respublika va mahalliy budjetlar tomonidan teng ulushlarda moliyalashtirishni nazarda tutsin.

Xalqaro moliya institutlari ham mazkur dasturda ishtirok etish uchun 270 million dollar yo'naltirishga tayyor ekanini bildirdi.

Hududlarning rivojlanishi uchun muhim omillardan biri – bu ularning o'rtasida transport aloqasini ta'minlashdir. Qisqa qilib aytganda, barcha aholi punktlaridan poytaxtimizga, eng yirik shaharlar va turistik markazlarga tezda kelib-ketish imkoniyatini beradigan, o'zaro bog'langan transport tarmog'ini yaratishimiz lozim.

Shu maqsadda Hukumatga keyingi yil 1-martdan boshlab ichki turizm yo'nalishlaridagi aviaqatnovlarni yo'lga qo'yish va aviachipta narxining bir qismini budjetdan qoplab berish tizimini joriy etish vazifasi yuklanadi.

Shuningdek, bir qator hududiy aeroportlar davlat-xususiy sheriklik asosida tashqi boshqaruvga beriladi.

Keyingi yilda 2 ta tezyurar poyezd harakati yo'lga qo'yiladi, Buxoro – Urganch – Xiva temir yo'lini elektrlashtirish boshlanadi.

Aholi punktlari o'rtasidagi, ayniqsa, qishloqlarni tumanlar markazlari bilan bog'laydigan uzluksiz avtobus qatnovlari xususiy sektorni jalb qilish orqali ko'paytiriladi.

Toshkent shahrida yer usti metrosining 12 kilometrlik ikkinchi bosqichi foydalanishga topshiriladi. Shu tariqa yer osti va yer usti metro liniyalari yaxlit tizim sifatida bir-biriga ulanadi.

Turizmni rivojlantirish bo'yicha 2021-yilda ham izchil islohotlarni davom ettiramiz. Ayniqsa, ziyorat turizmi va ichki

turizmni rivojlantirishga alohida e'tibor beriladi. Shuningdek, turizm obyektlari atrofidagi yer maydonlari, suv va yo'l infratuzilmalarini yaxshilash uchun budjetdan 1 trillion so'm ajratiladi.

To'qqizinchidan, kelgusi yil aholining ijtimoiy himoyasi yanada kuchaytiriladi.

Nogironlikni belgilashning jahon andozalariga mos "ijtimoiy modeli"ga bosqichma-bosqich o'tiladi.

Muhtoj aholini protez-ortopediya buyumlari va reabilitatsiya vositalari bilan ta'minlash bo'yicha yangi tizim joriy etiladi. Bu imkoniyatdan qariyb 50 ming nafar yurtdoshimiz foydalanishi mumkin bo'ladi.

Ehtiyojmand oilalarni uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha olib borayotgan ishlarimiz ko'lami yanada kengaytiriladi. Bunda 27 mingta yoki bu yilga nisbatan 2,5 barobar ko'p oilaning ipoteka krediti bo'yicha dastlabki badallarini to'lash va kredit foizlarini subsidiyalash uchun 2,4 trillion so'm yo'naltiriladi.

O'ninchidan, yangi eksport bozorlariga chiqish Hukumatning eng asosiy vazifalaridan biri bo'lib qoladi.

Kelgusi yilda Jahon savdo tashkilotiga a'zolik masalasi hamda Yevropa Ittifoqi bilan keng qamrovli hamkorlik bo'yicha ishlarni faollashtirish lozim.

"GSP+" tizimi doirasidagi imtiyozlarni mamlakatimizda samarali qo'llash uchun alohida dastur ishlab chiqish kerak.

O'zbekiston yaqinda Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqida kuza-tuvchi maqomini oldi. Ushbu tashkilotga a'zo bo'lgan davlatlar bozorlarida to'laqonli ishtirok etish uchun milliy texnik tartibga solish me'yorlarini ularning talablariga moslashtirish bo'yicha ishlarni jadallashtirish zarur.

Kelgusi yilda korxonalariga xomashyo sotib olish va eksport-bop mahsulotlar ishlab chiqarish uchun Eksportni qo'llab-quvvatlash jamg'armasidan 100 million dollar ajratiladi.

Eksport qiluvchilarga chet elda savdo uylari va do'konlar ochish hamda reklama xarajatlarining 50 foizi qoplab beriladi. Umuman, Hukumatga kelgusi yilda tovar va xizmatlar eksportini kamida 20 foizga oshirish vazifasi topshiriladi.

Hurmatli parlament a'zolari!

Islohotlarimiz xalqimizning kundalik hayotida o'z ifodasini topishi, kutgan natijalarimizga erishish ko'p jihatdan davlat boshqaruvidagi samaradorlikka bevosita bog'liq.

Shu maqsadda kelgusi yilda quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim.

Birinchidan, davlat boshqaruvi idoralari faoliyatini tubdan takomillashtirish talab qilinadi.

Ko'pgina vazirlik va idoralar faoliyatida qaror qabul qilish haddan tashqari markazlashgan. Ularning vazifalari aniq va to'liq belgilanmagani sababli faoliyatlarida bir-birini takrorlash holatlari mavjud. Sababi – ko'pchilik vazir o'rinbosarlari, o'rta bo'g'in rahbarlari masalani hal qilish uchun tashabbus ko'rsata olmaydi.

Buning sababi nimada? Ularning yo bilimi, malakasi yo'q, yo qat'iyati yetmaydi yoki korrupsiyaga berilgan.

Afsuski, bunday rahbarlar aholi kutayotgan hayotiy muammolarni hal qilish o'rniga keraksiz qog'ozbozlik va natijasiz majlislar o'tkazish bilan ovora bo'lib qolmoqda.

Yana bir jiddiy kamchilik shuki, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hisobidan xodimlar sonini va ish jarayonlarini optimallashtirish choralari ko'rilmayapti.

Shuning uchun Hukumat ikki oy muddatda boshqaruvda bir-birini takrorlaydigan idoralar, funksiyalar va byurokratik to'siqlarni qisqartirish bo'yicha hujjatlar loyihalarini tayyorlasin. Bunda davlat boshqaruvi xodimlari sonini o'rtacha 15 foizgacha optimallashtirishni nazarda tutish zarur.

Kelgusi yil oxiriga qadar elektron davlat xizmatlarini 60 taga ko'paytirib, ularni 300 taga, masofaviy xizmatlar ulushini esa kamida 60 foizga yetkazish zarur.

Ikkinchidan, boshqaruv idoralarining hududiy masalalarni hal qilishdagi mas'uliyat va javobgarligi kuchaytiriladi.

Kelgusi yil boshidan har bir vazirlik o'z ishini tuman, shahar, qishloq va mahalla kesimida rejalashtiradi va tashkil etadi. Vazirlar va ularning o'rinbosarlari faoliyatiga joylarda amalda qanday o'zgarish bo'lganiga qarab baho beriladi.

Bosh vazir o'rinbosarlari, vazirlar, o'zlarining quyi tizim rahbarlari va xodimlarini yangicha talablar va zamonaviy axborot texnologiyalari asosida samarali ishlashga o'rgatish va malakasini muntazam oshirib borish uchun mas'ul bo'ladi.

Deputat va senatorlarni o'zlari saylangan hududdagi muammolar tegishli vazirlik va hokimliklar tomonidan qay darajada hal etilayotganini doimiy o'rganib, nazorat qilib borishga chaqiraman.

Shu o'rinda yana bir masala – tuman, shahar va mahalla boshqaruvida samaradorlikni oshirish uchun xodimlar soni va maoshini hududning o'ziga xosligi va ish hajmidan kelib chiqib belgilash lozim. Masalan, Samarqand viloyatining Paxtachi tumanida 150 ming, Urgut tumanida 500 mingdan ortiq aholi yashaydi. Yoki Shayxontohur tumani aholisi qariyb 350 ming, Bektemirda esa – 46 ming nafar. Lekin ushbu tumanlarda boshqaruv xodimlari soni va ularning ish haqi bir-biridan katta farq qilmaydi.

Shuning uchun Hukumat ikki oy muddatda o'rta va quyi bo'g'in boshqaruv idoralarining faoliyatini tubdan takomillashtirish, ular-dagi xodimlar soni va mehnatiga haq to'lash shartlarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha qaror loyihasini kiritsin.

Uchinchidan, mahalliy ijro organlari, vakillik idoralari ham-da mahallaning institutsional asoslarini yanada takomillashtirish lozim.

Mahalliy hokimlik va Kengashlar bundan 27 yil avval, ya'ni hokimlik instituti joriy etilgan dastlabki paytda qabul qilingan qonun asosida ishlamoqda. Bu hujjat bugungi islohotlarimiz ta-

lablariga mutlaqo javob bermasligini hisobga olib, uni tubdan yangilash zarur.

Islohotlarimiz natijalari, bo'layotgan o'zgarishlar va aholining kayfiyati avvalo mahallada seziladi. Shu ma'noda, "mahalla-jamiyatimizning yorug' yuzi va vijdoni ko'zgusi", desak, to'g'ri bo'ladi. Shuning uchun barcha darajadagi rahbarlar pastga tushib, o'z sohasi bo'yicha mahallalardagi muammolarni o'rganishi va ularga yechim topishi, odamlar sezadigan natijani ta'minlashi shart.

Bundan buyon mahalladagi ishlarning ahvoli vazirlik, idoralar va hokimliklar ishini baholashda bosh mezon bo'ladi.

Shuningdek, mahallaning nufuzini, uning resurs va imkoniyatlarini oshirish, xodimlarining moddiy ta'minotini yaxshilash bo'yicha dastur ishlab chiqish zarur.

Joriy yilda tumanlar budjetiga qo'shimcha manbalarning kamida 10 foizini bevosita mahalladagi muammolarni hal etishga sarflash bo'yicha ishlarni boshlab, bu maqsadlarga 70 milliard so'm ajratildi. Endi bu vakolatni yanada kengaytirib, tuman budjeti xarajatlarining 5 foizini ham ana shunday maqsadlarga yo'naltirish bo'yicha yangi tartib joriy etiladi.

Buning natijasida bu yangi eksperiment orqali birgina G'ijduvon tumanida 8 milliard so'm yoki Farg'ona shahrida 11 milliard so'm mablag' aynan aholi dolzarb deb hisoblaydigan muammolarni hal etish uchun sarflanadi.

Mahalla raisi va uning o'rinbosarlari vakolatlarini kengaytirib, ularga aholi muammolarini bevosita hal qilish imkonini yaratishimiz kerak. Bunda mahalla raisiga mahalliy Kengash majlisida ko'rilishi majburiy bo'lgan masalalarni kiritish huquqini berish lozim. Bu orqali muammolarni tezkor hal qilishga erishish imkoniyati yaratiladi.

Mahallada ishlayotgan malakali va tashabbuskor kadrlarni davlat idoralari rahbarlik lavozimlariga tavsiya etish tizimi yo'lga qo'yiladi.

Qonunchilik palatasi va Senat, Vazirlar Mahkamasi bilan birga 2021-yil 1-aprelga qadar mahalliy ijro va vakillik organlari hamda mahalla instituti faoliyatini tubdan takomillashtirishga oid yangi qonun loyihalarini ishlab chiqsin. Ushbu hujjatlarda hokimlar, ularning o'rinbosarlari va maslahatchilarining vakolat chegarasi, vazifa va funksiyalari aniq belgilanishi lozim.

To'rtinchidan, korrupsiyaning har qanday ko'rinishiga murosasiz bo'lish kundalik hayot tarzimizga aylanishi shart.

Bu illatga qarshi kurashishga barcha davlat organlari, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, umuman, har bir fuqaro safarbar etilishi zarur.

Korrupsiya o'ta og'ir jinoyat ekani va unga nisbatan murosasiz bo'lish g'oyasini farzandlarimizga yoshlik davridan boshlab singdirishimiz, ularga faqat halol mehnat va tadbirkorlik orqali daromad topishni o'rgatishimiz lozim.

Shuningdek, korrupsiyaning oldini olishda barcha davlat organlarida qaror qabul qilish jarayonlari ochiq va faqat ochiq bo'lishini ta'minlash hal qiluvchi ahamiyatga ega. Masalan, fuqarolarimiz joriy yildan boshlab ochiq e'lon qilinayotgan davlat xaridlariga oid ma'lumotlardan foydalanib, o'rinli masalalarni ko'tarmoqda.

Moliya vazirligi uch oy muddatda davlat idoralari budjetdan tashqari jamg'armalarining daromad va xarajatlari, davlat ulushiga ega bo'lgan tashkilotlar xaridlari, davlat subsidiya va grantlariga oid ma'lumotlarni e'lon qilish amaliyotini yo'lga qo'ysin.

Bundan tashqari, oxirgi ikki yilda hokimlarning 2,5 mingga yaqin qarori sudlar tomonidan bekor qilingani bundan buyon ularning qaror qabul qilishida ochiqlikni ta'minlash zarurligini taqozo etmoqda. Shuning uchun mahalliy davlat hokimiyati idoralarining qarorlarini hisobga qo'yish va e'lon qilish bo'yicha elektron axborot tizimi joriy etiladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bir oy muddatda ochiq e'lon qilinishi lozim bo'lgan ma'lumotlar ro'yxatini kengaytirish bo'yicha taklif kiritsin.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali vositalaridan biri – kadrlarni tanlash va ishga qabul qilishning ochiq tizimini yo‘lga qo‘yishdan iborat. Ushbu tizim asosida kadrlarni tanlashda eski usullardan voz kechib, ularning intellektual salohiyatini, ma’naviy fazilatlarini baholaydigan ochiq va oshkora tanlov tizimi joriy etiladi.

Shuningdek, korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha davlat xizmatchilarini muntazam o‘qitish va bilimni baholab borish tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

Beshinchidan, islohotlarimiz samarasini har bir inson o‘z hayotida his etishi uchun qabul qilinayotgan hujjatlar ijrosini o‘z vaqtida va samarali ta’minlash lozim.

So‘nggi 4 yilda barcha sohalarda keng ko‘lamli o‘zgarishlarni amalga oshirish bo‘yicha 150 ta qonun, 2 mingga yaqin farmon va qarorlar qabul qilindi. Lekin joylarda barcha rahbarlar ham ushbu hujjatlar mazmun-mohiyatini tushunib, berilgan imkoniyatlardan foydalanmoqda, aholi va tadbirkorlarga zarur shart-sharoit yaratmoqda, deb ayta olmaymiz.

Amaldagi nazorat tizimi esa ko‘proq formal tusga ega bo‘lib, ijroni tashkil etishdagi muammolarni aniqlash va hal qilishga yo‘naltirilmayapti. Shuning uchun kelgusi yilda bu borada yangi ish tizimi joriy etiladi.

Endi Adliya vazirligi, uning hududiy boshqarma va bo‘limlarining asosiy vazifasi qabul qilingan hujjatlarni mas’ullarga yetkazish, tushuntirish, amaliyotda qo‘llashga ko‘maklashish va nazorat qilishdan iborat bo‘ladi. Shu maqsadda Adliya vazirligiga zarur vakolat va resurslar beriladi.

Shuningdek, qabul qilingan hujjatlar ijrosini tashkil etishda jamoatchilik ishtiroki va nazorati keng yo‘lga qo‘yiladi. Jumladan, “jamoatchilik eshituvlari” va “jamoatchilik monitoringi” tizimi joriy qilinadi.

Bu jarayonga fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolar ham faol jalb etiladi.

Shuningdek, tahlillar asosida ijroga xalaqit berayotgan ortiqcha vazifa va funksiyalar qisqartiriladi.

Davlat idoralaridagi ijro sifati va holatini viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlarida, respublika darajasida esa – Vazirlar Mahkamasida har oyda tanqidiy muhokama qilib borish amaliyoti joriy etiladi.

Hukumat Adliya vazirligi, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi va Davlat boshqaruvi akademiyasi bilan birga bir oy muddatda ushbu tizimni joriy etish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni belgilasin.

Adliya vazirligi barcha ommaviy axborot vositalari, jumladan, televideniye orqali **“Prezident qarorlari – hayotda va nazoratda”**, degan mavzuda ko'rsatuv va chiqishlar tashkil etib, xalqimizga islohotlar mohiyati va natijalarini yetkazib borish tizimini joriy etsin.

Oltinchidan, davlat va jamiyat boshqaruvida ayollarning o'rni va mavqeyini yanada mustahkamlash – islohotlarimizning eng ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Xabaringiz bor, ayni paytda Kasaba uyushmalari Federatsiyasi boshchiligida mutasaddi idoralar, banklar va hokimliklar tomonidan joylarda uyma-uy yurib, 6 milliondan ortiq xotin-qizlarning muammolari puxta o'rganildi.

Achchiq bo'lsa ham, to'g'risini tan olib aytishimiz kerak: bu o'rganishlarimiz natijasida birinchi marta joylardagi haqiqiy ahvol yuzaga chiqdi. Shular asosida **“ayollar daftari”** shakllantirilmoqda, xotin-qizlarni qiynayotgan ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga amaliy yechim topilmoqda.

Bu ishlarga mahallalarda yangi tashkil etilgan **“Ayollar maslahat kengashlari”** ham yaqindan ko'mak bermoqda. Lekin bu hali ayollar muammolarini yechish uchun biz bajarishimiz shart va zarur bo'lgan ishlarning boshlanishi, xolos.

Biz mamlakatimizda istiqomat qilayotgan 17 milliondan ziyod opa-singillarimiz, qizlarimiz, onaxon va momolarimizga

munosib sharoit yaratib berish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solishimiz lozim.

Ayollarning andisha qilib, biz erkaklarga ayta olmagan dard-u tashvishlari, kundalik muammolari, orzu-niyatlarini ularning o'zidan yaxshi tushunadigan inson yo'q.

Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi rolini oshirish bo'yicha olib borgan islohotlarimiz natijasida parlamentimiz yangi tarkibining 30 foizi ayollardan iborat bo'ldi. Viloyat, shahar va tuman hokimlarining xotin-qizlar masalalari bo'yicha maslahatchisi lavozimi joriy etildi.

Endi xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi o'rni va nufuzini oshirish, ularga yangi imkoniyatlar yaratish bo'yicha navbatdagi qadam sifatida hayotni va ayollar muammolarini yaxshi biladigan, faol va tashabbuskor opa-singillarimizdan iborat Respublika Xotin-qizlar jamoatchilik kengashini tashkil etishni taklif qilaman.

Kengashga bu borada katta tajribaga ega bo'lgan Senatimiz Raisi – Tanzila Kamolovna Norboyeva rahbarlik qilsa, degan taklifni bildirsam, o'ylaymanki, barchangiz meni qo'llab-quvvatlaysiz.

Joylardagi Xotin-qizlar kengashlari faoliyatiga esa hokimlarning ushbu masalalar bo'yicha maslahatchilari rahbarlik qilishi eng to'g'ri yo'l bo'ladi.

Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha respublika va hududiy jamg'armalarni yangi tashkil etiladigan kengashlar ixtiyoriga o'tkazib berish maqsadga muvofiq bo'ladi, deb hisoblayman.

Ayollarning biznes sohasidagi loyihalarini qo'llab-quvvatlash hamda joylarda aniqlangan xotin-qizlar muammolarini hal etish uchun budjetdan qo'shimcha ravishda 1 trillion so'mdan ziyod mablag' yo'naltiriladi. Buning uchun Xalq banki tomonidan joylarda xotin-qizlarni tadbirkorlikka o'qitish, biznesga oid namunaviy rejalarini ishlab chiqish va kredit olishda ularga amaliy yordam ko'rsatishning yangi tizimi joriy etiladi.

Oliy Majlis palatalari va Hukumat bir oy muddatda xotin-qizlarning jamiyatdagi va davlat boshqaruvidagi mavqeyini yanada oshirishga qaratilgan yaxlit tizim yaratish bo'yicha taklif ishlab chiqsin.

Yana bir muhim masala – nuroniy otaxon va onaxonlarimizni har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz ham qarz, ham farzdir.

Respublika "Nuroniylar" jamg'armasi tomonidan keksalarga doimiy yordam ko'rsatilishi uchun uning moliyaviy imkoniyatlari yanada kengaytiriladi. Buning uchun keyingi yilda ushbu jamg'armaga budjetdan 100 milliard so'm ajratiladi.

O'zgarlar parvarishiga muhtoj bo'lgan 16 mingdan ziyod keksalarga yordam berish, ularning hayotini mazmunli tashkil etish uchun to'lovlar miqdori oshiriladi hamda ularga ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar ko'lami kengaytiriladi. Shuningdek, Buxoro, Qarshi va Urganch shaharlarida yangidan tashkil etiladigan sihatgohlarda hamda mavjud dam olish maskanlarida jami 25 mingdan ortiq nuroniylarning sog'lig'i tiklanadi.

Markaziy telekanallarimizda namoyish etilayotgan "Otalar so'zi – aqlning ko'zi" ko'rsatuvi soni ko'paytirilib, mazmunan boyitilsa, shuningdek, "Nuroniylar maslahati", "Mahallada gurgung" kabi yangi ko'rsatuvlar tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Yettinchidan, erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlashni davom ettiramiz.

Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi faoliyatini joylardagi dolzarb muammolarni hal etishga qaratish zarur.

Ayniqsa, mavjud muammolarni aniqlash, ularni chuqur tahlil qilish, yechimlari bo'yicha taklif ishlab chiqish, ijrosi us-tidan jamoatchilik nazoratini ta'minlashga ijtimoiy buyurtma asosida nodavlat notijorat tashkilotlari keng jalb etiladi. Bunday hamkorlikni, eng avvalo, ta'lim, madaniyat, tibbiyot, ekologiya,

qurilish, kadastr, transport, kommunal xo'jaligi, bandlik, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish kabi muammoli sohalarda keng joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu ishlarni tashkil etish uchun kelgusi yilda budjetdan 60 milliard so'm yo'naltiriladi.

Shu bilan birga Qonunchilik palatasida nodavlat notijorat tashkilotlarining doimiy vakili institutini joriy etishni taklif qilaman. Ushbu vakil quyi palata yig'ilishlarida ishtirok etish, qabul qilinayotgan qonunlarga ta'sirchan jamoatchilik nazorati va ijtimoiy sheriklik masalalarini kiritish bo'yicha takliflar berish vakolatiga ega bo'lishi zarur, deb hisoblayman.

Navbatdagi muhim masalaga e'tiboringizni qaratmoqchiman.

Ommaviy axborot vositalari mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı o'zgarishlarni xolis yoritish bilan birga joylardagi mavjud dolzarb muammolarga davlat idoralari va jamoatchilik e'tiborini qaratib, ularni bartaraf etishga barcha darajadagi rahbarlarni da'vat etib, undab kelayotganini alohida ta'kidlab o'tmoqchiman. Ular tom ma'noda "to'rtinchi hokimiyat"ga aylanib bormoqda.

Achchiq va tanqidiy materiallar joylardagi ko'plab amaldorlarga yoqmasligi, ularning tinchini va halovatini buzayotgani ham bor gap. Lekin **oshkoralik va so'z erkinligi – bu davr talabi – bu O'zbekistondagi islohotlarning talabi.**

Biz o'tgan to'rt yil davomida jamiyatimizda oshkoralik va ochiqlik, so'z erkinligi muhitida yashash va ishlashga asta-sekin o'rganib boryapmiz.

Xolis va adolatli jurnalist va blogerlarning tanqidiy chiqishlari eskicha qolipda ishlaydigan rahbarlarning faoliyatidagi xato-kamchiliklarni ko'rsatib, ularni ish uslubini o'zgartirish va mas'uliyatini oshirishga majbur qilmoqda.

Bundan buyon har bir davlat organi o'z kundalik faoliyatida ommaviy axborot vositalari bilan yaqin muloqot va hamkorlikni yo'lga qo'yishi zarur va shart.

Bu boradagi mavjud qonunchilikni liberallashtirish yo'lida tashlangan dadil qadamlarimizning dalili sifatida kuni kecha Jinoyat kodeksining ommaviy axborot vositalari orqali "tuhmat" va "haqorat qilish" kabi moddalari bo'yicha ozodlikdan mahrum qilish shaklidagi jazo choralari bekor qilindi.

Kelgusi yilda ham so'z erkinligini ta'minlash, ommaviy axborot vositalarini har tomonlama rivojlantirish, jurnalist va blogerlarning erkin faoliyat yuritishi uchun huquqiy asoslar yanada kuchaytiriladi.

Mamlakatimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarishning dastlabki davrida ommaviy axborot vositalarini keng qo'llab-quvvatlash, ularni himoya qilish, davlat idoralarida axborot xizmatlari faoliyatini yo'lga qo'yish va rivojlantirish maqsadida Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tashkil etilgan edi. Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari sohasidagi islohotlarni yangi bosqichga ko'tarish, ularni yanada rivojlantirish, mustaqil faoliyat yuritishini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida Agentlik faoliyatini tanqidiy qayta ko'rib chiqish lozim, deb hisoblayman.

Hurmatli deputat va senatorlar!

Inson huquq va erkinliklarini kafolatli himoya qilish, qonun ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan islohotlar yangi yilda ham izchil davom ettiriladi.

Xabaringiz bor, so'nggi 4 yil davomida sud-huquq sohasini isloh etish borasida dadil qadamlarni qo'ydik. Bu yo'nalishdagi ustuvor masalalar yuzasidan 40 dan ortiq qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi.

Adolat – bu davlatchilikning mustahkam poydevoridir. Adolat va qonun ustuvorligini ta'minlashda esa sud hokimiyati hal qiluvchi o'rinni egallaydi.

Shu nuqtayi nazardan qaraydigan bo'lsak, bu borada hali qiladigan ishlarimiz juda ko'p.

Birinchidan, yangi yildan boshlab joriy etiladigan “**bir sud – bir instansiya**” tamoyili sud qarorlarining adolatli, qonuniy va barqarorligini ta’minlashda bosh mezon bo’lishi lozim.

Hozirgi kungacha viloyat sudlari chiqargan qaror ustidan berilgan shikoyatlar shu sudlarning o’zida ko’rib chiqilar edi. Birgina 2019-yilda viloyat sudlari qabul qilgan 13 mingta shunday qaror Oliy sud tomonidan o’zgartirilgan va bekor qilingan.

Kelgusi yildan boshlab bir-birini takrorlaydigan sud bosqichlari qisqartiriladi. Odil sudlovga xos bo’lmagan ishlarni nazorat tartibida ko’rish amaliyoti bekor qilinadi.

Navbatdagi muhim masala – yangi yildan boshlab fuqarolik, iqtisodiy va jinoyat ishlari bo’yicha viloyat darajasidagi 3 ta sudlar bitta sud sifatida birlashtiriladi. Bu yangilik aholi va tadbirkorlarga katta qulayliklarni yaratadi. Shuningdek, kelgusi yildan sud muhokamasiga qadar sudda ishlarni dastlabki eshitish amaliyoti yangi tartib sifatida joriy etiladi. Bunda ishni to’xtatish yoki tugatishga asos yetarli bo’lsa, sud ishni avvalgiday tergov yoki prokurorga qaytarmasdan, o’zining yakuniy qarorini qabul qiladi.

Yana bir muhim yangilik – investorlar huquqlarini munosib himoya qilish maqsadida Oliy sudda investitsiyaviy nizolar va raqobatga oid ishlarni ko’rish bo’yicha maxsus sudlov tarkibi tashkil etildi.

Endi investorlar, o’z xohishiga ko’ra, nizoni hal qilish uchun to’g’ridan to’g’ri Oliy sudga murojaat qilishi mumkin.

Sud tizimida raqamlashtirish yanada kengaytirilib, fuqarolarimizga sud binosiga kelib yurmasdan, “onlayn” tartibda murojaat qilish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, fuqarolar o’z arizalarini ko’rib chiqish jarayonini masofadan turib kuzatib borishi mumkin bo’ladi.

Ikkinchidan, jazoni ijro etish tizimida insonparvarlik tamoyilini keng qo’llash borasidagi ishlar davom ettiriladi. Jumladan, xalqaro standartlardan kelib chiqib, 25 ta manzil-koloniyalar bosqichma-bosqich qisqartiriladi.

Bundan buyon birinchi marta ozodlikdan mahrum etilgan shaxsga berilgan jazo yengilrog'i bilan almashtirilsa, u manzil-koloniya o'tkazilmasdan, to'g'ridan to'g'ri probatsiya nazoratiga olinadi. Mazkur yengillik natijasida hozirda jazo o'tayotgan 6 ming nafar shaxsga o'z mahallasi nazorati ostida oilasi bag'rida bo'lish imkoniyati yaratiladi.

Shu bilan birga jazoni yengilrog'i bilan almashtirish va shartli ozod qilish to'g'risida taqdimnoma kiritish vakolati jazoni ijro etish muassasalaridan yangi tashkil etiladigan insonparvarlik komissiyalariga o'tkaziladi.

Uchinchi, tezkor-qidiruv, tergov va jazoni ijro etish sohasida qiynoqlarning oldini olish tizimini tubdan takomillashtirish zarur. Ushbu holatlar hali ham uchrab turgani fuqarolarda jiddiy e'tirozlarni keltirib chiqarayotgani hamda mamlakatimizning xalqaro nufuziga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani ham ayni haqiqat.

Oliy Majlis palatalari, Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz qiynoqlarning oldini olish bo'yicha Ombudsman vakolatlarini kengaytirish, shuningdek, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish yuzasidan ikki oy muddatda o'z takliflarini ishlab chiqishi zarur. Bunda Ombudsman tomonidan har chorakda jamoatchilik vakillari bilan birgalikda tergov izolatori va jazoni o'tash muassasalariga "monitoring tashriflari" tizimi yo'lga qo'yilishi kerak.

Oliy Majlis palatalari har yili Ombudsmanning qiynoqlarning oldini olish bo'yicha ma'ruzasini eshitib, bu illatga butunlay barham berish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni belgilashi lozim.

To'rtinchi, o'tgan yili 1995-yilgacha yurtimizga ko'chib kelganlarga O'zbekiston fuqaroligini to'g'ridan to'g'ri berish tartibi belgilandi. Bu bilan 50 ming nafardan ortiq shaxslarga fuqarolik olish imkoniyati yaratildi.

Kelgusi yilda bu ishlarni davom ettirib, 2005-yilgacha mamlakatimizga kelib doimiy yashayotgan, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga ham to'g'ridan to'g'ri O'zbekiston fuqaroligini

bersak, nima deysizlar? Bu o'zgarish bilan yana 20 ming kishi O'zbekiston fuqarosi bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bundan buyon yurtimizda 15 yil davomida muqim yashagan fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga to'g'ridan to'g'ri O'zbekiston fuqaroligini berishning doimiy tartibi joriy qilinadi.

Hurmatli yig'ilish qatnashchilari!

Dunyoda kechayotgan murakkab jarayonlar yaqin-uzoq mintaqalarda kuzatilayotgan ziddiyat va to'qnashuvlar sharoitida biz yurtimizda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash borasidagi ishlarimizni yanada jadallashtirishimiz lozim.

Kelgusi yilda mamlakatimiz mudofaa salohiyatini rivojlantirish bo'yicha islohotlarimizni davom ettiramiz. Xususan, Qurolli Kuchlarimiz qudratini, qo'shinlarning professional va jismoniy salohiyatini yuksaltirish, harbiy xizmatchilar va ularning oilalarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hamda yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlariga alohida e'tibor qaratamiz.

Shuningdek, jamoat xavfsizligini ta'minlash, har bir mahallada xavfsiz muhit yaratish bo'yicha yangicha yondashuvlar joriy etiladi. Huquq-tartibot idoralarini aholi osoyishtaligi va fuqarolar manfaatlarining chinakam himoyachisiga aylantirishga qaratilgan islohotlarimiz izchil davom ettiriladi.

So'nggi yillarda respublikamizda yuz bergan tabiiy va texnogen ofatlar, kuz-qish mavsumida sodir bo'layotgan yong'in va boshqa ko'plab noxush holatlar bu boradagi mavjud tizimni yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Yurtimizda barpo etilayotgan ko'plab yirik obyektlar va baland qavatli binolarda yong'in xavfsizligini ta'minlashning yangi tizimini tashkil etish zarur. Shuningdek, sohaning moddiy-texnik bazasini va kadrlar salohiyatini tubdan mustahkamlash lozim.

Shu sababli 2 oy muddatda "Favquloddagi holat to'g'risida"gi qonun loyihasi hamda yuqorida qayd etilgan muammolar yechimiga qaratilgan Hukumat dasturi ishlab chiqilsin.

Hurmatli senator va deputatlar!

Qadrli mehmonlar!

Kelgusi yilda mamlakatimizning tashqi siyosatini amalga oshirishda quyidagi vazifalarga ustuvor ahamiyat beriladi.

Birinchidan, davlatimiz olib borayotgan ochiq, pragmatik va amaliy tashqi siyosatni inobatga olib hamda uzoq muddatli strategik maqsadlarimizdan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi takomillashtiriladi.

Ikkinchidan, tashqi siyosatimizning ustuvor yo'nalishi bo'lgan Markaziy Osiyo davlatlari bilan ko'p asrlik do'stlik va yaxshi qo'shnichilik, strategik sheriklik va o'zaro ishonch ruhidagi aloqalarimizni yanada mustahkamlashga alohida e'tibor qaratamiz.

Murakkab pandemiya sharoiti biz bir-birimizga qanchalik bog'liq va kerak ekanimizni yana bir bor yaqqol namoyon etdi. Bu ijobiy jarayonlarni chuqur o'rganish va yanada rivojlantirish maqsadida joriy yilda Toshkent shahrida Markaziy Osiyo xalqaro instituti tashkil etildi.

Kelgusi yili Toshkentda mintaqamizning Janubiy Osiyo bilan munosabatlariga doir yuqori darajadagi xalqaro konferensiya o'tkaziladi.

Shular qatorida Xiva shahrida UNESCO bilan hamkorlikda **"Markaziy Osiyo jahon sivilizatsiyalari chorrahasida"** xalqaro anjumanini o'tkazish rejalashtirilgan.

Uchinchidan, asosiy xorijiy sheriklarimiz hisoblangan Rossiya, Xitoy, Amerika Qo'shma Shtatlari, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Hindiston, Pokiston, Birlashgan Arab Amirliklari va boshqa davlatlar bilan ko'p qirrali va o'zaro manfaatli aloqalarni yanada kengaytiramiz.

Tashqi ishlar vaziri va uning o'rinbosarlari hamda yurtimizning chet ellardagi elchilari mazkur davlatlar bilan yangi, yanada samarali ish tizimini joriy etishlari zarur.

To'rtinchidan, biz qo'shni Afg'oniston zaminida tinchlik o'rnatilishiga qat'iy ishonamiz va bu ezgu yo'lda amaliy yordamni bundan keyin ham ayamaymiz.

Afg'on muammosini hal etishga qaratilgan global sa'y-harakatlarga Toshkent xalqaro konferensiyasi ham mustahkam poydevor yaratdi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Hozirgi kunda Markaziy Osiyoni Hind okeani bilan bog'laydigan Trans-afg'on transport yo'lagini barpo etish borasida dastlabki amaliy qadamlarni tashladik. Bu loyihaning ro'yobga chiqarilishi butun mintaqamizda barqarorlik va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga beqiyos xizmat qiladi.

Beshinchidan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, boshqa nufuzli xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar bilan yaqin hamkorlikni rivojlantirish masalalari doimo e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Joriy yilda respublikamiz ilk bor Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tashkilotiga raislik qildi va pandemiyaga qaramasdan, ko'zda tutilgan 60 dan ziyod barcha xalqaro tadbirlar muvaffaqiyatli o'tkazildi, 70 ga yaqin muhim hujjatlar qabul qilindi.

2021–2022-yillarda O'zbekistonning Shanxay hamkorlik tashkilotiga raislik qilishi bo'yicha ham jiddiy tayyorgarlikni boshladik.

Oltinchidan, inson huquqlarini ta'minlash, so'z va diniy e'tiqod erkinligi bo'yicha erishayotgan yutuqlarimizni tegishli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda izchil mustahkamlab boramiz.

Kelgusi yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida "Inson huquqlari bo'yicha ta'lim" global forumi, yoshlar huquqlariga bag'ishlangan Butunjahon yoshlar anjumani, diniy erkinlik masalalari bo'yicha mintaqaviy konferensiyalarni o'tkazamiz.

Yettinchidan, dunyoning ko'plab mamlakatlaridagi vatandoshlarimizni qo'llab-quvvatlash va ular bilan aloqalarimizni yanada mustahkamlash maqsadida "Vatandoshlar" jamg'armasini tuzishni taklif etaman.

Sakkizinchidan, jamiyatda millatlararo totuvlik va bag'rikenglik muhitini mustahkamlashga qaratilgan ishlarimizni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqamiz.

Barchangizga ma'lumki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining rezolutsiyasi bilan har yili 30-iyul – Xalqaro do'stlik kuni sifatida keng nishonlanadi. Shu bois ushbu sanani O'zbekistonda **“Xalqlar do'stligi kuni”** deb belgilashni taklif etaman.

To'qqizinchidan, mintaqamizda, butun dunyoda ekologik vaziyatning tobora yomonlashib borayotgani bizni jiddiy tashvishga soladi.

Qo'shni davlatlar va jahon jamoatchiligi bilan birgalikda Orol dengizi halokati oqibatida yuzaga kelgan ekologik fojialar ta'sirini yumshatishga qaratilgan harakatlarni qat'iy davom ettiramiz.

Dengizning qurigan tubida yuz minglab gektar o'rmon va butazorlar tashkil etilayotgani, Orolbo'yi hududlarida amalga oshirilayotgan ulkan qurilish va obodonchilik ishlari xalqimizni yuksak marralar sari ruhlantirmoqda. Bu borada Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlikda tuzilgan Orolbo'yi mintaqasida inson xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ko'p tomonlama Trast fondi doirasidagi amaliy ishlarni yanada kuchaytiramiz.

Aziz va muhtaram vatandoshlar!

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining tahlillariga ko'ra, pandemiya xavfi hali uzoq vaqt saqlanib qolishi mumkin. Demak, insoniyat boshidagi sinovlar yana qancha davom etishi noma'lum.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, nufuzli ekspertlar prognoziga ko'ra, pandemiya butun dunyoda inqirozli holatlar, ijtimoiy keskinlik, qashshoqlik kabi muammolarni kuchaytirishi mumkin.

Barchamizga ayonki, pandemiyadan keyin dunyoning ijtimoiy-iqtisodiy manzarasi, albatta, o'zgaradi.

To'plangan tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, kuchli va samarali boshqaruv tizimiga, bir yoqadan bosh chiqarib yashaydigan aholiga ega bo'lgan davlatlar pandemiyaning keng tarqalish

xavfini o'z vaqtida bartaraf etishga qodir bo'ladi. Buni O'zbekistonning pandemiya davridagi kurash tajribasi ham isbotlab turibdi. Lekin erishgan natijalarimizga mahliyo bo'lmasdan, jahondagi vaziyatga sergaklik bilan qarab, barchamiz – kim bo'lishimiz, qaysi vazifada ishlashimizdan qat'i nazar, mamlakatimizning milliy manfaatlarini ta'minlash haqida jiddiy o'ylashimiz zarur.

Bugungi murakkab sharoitda yurtimizda boshlangan keng qamrovli islohotlar, yangi O'zbekistonni barpo etish sari tashlayotgan dadil qadamlarimizning bardavom bo'lishini ta'minlash eng asosiy vazifamiz bo'lishi shart.

Global inqiroz sharoitida iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni ta'minlash, joylardagi mavjud muammolarni manzilli hal etish, ko'makka muhtoj yurtdoshlarimizni qo'llab-quvvatlash, yoshlarimizning orzu-umidlarini ro'yobga chiqarish – Prezidentdan boshlab barcha darajadagi rahbarlarning bosh vazifasi bo'lmog'i darkor.

Ana shu o'ta muhim vazifalarni amalga oshirishda asosiy talab – davlat va jamiyat institutlari o'rtasida samarali hamkorlikni ta'minlash, bu jarayonda natijadorlik va sifatni oshirishdan iborat.

2021-yilda davlatimiz va xalqimiz hayotida katta siyosiy voqea – Prezidentlik saylovi bo'lib o'tadi.

Markaziy saylov komissiyasi bo'lajak saylov milliy qonunchiligimiz va umume'tirof etilgan xalqaro demokratik tamoyillar asosida, yuksak saviyada tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratishi lozim.

Birinchi navbatda, saylov komissiyalari a'zolarining saylov qonunchiligi va xalqaro standartlar bo'yicha bilimlarini tizimli asosda shakllantirish kerak.

O'tgan saylovlarda xalqaro kuzatuvchilar tomonidan berilgan maqbul tavsiyalarni milliy qonunchilik va amaliyotga tatbiq etish ishlarini davom ettiramiz.

Bu muhim siyosiy kampaniya yangi O'zbekiston sharoitida saylovchilarimiz, barcha fuqarolarimizning siyosiy va huqu-

qiy madaniyati, dunyoqarashi, grajdanlik pozitsiyasi yuksalib borayotganini yana bir bor namoyon etadi, deb ishonaman.

Aziz do'stlar!

O'ylaymanki, bugungi Murojaatnomada o'rta qo'yilgan ustuvor vazifalar bo'yicha parlamentimiz, siyosiy partiyalar, nodavlat tashkilotlar, ko'pni ko'rgan donishmand nuroniylarimiz, tashabbuskor yoshlarimiz – keng jamoatchilik o'z fikr-mulohazalarini bildiradi.

Hukumat bir oy muddatda ana shu ustuvor yo'nalishlar va vazifalar bo'yicha keng jamoatchilik tomonidan bildirilgan takliflar, fikr va mulohazalarni inobatga olgan holda, 2021-yil Davlat dasturini hamda O'zbekistonning pandemiyadan keyingi taraqqiyot dasturini ishlab chiqsin va tasdiqlash uchun kiritsin.

Shuni ta'kidlash kerakki, o'z oldimizga qo'ygan marralarga erishish uchun bizda tabiiy resurslar ham, kuch va imkoniyatlar ham, salohiyat ham yetarli.

Ortimizda tog'dek tayanch va suyanch bo'lib turgan ko'p millatli xalqimiz – hayot yo'llarida to'g'ri yo'l ko'rsatadigan mo'tabar nuroniylarimiz, mehnatkash, oqila opa-singillarimiz, ilg'or va zamonaviy fikrlaydigan, dunyoda hech kimdan kam bo'lmagan azm-u shijoatli yoshlarimiz bor.

Eng muhimi, jamiyatimizda tinchlik-osoyishtalik, millatlararo totuvlik, bag'rikenglik va mehr-oqibat muhiti hukm surmoqda.

Biz barchamiz **“Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik!”** degan yagona maqsad atrofida birlashib, mas'uliyat va javobgarlikni chuqur his etgan holda, fidokorona mehnat qilib, o'z orzu-maqсадlarimizga, inshoolloh, erishamiz.

Bugun yaxshi niyatlar bilan juda katta marralarni o'zimizga belgilab olmoqdamiz. 2021-yilda oldimizda har qachongidan ham zarur, o'ta muhim vazifalar turibdi. Albatta, ularga erishish oson bo'lmaydi. Hayotimizning turli sohalarida muammo va kamchiliklarimiz ham yetarli. Joylarda ishni to'g'ri tashkil etmaslik, ayrim rahbarlarda saviya va malaka yetishmasligi, byurokratiya, korrupsiya holatlari, loqaydlik va beparvolik kabi nuqsonlar ham borligi sir emas.

Biz bularning barchasini o'zimizga yaxshi tasavvur etamiz. Yo'limizda katta g'ov bo'lib turgan to'siqlarni bartaraf etish uchun boshlagan islohotlarimizni og'ishmasdan davom ettiramiz.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, yangi yilda yanada katta safarbarlik ruhida ishlashimizga to'g'ri keladi.

Hayot oldimizga yana qancha sinov va muammolarni qo'yishi mumkin va biz har qanday holatga tayyor turishimiz zarur. Lekin qanchalik qiyin va murakkab bo'lmasin, demokratik islohotlar yo'lidan hech qachon ortga qaytmaymiz. Oldinga, faqat oldinga qarab boramiz. Va biz bunga har tomonlama qodirmiz. Chunki bugungi xalqimiz – kechagi xalq emas. Bugungi O'zbekiston ham – kechagi O'zbekiston emas.

El-yurtimiz hozirgi og'ir sharoitda barcha sinov va qiyinchiliklardan yanada kuchli va irodali bo'lib chiqmoqda. O'zining hayoti va taqdiri, kelajagi Vatanimizning taqdiri va kelajagi bilan chambarchas bog'liq ekanini chuqur his etmoqda.

Hech shubhasiz, o'z kuchimiz va imkoniyatlarimizga bo'lgan ishonch bizni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek ezgu maqsad yo'lida birlashtirib, yanada kuchli va mustahkam qilmoqda. Bu intilishlar ulkan amaliy ishlarga aylanib, buyuk xalq harakati tobora kengayib bormoqda. Bunday qudratli safda bo'lishning o'zi katta baxt, katta sharafdir.

Barchamizga ana shu ulug' safda boshqalarga ibrat va namuna bo'lish, jonajon Vatanimiz, aziz xalqimizga farzandlik mehri va sadoqati bilan xizmat qilish nasib etsin!

Fursatdan foydalanib, sizlarni, sizlar orqali barcha vatandoshlarimizni kirib kelayotgan Yangi – 2021-yil bilan chin qalbimdan tabriklayman.

Yangi yilda barchangizga sihat-salomatlik, xonadonlaringizga fayz-u baraka, farzandlar, nabiralarning kamolini ko'rish baxtini tilayman.

Doimo sog'-omon bo'ling, katta rahmat sizlarga.

2020-yil 29-dekabr

O'ZBEKISTON XALQIGA YANGI YIL TABRIGI

Muhtaram vatandoshlar!

Betakror diyorimizga yangi – 2021-yil kirib kelmoqda.

Siz azizlarni, mo'tabar nuroniylarimiz, mehribon opa-singillarimiz, navqiron yoshlarimizni – ko'p millatli butun xalqimizni ushbu go'zal ayyom bilan chin qalbimdan tabriklayman.

Barchangizga sihat-salomatlik, tinchlik-xotirjamlik, baxt-u saodat va farovonlik tilayman.

Aziz do'stlar!

Hammamiz guvohmiz, 2020-yil butun dunyo qatori yurtimiz uchun ham og'ir va murakkab keldi. Koronavirus pandemiyasi, global inqiroz insoniyatni jiddiy sinovdan o'tkazmoqda.

Mana shunday murakkab vaziyatga qaramasdan, mard va oliyjanob xalqimizning matonati, fidokorona mehnati bilan barcha sohalarda katta o'zgarishlarni amalga oshirdik.

Iqtisodiyotimizning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirishga erishdik. Yuqori texnologiyalarga asoslangan o'nlab yangi korxonalar, transport tizimlari ishga tushirildi. Zamonaviy uyjoylar, yo'l va ko'priklar, bog'cha va maktablar, shifoxonalar, madaniyat va san'at, sport maskanlarini barpo etdik.

Mirishkor dehqon va fermerlarimiz barcha qiyinchiliklarni mardona yengib, mo'l hosil yetishtirdilar. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivoji uchun yanada keng imkoniyatlar ochildi. Yil davomida aholi, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlar uchun minglab yangi ish o'rinlari yaratildi.

O'tib borayotgan yil jamiyatimizning ma'naviy-ma'rifiy hayotida ham muhim voqealarga boy bo'ldi.

Xorijiy davlatlar, avvalo, yaqin qo'shnilarimiz bilan do'stlik va hamkorlikni yanada kuchaytirdik. O'zbekistonning xalqaro nufuzini yuksaltirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Qadrli yurtdoshlar!

Biz 2021-yilga yaxshi niyat va katta rejalar bilan **“Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”** deb nom berdik.

Yangi yilda iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda boshlagan keng ko'lamlı islohotlarimizni izchil davom ettiramiz.

Yurtimizda tinchlik va barqarorlik, millatlar va elatlar o'rtasidagi totuvlik, o'zaro hurmat va mehr-oqibatni mustahkamlash asosiy vazifamiz bo'lib qoladi.

Xalqimizning turmush farovonligini oshirish, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga alohida ahamiyat beramiz.

Aziz yoshlarimiz, mehnatkash va oqila opa-singillarimiz, muhtaram keksalarimizning hayotiy manfaatlarini ta'minlash e'tiborimiz markazida bo'ladi. Sog'liqni saqlash, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish masalalari yangi bosqichga ko'tariladi.

2021-yilda davlatimiz mustaqilligiga 30 yil to'ladi. Ushbu shonli sanani, inshoolloh, barchamiz birgalikda munosib nishonlaymiz.

Yangi O'zbekistonni barpo etish, milliy yuksalish poydevorini yaratishga qaratilgan ulkan ishlarimizni qat'iy davom ettiramiz.

Aziz vatandoshlarim, qadrdonlarim!

Shu go'zal oqshomda barchamizning niyatimiz, tilagimiz bitta: yurtimizda yashayotgan har bir oila, har bir inson murod-maqсадiga yetsin!

Jonajon O'zbekistonimiz gullab-yashnasin, dunyomiz tinch bo'lsin!

Kirib kelayotgan 2021-yil ona diyorumizga fayz-u baraka, yangi yutuq va zafarlar olib kelsin!

Yangi yil barchamizga muborak bo'lsin!

2020-yil 31-dekabr

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLI
KUCHLARI TASHKIL ETILGANINING
29 YILLIGI VA VATAN HIMOYACHILARI KUNI
MUNOSABATI BILAN BAYRAM TABRIGI**

Hurmatli askar va serjantlar, ofitser va generallar!

Qurolli Kuchlarimiz faxriylari!

Muhtaram vatandoshlar!

Avvalo, siz, azizlarni, sizlar orqali butun xalqimizni O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 29 yilligi va Vatan himoyachilari kuni bilan chin qalbidan samimiy muborakbod etaman.

Ushbu qutlug‘ ayyom tom ma’nodagi umumxalq bayramiga, azaldan xalqimizga xos bo‘lgan vatanparvarlik, mardlik va jasurlik kabi yuksak fazilatlar timsoliga aylanib borayotgani barchamizni quvontiradi.

Ta’kidlash kerakki, **milliy armiyamizning kuch-qudrati azm-u shijoatli va har ishda yetuk salohiyatli harbiy xizmatchilarimizning, bag‘rikeng va oliyjanob xalqimizning birligi va hamjihatligidadir.** Bu haqiqatni bugungi kunda har qachongidan ham chuqur his etmoqdamiz.

Ishonchim komilki, ana shunday buyuk ma’naviy qudrat manbai bor ekan, el-yurtimizning tinch va osoyishta hayoti, Vatanimiz mustaqilligiga hech qanday yovuz kuch raxna sololmaydi, demokratik islohotlarimiz yo‘lidan hech qachon ortga qaytara olmaydi.

Biz bahodir va dovyurak harbiylarimiz bilan – o‘zining muqaddas qasamyodiga sodiq qolib, xizmat burchini yerda ham, ko‘kda

ham sharaf ila ado etayotgan yurtimizning zabardast o'g'lonlari bilan haqli ravishda faxrlanamiz.

Fursatdan foydalanib, Qurolli Kuchlarimiz saflarida xizmat qilayotgan qo'rqmas va haqiqiy vatanparvar askar va ofitserlarning ota-onalariga, shuningdek, harbiy hayotning butun quvonch va tashvishlarini turmush o'rtoqlari bilan baham ko'rib kelayotgan mehribon va sabr-toqatli rafiqalariga ulkan minnatdorlik bildiram.

Biz sizlarning timsolingizda milliy armiyamizga tog'dek tayanch bo'lib turgan buyuk ma'naviy kuchni ko'ramiz. Bugungi ulug' ayyomda sizlarning ham Vatanimizning mudofaa qudratini oshirishda munosib hissangiz borligini yana bir bor katta mamnuniyat bilan e'tirof etamiz.

Qadrli do'stlar!

Biz bundan to'rt yil oldin O'zbekistonda harbiy qurilish sohasini tubdan isloh qilish bo'yicha eng muhim va ustuvor yo'nalishlarni belgilab olgan edik. Shu asosda mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash va Qurolli Kuchlarimizni rivojlantirish uchun keng ko'lamli ishlarni amalga oshirmoqdamiz.

O'tgan qisqa davrda yangi Mudofaa doktrinasi qabul qilindi, harbiy tuzilmalarning tarkibi va vazifalari chuqur qayta ko'rib chiqildi, qo'shinlarni boshqarish tizimi takomillashtirildi, milliy armiyamizni zamonaviy qurol-yarog' va texnika vositalari bilan ta'minlash bo'yicha o'ta muhim loyihalar amalga oshirildi.

Tariximizda birinchi marta o'z mohiyatiga ko'ra noyob tizim – harbiy-ma'muriy sektorlar tashkil etildi. Bunday ish usuli joylardagi davlat hokimiyati organlarini mamlakatimiz mudofaa qudratini mustahkamlashga faol jalb etish uchun imkon berdi. Eng muhimi, **“Armiya va xalq – bir tan-u bir jondir”** degan ulug' g'oyani amalga ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Ana shunday sa'y-harakatlarimiz natijasida bugungi kunda O'zbekiston Qurolli Kuchlari respublikamiz mustaqilligi, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini ishonchli himoya qilishning chinakam kafolati bo'lmoqda.

Eng asosiysi, milliy armiyamiz har qanday tahdid va xavf-xatarga qarshi munosib zarba bera oladigan el-yurt tayanchi va suyanchiga, yoshlar va harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik va sadoqat ruhida tarbiyalashning muhim institutiga aylandi.

Albatta, o'tgan 2020-yil jahondagi barcha davlatlar qatori mamlakatimiz uchun ham jiddiy sinovlar yili bo'ldi. Biz koronavirus pandemiyasining tahdidiga, shuningdek, Buxoro va Sirdaryo viloyatlarida kutilmagan tabiiy va texnogen ofatlarga duch keldik.

Ana shunday g'oyat keskin sharoitda Qurolli Kuchlarimiz sohibqiron Amir Temur bobomizning "Millatning dardiga darmon bo'lmoq – chin vazifangizdur", degan ezgu da'vatini o'ziga shior qilib oldi.

Ular xalqimizga yanada yaqin bo'lib, safarbarlikni oshirib, qisqa muddatlarda o'z oldiga qo'yilgan muhim vazifalarni munosib ado etganini barchamiz cheksiz minnatdorlik bilan qayd etamiz.

Ayniqsa, bu jarayonda harbiy shifokor va xizmatchilarimiz, huquq-tartibot organlari va qutqaruv xizmati xodimlari haqiqiy mardlik va jasorat namunasini, yuqori kasbiy mahoratni namoyon etganlari alohida tahsin va e'tirofga sazovordir.

Bunday murakkab vaziyatda Qurolli Kuchlar Harbiy tibbiyot akademiyasining tashkil etilgani aholi salomatligi va hayotini muhofaza qilish borasida oldimizga qo'yilgan dolzarb vazifalarni tezkor va samarali hal etish imkonini beradi.

Mintaqamizda yagona bo'lgan ushbu yangi akademiya harbiy tibbiyot sohasida, favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf

etishda ishtirok etadigan yuqori malakali va ixtisoslashgan kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Akademiyada jahon andozalariga mos innovatsion ishlanmalar hamda ilg'or texnologiyalarga asoslangan o'quv-laboratoriya xonalari va eng zamonaviy moddiy-texnik baza yaratilmoqda.

Milliy armiyamizning tashkiliy tuzilmalarini takomillashtirish bo'yicha qabul qilingan chora-tadbirlar qo'shinlarning jangovar tayyorgarligi, harbiy qudrati va salohiyatini yanada oshirish imkonini berdi.

Pahlavon va botir o'g'lonlarimiz xalqaro harbiy-o'quv mashg'ulotlari, armiya va sport musobaqalarida dunyodagi yetakchi mamlakatlarning harbiy xizmatchilariga aslo bo'sh kelmasdan, g'alabaga bo'lgan irodasini yaqqol namoyish etib, buyuk ajdodlarimizning munosib vorislari ekanini isbotlamoqdalar.

Muhtaram vatandoshlar!

Biz global iqtisodiy inqiroz ta'siriga qaramasdan, harbiy xizmatchilarimiz va ularning oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, harbiy shaharchalarni obodonlashtirish, ularda zamonaviy infratuzilmalar barpo etish bo'yicha tizimli ishlaramizni izchil davom ettirayapmiz.

Harbiy xizmatchilarning oila a'zolari uchun qo'shimcha ravishda ko'plab yangi ish o'rinlari yaratildi. 3 mingdan ziyod harbiy pensionerlar ishga joylashtirildi. Harbiy xizmatchilarning mingdan ortiq farzandlariga oliy o'quv yurtlarida ta'lim olishlari uchun davlat grantlari ajratildi.

Hech shubhasiz, Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yilida bu boradagi ishlarimizni yanada kuchaytirib, mutlaqo yangi bosqichga ko'taramiz.

Yaqinda bo'lib o'tgan O'zbekiston Yoshlari forumida, Oliy Majlis va xalqimizga yo'llagan Murojaatnomamizda ham ushbu yo'nalishdagi chora-tadbirlarni aniq belgilab berdik.

Yangi O'zbekistonda yosh avlodning jismoniy va ma'naviy sog'lom, ona Vatanga fidoyi va jonkuyar insonlar bo'lib ulg'ayishi, shonli tariximizdan ibrat olib, undan faxrlanib yashashi uchun barcha kuch va imkoniyatimizni to'liq safarbar etamiz.

Jahonda mafkuraviy kurashlar keskin tus olayotgan, axborot makonida turli xavf-xatar va tahdidlar tobora ortib borayotgan hozirgi sharoitda barchamiz doimiy ogoh va sezgir, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishimiz kerak.

Ayniqsa, adashib, yot g'oyalar ta'siriga tushgan shaxslar va ularning farzandlarida mafkuraviy immunitetni shakllantirish va ularni sog'lom turmush tarziga, to'g'ri yo'lga qaytarishda harbiy xizmatchilarimiz davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikdagi ishlarni yanada kuchaytirishi lozim.

Hurmatli mard va jasur Vatan himoyachilari!

Bugun dunyoning olis va yaqin mintaqalarida murakkab mojaro va to'qnashuvlar davom etayotgan bir paytda jonajon O'zbekistonimizda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash borasidagi ishlarimizni yanada samarali tashkil etishimiz shart.

Xususan, mudofaa qobiliyatimizni mustahkamlash, qo'shinlarni zamonaviy qurol-yarog' va texnikalar bilan ta'minlash, bo'linmalarni boshqarishda axborot texnologiyalarini keng qo'llash, jangovar tayyorgarlik va kasbiy mahoratni oshirish bundan keyin ham ustuvor vazifalarimiz bo'lib qoladi.

Hech shubhasiz, birgalikdagi sa'y-harakatlarimiz bilan ana shunday ezgu maqsad va marralarga erishishga, xalqimizning tinch mehnati, osoyishta hayotini, yurtimizning musaffo osmonini ko'z qorachig'idek asrab-avaylashga har tomonlama qodirmiz.

Hurmatli do'stlar!

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 29 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni bilan siz, azizlarni va oila a'zolaringizni yana bir bor chin yurakdan tabriklayman.

Barchangizga mustahkam sog'liq, oilaviy baxt va saodat, sharaflari va mas'uliyatli faoliyatingizda ulkan zafarlar tilayman.

Xalqimizning yuksak ishonchi va hurmat-ehtiromi sizlarga hamisha yor bo'lsin!

2021-yil 13-yanvar

YANGI O'ZBEKISTONNING YANGI QUROLI KUCHLARI

Assalomu alaykum, qadrli Vatan himoyachilari!

Muhtaram yurtdoshlar!

Bugun mana shu muhtasham zalda siz azizlar bilan – mard va jasur yurt posbonlari bilan uchrashib turganimdan bag'oyat xursandman.

Fursatdan foydalanib, sizlarning barchangizni, oila a'zolaringiz va yaqinlaringizni, Qurolli Kuchlar faxriylarini Vatan himoyachilari bayrami bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Xabaringiz bor, harbiy burchini sidqidildan ado etayotgan, ona Vatanimizga muhabbati va sadoqati bilan o'z safdoshlariga, ayniqsa, yosh avlodga har tomonlama namuna bo'lib kelayotgan bir guruh harbiy xizmatchilar ushbu ayyom arafasida davlatimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlandi. Bugungi qutlug' bayramda sizlarga ushbu mukofotlarni topshirish men uchun haqiqatan ham ulkan sharafdir.

O'z hayotini Vatan himoyasidek muqaddas va mas'uliyatli ishga bag'ishlagan va buni har kuni, har daqiqada amalda isbotlayotgan askar va ofitserlarimiz bizning faxrimiz va g'ururimizdir.

Ayniqsa, o'tgan yili bevosita o'z vazifangizni ado etish bilan birga xalqimiz boshiga tushgan og'ir sinovlarni mardona yengib o'tishda xizmatlaringiz nechog'liq katta bo'lganini el-yurtimiz yaxshi biladi va yuksak qadrlaydi.

So'nggi yillarda Vatanimiz mustaqilligini yanada mustahkamlash, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini, sarhad-

larimiz daxlsizligini ishonchli himoya qilish maqsadida harbiy sohada olib borayotgan keng ko'lamli islohotlarimiz amaliy natijalarini bermoqda. Biz bu haqda sizlar bilan kuni kecha Xavfsizlik Kengashining kengaytirilgan yig'ilishida ham atroflicha so'z yuritgan edik. Bu borada oldimizda turgan eng muhim va dolzarb vazifalarni aniq belgilab oldik.

Men bayram arafasida Jizzax viloyatiga borib, harbiy kuchlarimizning jangovar tayyorgarligi, Vatan himoyachilari uchun yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishdim. Askar va ofitserlarimiz bilan samimiy suhbatlashdim.

Albatta, bugun harbiy qismlarimizda, poligonlardagi xalqaro standartlarga mos sharoitlarni, harbiy xizmatchilarning jismoniy va ruhiy tayyorgarligini avvalgi holat bilan mutlaqo solishtirib bo'lmaydi. Qisqa davrda zamonaviy qurol-aslaha, axborot texnologiyalari bilan ta'minlash, moddiy va moliyaviy imkoniyatlar hamda ma'naviy muhitni yaratish borasida ulkan sifat o'zgarishlariga erishganimiz sizlarga yaxshi ma'lum.

Shu ma'noda, bugungi O'zbekiston – kechagi O'zbekiston bo'lmaganidek, bugungi Qurolli Kuchlarimiz ham kechagi Qurolli Kuchlar emas, desak ayni haqiqat bo'ladi.

Xalqimiz botir va fidoyi harbiylarimiz timsolida jonajon Vatanimizning taqdiri, uning tinchligi va osoyishtaligi ishonchli qo'llarda ekaniga chin dildan amin bo'lmoqda.

Yashirishning hojati yo'q, ilgari armiya – alohida, xalq – alohida bir dunyo edi. Biz yangi O'zbekistonda "Armiya bilan xalq – bir tan-u bir jondir" degan muhim g'oyani ilgari surdik va uni izchil amalga oshirmoqdamiz. Chindan ham, armiyamizning kuch-qudrati harbiy xizmatchilarimiz va butun jamiyatimizning yaxlitligi va hamjihatligida namoyon bo'lmoqda.

Mana shunday buyuk ma'naviy qudrat manbai bor ekan, hech qanday yovuz kuch O'zbekiston mustaqilligi va osuda hayo-

timizga raxna sololmaydi, bizni demokratik o'zgarishlar yo'lidan ortga qaytara olmaydi.

Harbiy qismlar eshiklari xalq uchun, bo'lajak Vatan posbonlari – yosh avlodimiz uchun hamisha ochiq bo'lishi kerak.

Milliy armiyamizning sha'n-u shavkati, harbiylarimiz ko'zida porlagan nur va ishonch yog'dusi yoshlarimiz qalbini munavvar qilishi va ularni yuksak marralar sari ruhlantirishi lozim.

Ana shundagina biz butun xalqimizning orzu-umidi bo'lgan botir va pahlavon, qiyinchilikdan qo'rqmaydigan, buyuk ajdodlarimizga munosib barkamol farzandlarni tarbiyalay olamiz.

So'nggi yillarda armiyamiz salohiyatini va mudofaa qobiliyatini kuchaytirishga jiddiy e'tibor qaratmoqdamiz. Misol uchun, keyingi to'rt yilda qurol-yarog' va harbiy texnika sotib olish uchun qariyb 2 milliard dollar miqdorida mablag' ajratildi. Bu raqamni avvalgi yillar bilan taqqoslaydigan bo'lsak, 1993-yildan 2016-yilgacha, ya'ni 23 yil mobaynida ushbu maqsadlar uchun 800 million dollar mablag' sarflangan edi.

O'ylaymanki, bu raqamlar Qurolli Kuchlarimizning qudrati qanchalik yuksalib, mustahkam bo'lib borayotganini yaqqol ko'rsatadi.

Albatta, bundan keyin ham mazkur yo'nalishdagi ishlarimizni tizimli ravishda davom ettiramiz.

Bugungi kunda biz istiqlol g'oyalariga sadoqatli, vatanparvar harbiy kadrlarning yangi avlodini yetishtirishga katta e'tibor berayapmiz.

Askar va ofitserlarimizning zamonaviy bilim olishi, harbiy texnika va texnologiyalarni mukammal egallashi, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining umumxalq ishiga aylanishi – bosh maqsadimizdir.

Armiya faqat qurol va aslaha bilangina kuchli hisoblanmaydi, balki ona Vatan uchun jonini ayamaydigan harbiylar – askar va ofitserlar, generallar bilan qudratlidir.

Armiyamizning imkoniyatlari va jangovar salohiyatini belgilaydigan asosiy omil mana shu, desam, o‘ylaymanki, sizlar ham bu fikrga qo‘shilasiz.

Vatan himoyasi uchun tog‘dek qalqon bo‘lib turgan o‘g‘lonlarimizning kuchiga kuch, jasoratiga jasorat qo‘shadigan narsa nima? Bu, avvalo, uning oilasi, ota-onasi va ustoz-murabbiylarining mehr-u ishonchi, davlatning yuksak e‘tibori va g‘amxo‘rligidir. Shuning uchun harbiy xizmatni sharaflilik kasbga aylantirish, askar va ofitserlarimizni, ularning oila a‘zolarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, uy-joy bilan ta‘minlash va turmush sharoitlarini yaxshilash masalalari doimo e‘tiborimiz markazida bo‘lib kelmoqda.

Harbiylarimiz oilasi va farzandlarining hayotidan, ularning kelajagidan ko‘ngli to‘q bo‘lsa, rag‘batimizni yurak-yurakdan his etsa, hozirgidan o‘n karra kuchli va fidoyi bo‘ladi.

Barchamiz dunyoning turli nuqtalarida tinchlik va osoyishtalikka qarshi tahdid va xatarlar, qarama-qarshilik va to‘qnashuvlar yuz berayotganiga guvohmiz. Bunday holatlar butun insoniyat qatori xalqimizni ham bezovta qilishi tabiiydir. Ushbu xavflarga munosib qarshi tura olish uchun insonda chinakam vatanparvarlik, yuksak bilim va tafakkur, metin iroda bo‘lishi zarur.

Buyuk sarkarda Amir Temur bobomiz: **“Askarlari botir el – qudratli bo‘lur”**, deganlarida aynan ana shu haqiqatni nazarda tutgan edilar.

Men har bir askar, Vatanning har bir posboni Amir Temur va ulug‘ lashkarboshilarimiz o‘gitlarini, ularning harbiy merosini chuqur bilishi kerak, deb qayta-qayta ta‘kidlab kelaman. Bu o‘lmas va bebaho meros hozirgi kunda ham har birimizning qalbimiz-

ga cheksiz g'urur baxsh etadi, muqaddas tuprog'imizga sadoqat tuyg'ularini kuchaytiradi. Biz yuksak davlat mukofotlariga sazovor bo'lib turgan siz, aziz harbiylarimizni ana shunday dong'i dunyoga taralgan ajdodlarimizning chinakam vorislari, deb bilamiz.

Bugungi marosimda jamoat tartibini saqlashda jonbozlik ko'rsatib kelayotgan Milliy gvardiya xodimlari, mamlakatimiz xavfsizligini ta'minlash yo'lida fidoyilik ko'rsatayotgan Davlat xavfsizlik xizmati vakillari, jamiyatimizda huquq-tartibotni mustahkamlashga munosib hissa qo'shayotgan ichki ishlar xodimlari, og'ir sharoitlarda odamlar dardiga darmon bo'layotgan Favqulodda vaziyatlar vazirligi xizmatchilari, davlatimiz chegaralarida hushyor turgan bojxona xodimlari borligi barchamizga chuqur mamnuniyat bag'ishlaydi.

Sizlarning timsolingizda bugun davlatimizning yuksak orden va medallari bilan taqdirlangan, joylarda ham mukofotlarni qabul qilib olayotgan barcha botir va dovyurak harbiylarimizni samimiy muborakbod etaman.

Butun xalqimiz sizlarni mehr va iftixor bilan Vatan posbonlari, ona yurt qalqonlari, deb e'zozlaydi. Bunday sharaftga erishgan inson har qanday hurmat va e'tiborga, har qanday yuksak mukofotga munosibdir.

Mana shunday ulug' va oliyjanob vazifalarni yanada samarali ado etishda sizlarga ulkan zafarlar tilayman.

Aziz do'stlar!

Qadrli harbiylar!

Hozir yuragingiz tub-tubidan chiqqan samimiy dil so'zlaringiz va hayajonli fikrlaringizni eshitib, mening ham qalbim to'lqinlandi. Ko'ksingizda porlab turgan ushbu mukofotlar sizlarga naqadar yarashganiga yana bir bor ishonch hosil qildim.

Bugungi sana yildan yilga sizlar uchun ham, xalqimiz uchun ham tom ma'nodagi shon-sharaf bayramiga aylanib borayapti, desam – bu adolatli haqiqatdir.

Bu orden-medallar sizlarning zahmatli va faxrli xizmatlaringizga el-u yurtimiz, xalqimiz tomonidan berilgan eng yuqori bahodir.

Jonajon O'zbekistonimizni himoya qilish, uni ko'z qorachig'idek asrash yo'lida sizlarga kuch-quvvat va omadlar ti-layman.

E'tiboringiz uchun rahmat.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 29 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan taqdirlangan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlaridan bir guruhiga yuksak davlat mukofotlarini topshirish marosimidagi nutq

2021-yil 14-yanvar

INSONPARVARLIK, EZGULIK VA BUNYODKORLIK – MILLIY G‘OYAMIZNING POYDEVORIDIR

Hurmatli majlis ishtirokchilari!

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining bugungi yig'ilishida juda muhim masalani – mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirishga oid dolzarb vazifalarni atroflicha muhokama qilishimiz zarur.

Mana shu yig'ilish asosida Kengashimizning qarorini qabul qilib, chora-tadbirlar dasturini tasdiqlashimiz kerak.

Hammangiz yaxshi tushunasiz, agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi – ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya'ni, bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyatga tayanamiz.

Bugungi kunda biz mamlakatimizda inson erkin va farovon yashaydigan jamiyat qurish uchun qat'iyat bilan harakat qilmoqdamiz. Qanday qiyinchilik va sinovlarga duch kelmaylik, shu maqsadda boshlagan barcha islohotlarimizni, qabul qilgan dasturlarimizni izchil davom ettirmoqdamiz.

Mana, yangi 2021-yilni katta niyat va rejalar bilan boshladik. Yaqinda Oliy Majlisga yo'llangan Murojaatnomada, O'zbekiston yoshlarining birinchi forumi hamda Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida ma'naviy-ma'rifiy sohadagi muhim va dolzarb vazifalarni, ustuvor yo'nalishlarni belgilab oldik.

Tan olishimiz kerak, jamiyatimiz hayotining barcha soha va tarmoqlari qatori ma'naviy-ma'rifiy ishlarimizda ham hali yechimini kutib turgan, o'zgarishlar shamoli kirib bormagan masalalar oz emas. Yangi hayot, yangi jamiyat qurishga qaratilgan islohotlar jarayonida bu ishlarimizning nazariy asosi bo'lgan milliy g'oyani rivojlantirish, ayniqsa, g'oyat muhim ahamiyatga ega.

Jahon tarixiga nazar solsak, har bir xalq, avvalo, o'z milliy g'oyasi asosida birlashib, taraqqiy etgani, murakkab sinovlardan o'tib kelayotganiga amin bo'lamiz.

Xabaringiz bor, yaqinda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan ijtimoiy-gumanitar sohadagi taniqli olimlar, yetakchi ekspertlar, faol ziyolilar ishtirokida yangi Milliy g'oya konsepsiyasi loyihasi ishlab chiqilib, jamoatchilik muhokamasiga qo'yildi. Unda **“Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari”** degan bosh g'oya nazariy asos qilib olindi va bu boradagi eng muhim vazifalar belgilandi.

“Milliy yuksalish” deganda, biz mamlakatimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarishni, jonajon diyorumizda yagona oila bo'lib yashayotgan, o'z tarkibida 130 dan ortiq millat va elatlarini birlashtirgan bag'rikeng xalqimizning ezgu orzu-intilishlarini ro'yobga chiqarib, ma'naviy dunyosini yanada boyitishni tasavvur qilamiz.

Bo'lib o'tgan muhokamalarda bildirilgan takliflar hamda bugungi yig'ilishda bayon etiladigan fikr-mulohazalarni inobatga olib, mazkur konsepsiya va uni amalga oshirish bo'yicha “Yo'l xaritasi”ni tasdiqlashimiz lozim.

Shu munosabat bilan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda ushbu hujjatlarining mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazishga doir dastur ishlab chiqishi va uni amalga oshirishi kerak.

Afsuski, hali oramizda milliy g'oya va ma'naviyatning mohiyatini to'liq anglab yetmagan, "ma'naviyat o'zi kerakmi-yo'qmi", deb yurganlar ham bor. Milliy g'oya deganda, eski sovet mafkurasini xayoliga keltirib, "labiga uchuq toshadiganlar" ham yo'q emas.

Agar mafkura ezgulik va insonparvarlik g'oyalariga, shaxsning huquq va erkinliklari, tinch va osoyishta hayotini ta'minlashga, odamning qadr-qimmatini ulug'lashga xizmat qilsa, nima uchun undan qo'rqishimiz kerak?

Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz.

Shu munosabat bilan ta'kidlab aytmoqchiman: **biz barpo etayotgan yangi O'zbekistonning milliy g'oyasi insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik g'oyasi bo'ladi.**

Bu yuksak g'oyalar xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan bo'lib, bugungi kunda ham bizni oliyjanob ishlarga ruhlantirib kelmoqda.

Mana, bir yildan oshdi, butun dunyo qatori biz ham koronavirus pandemiyasini boshimizdan kechiryapmiz. Xudoga shukur, xalqimiz bu og'ir sinovlardan yorug' yuz bilan o'tmoqda. Shunday mashaqqatli, qiyin kunlarda el-yurtimiz o'zligini yo'qotmadi. Aksincha, mehr-oqibat, saxovat, hamjihatlik, bag'rikenglik, sabrtoqatli bo'lish, shukronalik kabi boshqa xalqlarda kam uchraydigan noyob fazilatlarini yaqqol namoyon etdi.

Tadbirkorlarimiz "Saxovat va ko'mak" umumxalq harakati doirasida qanday savobli ishlarni amalga oshirganini barchamiz ko'rdik.

O'zingiz ayting, xalqimiz ma'naviyatining asosini tashkil etadigan ana shunday noyob fazilatlar, azaliy qadriyatlar bo'lmasa, biz bu murakkab vaziyatdan eson-omon, katta talafotlarsiz chiqa olarmidik? Yo'q, albatta.

Hammamizga ayonki, bugungi kunda dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surmoqda. Jahonda manfaatlar to'qnashuvi

kuchaymoqda. Globalashuv jarayonlari bashariyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga, kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda.

Milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora kuchaymoqda. Faqat o'zini o'ylash, hayotga, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste'molchilik kayfiyati singari illatlar turli yo'llar bilan aholi, ayniqsa, hali "oq-qora"ni farqlay olmaydigan yoshlar ongiga singdirilmoqda. Terrorizm, ekstremizm, transmilliy va kiber jinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar xavfi tobora ortib bormoqda.

Dunyodagi ayrim siyosiy markazlar tomonidan ba'zi hududlarda sun'iy ravishda beqaror vaziyat yuzaga keltirilmoqda, norozilik kayfiyatlari avj oldirilmoqda. Ayniqsa, bugun tobora chuqurlashib borayotgan global iqtisodiy inqiroz turli fitnalar uchun yanada qulay sharoit yaratishini unutmasligimiz lozim.

Mana shunday o'ta tahlikali sharoitda hammamiz sezgir va ogoh bo'lishimiz, avvalo, xalqimizning tinchligini, milliy manfaatlarimizni o'ylab yashashimiz kerak.

Necha yuz yillar davomida shakllangan asl insoniy qadriyatlarimiz o'rnini buzg'unchi g'oyalar egallab olishiga yo'l qo'ymasligimiz zarur.

Bugungi kunda aksariyat odamlar, avvalambor, rahbarlar, davlat xodimlarining bilimsizligi, saviyasining pastligi, zamondan orqada qolayotgani, jadid bobolarimiz "jaholat" deb atagan illat islohotlar yo'lidagi jiddiy to'siq bo'lib qolmoqda.

Biz ta'lim tizimiga, o'qituvchi va murabbiylar nufuzini oshirishga katta ahamiyat beryapmiz. Chunki jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish kerak. Lekin Vatan, xalq taqdiri o'rtada turganda, kerak bo'lsa, qonun ham o'z kuchini ko'rsatishi shart.

Albatta, tegishli idoralar bu ishni qiladi, qilyapti ham. Lekin aksariyat odamlarning bilim va madaniy saviyasi o'zgarishi qiyin bo'lyapti.

Savol tugʻiladi: mana, iqtisodiy kambagʻallikni qisqartirish boʻyicha katta ishlarni boshladik. Lekin maʼnaviy qashshoqlikni qanday qisqartiramiz? Fikr qaramligidan qanday qutulamiz?

Islohotlarimiz uchun zarur boʻlgan mablagʻ va investitsiyalarni qiyinchilik bilan boʻlsayam topyapmiz, ammo maʼnaviy immunitetni mustahkamlash uchun ruhiy resursni qayerdan topamiz?

Bu savollar har birimizni oʻylantirishi kerak.

Bugungi shiddatli, oʻta murakkab zamon shuni koʻrsatmoqdaki, bu borada faqat taʼlim-tarbiya tizimining oʻzi mavjud maʼnaviy tahdidlarga qarshi turolmaydi. Bu masalaga butun jamiyatning kuch va imkoniyatlarini safarbar etmas ekanmiz, kutilgan natijaga erisholmaymiz. Chunki bugungi kunda bolalarimizni ota-ona, bogʻcha, maktab yoki institut emas, aksariyat hollarda qoʻlidagi telefon “tarbiyalamoqda”. Afsuski, ana shu kichkinagina telefon endi oddiy aloqa vositasi emas, koʻpincha yot mafkura ni targʻib etadigan katta qurolga, zoʻravonlik, yovuzlik “virusi”ni tarqatadigan manbaga aylanmoqda, desak, ayni haqiqatni aytgan boʻlamiz.

Milliy maʼnaviyatimizga mutlaqo begona boʻlgan zararli gʻoyalar, tushuncha va qarashlar chegarani buzmasdan, bildirmasdan, taʼbir joiz boʻlsa, “chaqirilmagan mehmon” boʻlib xonadonimizga, jamiyatimizga, eng yomoni, murgʻak bolalarimizning pokiza qalbi va yuragiga kirib kelmoqda.

Bularning barchasi biz uchun ogohlik qoʻngʻirogʻi boʻlib yangrashni zarur.

Biz – gʻururi baland xalqmiz. Bu, hech shubhasiz, katta boylik. Ajdodlarimiz asrlar davomida asrab-avaylab kelgan bu boylikni yoʻqotib qoʻysak, kelgusi avlodlar bizni aslo kechirmaydi. Aksincha – bu fazilatni xalqimizni, millatimizni birlashtiradigan eng kuchli tamoyilga aylantirishimiz kerak.

Negaki, g'ururi baland xalqning qadr-qimmatini ham baland, ma'naviyati, irodasi kuchli bo'ladi. Bunday xalq bilan har qanday buyuk maqsadlarga yetish mumkin.

Aynan ana shunday fazilatlarimizga tayanib, biz boshqalarga ergashuvchi emas, aksincha, doimo ergashtiruvchi xalq bo'lib kelganmiz. Bilim, ma'rifat, madaniyat bilan boshqalarga o'mak bo'lganmiz. Bu – bizning qon-qonimizga, zot-u zurriyotimizga singib ketgan, milliy qadriyatimizga aylangan fazilat.

Shunday ekan, chetda nima yaltiroq bo'lib ko'rinsa, o'shaning orqasidan chopish, xorijniki ekan, deb unga qulluq qilish, boshqalarga ko'r-ko'rona ergashish bizga yarashmaydi. Ayniqsa, ma'naviyat sohasida. Afsuski, keyingi paytda bu borada chetning ta'siri, ta'bir joiz bo'lsa, "import"ning hajmi oshib ketmoqda.

"Daraxtning bo'shini qurt yeydi", degan maqol bejiz aytilmagan. Afsuski, keyingi paytda ma'naviy hayotimizda bo'shashish, bo'shliq sezilmoqda. Ma'naviy immuniteti zaif bo'lgan ba'zi yoshlar yurish-turishda ham, muomala-munosabatda ham boshqalarga ko'r-ko'rona ergashmoqda.

Milliy o'zligimizni, buyuk ajdodlarimizni tanimaslik, ilm va irodaning yetarli emasligi bunga sabab bo'lmoqda, desak, to'g'ri bo'ladi.

Ayniqsa, yoshlar tarbiyasida jamoatchilikning roli susayib borayotgani barchamizni tashvishga solishi lozim. Ilgari "Bir bolaga yetti mahalla ota-ona", degan maqolga amal qilib yashardik. O'g'il-qizlarimizning axloq-odobi, o'qishi uchun na faqat ularning ota-onalari, avvalo, mahalla ahli, kayvoni keksalar, ziyolilar o'zini mas'ul va javobgar deb bilardi. Shuning uchun ham mahallalarimizda urush-janjal, bezorilik, ichkilikbozlik qilib yuradigan yoshlar, oilaviy ajrimlar kam bo'lardi. Keksalar avlod vakillari yoshlarni mehnatga, o'z uyini, ko'chalar, guzar va maydonlarni ozoda tutishga o'rgatardi.

Endi ayrim odamlar hovlisini bolasiga emas, mardikorga tozalatadi. Bolaga bitta kitob olib berishga pulini qizg'anadi-yu, serxarajat to'y va ma'rakalar o'tkazishga topgan-tutganini bir kunda sarflab yuboradi.

Ko'p qavatli uylarda qo'shni qo'shnisini tanimaydi. Bu holda bolalar mehnatni, tejamkorlikni, me'yorni, odob va madaniyatni, mehr-oqibatni kimdan o'rganadi?

Ma'naviyatimiz uchun eng katta xavf – bu aksariyat odamlarimizdagi loqaydlik va beparvolik kuchayib borayotganida, desak, bu ham ayni haqiqat bo'ladi.

Siyosatshunoslar o'rtasida: "Sen uxlaganingda, dushman uyg'oq bo'ladi", degan gap bor.

Ayniqsa, hozirgi zamonda, boshqa xalqlar katta-katta marra-lar sari intilayotgan bir paytda ma'naviy jihatdan g'aflatga botib, "uxlab yotish"ga, loqayd bo'lishga hech kimning haqqi yo'q. Barcha fojia va muammolar, Vatanga, millatga, kelajakka xiyonat aynan loqaydlikdan boshlanadi.

Yana bir bor aytaman, dunyodagi qaltis vaziyat, siyosiy "o'yin"lar barchamizni sergaklikka undashi kerak.

Ma'naviy-ma'rifiy sohada oldimizda turgan eng muhim vazifa shuki, jahonda kechayotgan geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlar-ni chuqur tahlil qilib, ulardan xulosa chiqargan holda, yo'limizni to'g'ri tanlashimiz zarur.

Hammangiz ko'rib turibsiz, korrupsiya, tamagirlik, byurok-ratiya nafaqat iqtisodiy, balki ma'naviy hayotda ham oyog'i-mizga bolta urmoqda. Bu illatlarga qarshi keng ko'lamli kurash boshladik. Lekin barchamiz bu xavfga qarshi birgalikda kurash-mas ekanmiz, jamoatchilik nazoratini kuchaytirmas ekanmiz, bu muammolardan xalos bo'lolmaymiz.

Shu o'rinda haqli savol tug'iladi: bunday tahdidlarga qar-shi kurashda ma'naviy-ma'rifiy ishlarga, ta'lim-tarbiya sohasiga

javobgar tashkilotlarimiz qanday rol o'ynamoqda? Bizda umuman ma'naviy targ'ibot metodikasi, zamonaviy texnologiyalar bormi? Bu masalalar bilan kimdir ilmiy asosda shug'ullanyaptimi?

Bu borada hurmatli ziyolilarimiz, domla va o'qituvchilar, madaniyat va san'at vakillari, mahalla, yoshlar va boshqa jamoat tashkilotlari faollarining o'rni va ta'siri qanday? Ma'naviyat va ma'rifat kengashining hududlardagi rahbarlari bo'lgan hokimlar bu masalalar haqida bosh qotiryaptimi?

Ana shu savollarga javob topish uchun bu yildan boshlab "Eng ma'naviyatli tuman", "Eng ma'naviyatli tarmoq" tanlovlarini tashkil etish, ushbu tanlovlar yakunlariga ko'ra, ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishlarda namunali ish olib borayotgan tumanlar, vazirlik va idoralarni munosib taqdirlash tizimini yo'lga qo'yishimiz lozim.

Hozirgi vaqtda ijtimoiy-ma'naviy muhitni ilmiy asosda tahlil qilib, uni yaxshilash, takomillashtirish bo'yicha samarali mexanizmlarni yaratish va ishga solishni davrning o'zi talab etmoqda. Jamiyatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlar shunday asosda yo'lga qo'yilmagani uchun ham ular kutilgan natijani bermayapti.

Hech qachon unutmashimiz kerak: ma'naviyat – bu, avvalo, insonlar o'rtasidagi o'zaro ishonch, hurmat va e'tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo'lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlardir. Bir so'z bilan aytganda, ma'naviyat – jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir. Bu poydevor qancha mustahkam bo'lsa, xalq ham, davlat ham shuncha kuchli bo'ladi.

Davlatimizning ma'naviy-ma'rifiy sohadagi siyosatini amalga oshirishda bosh muvofiqlashtiruvchi idora bo'lgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi ishini shu nuqtayi nazardan tanqidiy o'rganib chiqib, uning faoliyatini tubdan takomillashtirish zarur.

Markazda ma'naviyat fidoylari bilan bir qatorda, soha rivojiga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar, ta'sirchan targ'ibot texnologiyalarini ishlab chiqish salohiyatiga ega bo'lgan, zamonaviy ruhda, keng fikrlaydigan olim va mutaxassislar faoliyat ko'rsatishi kerak. Shu maqsadda Markazning "Ma'naviyat targ'ibotchisi" o'quv muassasasi negizida Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutini tashkil etishni taklif qilaman.

Umuman, bugungi murakkab va tahlikali hayot oldimizga qo'yayotgan vazifalarni hisobga oladigan bo'lsak, quyidagi dolzarb masalalarni hal etishga alohida e'tibor qaratishimiz zarur.

Birinchidan, mamlakatimizda ma'naviy tarbiya tizimining yangi platformasi, strategiyasini yaratib, xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni sifat va mazmun jihatidan butunlay yangi bosqichga ko'tarishimiz kerak.

Albatta, yurtimizda qabul qilingan Harakatlar strategiyasi doirasida so'nggi yillarda ma'naviy-ma'rifiy sohani rivojlantirish bo'yicha qator qarorlar qabul qilindi va muayyan ishlar amalga oshirildi.

Bu sohaning strategik ahamiyati tobora ortib borayotganini hisobga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashiga raislik qilishi belgilab qo'yildi. Kengashning hududiy bo'limlariga rahbarlik qilish mas'uliyati esa hokimlar zimmasiga yuklandi. Bu o'zgarish ma'naviy-ma'rifiy ishlarni davlatimiz siyosatida yanada yuksak o'ringa ko'tardi. Shuning uchun endi bu masala na faqat hokimlarning, balki barcha vazirlar, idora va tashkilotlar, kompaniyalar, banklar rahbarlari hamda tadbirkorlarning ham eng muhim vazifasiga, kundalik ishiga aylanishi kerak.

Mana, joylarda zamonaviy klaster tizimiga o'tish, fermerlik va kooperatsiyani kuchaytirish asosida hokimlarni qishloq xo'jaligi ishlaridan asta-sekin ozod qilyapmiz. Endi ulardan

ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ishlarni ham qat'iy talab qilishga haqqimiz bor.

Haqiqatan ham, har bir fuqaro, xodimning kayfiyati, davlatga, kelajakka bo'lgan ishonchini ifoda etadigan ma'naviyat sohasi bilan, avvalo, birinchi rahbarlar shaxsan shug'ullanmasa, ular boshqarayotgan hudud yoki tarmoqda jiddiy ijobiy o'zgarish bo'lishi mumkinmi? Yo'q, albatta.

Tasavvur qilaylik, bog'imizda bir daraxtga qurt tushsa yoki dalamizda bug'doyga zang tushsa, darrov chorasini ko'ramiz. Lekin ma'naviyatimizga "qurt tushsa", nima uchun e'tibor qilmaymiz? Axir, bu "qurt" ertaga davlatimiz, jamiyatimiz poydevorini zaiflashtiradi, oqibati og'ir muammolarni keltirib chiqaradi.

Bir haqiqatni barcha rahbarlar bilishi kerak: faqat hisobot uchun yig'ilishlar o'tkazish vaqti o'tdi. Har bir tadbirni aniq natija uchun, tarbiyaviy, ma'naviy ta'sirga erishish uchun o'tkazish lozim.

Bundan buyon hududiy kengashlar faoliyatini ana shu nuqtayi nazardan tahlil qilib, Ma'naviyat va ma'rifat markazi monitoringni amalga oshiradigan va shaxsan Prezidentga ma'lumot kiritib boradigan tizimni joriy etamiz.

O'ylaymanki, bunday yangi tizim albatta ijobiy natija beradi. Markaz tomonidan tashkil etilgan ishchi guruhlar mehnat jamoalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar holatini o'rganib, har chorakda Ma'naviyat va ma'rifat kengashiga ma'lumot kiritib boradigan amaliyotni yo'lga qo'yish zarur.

Shundan so'ng har bir hudud va tarmoqda qaysi masalalar kun tartibiga qo'yilib, qanday tahlil qilingani va nechog'lik amaliy natijaga erishilgani yaqqol ayon bo'ladi. Shunga qarab hududiy kengashlar, tarmoqlar ishiga baho beramiz.

Ma'lumki, hozirgi paytda ma'naviyat targ'iboti bilan oila, mahalla, ta'lim muassasalari, Ma'naviyat va ma'rifat markazi,

umuman, o'nlab tashkilotlar shug'ullanmoqda. Lekin, ularning faoliyati yagona tizimga birlashtirilib, aniq muvofiqlashtirilmagani tufayli targ'ibot ishida bir-birini takrorlash, odamlarni qiziqtirish emas, aksincha, zeriktirish holatlari kuzatilmoqda. Shuning uchun Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi bu yo'nalishda ham barcha hududiy kengashlar, vazirlik, idora va tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirib borishi lozim.

Bir so'z bilan aytganda, Markaz ma'naviy-ma'rifiy ishlarni muvofiqlashtirish, sohani rivojlantirish bo'yicha bosh muassasa vazifasini bajarishi kerak.

Bundan tashqari, Markaz va uning tizimidagi tashkilotlarning moddiy-texnik ta'minotini keskin kuchaytirish, ularning ilmiy tadqiqot va targ'ibot-tashviqot yo'nalishlaridagi faoliyatini qayta tashkil etish, "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish" bo'yicha "yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish lozim.

Bu borada Innovatsion rivojlanish vazirligi 2021-yildan boshlab Markaz tomonidan milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar yo'nalishida taqdim etiladigan grant loyihalarini moliyalashtirishni yo'lga qo'yishi kerak.

Hech kimga sir emas, ma'naviyat targ'ibotchisi bo'lish kishidan katta bilim va salohiyat, mahorat va tinimsiz aqliy mehnatni talab etadi. Lekin, afsuski, biz ko'p yillar ma'naviyat va ma'rifat sohasi xodimlarining mehnatini munosib rag'batlantirishga yetarli e'tibor qaratmadik. Endi ana shu muammoni ham hal etish vaqti keldi. Buning uchun joriy yilda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi hamda uning davriy nashrlarida mehnat qilayotgan xodimlarning oylik maoshlarini oshirish masalasini ko'rib chiqish kerak. Shuningdek, xususiylashtirishga qo'yilgan "Ma'naviyat" nashriyotini Markaz tasarrufiga o'tkazish va uning faoliyatini qo'llab-quvvatlash zarur.

Mamlakatimizdagi yangilik va islohotlardan, dunyo miqyosidagi o'zgarishlardan, ularning mazmun-mohiyatidan aholini vaqtida, ilmiy va malakali yondashuv asosida xabardor qilib borish maqsadida barcha korxonalar va tashkilotlarda Markaz bilan hamkorlikda aniq reja asosida muloqot va fikr almashish shaklida o'tkaziladigan "Ma'rifat soati" tadbirlarini muntazam va samarali o'tkazishni yo'lga qo'yish lozim.

"Ma'rifat soati"ga kimlar jalb qilinadi? Kimlar joylarga borib ma'ruza va uchrashuvlar o'tkazadi? Ularni kim kutib oladi, qayerda, nechta jonli muloqot bo'ladi? Ma'ruzachilar uchun zarur tarqatma materiallar, buklet, audio va video materiallarni kim tayyorlaydi? Ko'rib turganingizdek, bu sohada mayda masalaning o'zi yo'q.

Vazirlar Mahkamasi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi va mahalliy hokimliklar bilan birgalikda ana shu masalalarning yechimi bo'yicha aniq va puxta takliflarni ishlab chiqishi zarur.

Ikkinchidan, uzluksiz ta'lim tizimida ma'naviy tarbiya asoslarini kuchaytirish lozim.

"Tarbiyada tanaffus bo'lmaydi", degan chuqur ma'noli gapni ko'p takrorlaymiz. Lekin, afsuski, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda ana shu qoidaga amal qilinmayapti. Bu borada bog'cha, maktab, oliy ta'lim, mahalla tizimining har biri alohida ish olib borayotgani, ya'ni, o'zaro hamkorlik va uyg'unlikning yo'qligi ishimizning samarasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuning uchun ma'naviy-ma'rifiy ishlarning yagona tizimini yaratish, unda har bir mas'ul idoraning vazifasi va birgalikda amalga oshiradigan chora-tadbirlarini aniq belgilab qo'yish zarur. Xususan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jajji farzandlarimizni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash maqsadida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Maktabgacha ta'lim vazirligi bi-

lan birgalikda ma'naviy-tarbiyaviy ishlarning samarali tizimi va metodikasini yaratishi kerak. Ayniqsa, xususiy va davlat-sheriklik asosidagi bog'chalarga ma'naviy-ma'rifiy va uslubiy yordam ko'rsatishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Joylardagi Ma'naviyat va ma'rifat kengashlari bu masalaga alohida e'tibor qaratishi, shu maqsadda Kengash a'zolarini har bir maktabgacha ta'lim tashkilotiga doimiy biriktirib, mas'uliyat doirasini belgilab qo'yish ham yaxshi natija beradi, deb o'ylayman.

Xabaringiz bor, mamlakatimizdagi 10 mingdan ortiq maktabga taniqli adib va jurnalistlar, ma'naviyatchilar ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi sifatida biriktirildi. Ularning maktabda ma'naviy muhitni yaxshilash, o'quvchilarning adabiyot, madaniyat va san'atga bo'lgan qiziqishini oshirish, dunyoqarashi, ong-u tafakkurini rivojlantirish orqali vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalash uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olayotgani, albatta, barchamizni quvontiradi.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Xalq ta'limi vazirligi va Yozuvchilar uyushmasi bilan birgalikda ana shu targ'ibotchilar uchun zarur metodik qo'llanmalar ishlab chiqib, ularning malakasini oshirish va faoliyatini muvofiqlashtirib borish choralarini ko'rsa, o'ylaymanki, bu mazkur yo'nalishdagi yana bir amaliy qadam bo'lardi.

Yana bir masala. O'tkazilgan ilmiy-amaliy tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, maktablarda 5-sinfdan boshlab yagona sinf rahbarini tayinlash amaliyoti yo'lga qo'yilsa, bu bolalarning ma'naviy rivojida muhim ahamiyatga ega bo'lar ekan. Ana shu o'qituvchi 11-sinfga qadar bolalar bilan ruhan yaqin bo'lib, ularning ma'naviy tayanchi va maslahatchisiga aylanib, ota-onasidek qadrdon bo'lib qolardi. Haqiqatan ham, shunday. Shuning uchun bu omilni keng qo'llashimiz kerak.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi va uning hududiy bo'limlari ana shunday sinf rahbarlarini ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaga oid metodik qo'llanma va tavsiyalar, foydali nashrlar bilan doimiy ravishda ta'minlab borsa, buyam milliy ma'naviyatimizni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan yana bir taklif haqida sizlar bilan maslahatlashmoqchiman. Ya'ni, maktablar, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari direktorlarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosarlari o'zlarining yillik ish rejasini Markaz va uning hududiy bo'limlari bilan birgalikda tuzsa va amalga oshirsa, bu boradagi ishlarda ilmiylik, amaliy samaradorlik oshadi, deb o'ylayman. Direktor o'rinbosarlari o'quv yili yakunida hududiy kengashlarda hisobot bersa, shunga qarab ularning ishi baholansa, ta'lim-tarbiyada ma'naviyatning o'rni yanada kuchaygan bo'lardi.

Shuning uchun bundan buyon oliy o'quv yurtlariga yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektorlar ham Markaz va uning hududiy bo'limlari bilan kelishgan holda tayinlanadigan tartibni joriy etishimiz lozim. Bu masalaning ahamiyatini hisobga olib, ta'lim olayotgan talabalari soni va idoraviy bo'ysinuvidan qat'i nazar, barcha oliygohlar va ularning filiallarida mavjud shtat birliklari doirasida yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor lavozimini joriy etish kerak, deb hisoblayman.

Yana bir muhim masala. Mahallalarda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash hokimlar – hududiy kengashlar raislarining doimiy e'tibor markazida bo'lishi shart.

Ma'naviy targ'ibot ishlarini har bir mahallada, ta'bir joiz bo'lsa, "mahallabay" usulida tashkil etmas ekanmiz, bu borada aniq natija bo'lmasligini hayotning o'zi ko'rsatmoqda. Bunda har bir mahallaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, amalga

oshiradigan ishlarimizni aniq belgilab olishimiz va jamoatchilik bilan birgalikda ish olib borishimiz kerak.

Bu borada, ayniqsa, “Bir ziyoli – bir mahallaga ma’naviy homiy” tamoyili asosida har bir mahallaga professor-o‘qituvchilar va taniqli ziyolilarni jalb etish, ularning bu ishga mas’uliyat va kuyunchaklik bilan yondashishiga erishish muhim ahamiyatga ega, deb o‘ylayman. Oliy ta’lim muassasalari rektorlari joylardagi hokimlar bilan birgalikda bunday jonkuyar domlarni munosib rag‘batlantirib borish choralarini ko‘rishi kerak.

Biz “Nuroniylar” jamg‘armasining Toshkent shahridagi tajribasi asosida “Har bir nuroniy – besh nafar yoshga murabbiy” tamoyili bo‘yicha muhtaram oqsoqollarimiz, kayvoni onaxonlarimizni tarbiyasi og‘ir, ma’naviy ko‘makka muhtoj, uyushmagan, ishsiz yoshlarga biriktirib qo‘yishga qaratilgan ibratli tashabbusini qo‘llab-quvvatlaymiz. Albatta, katta tajribaga ega bo‘lgan nuroniylarimiz o‘zlarining hayotiy o‘g‘itlari bilan yoshlarimizga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatsa, buning foydasi katta bo‘ladi. Ana shu ishlarni amalga oshirish uchun “Ma’naviy-axloqiy tarbiya dasturi”ni ishlab chiqib, unda ta’lim tizimi, mahalla, nuroniy, xotin-qizlar, yoshlar hamda boshqa davlat va jamoat tashkilotlarining vazifasini aniq belgilab qo‘yish zarur.

Mana, bugun joylarda ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish maqsadida yangi-yangi vazifalarni belgilab olyapmiz. Bu borada asosiy mas’uliyat hududiy kengashlarning zimmasiga tushadi. Lekin kengashlarning ijro organi bo‘lgan Markazning tuman, shahar bo‘limlaridagi bir nafar mutaxassis bilan oldimizda turgan vazifalarni bajarib ham, aniq natijaga erishib ham bo‘lmaydi. Shuning uchun 200 mingdan ziyod aholi yashaydigan tumanlardagi bo‘limlarga qo‘shimcha ravishda mahalliy budjetlar hisobidan ta’minlanadigan ikkitadan, aholisi undan kam bo‘lgan hududlarda esa bittadan shtat birligi ajratish zarur. Ana

shu xodimlarning biri ta'lim muassasalarida, ikkinchisi mahallalarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish uchun mas'ul bo'lsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Bundan buyon hududiy kengashlar faoliyati reyting asosida baholab borilishi va hokimlarning faoliyatiga shunga qarab baho berilishi kerak.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Davlat boshqaruvi akademiyasi, Davlat xizmatlarini rivojlantirish agentligi ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini baholash bo'yicha indikatorlarni ishlab chiqishi lozim.

Sizlarga ma'lumki, ilgari joylarda ma'naviyat maskanlari bo'lardi. Ushbu dargohlarda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar uchun mo'ljallangan zallardan tortib, kutubxona, musiqa xonasi va ixcham muzeygacha bor edi. Turli ma'naviy-ma'rifiy va badiiy kechalar, uchrashuvlar o'sha maskanlarda o'tkazilardi. Bugungi kunda yoshlarimizning ma'naviy kamolotiga xizmat qiladigan ana shunday markazlarni barpo etishni hayotning o'zi talab qilmoqda. Shuning uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari Qurilish vazirligi bilan birgalikda hududlar markazida namunaviy loyiha asosida Ma'naviyat va ma'rifat maskanlarini barpo etish yuzasidan barcha zarur choralarni ko'rishi zarur. Bu maskanlar joylarda xalqimizga davlat xizmatlari ko'rsatish maqsadida barpo etilgan binolar kabi ko'rkam, zamonaviy va qulay bo'lishi kerak.

Xabaringiz bor, yaqinda Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida Qurolli Kuchlarimizni takomillashtirish bilan birga, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirishga oid zarur vazifalarni ham atroflicha muhokama qildik. Xususan, harbiy sohada davlat tilida ish yuritishni kengaytirish, Jasorat maktabini yaratish, "Temurbeklar maktabi" o'quvchilari o'rtasida tanlov va musobaqalar o'tkazish, harbiy okruglarda buyuk sarkardalari-

mizga bag'ishlangan tematik sinflar tashkil etish kabi masalalar haqida fikrlashib oldik. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Qurolli Kuchlarimizda ma'naviy tarbiyani takomillashtirish bo'yicha ana shu yig'ilishda qabul qilingan dasturlar ijrosini nazoratga olishi kerak.

Navbatdagi muhim masala shundan iboratki, Toshkent shahridagi "G'alaba bog'i" majmuasini xalqimiz, ayniqsa, yoshlar uchun harbiy tarix va ajdodlarimiz qahramonligini o'rganish bo'yicha ilmiy markazga aylantirish zarur.

Biz yoshlarimizni haqiqiy vatanparvarlik, azm-u shijoat, mardlik va jasorat ruhida tarbiyalashda muhtaram ziyolilarimiz, faol va fidoyi olimlarimiz hamda ijodkorlarimizning yordamiga tayanamiz. Ayniqsa, buyuk sarkarda bobolarimizning hayoti va jangovar faoliyati, harbiy merosini o'rganish hamda yoshlarimiz o'rtasida targ'ib etish katta ahamiyatga egadir. Shuning uchun Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, O'zbekiston Fanlar akademiyasining Tarix instituti, Mudofaa vazirligi 2021-yilning uchinchi choragida "Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyatining yangi sahifalarini o'rganish" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyani tashkil etsa, ayni muddao bo'lardi.

Shuningdek, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi 2021-yildan boshlab, taniqli olim va ijodkorlarni jalb etgan holda, "Buyuk sarkardalarimizning jasorati va harbiy merosi" turkumida tarixiy-badiiy risolalarni tayyorlab, nashr etishni yo'lga qo'yishi lozim.

O'tgan yili qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish va xotirasini abadiylashtirish bo'yicha muhim qaror qabul qilib, bu borada zarur chora-tadbirlarni belgilagan edik. Markaz bu yo'nalishda "Jadidlar va boshqa ma'rifatparvar ziyolilar merosidan yosh avlod tarbiyasida foydalanish" mavzusida innovatsion tadqiqotlarni amalga oshirishi kerak.

Milliy ma'naviyatimizni rivojlantirish, uni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz hayotiga singdirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning ahamiyati katta. Afsuski, hozirgi paytda bu fanlar rivoji zamondan ortda qolmoqda. Xususan, biz uchun nihoyatda dolzarb bo'lgan tarix fani ham bundan mustasno emas.

Tarixga oid ilmiy tadqiqot ishlari asosan bayonchilik, publitsistik usulda olib borilmoqda. Natijada olis va yaqin o'tmishimizdagi ko'pgina voqealarning mazmun-mohiyati, ularni yuzaga keltirgan omillar va tarixiy qonuniyatlar ochilmasdan qolmoqda.

Bir haqiqatni barchamiz chuqur anglab olishimiz kerak: milliy tarixni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizga milliy ruhda yetkazish, ularning qalbiga, shuuriga singdirish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi.

Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur. Buning uchun, avvalo, O'zbekistonda tarix fanini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishimiz lozim.

Tarix institutini bu fanni rivojlantirish bo'yicha tayanch ilmiy muassasa etib belgilash zarur. Fanlar akademiyasi qoshidagi "Eng yangi tarix" markazi xodimlarining oylik ish haqi miqdorini ilmiy tadqiqot instituti xodimlari maoshiga tenglashtirib, uning faoliyatini kuchaytirish kerak. Shuningdek, ta'lim muassasalarida tarix fanini o'qitish va targ'ib etish ishlarini tubdan yaxshilash bo'yicha ham aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarur.

"O'zbekiston tarixi" telekanali Vatanimizning shonli tarixi va ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan beqiyos hissasini to'laqonli ko'rsatib beradigan, el-yurtimiz, ayniqsa, yoshlarimiz sevib tomosha qiladigan ilmiy-ma'rifiy kanalga aylal-

nishi kerak. Bu borada ham muhtaram ziyolilarimizdan alohida faollikni kutib qolamiz.

Uchinchidan, o'zbek tilining davlat tili maqomini amalda kuchaytirish, xorijda va yurtimizda uni o'rganish bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish – dolzarb vazifadir.

Biz o'tgan yili birinchi marta O'zbek tili bayramini yurtimizda keng nishonladik. Ona tilimizni rivojlantirish bo'yicha yangi rejalarni belgilab oldik. Qo'shni Afg'oniston va boshqa davlatlarda ushbu bayramga bag'ishlangan katta anjumanlar o'tkazildi. Endi bu ishlarni izchil davom ettirishimiz, ona tilimiz targ'iboti bilan yanada jiddiy shug'ullanishimiz lozim.

Shu maqsadda har yili 21-oktabr – O'zbek tili bayrami arafasida “O'zbek tili va adabiyotini jahon miqyosida targ'ib etish: natija va vazifalar” mavzusida xalqaro ilmiy-ma'rifiy anjuman o'tkazishni yo'lga qo'yishimiz kerak.

To'rtinchidan, xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o'rtasida kitobxonlik darajasini oshirish borasidagi ishlarni kuchaytirishimiz zarur.

Albatta, keyingi yillarda beshta muhim tashabbus doirasida bu yo'nalishda ko'p ishlarni amalga oshirdik. Lekin bugun ularni yangi bosqichga ko'tarishni vaziyatning o'zi talab etmoqda.

Bu haqda so'z yuritganda, nashriyot va bosmaxonalar kitob va boshqa matbaa mahsulotlarini sotishda qiyinchiliklarga duch kelayotganini ta'kidlash lozim. Hammangiz bilasiz, ilgari “O'zkitobsavdo” degan samarali ishlaydigan tizim bo'lardi. Bugun ana shu tajriba asosida kitob mahsulotlarini ulgurji ravishda sotadigan va chakana savdo bilan shug'ullanadigan do'konlarga ularni yetkazib beradigan, samarali ishlaydigan tizim yaratishimiz zarur.

Vazirlar Mahkamasi ushbu masalalarni maqbul tizim bo'yicha, davlat-xususiy sheriklik shaklida bo'lsa ham hal etish choralarini ko'rishi kerak.

Beshinchidan, yoshlarimizga zamonaviy ta'lim-tarbiya bilan birgalikda, qon-qonimizga singgan muqaddas dinimizning mohiyatini to'g'ri tushuntirib berishimiz, ularni ezgu g'oyalar ruhida tarbiyalash haqida jiddiy o'ylashimiz lozim.

Afsuski, bu masalaga o'z vaqtida jiddiy e'tibor bermaganimiz tufayli yoshlar o'rtasida radikal oqimlar ta'siriga tushish holatlari uchrab turibdi.

Dunyoga Buxoriylar, Beruniylar, Termiziylar, Moturidiylar, Xorazmiylardek buyuk alloma va aziz-avliyolarni bergan jonajon Vatanimiz yoshlari ulug' ajdodlariga munosib bo'lib ulg'ayishi uchun barcha sharoitlarni yaratib berishimiz zarur.

Din ishlari bo'yicha qo'mita, Yoshlar agentligi, Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Xalqaro islom akademiyasi, Islom sivilizatsiyasi markazi, Musulmonlar idorasi va boshqa mutasaddi tashkilotlar dinimizning insonparvarlik mohiyati, uning ezgu va ma'rifiy tamoyillari haqida yoshlarga, ta'sirchan uchrashuvlar, ko'rsatuv va eshittirishlar tashkil etish orqali, muntazam ma'lumot berib borishi zarur.

Oltinchidan, biz mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish uchun, avvalo, uning beshta muhim ustuni va halqasini belgilab oldik. Shu halqaning eng muhim bo'g'ini, hech shubhasiz, ijodkor ziyolilarimiz, xususan, ma'naviyat vakillaridir. Ular "**Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari**" degan hayotbaxsh g'oyani amalga oshirishda barchaga, ayniqsa, yoshlarga o'mak bo'lishlari zarur.

Mana, yoshlarga keng imkoniyatlar yaratib beryapmiz, katta-katta lavozimlarni ularga ishonib topshiryapmiz. Ularda bilim bor, iste'dod bor, afsuski, ayrimlari milliy zamin, milliy ma'naviyatimizdan uzoqlashib ketgani sezilib qolmoqda. Ular o'zlari o'qib kelgan xorijiy davlatlardagi tajribani tez va

shoshilinch amalga oshirmoqchi bo'lyapti. Ammo, afsuski, bunday natijaga o'sha davlatlar necha yuz yillar davomida erishgani haqida o'ylab ko'rmayapti. Men bunday yoshlarimizga milliy tariximiz va qadriyatlarimizni, o'z ijtimoiy muhitimizni chuqur o'rganishni maslahat bergan bo'lardim.

Bugun hayot yangicha fikrlash va ishlash, milliy "aql markazlari"mizni shakllantirishni talab etmoqda. Lekin, afsuski, dunyodagi, yon-atrofimizda kechayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarni chuqur tushunib, ta'sirchan va ommabop shaklda yetkazib beradigan tahlilchi va ekspertlarimiz juda kam.

Bugun dunyoda insonning ongi va qalbini egallash uchun kurash tobora kuchayib bormoqda. Shu yo'lda harakat qilayotgan kuchlar o'z maqsadiga erishish uchun targ'ibotning barcha usullaridan keng foydalanmoqda. Shunday bir vaziyatda jamiyatimizni ma'naviy tahdidlardan himoya qilish borasidagi ilmiy-amaliy tadqiqotlarni, tahliliy va targ'ibot materiallarini tayyorlash usulini tubdan qayta ko'rib chiqishimiz zarur. Umuminsoniy, milliy va diniy qadriyatlarimizga bepisandlik bilan qarash holatlariga qarshi kurashishning metodologik asoslarini shakllantirish lozim.

Shu ma'noda, Ma'naviyat va ma'rifat markazi, "Taraqqiyot strategiyasi" va Islom sivilizatsiyasi markazlari, ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi tadqiqot institutlari haqiqiy "aql markazlari"ga aylanishi kerak.

Albatta, milliy g'oya targ'iboti, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, jamiyatda adabiyot va kitobxonlikni yanada rivojlantirish o'z-o'zidan bo'lmaydi. Buning uchun mablag' hamda moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimini yaratish lozim. Shu maqsadda "Ijod" jamoat fondi negizida Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash fondini tashkil etishni taklif qilaman. Jamg'armaga 120 milliard so'm ajratish, ushbu mablag'ni ma'naviy-ma'rifiy tarbiya va targ'ibot-tashviqot ishlarini samarali

amalga oshirish, milliy adabiyotimizni rivojlantirish uchun, jumladan, 90 milliard soʻmni hududlarda maʼnaviy-maʼrifiy sohalarni rivojlantirishga, 20 milliard soʻmni Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini qoʻllab-quvvatlashga, 10 milliard soʻmni respublika miqyosida maʼnaviy-maʼrifiy ishlarni samarali tashkil etishga yoʻnaltirishni koʻzda tutish, mablagʻlarni taqsimlashda hududlardagi aholi soni va ularning oʻziga xos xususiyatlarini inobatga olish lozim.

Afsuski, bugungi kunda milliy gʻoyamiz va maʼnaviyatimizning asosiy targʻibotchilari boʻlgan “Tafakkur”, “Maʼnaviy hayot”, “Jahon adabiyoti”, “Sharq yulduzi” kabi jurnallarimiz obunachilar kamligi tufayli juda kam nusxada nashr etilmoqda. Agar har bir maktab, kollej, texnikum, oliy oʻquv yurti kutubxonasiga bittadan jurnal bepul yetib borsa ham ularning tiraji kamida 10 mingdan ortiq boʻlishi lozim.

Oʻzingiz ayting, shunday muhim masalada zarur mablagʻni topish shunchalik qiyinmi? Bu jurnallarni oʻqimagan yoshlarimizni qanday qilib maʼnaviy yetuk insonlar etib tarbiyalaymiz?

Vazirlar Mahkamasi, Moliya vazirligi, Xalq taʼlimi, Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirliklari ushbu nashrlarning har bir oʻquv dargohiga yetib borishini taʼminlash boʻyicha zarur choratadbirlarni koʻrishi zarur.

Bu haqda gapirganda, yana bir muhim masalaga eʼtiboringizni qaratmoqchiman: targʻibotning ilmiy asoslangan zamonaviy texnologiyalari va yangi shakllarini, tahdidlarga qarshi samarali kurash usullarini ishlab chiqadigan vaqt keldi.

Takror aytaman: ilmga asoslanmagan sohaning kelajagi boʻlmaydi.

Shu maʼnoda, maʼnaviyat va maʼrifat yoʻnalishi shu paytga-cha ilmiy ixtisoslik sifatida fanlar klassifikatoriga kiritilmaganini qanday izohlash mumkin? Sohadagi kamchiliklarning asosiy sa-

bablaridan biri ham shunda, ya'ni, ilmiy asoslarning puxta ishlanmaganida, desak, xato bo'lmaydi.

Oliy attestatsiya komissiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Fanlar akademiyasi 2021-yildan boshlab ma'naviyat va ma'rifat sohasi ixtisosliklarini fanlar klassifikatoriga kiritish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni ko'rishi lozim.

Shu bilan bog'liq yana bir muhim masala shundaki, agar gumanitar yo'nalishdagi oliy ta'lim tizimida "Ma'naviyatshunoslik" fanini o'qitish, PR-menejer va PR-tahlilchi mutaxassisliklari bo'yicha kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'ysak, bu yo'nalishda zamonaviy talablarga javob beradigan kadrlarga ega bo'lamiz.

So'zimning boshida aytib o'tganimdek, bugungi kunda dunyoning juda ko'p mintaqalarida insoniy qadriyatlar yemirilmoqda. Ayniqsa, pandemiya sharoitida ayrim o'lkalarda betoqatlik, tajovuzkorlik kayfiyatlari kuchayib bormoqda. Mana shunday keskin vaziyatda, ulug' mutafakkirlar aytganidek, **dunyoni ezgulik, mehr-shafqat, insoniylik qutqaradi.**

Yaqinda biz kino san'ati vakillari bilan uchrashib, dolzarb vazifalar haqida gaplashib oldik. Xabaringiz bor, yillar davomidagi e'tiborsizlik tufayli xarob holga tushib qolgan "O'zbekfilm" binosi qayta ta'mirlandi. Bu yil "Kinochilar uyi", "Kinochilar guzari" va soha xodimlari uchun 2 ta ko'p qavatli uy qurish boshlanadi. Kino sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash masalasiga ham jiddiy e'tibor qaratiladi.

Hammangizga ma'lumki, karantin davrida barcha madaniy-ko'ngilochar tadbirlarni to'xtatib turishga majbur bo'ldik. Albatta, bu odamlar ruhiyatiga salbiy ta'sir etganini inkor etib bo'lmaydi. Mana shunday sharoitda xalqning ko'nglini ko'tarish – san'at ahlining muqaddas burchidir.

Yoshi ulug' insonlar yaxshi biladi, ilgari teatrlar chekka qishloqlargacha gastrolga chiqib, tomosha ko'rsatardi. Bu uchrashuvlar haqiqiy bayramga aylanib ketardi. O'sha an'analarni davom ettirish zarurligiga, xalqimiz o'rtasida bunga ehtiyoj katta ekaniga joylarda aholi vakillari bilan muloqot paytida ko'p marta ishonch hosil qilmoqdamiz.

Madaniyat vazirligi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda teatr jamoalarining hududlarga gastrol safarlarini tashkil etish bo'yicha yillik reja ishlab chiqishi kerak.

Joylarda aholining madaniy hordiq chiqarishi, konsert va teatr tomoshalarini tashkil etish uchun hokimlar ham mas'ul ekanini ular sezishlari lozim.

Yoshlarning san'atga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun barcha oliy o'quv yurtlari budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan talabalarni teatr, kinoteatr va muzeylarga olib borish tizimini yo'lga qo'yishi darkor. Teatrlarning ijodiy jamoalari ham o'z repertuarini yoshlarning qiziqishiga mos, yuqori saviyadagi asarlar bilan boyitishga alohida e'tibor qaratishi zarur.

Teatr san'atining o'g'il-qizlarimiz tarbiyasidagi rolini oshirish maqsadida maktab va oliygohlarda havaskorlik teatr to'garaklarini yo'lga qo'ysak, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hurmatli majlis ishtirokchilari!

Ma'naviy targ'ibotni to'g'ri yo'lga qo'yishda ommaviy axborot vositalarining qanday katta ta'sir kuchiga ega ekanini, o'ylaymanki, barchamiz yaxshi tushunamiz. Ammo, afsuski, bu kuchdan hamma vaqt ham samarali foydalana olmayapmiz.

Mana, o'zingiz ko'rib turibsiz, biz jamiyatimizda demokratiya, ochiqlik, oshkoralik, erkinlik muhitini yaratyapmiz va bu yo'lni qat'iy davom ettiramiz, so'z va ijod erkinligini ta'minlash,

ommaviy axborot vositalarini har tomonlama rivojlantirish masalasi bundan buyon ham doimo e'tiborimiz markazida bo'ladi. Faqat axborot maydonida faoliyat ko'rsatayotgan jurnalist va blogerlardan iltimosimiz shuki, bu borada qabul qilingan qonun talablari hammaga birdek barobar ekanini esdan chiqarmaslik zarur.

Unutmaslik kerakki, ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda xolis axborotlarning o'z vaqtida berib borilishi ayrim kimsalar tarqatayotgan yolg'on ma'lumotlarning oldini oladi. Buning uchun vazirlik va idoralarda tashkil etilgan axborot xizmatlari faoliyatini yanada kuchaytirish lozim.

Shu o'rinda yana bir fikrni sizlar bilan o'rtoqlashmoqchiman. Bizning qanchadan qancha vatanparvar olimlarimiz, ijodkorlarimiz bor. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi ularning boshini qovushtirib, faoliyatini muvofiqlashtiradigan tuzilma bo'lishi kerak.

Hurmatli ziyolilarimiz mamlakatimizning bugungi nafasi, tub o'zgarishlarning mazmun-mohiyatini xolis va ta'sirchan tarzda xalqimizga yetkazishda yanada faol va tashabbuskor bo'ladilar, deb ishonaman.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Axborot texnologiyalari vazirligi bilan birgalikda Internet tarmog'ida "Ma'naviyat.uz" elektron portalini tashkil etib, unda ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy mavzulardagi materiallarni joylashtirib borsa, har jihatdan foydali bo'ladi.

E'tibor qaratish kerak bo'lgan yana bir muhim masala borki, u ham bo'lsa, ayrim telekanallarimizda namoyish etilayotgan ko'rsatuvlar, ko'ngilochar dastur va seriallarning ma'naviy-axloqiy saviyasi odamlarning haqli e'tirozlariga sabab bo'layotgani bilan bog'liq. Bunday telemahsulotlar yoshlarimizning ma'naviyatini yuksaltirish o'rniga tarbiyasini buzish, oilaviy qadriyatlarimiz va

axloqiy qarashlarimizni izdan chiqarishga sabab bo'lmoqda. Bu – achchiq haqiqat.

Shu o'rinda "Telekanallar qoshidagi badiiy kengashlar qayoqqa qarayapti?", "Ular qaysi mezonlar asosida ish ko'rayapti?" degan haqli savollar tug'iladi.

O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi, "O'zbekkino" milliy agentligi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Ma'naviyat va ma'rifat markazi birgalikda barcha telekanallar qoshidagi badiiy kengashlar faoliyatini tanqidiy tahlil qilib, ularning nizomini qayta ko'rib chiqishi va faoliyatini tubdan takomillashtirish choralari ko'rishi zarur.

So'zimning nihoyasida yana bir bor ta'kidlab aytmoqchiman: **agar kimki ma'naviyat masalasi – bu faqat Ma'naviyat markazi yoki tegishli vazirlik va idoralarning ishi, deb o'ylasa, katta xato qiladi. Bularning hammasi davlatimiz va jamiyatimizning, barcha rahbarlarimiz, bizning ishongan tog'imiz bo'lgan ilg'or ziyolilarimiz, barcha-barchamizning eng asosiy va muhim vazifamizdir.**

Bu haqiqatni hammamiz chuqur tushunib, o'z faoliyatimizni shu asosda olib borsak, men ishonaman, ma'naviy-ma'rifiy sohada o'z oldimizga qo'ygan vazifalarni, albatta, muvaffaqiyatli ado etamiz. Va bu natijalar boshqa sohalardagi yutuqlarimiz uchun ham, mamlakatimiz taraqqiyoti va xalq farovonligi uchun ham mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi ma'ruza

2021-yil 19-yanvar

INSON HUQUQ VA ERKINLIKLARINI TA'MINLASH – ISLOHOTLARIMIZNING BOSH MAQSADIDIR

Hurmatli rais Najot Shamim Xon xonimlari!

Hurmatli Oliy komissar Mishel Bachelet xonimlari!

Xonimlar va janoblar!

Bugun O'zbekiston Inson huquqlari bo'yicha kengash a'zosi sifatida ushbu uchrashuvda birinchi marta ishtirok etmoqda.

Biz so'nggi yillar davomida Kengashga a'zo bo'lish uchun butun mas'uliyatni anglagan holda intilib kelganimizni ta'kid-lamoqchiman.

Demokratik islohotlarimiz yangi O'zbekistonni bunyod etish-ga qaratilgan bo'lib, bu o'zgarishlar ortga qaytmaydigan tus oldi.

Biz Birlashgan Millatlar Tashkilotining **“Inson huquqlari yo'lida harakatga da'vat”** tashabbusini ilgari surish uchun Kengash a'zolari, barcha sheriklarimiz bilan yaqin hamkorlikni davom ettiramiz.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqur-lashtirish va Kengash doirasidagi faoliyatimizning ustuvor yo'na-lishlari quyidagilardan iborat.

Birinchidan, insonning asosiy huquq va erkinliklarini ta'minlash O'zbekistondagi islohotlarda eng muhim o'rinda tu-radi.

2030-yilgacha mo'ljallangan Barqaror rivojlanish maq-sadlari mamlakatimizda har bir insonning huquq va qonuniy

manfaatlarini ta'minlashni ko'zda tutadigan "hech kimni e'tibordan chetda qoldirmaslik" tamoyili asosida amalga oshiriladi.

Bu o'rinda so'z Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar boshqarmasi ekspertlarining faol ishtirokida ishlab chiqilgan Inson huquqlari bo'yicha milliy strategiyani amalga oshirish to'g'risida bormoqda.

Ikkinchidan, biz gender siyosati masalalari borasida mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida va ishbilarmonlik sohasida ayollarning rolini tubdan oshirishga qaratilgan ishlarni qat'iy davom ettiramiz.

Joriy yilda O'zbekistonda Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchi ayollarining muloqoti va xotin-qizlarning mintaqaviy biznes-forumini o'tkazishni rejalashtirmoqdamiz.

Uchinchidan, alohida ehtiyojga ega bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratiladi.

Yaqinda Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi yangi qonun kuchga kirdi. O'zbekiston Parlamenti Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyani ratifikatsiya qilishi kutilmoqda.

Biz imkoniyati cheklangan shaxslarning o'z qobiliyatini to'laro'yobga chiqarish masalalari bo'yicha Mintaqaviy kengash tuzishni taklif etamiz.

To'rtinchidan, aholimizning yarmidan ko'pini tashkil etadigan yoshlar huquqlarini himoya qilish doimo e'tiborimiz markazida bo'lib kelmoqda.

Joriy yil O'zbekistonda Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili, deb e'lon qilindi.

Bu borada biz:

– Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida Yoshlar huquqlari bo'yicha butunjahon konferensiyasini o'tkazish;

– BMT Iqtisodiy va ijtimoiy kengashining o‘ninchi forumida Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya loyihasini taqdim etish;

shuningdek, Yoshlar huquqlari bo‘yicha maxsus ma‘ruzachi institutini ta‘sis etish masalasini kiritishga tayyorgarlik ko‘rmoqdamiz.

Beshinchidan, biz Xalqaro mehnat tashkiloti va Jahon banki bilan hamkorlikda majburiy mehnat va bolalar mehnatiga barham berish bo‘yicha katta ishlarni amalga oshirdik. Bu islohotlarimizdagi eng asosiy yutuqlarimizdan biri bo‘ldi.

2021-yilda, ya‘ni Bolalar mehnatiga barham berish xalqaro yilida Bolalar Ombudsmani to‘g‘risidagi qonunni qabul qilamiz.

Oltinchidan, “Inson huquqlari sohasida ta‘lim” deklaratsiyasining 10 yilligiga bag‘ishlab biz Oliy komissar boshqarmasi bilan birgalikda global forum o‘tkazishni taklif etamiz.

O‘qitish tizimini rivojlantirish maqsadida BMTning inson huquqlari sohasidagi Ixtiyoriy badallar jamg‘armasiga o‘z hissamizni qo‘shmoqchimiz.

Yettinchidan, Bosh kotib Antoniu Guterrish Janobi Oliylarining fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar sonini kamaytirish bo‘yicha qat‘iy choralar ko‘rish to‘g‘risidagi taklifini qo‘llab-quvvatlaymiz.

Birgina o‘tgan yilning o‘zida 50 ming nafar vatandoshimiz O‘zbekiston fuqaroligiga qabul qilindi, bu yil yana 20 mingdan ziyod kishi fuqarolikka ega bo‘ladi.

Xonimlar va janoblar!

Biz erishgan natijalarimiz bilan kifoyalanib qolmasdan, bundan buyon ham fuqarolik jamiyati institutlarini yanada rivojlantirish, O‘zbekistonda so‘z erkinligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashni qat‘iy maqsad qilganmiz.

Shu asnoda nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida kodekslar ishlab chiqilmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining din yoki e'tiqod erkinligi, sudyalar va advokatlar mustaqilligi masalalari bo'yicha maxsus ma'ruzachilarining tavsiyalarini alohida e'tiborga olganmiz.

Inson huquqlari bo'yicha kengashga Sudyalar kengashlari faoliyatining universal prinsiplarini ishlab chiqish masalasini ko'rib chiqishni taklif etamiz.

Qiynoqlarning oldini olish bo'yicha milliy preventiv mexanizmni joriy etish doirasida biz odamning qadr-qimmatini yerga uradigan, insoniylikka zid bo'lgan qiynoqlarning har qanday ko'rinishiga bundan buyon ham mutlaqo yo'l qo'ymaymiz. Bunday jinoyatlar qachon sodir etilganidan qat'i nazar, ular uchun jazo muqarrardir.

Qiynoqlarga qarshi konvensiyaning Fakultativ protokolini ratifikatsiya qilamiz.

Mazkur masalalar yuzasidan hamkorlikda ishlash maqsadida Qiynoqlar masalasi bo'yicha maxsus ma'ruzachini O'zbekistonga taklif etishga tayyorgarlik ko'ryapmiz.

Hurmatli yig'ilish ishtirokchilari!

O'zbekiston inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlariga qat'iy sodiq qoladi.

Shu bilan birga, biz inson huquqlari borasida hali ulkan yo'lning boshida turganimizni yaxshi tushunamiz va xalqaro hamkorlarimizning qo'llab-quvvatlashiga umid qilamiz. Shu munosabat bilan Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar Mishel Bachelet xonimlarining yurtimizga tashrifini kutib qolamiz.

Bu borada mandatga ega bo'lgan barcha vakillarning O'zbekistonga tashrif buyurishlari uchun doimiy taklifnoma yuborish haqida qarorni qabul qilamiz.

Shuningdek, Osiyo qit'asining inson huquqlari bo'yicha mintaqaviy mexanizmini muntazam faoliyat ko'rsatadigan platforma – Samarqand forumi negizida yaratish borasida ko'mak berishga tayyormiz.

Hurmatli do'stlar!

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 75 yillik tarixi inson huquqlari universal qadriyat ekanini yaqqol isbotladi. Bu ustuvor tamoyilsiz yer yuzida tinchlik, xavfsizlik va barqaror taraqqiyotga erishib bo'lmaydi.

Nutqimning yakunida shuni yana bir bor ta'kidlab aytmoqchiman: O'zbekiston Inson huquqlari bo'yicha kengash a'zosi sifatida xalqaro huquqning inson huquqlariga oid unume'tirof etilgan prinsip va normalarini qat'iy himoya qiladi va faol ilgari suradi.

E'tiboringiz uchun rahmat.

*BMT Inson huquqlari bo'yicha
kengashining videoanjuman shaklida o'tgan
46-sessiyasidagi nutq*

2021-yil 22-fevral

KUCH VA IMKONIYATLARIMIZNI BIRLASHTIRISH HAMKORLIGIMIZ RIVOJIDA MUHIM OMIL

Muhtaram rais Rejep Tayyip Erdogan Janobi Oliylari!

Hurmatli Davlat va Hukumat Rahbarlari!

Hurmatli bosh kotib Sulaymonpur Janoblari!

Avvalambor, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti sammitining barcha ishtirokchilarini samimiy qutlashga ijozat bergaysiz.

Hurmatli Prezident Erdogan Janoblariga pandemiya sharoitiga qaramasdan, tashkilotga samarali raislik qilgani va anjumannni yuqori darajada tashkil etgani uchun chuqur minnatdorlik izhor etaman.

Pandemiya davrida COVID-19 kasalligiga qarshi kurashishda ko'rsatilgan salmoqli yordam uchun turk do'stlarimizga va shaxsan Erdogan Janoblariga o'z minnatdorligimni bildiraman.

Bugun raislik navbati Turkmanistonga o'tishi munosabati bilan hurmatli Prezident Gurbanguli Myalikgulyevich Berdimuhamedovni chin dildan tabriklayman.

Va albatta, yaxshi niyat qilamizki, navbatdagi sammitda, Ashxobod shahrida ko'rishish hammamizga nasib qilsin.

Hurmatli yig'ilish ishtirokchilari!

Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti hududi – bu tarixi, dini, madaniyati va qadriyatlari mushtarak, ulkan imkoniyatlarga ega bo'lgan umumiy mintaqadir.

Do'st davlatlarimizni azaldan o'zaro hurmat va ishonch muhiti, savdo va transport-kommunikatsiya aloqalari chambarchas bog'lab turadi.

Bugungi sammitimiz “COVID-19dan keyingi davrda mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik” mavzusida o‘tayotganida chuqur ma’no mujassam.

Chunki, global iqtisodiyotga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan pandemiya davlatlarimizni ham chetlab o‘tmadi.

Bu ofat kuchli va zaif tomonlarimizni, bir-birimizga naqadar bog‘liq ekanimizni, iqtisodiy sheriklikni yanada mustahkamlash zaruratini yaqqol ko‘rsatdi.

Dunyoda texnologiya va resurslar, sarmoyalar, tashqi bozorlarga chiqish uchun raqobat kuchayib borayotgan hozirgi kunda, kuch va salohiyatlarimizni birlashtirish, iqtisodiyotlarimizning to‘ldiruvchi omillaridan keng foydalanishimiz muhimdir.

Ammo shuni aytib o‘tish kerakki, Tashkilotimiz hududida mavjud savdo-iqtisodiy, moliyaviy, sarmoyaviy, transport-logistika va energetika imkoniyatlari to‘liq ishga solinmayapti.

Shu bois, “Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti – 2025” dasturining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha ko‘p tomonlama sheriklikni yanada kengaytirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surmoqchiman.

Birinchidan, iqtisodiy o‘shishning asosiy drayveri – hech shubhasiz, savdo va investitsiya aloqalarini kuchaytirishdir.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonning a‘zo davlatlar bilan umumiy savdo aylanmasi salkam ikki barobarga o‘tdi. O‘tgan yili murakkab vaziyatga qaramasdan, bu hajmlarni saqlab qolishga erishdik.

Biz, Tashkilotga a‘zo mamlakatlar tomonidan karantin davrida o‘rnatilgan savdo va transport cheklovlarini bartaraf etish vaqti keldi, deb hisoblaymiz.

O‘ylaymanki, raqamli texnologiyalar va elektron tijoratni keng joriy etish savdo aloqalarimizni sezilarli ravishda yengillashtiradi.

Shu ma’noda, Turkiya ilgari surayotgan Savdoga ko‘maklashish bo‘yicha bitimni kelishish va qabul qilishni tezlashtirish lozim, deb hisoblaymiz.

Ikkinchidan, “Bir-birini to‘ldiruvchi nuqtalarni topish” tamoyili asosida sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish xalqlarimizning umumiy farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Bu muhim rejani amalga oshirish uchun aniq yo‘nalish va loyihalarni qamrab olgan qo‘shma “Yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqishni maqsadga muvofiq, deb bilamiz.

Uchinchidan, a‘zo davlatlar o‘rtasida mablag‘lar, tovarlar va xizmatlar erkin aylanishini ta‘minlash, banklararo aloqalarni va moliyalashtirishni kengaytirish dolzarb masaladir.

Mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun yaqin istiqbolda mamlakatlarimiz banklari ishtirokida xalqaro Bank-moliya Forumini o‘tkazishni taklif qilamiz.

To‘rtinchidan, mintaqalarimizning transport yo‘laklarini kengaytirish va tranzit salohiyatini oshirish, o‘zaro iqtisodiy hamkorligimizni yanada jadallashtiradi.

Biz, O‘zbekiston – Turkmaniston – Eron – O‘mon, O‘zbekiston – Qirg‘iziston – Xitoy transport yo‘laklarini, shuningdek, Ozarbayjon orqali Turkiya va Yevropa davlatlariga chiqish yo‘llarini rivojlantirishdan manfaatdormiz.

Shu bilan birga, yangi taklif etilgan Mozori-Sharif – Qobul – Peshovar temir yo‘lining qurilishi Afg‘onistonni keng mintaqalarimizga integratsiya qilish va barqaror taraqqiyotni ta‘minlashda ulkan ahamiyat kasb etadi.

Beshinchidan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) bilan birgalikda, Tashkilotimizning Oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi yangi Dasturini ishlab chiqish va qabul qilish zarur, deb hisoblaymiz.

Shu munosabat bilan, joriy yilda Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a‘zo davlatlar qishloq xo‘jaligi vazirlarining navbatdagi yig‘ilishini biz O‘zbekistonda o‘tkazishga tayyormiz.

Oltinchidan, qayta tiklanadigan va muqobil energiya manbalariga boy mintaqamizda “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish imkoniyatlari nihoyatda kattadir.

Energetika barqarorligini ta'minlash, sohaga investitsiya va zamonaviy texnologiyalarni keng jalb etishga qaratilgan O'rta muddatli Strategiyani ishlab chiqish va tasdiqlashni taklif etaman.

Yettinchidan, ekologiya va global iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq muammolar oqibatlarini mintaqamizda, jumladan, Orolbo'yi hududida yaqqol sezayapmiz. Bu masalaga yechim topish bo'yicha barcha sa'y-harakatlarimizni o'zaro birlashtirish lozim.

Bu yo'lda ta'sirchan mintaqaviy hamkorlikning aniq mexanizmlarini joriy etishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Sakkizinchidan, Sog'liqni saqlash sohasidagi hamkorlikni yanada kuchaytirishimiz lozim.

Tashkilot doirasida epidemiologik vaziyatni monitoring qilish va tegishli chora-tadbirlarni oldindan rejalashtirish tizimini amaliyotga joriy etishni taklif qilamiz.

Hurmatli yig'ilish ishtirokchilari!

So'zimning yakunida yana bir bor alohida ta'kidlamoqchiman:

Hech shubhasiz, istiqbolda birgalikdagi sa'y-harakatlar orqali biz Tashkilot doirasidagi hamkorligimizni yangi va yuksak bosqichga ko'tarishga qodir bo'lamiz.

E'tiborlaringiz uchun rahmat.

*Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining
videoanjuman shaklida o'tgan 14-sammitidagi nutq*

2021-yil 4-mart

AYOL BAXTLI BO'LSA, OILA VA JAMIYAT HAM ALBATTA BAXTLI BO'LADI

Assalomu alaykum, muhtarama onaxonlar!

Hurmatli opa-singillar!

Munis va lohar qizlarim!

Avvalo, siz azizlarni, butun yurtimiz ayollarini 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Inson hayoti va jamiyat rivojida muqaddas Ona zoti, munis ayollarimizning beqiyos o'rmini oddiy so'zlar bilan ifoda etish nihoyatda qiyin vazifa.

Mana shunday qutlug' ayyom kunlarida siz, azizlarning sha'ningizga madhiyalar aytish uchun odam shoir bo'lib tug'ilmaganiga afsuslanib qoladi. Bu yorug' dunyoni quyoshsiz, yer-u osmonsiz tasavvur etib bo'lmaganidek, hayotimizni ham mo'tabar onalarimiz, mehribon ayollarimizdan ayri holda tasavvur etolmaymiz.

Sizlar biz uchun, avvalo, muqaddas ona, aziz Vatan, oila timsoli, bitmas-tuganmas mehr, ezgulik va kuch-g'ayrat manbaidirsiz. Bu azaliy haqiqatni murakkab pandemiya sharoitida, ayniqsa, chuqur his etmoqdamiz.

Sizlar – fidoyi shifokorlar, mehribon hamshiralar ko'rsatgan jasorat va matonat tufayli ming-minglab bemorlar shifo topib, hayot quvonchini yana his etdi.

Sizlarning ustoz sifatidagi faoliyatingiz evaziga millionlab farzandlarimiz ta'lim va tarbiyadan uzilib qolmadi.

Sizlarning barcha sohalardagi fidokorona mehnatingiz hisobidan mamlakatimizning qudrati va salohiyati, xalqaro obroʻ-eʼtibori tobora ortib bormoqda.

Bugun biz barcha sohalarda marrani juda katta olyapmiz, qancha-qancha ulkan dasturlar, reja va loyihalarni amalga oshiryapmiz. Ular, birinchi navbatda, onalarimiz, opa-singillarimiz, aziz farzandlarimizning hayot va mehnat sharoitini yaxshilashga qaratilgan.

Fursatdan foydalanib, barchamizga doimo togʻdek tayanch boʻlib, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha ulkan oʻzgarishlar jarayonida faol ishtirok etib kelayotganingiz uchun sizlarga, butun Oʻzbekiston xotin-qizlariga chuqur minnatdorchilik bildiraman.

Bugungi davramizda ishtirok etayotgan diplomat ayollar – xorijiy davlatlarning hurmatli elchilari va xalqaro tashkilotlar vakillarini ham chin dildan qutlab, mamlakatimiz bilan samarali hamkorlik qilib kelayotganlari uchun ularga samimiy tashakkurimni izhor etaman.

Qadrli doʻstlar!

Bugungi kunda aziz-u mukarram ayollarimizning barcha soha va tarmoqlardagi oʻmi va taʼsiri yanada ortib bormoqda. Buning tasdigʻini respublikamizda mehnat bilan band aholining 45 foizini xotin-qizlar tashkil etayotganida ham yaqqol koʻrish mumkin.

Ayollarimiz orasida taniqli davlat va jamoat arboblari, jumladan, oʻnlab senator va deputatlar, vazir va hokimlar, Oʻzbekiston Qahramonlari, akademiklar, professorlar, Oʻzbekiston xalq shoirlari, Xalq oʻqituvchilari, Xalq artistlari, nodavlat tashkilotlarning faol vakillari borligi barchamizni quvontiradi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimiz boshqaruv tizimida ayollarning ulushi 33 foizga yetdi. Yurtimiz boʻyicha bir yarim mingga yaqin xotin-qizlar turli darajadagi rahbarlik lavozimlarida ishlamoqda.

Xususan, tashkilotchi va tashabbuskor opa-singillarimiz 6 ta tumanda hokim vazifasida, yuzlab hududlarimizda o‘rinbosar va maslahatchi lavozimlarida samarali faoliyat ko‘rsatmoqda. Yirik korxonalar, banklar va kompaniyalar, tadbirkorlik subyektlarini boshqarmoqda.

Ana shunday katta salohiyatni yanada oshirish, davlat va jamiyat boshqaruvida ularning ishtirokini kuchaytirish maqsadida 6 mingdan ziyod faol xotin-qizlardan iborat kadrlar zaxirasi shakllantirildi.

Bunday zamonaviy bilim va iste’dodga, yetakchilik qobiliyatiga ega, el-yurtimiz uchun fidoyi xotin-qizlarimiz – xalqimiz, millatimizning oltin fondi, desak, hech qanday mubolag‘a bo‘lmaydi.

Aziz va qadrlı opa-singillar!

So‘nggi yillarda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta‘minlash, oila institutini har tomonlama mustahkamlash bo‘yicha salmoqli ishlar olib borilmoqda. Bu boradagi davlat siyosatini samarali amalga oshirish maqsadida eng quyi bo‘g‘in – mahalla va xonadongacha kirib boradigan vertikal tizim yaratilayotganini alohida ta‘kidlash lozim.

Xabaringiz bor, 26-fevral kuni bo‘lib o‘tgan videoselektorda ana shu tizim asosida amalga oshirilgan ishlar va oldimizda turgan rejalarni atroflicha muhokama qilgan edik. Ana shu muhim vazifalarni amalga oshirishda siz, hurmatli opa-singillarimiz bundan buyon ham faol ishtirok etasizlar, deb ishonaman.

Keyingi vaqtda O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi, Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi rahbariyati boshchiligida respublika ishchi guruhi tuzilib, barcha hududlarda ayollarni qiynayotgan muammolar aniqlandi. Ushbu muammolar bo‘yicha manzilli ish olib borish uchun mutlaqo yangi tizim – “ayollar daftari”ni joriy etdik.

Keyingi 3 oyda respublika komissiyasi tomonidan ushbu "daftar"ga kiritilgan 80 ming nafar xotin-qizning muammolari hal etildi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj, turmush sharoiti og'ir ayollarning 32 ming nafari ish bilan ta'minlandi. Inqirozga qarshi kurash jamg'armasi mablag'lari hisobidan salkam 17 ming nafar xotin-qizga amaliy yordamlar ko'rsatildi.

Birgina "Har bir oila – tadbirkor" dasturi doirasida 126 mingga yaqin ayollarga imtiyozli kreditlar berildi. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qariyb 215 ming oilaga 6 trillion so'mdan ziyod kredit mablag'lari ajratildi. Qariyb 55 ming nafar xotin-qizlar tadbirkorlik va kasb-hunar markazlari tomonidan o'qitildi, hunarmandchilik va kasanachilikka jalb etildi.

"Besh muhim tashabbus" doirasida chekka hududlarda tikuvchilik sexlari tashkil etilib, 10 ming nafar ayollar bandligi ta'minlandi.

Uy-joy sotib olish uchun 1 ming 250 nafar opa-singillarimizga qariyb 22 milliard so'mlik boshlang'ich badallar to'lab berildi.

Bunday xayrli ishlar joriy yilda ham davom ettiriladi. Men bu borada kuni kecha yangi qarorni imzoladim. Unga ko'ra, jamiyatda ayollarimizga bo'lgan e'tiborni eng quyi bo'g'in – mahal-lagacha yetkazib, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashning yangi tizimi yaratilmoqda.

Bundan buyon O'zbekistonda bironta ham ayol davlat va jamiyatning e'tiboridan chetda qolmaydi.

Shuningdek, joriy yilda turmush sharoiti og'ir bo'lgan ayollar hamda yolg'iz onasi qaramog'ida o'sgan qizlarni uy-joy bilan ta'minlash maqsadida budjetdan 210 milliard so'm mablag' ajratiladi.

Boshpanasi bo'lmagan ayollarni ijara asosida "ijtimoiy uy-joylar" bilan ta'minlash uchun yana 211 milliard so'm yo'naltiramiz. Bundan tashqari, boquvchisini yo'qotgan hamda

o'zgaralar parvarishiga ehtiyojmand bo'lgan xotin-qizlarga moddiy yordam berish va malakali tibbiy yordamga muhtoj ayollarni davolash uchun qo'shimcha ravishda 110 milliard so'm beriladi.

Shu bilan birga, ayollar bandligini ta'minlash, ularni kasbhunarga o'qitish, tadbirkorlik sohasidagi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash uchun budjetdan qo'shimcha ravishda 600 milliard so'm ajratiladi.

Yana bir muhim masala. Keyingi paytda unib-o'sib kelayotgan farzandlarimiz tarbiyasiga, umuman, oila institutiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan oilaviy ajrimlarning oldini olish bo'yicha samarali ish olib borilmoqda. Buni mahalla faollari va jamoatchilikning sa'y-harakatlari bilan ajralish yoqasiga kelib qolgan 23 mingga yaqin oila yarastirilgani, ajrimlar soni 3 mingdan ziyodga kamaygani ham ko'rsatib turibdi. Lekin bir achchiq haqiqatni tan olishimiz kerak: bu raqamlar hamon yuqori bo'lib qolmoqda. O'tgan yili 28 mingdan ziyod oila ajralib ketgani ham fikrimizni tasdiqlaydi.

Albatta, barchamizning istagimiz, tilagimiz bitta: qani edi, yurtimizda ajrim degan noxush holatning o'zi bo'lmasa, oilalar parokanda, bolalar tirik yetim bo'lib, sarson-sargardon bo'lmasa.

Men bir fikrni qayta-qayta aytishdan charchamayman.

Oila – bu mehr va baxt qo'rg'oni. Oila bor ekan, farzand degan bebaho ne'mat bor, insoniy qadr-qimmat va ma'naviyat bor. Oilaviy baxt – bu eng ulug' saodatdir. Mashhur qo'shiqlardan birida aytilganidek, "Uyida baxti borlar – bu har yerda baxtiyordir".

Men aziz yigit-qizlarimizga murojaat qilib aytmoqchiman: turmush qurishga, oilaga, farzand taqdiriga nihoyatda chuqur mas'uliyat bilan qarang. Bu masalaga yuzaki yondashib, ham o'zingiz, ham o'zga bir inson hayotini xavf ostiga qo'ymang.

Men bu borada ko'pni ko'rgan mahalla faollari, muhtaram faxriylarimiz, kayvonilar, ma'naviyatimiz va dinimiz fidoyilari, o'z tengdoshlariga ibrat bo'lib kelayotgan yoshlarimiz bir yoqadan bosh chiqarib harakat qiladilar, deb ishonaman.

Muhtaram yurtdoshlar!

Sizlarga ma'lumki, yaqinda Birlashgan Millatlar Tashkiloti-ning yuksak minbaridan turib, ijtimoiy-siyosiy hayotda va tadbirkorlik sohasida ayollarning rolini tubdan oshirishga qaratilgan ishlarni qat'iy davom ettirishimizni ta'kidladim.

Bu yo'ldagi muhim qadamlarimizdan biri sifatida shu yil yurtimizda Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchi ayollarining muloqoti va xotin-qizlarning mintaqaviy biznes forumini o'tkazamiz.

Bu boradagi ishlarimizni jadallashtirish uchun "2020–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi"ni qabul qilib, uni amalga oshirishga kirishmog'imiz lozim.

Qizlarimiz tarbiyasi, ularni mustaqil hayotga tayyorlash, zamonaviy bilim va hunarlarni egallashi, ish joyiga ega bo'lishi, jamiyatda munosib o'rmini topishiga alohida ahamiyat berishimiz zarur.

"Ayollar daftari" bo'yicha "mahallabay", "xonadonbay" ishlash usuli orqali har bir mahalla va xonadon kesimida ularning muammolarini ijobiy hal etishimiz shart.

Barchangizga yaxshi ayonki, joylarda yangi-yangi "IT-park"lar tashkil etyapmiz. Bu orqali mehnat bozorida "aqlli texnologiyalar", innovatsiyalar asosida amalga oshiriladigan yangi xizmat turlari ko'payib bormoqda.

Bu joylarda kim ishlaydi? Bu bozorni kim egallaydi? Albatta, o'zimizning bolalarimiz, qizlarimiz egallashi kerak.

Ayniqsa, kitobxonlik, adabiyot, san'at va sportga mehr yoshlarimiz hayotining ajralmas qismiga aylanishi lozim. Xabaringiz bor, keyingi paytda jamiyatimiz hayotida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni kuchaytirish bo'yicha yangi qaror va dasturlar qabul qildik. Ularni to'liq amalga oshirishda biz, birinchi navbatda, siz, hurmatli xotin-qizlarimizning faolligingiz, yuksak intellektual salohiyatingiz, bilim va tajribangizga tayanamiz.

Qadrli vatandoshlar!

Har yili ushbu qutlug' sana arafasida o'qishda, ishda, jamoat ishlarida, o'zining iste'dod va qobiliyatini namoyon etishda dastlabki yutuqlarga erishgan iqtidorli qizlarimizni Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlash mamlakatimizda ezgu bir an'anaga aylanib qoldi.

Bugun ana shunday qizlarimiz qatoriga yana 28 nafar iqtidorli yoshlarimiz qo'shilmogda. Ular kelgusida xuddi Zulfiya opamiz singari o'qishda, mehnatda, shaxsiy hayotda, o'z iste'dodi, bilim va qobiliyatini Vatanimiz ravnaqi yo'lida safarbar etishda barcha yoshlarimizga o'rnak bo'ladilar, deb ishonaman.

Ayni vaqtda bugungi bayram arafasida ko'p yillar davomida o'z sohasida katta natijalarga erishgan, davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etib kelayotgan opa-singillarimizdan 297 nafari "Mo'tabar ayol" nishoni bilan taqdirlandi.

Kuni kecha qabul qilingan Farmonga muvofiq, oila va jamiyatni mustahkamlash, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi munosib xizmatlari uchun hurmatli ayollarimizdan katta bir guruhi yuksak davlat mukofotlariga sazovor bo'ldilar.

Kelinglar, ularning barchasini samimiy olqishlab, chin dildan tabriklaylik!

Bugungi fayzli, unutilmas kunda Sizlar bilan birga opa-singillarimizning munosib vakillariga hamda Zulfiya nomidagi Davlat

mukofoti bilan taqdirlangan qizlarimizga ana shu faxriy unvon, orden va medallarni topshirish men uchun katta faxr va sharafdir.

Hurmatli do'stlar!

Biz yurtimizdagi har bir ayol timsolida, avvalo, buyuk zot – Ona siymosini ko'ramiz. Shu bois **“Avvalo, onangizga va yana bir bor onangizga yaxshilik qiling”**, degan muborak hadisga amal qilib, mo'tabar onalarimiz, qadrli opa-singillarimiz, dilbar qizlarimizga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatishni insoniy burchimiz, deb bilamiz. Hazrat Mir Alisher Navoiy bobomiz aytganlaridek, Sizlarning oldingizdagi **bu qarzimiz haqqini ming xazina bilan ham ado etib bo'lmaydi.**

Biz yaxshi tushunamiz – xotin-qizlarning huquq va manfaatlari ta'minlangan jamiyatda, albatta, tinchlik, adolat, erkinlik va farovonlik bo'ladi. Ayol baxtli bo'lsa, oila va jamiyat ham, albatta, baxtli bo'ladi.

Barchamiz – Prezidentdan boshlab eng quyi bo'g'indagi rahbar va mutasaddilar, ana shu muhim mezonga amal qilib ishlayshimiz zarur. Shundagina xalqimiz ham, Yaratgan ham bizdan rozi bo'ladi.

Aziz va muhtarama opa-singillar!

Sizlarni 8-mart bayrami bilan yana bir bor chin qalbimdan qutlab, barchangizga sihat-salomatlik, oilalaringizga tinchlik-xotirjamlik, fayz-u baraka tilayman.

Doimo yaqinlaringiz, farzand va nabiralaringiz, el-yurtimiz ardog'ida bo'lib yurish nasib etsin!

Umringiz uzoq, baxtingiz ziyoda bo'lsin!

Go'zal bayramingiz muborak bo'lsin!

Barchangizga katta rahmat.

8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutq

2021-yil 6-mart

NAVRO‘Z UMUMXALQ BAYRAMIGA BAG‘ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI TABRIK SO‘ZI

Assalomu alaykum, muhtaram vatandoshlar!

Qadrli do‘stlar!

Siz, azizlarni, sizlar orqali ko‘p millatli xalqimizni sharqona yangi yil – Navro‘z bayrami bilan chin qalbimdan samimiy tabriklayman.

Nuroniylar otaxon va onaxonlarimizga, hurmatli aka-uka, munis opa-singillarimizga, navqiron yoshlarimiz, suyuqli farzandlarimizga, xorijdagi vatandoshlarimizga – butun el-yurtimizga o‘zimning yuksak hurmat-ehtiromim va eng ezgu tilaklarimni izhor etaman.

Hammamiz orziqib va sog‘inib kutadigan yangilanish va yasharish ayyomi – Navro‘zi olam barchamizga muborak bo‘lsin!

Buyuk Alisher Navoiy bobomiz aytganlaridek, har kunimiz Navro‘z bo‘lsin!

Hurmatli yurtdoshlar!

O‘tgan yili pandemiya tufayli Navro‘z bayramini har doimgidek katta tantana qilib, keng nishonlay olmagan edik. O‘shanda, bu tashvishli kunlar, albatta, ortda qoladi, hali ko‘p to‘y-tomosha va sayillarni xalqimiz bilan birgalikda o‘tkazamiz, deb ezgu niyat qilgan edik.

Bugun ana shu orzu va intilishlarimiz ro‘yobga chiqmoqda. Go‘zal va jonajon yurtimizda yana shodiyonalar, yana quvonchli kunlar boshlanmoqda.

Albatta, barchamiz yaxshi tushunamizki, butun dunyoda koronavirus balosi hali to'la bartaraf etilgani yo'q. Afsuski, u biz bilan birga, yonimizda yashamoqda.

Xalqimiz sog'lig'ini asrash yo'lida qanday sa'y-harakatlar va katta amaliy ishlar qilganimiz barchangizga yaxshi ma'lum. Endi shuncha mehnatimiz, ko'rgan chora-tadbirlarimiz bekorga ketmasligi uchun pandemiyaga qarshi kurashni bir lahza ham to'xtatmasligimiz lozim. O'zimiz va yaqinlarimizni himoya qilishimiz, beparvolik va beg'amlikka berilmasligimiz shart. Doimo hushyor va mas'uliyatli bo'lib yashashimiz, to'plagan tajribamizga tayanib, albatta, ehtiyotkorlik bilan tizimli ish olib borishimiz zarur.

Shundagina mehnatkash xalqimiz bilan ezgu maqsadlarimiz va katta rejalarimizni yangi kuch, yangi g'ayrat bilan davom ettira olamiz.

Bugun sizlarning nurli chehrangizni ko'rib, xalqimiz ham xuddi go'zal bahor faslidek kuch va qudratga to'lib borayotganiga yana bir bor amin bo'ldim.

Ko'klam nafasi yurtimiz uzra kezayotgan mana shunday tarovatli kunlarga sog'-omon yetkazgani uchun Yaratganga cheksiz shukronalar aytish biz uchun ham qarz, ham farzdir.

Aziz vatandoshlar!

Pandemiya boshlangan birinchi kunlarda men xalqimizga murojaat qilib, bu sinovdan yanada kuchli va qudratli bo'lib chiqamiz, deb ishonch bildirgan edim.

Chindan ham, bizning kuchimiz – birlik va ahillikda; bizning qudratimiz – mehr-oqibat, o'zaro ko'mak va saxovatda; bizning yutug'imiz ertangi kunga bo'lgan yuksak ishonchimizda.

Bu adolatli haqiqatni boshimizdan kechirgan sinovli kunlar yana bir bor isbotladi.

Mana shu mashaqqatli davr bizning bir-birimizga naqadar bog'liq va kerak ekanimizni yaqqol ko'rsatdi. Shuningdek, bir-birimizni asrab-avaylab, qadrlab yashashimiz hayotiy zarurat ekanini to'la namoyon etdi. Biz faqat birgalikda, hamjihatlikda buyuk ishlarga qodir ekanimizni pandemiya sinovlari yana bir karra tasdiqlab berdi, desam, sizlar ham bu fikrga qo'shilasizlar.

Albatta, koronavirus tufayli dunyoda ko'p narsa o'zgarmoqda. Lekin xalqimizning ona tabiatga, muqaddas zaminga muhabbati, azaliy qadriyatlarga ehtirom va sadoqati aslo o'zgargani yo'q. Aksincha, bunday oliyjanob xislatlarimiz yanada ziyoda bo'lmoqda, sayqal topmoqda.

Shu bois ham azaldan bahoriy uyg'onish va nafosat timsoli bo'lgan Navro'zi olam biz uchun tobora ardoqli bo'lib bormoqda.

Bu yilgi Navro'zning yana bir muhim jihati shundaki, u jonajon Vatanimiz mustaqilligining qutlug' 30 yillik bayrami tadbirlari o'tadigan yilga to'g'ri kelmoqda.

Navro'z – chinakam xalq bayrami, milliy o'zligimiz ko'zgusi, ma'naviy va madaniy hayotimizning ajralmas qismidir.

Ming yillar oldin ota-bobolarimiz bu ulug' ayyomni qanday pok niyat va yorug' umidlar bilan kutib olgan bo'lsalar, bugun ham xalqimiz mana shunday baland kayfiyat bilan Navro'zga peshvoz chiqmoqda.

Yam-yashil dalalar va gullagan bog'larda, maydon va xiyobonlarda, qishloq va ovullarda, mahalla va ko'chalarda Navro'zning dilbar taronalari – Yangi kun navolari yangramoqda. Qir-adirlarda mard o'g'lonlarimiz ko'pkari chopib, kurash tushmoqda. Keksa-yu yosh yurtdoshlarimiz sumalak to'la qozonlar atrofida o'yin-kulgilar qilib, bahor ne'matlari va bayram quvonchini o'zaro baham ko'rmoqdalar.

Shunday shukuhli va betakror damlarda barchamiz tinch va osoyishta hayot hamda xotirjamlik qadrini yanada teranroq his etmoqdamiz.

Bugungi murodbaxsh va fayzli kunlarda mirishkor dehqon va fermerlarimiz ulkan niyat va rejalar bilan qadrdon dalasi sari yo'l olmoqda.

Fursatdan foydalanib, azm-u shijoatli bobodehqonlarimizni yangi mehnat mavsumi bilan samimiy qutlaymiz. Ushbu qutlug' bayram kunlarida joriy yilda ham dalalarda hosillarimiz mo'l va barakali, rizq-u nasibamiz yanada ziyoda bo'lsin, deb barchamiz duolar qilamiz.

Hurmatli bayram ishtirokchilari!

Navro'zning o'lmas ruhi va boqiy falsafasi biz bugun bunyod etayotgan yangi O'zbekiston g'oyasi bilan g'oyat uyg'un va hamohangdir.

Butun olam, yer-u ko'k uyg'onayotgan bu ajib faslda yurtimizdagi yangi Uyg'onish davri – Uchinchi Renessans orzusi qalblarimizga beqiyos kuch va ishonch olib kirmoqda.

Xalqimizning fidokorona mehnati, qat'iy siyosiy irodamiz bilan biz keng ko'lamlı islohotlarimizni bundan keyin ham jadal davom ettiramiz. Qanchalik qiyin bo'lmasin, el-yurtimiz manfaatini, jondan aziz farzandlarimiz kelajagini ta'minlashga xizmat qiladigan, tanlagan to'g'ri yo'limizdan hech qachon ortga qaytmaymiz.

Ayni shu maqsadda mamlakatimizda o'nlab zamonaviy korxonalar, sanoat hududlari va klasterlar, "IT-park" va texnoparklar, transport-kommunikatsiya tarmoqlari, shinam uyjoylar, ko'rkam bog'cha va maktablar, oliy o'quv yurtlari, tibbiyot, madaniyat va sport maskanlari barpo etilmoqda. Shahar va qishloqlarimiz qiyofasi tobora chiroy ochib, jonajon diyorumiz yanada obod va go'zal bo'lib bormoqda.

Zero, Navro'zi olamning mazmun-mohiyatida insonni ulug'lash, uning qadri, izzat-hurmatini joyiga qo'yish kabi ezgu fazilatlar mujassamdir.

Yurtimizda aholining barcha qatlamlari, birinchi navbatda, xotin-qizlar va yoshlarning muammolarini hal etish, ularni bilim va kasb-hunarga o'rgatish, ish o'rinlari, daromad manbai, turar joylar bilan ta'minlashga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy yordam va ko'makka muhtoj, ko'ngli yarim insonlarga chinakam e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish doimiy faoliyatimiz mezoniga aylanmoqda.

Bu boradagi ishlarimiz "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da mazmun va sifat jihatidan mutlaqo yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

Mana shunday amaliy harakatlarimiz kelgusida yanada kengayib, **"Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik!"** degan oliyjanob maqsadimizga, albatta, yetamiz.

Hurmatli do'stlar!

Navro'z – inson va tabiatni asrab-avaylashga, tinchlik, do'st-u birodarlik va hamkorlik kabi umumbashariy qadriyatlarni e'zozlashga chorlaydigan ulug' bayramdir.

Ushbu qutlug' ayyomda turli nizo va adovatlar, gina-arazlar unutiladi, xalqlar o'rtasidagi o'zaro hurmat va ahillik tamoyillari yanada kuchayadi.

Ana shunday beqiyos fazilatlari tufayli Navro'z nafaqat mam-lakatimiz, balki butun Sharq olamida zamonlar osha bezavol yashab kelmoqda. Shuning uchun ham Navro'z yurtimizda istiqomat qilayotgan 130 dan ziyod millat va elat vakillarini bir oiladek birlashtiradigan go'zal bayramga aylandi.

Sizlarga ma'lumki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 21-mart – Xalqaro Navro'z kuni deb e'lon qilinib, u UNESCO-ning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan.

Ushbu sananing jahon miqyosida keng nishonlanishi uning xalqaro nufuzi va ahamiyati tobora yuksalib borayotganidan dalolat beradi.

Mana shu nurafshon ayyomda uzoq-yaqin barcha davlatlarning xalqlariga, xorijiy do'st va hamkorlarimizga ezgu tabrik va salomlarimizni yo'llab, ularga tinchlik va ravnaq tilaymiz.

Qadrli otaxon va onaxonlar!

Muhtarama opa-singillar!

Hurmatli aka-ukalar!

Aziz farzandlarim – navqiron yoshlarimiz!

Qadimiy va go'zal bayramimiz – Navro'zi olam bilan barchangizni yana bir bor chin dildan tabriklayman.

Sharqona Yangi yilimiz har bir xonadonga, jonajon O'zbekistonimizga tinchlik-xotirjamlik, sog'lik-omonlik, baxt-u saodat hamda fayz-u baraka olib kelsin!

Ilohim, jamiki ulug'vor maqsadlarimiz, yaxshi niyat va ulkan rejalarimiz ro'yobga chiqsin!

Vatanimiz yanada obod, xalqimiz hayoti hamisha farovon bo'lsin!

Azizlarim, Navro'zi olam barchamizga, butun xalqimizga qutlug' va muborak bo'lsin!

2021-yil 21-mart

O'ZBEKISTON MAHALLA TIZIMI XODIMLARI VA FAOLLARIGA

Qadrli vatandoshlar!

Hurmatli mahalla tizimi xodimlari va faollari!

Avvalo, siz azizlarni, sizlarning timsolingizda butun xalqimizni Mahalla tizimi xodimlari kuni bilan chin qalbidan tabriklab, barchangizga o'zimning yuksak hurmatim va samimiy tilaklarimni bildiraman.

Mamlakatimizda ilk bor nishonlanayotgan ushbu bayram yasharish va yangilanish, mehr-oqibat ayyomi – Navro'z tantanalari davom etayotgan mana shunday shukuhli kunda o'tkazilayotganida o'ziga xos ramziy ma'no bor.

Mahalla – asrlar osha milliy urf-odat va an'analarimizni bezavol saqlab, xalqimiz uchun ezgulik va tarbiya beshigi, yaxshi qo'shnichilik va hamjihatlik maskani bo'lib kelmoqda.

Biz mahalla deganda, dunyoda kamdan kam uchraydigan, insonni jamiyat bilan uyg'un bo'lib yashashga o'rgatib, bag'rikenglik ruhida tarbiyalaydigan, xalq bilan davlat o'rtasidagi ishonchli ko'priklar vazifasini bajaradigan noyob tuzilmani tushunamiz.

Ayni paytda, yurtimizda yashayotgan har bir inson, millati, tili va dinidan qat'i nazar, o'z hayotini, quvonch-u tashvishlarini mahalladan ayri holda tasavvur eta olmaydi.

Shu bois, biz keyingi to'rt yilda mahalla institutiga milliy davlatchiligimizning asosiy quyi bo'g'ini sifatida qarab, uning jamiyat boshqaruvidagi o'rni va rolini oshirishga qara-

tilgan keng ko'lamli va puxta o'ylangan islohotlarni amalga oshirayotganimizdan barchangiz yaxshi xabardorsiz.

Bu davrda soha rivojiga doir 50 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingani, har bir hududda "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyiliga asoslangan yangi tizim joriy etilganini alohida qayd etish lozim.

Yurtimizda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish, muhtaram nuroniylarimizning ijtimoiy faolligini oshirish, fuqarolar yig'inlarining jamiyatdagi mavqeyi va ta'sirini kuchaytirishga ko'maklashish maqsadida Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi tashkil etildi.

Fuqarolar yig'inlari raislarining huquq-tartibot, oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma'naviy hamda obodonlashtirish, tomorqa va tadbirkorlik masalalari bo'yicha o'rinbosarlari lavozimi joriy qilindi. Soha xodimlarining mehnatini rag'batlantirish maqsadida ularning oylik maoshlari 3 baravarga oshirildi, mahalliy o'zini o'zi boshqarish idoralari faollari hamda keng jamoatchilik vakillari uchun "Mahalla iftixori" ko'krak nishoni ta'sis etildi.

Fuqarolar yig'inlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida 1 ming 163 ta mahalla idorasi yangidan qurildi, 3 ming 612 tasi rekonstruksiya qilindi va ta'mirlandi. 110 ta tuman va shaharda "Mahalla markazi" majmualari barpo etildi, 4 ming 319 ta mahalla binolarida kutubxonalar tashkil qilindi.

Soha xodimlarining jamiyatimizda ma'naviy muhit barqarorligini, millatlararo do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlash, yoshlarni ona Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, aholini ijtimoiy himoya qilish borasidagi fidokorona xizmatlarini el-yurtimiz yaxshi biladi va yuksak qadrlaydi.

Ayniqsa, mahalla faollarining pandemiya davrida ko'rsatgan chinakam jonbozliklari, xususan, sinovli kunlarda odamlar holi-

dan xabar olish, kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash, muhtojlarga mehr-muruvvat ko'rsatish, aholi bandligini ta'minlash singari g'oyat muhim va dolzarb masalalarda davlatimizga mustahkam tayanch bo'lib maydonga chiqqanini minnatdorlik bilan ta'kidlaymiz.

Jumladan, bu davrda mahalla faollari tomonidan 700 mingga yaqin fuqaroning bandligini ta'minlash, 60 mingdan ziyod yurtdoshlarimizni tadbirkorlik va hunarmandchilikka jalb etish, imkoniyati cheklangan 754 mingdan ziyod oilalarning tomorqalaridan samarali foydalanishga amaliy yordam ko'rsatilganini alohida e'tirof etish zarur.

Mahallalarda hashar yo'li bilan 164 mingdan ortiq ehtiyojmand oilalarning xonadonlari ta'mirlanib, 1000 ga yaqin kambag'al oilalarga uy-joylar qurib berilgani, 10 ming kilometr ga yaqin ichki yo'llar va 644 ta ko'priklar ta'mirlangani, 339 ta ko'priklar yangidan qurilgani, qariyb 2 ming kilometr uzunlikda ichimlik suvi tortilgani va 1 ming 300 ga yaqin nasoslar o'rnatilganida sizlarning katta hissangiz bor.

Jamiyatda sog'lom ma'naviy muhit asoslarini mustahkamlash maqsadida o'tgan yili mahalla faollari ko'magida ajralish yoqasiga kelib qolgan 21 mingga yaqin oila yarashtirilgani, 16 mingdan ziyod oilaning notinchligiga barham berilgani, 5 mingga yaqin mahallada jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilmagani, namunali mahallalar soni 1 ming 704 taga yetgani, albatta, tahsinga loyiqdir.

Aziz do'stlar!

Bugungi keskin va shiddatli globallashuv davrida yurtimizda o'zaro ahillik va totuvlik, mehr-oqibat va bag'rikenglik tamoyillarini, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylashda mahallalarning o'rni va nufuzi tobora ortib bormoqda.

Ayni paytda ushbu tizimning nufuzi va faoliyati samarasini kuchaytirish, uni fuqarolar o'z fikri va dardini, taklif-tavsiya-

larini erkin aytadigan, muammosiga yechim topadigan chinakam xalqchil idoraga aylantirish har qachongidan dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Xalqimizda: “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona” degan gap bejiz aytilmagan. Farzandlarimizning ma’naviy barkamol insonlar bo‘lib voyaga yetishi, yosh oilalarning mustahkam oyoqqa turib olishida ushbu tuzilmaning rolini yanada oshirish, “Har bir nuroniy – besh nafar yoshga murabbiy” tamoyili asosida boshlangan ezgu ishlarimizni izchil davom ettirish bugungi kun talabidir.

Mahalla raisi faol islohotchi sifatida, avvalo, zamon bilan hamqadam bo‘lishi, o‘z bilim va malakasini doimiy oshirib borish haqida o‘ylashi, “Obod mahalla”, “Obod ko‘cha”, “Obod xonadon” mezonlarini hayotga tatbiq etish, turli ijtimoiy muammolarni hal qilish, ishsizlik va kambag‘allikni qisqartirish, mahallalarni tadbirkorlik markazlariga aylantirish choralari ko‘rishi darkor.

Xalqimizni hayotdan rozi qilishdek ulug‘vor maqsadga erishish yo‘lida biz islohotlarni “mahallabay” asosda amalga oshirish, barcha qishloq va mahallalarimizni jadal rivojlantirishga birinchi darajali e’tibor qaratmoqdamiz.

Ayni vaqtda aholining ehtiyojmand qatlami bilan manzilli ish olib borish, “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yurtdoshlarimiz muammolarini “xonadonbay” hal etishda, hech shubhasiz, mahalla organlari muhim o‘rin tutadi.

“Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” degan muhim tamoyilni amalga oshirishda biz, avvalo, mahalla tizimiga, mahalla faollari va fidoyilarining ulkan salohiyatiga tayanamiz.

Biz mahalla institutini har tomonlama rivojlantirish, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, soha xodimlarini

ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga bundan buyon ham bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.

Shu borada bir fikrni ta'kidlab aytmoqchiman:

Mahalla obod bo'lsa – yurt obod bo'ladi. Mahallada o'zgarish bo'lsa – butun jamiyat o'zgaradi.

Hurmatli mahalla tizimi xodimlari!

Muhtaram faxriylarimiz!

Xalq ishonchini oqlash, unga munosib bo'lish – dunyodagi eng ulug' baxtdir. Shunday baxt, shunday sharaf hammangizga nasib etsin!

Sizlarni bugungi qutlug' bayram bilan yana bir bor muborakbod etar ekanman, barchangizga mustahkam sog'liq, xonadonlaringizga fayz-u baraka, mas'uliyatli va serqirra faoliyatingizda yangi yutuq va omadlar tilayman.

2021-yil 22-mart

O‘ZBEKISTON TEATR SAN‘ATI XODIMLARIGA

Qadrli do‘stlar!

Madaniyat va san‘at sohasining fidoyilari!

Avvalo, siz, azizlarni, sizlar orqali millionlab san‘at muxlislarini 27-mart – Xalqaro teatr kuni bilan chin qalbidan samimiy muborakbod etib, barchangizga o‘zimning chuqur hurmatim va ezgu tilaklarimni bildirishdan g‘oyat mamnunman.

Hammamizga yaxshi ma‘lumki, inson va jamiyat hayotida, xalqning ma‘naviy dunyosini, ong-u tafakkurini yuksaltirishda teatr san‘atining o‘mi va ahamiyati beqiyosdir.

Buyuk ma‘rifatparvar bobomiz Mahmudxo‘ja Behbudiy aytganlaridek, teatr haqiqatan ham ibratxona, qutlug‘ tarbiya va ma‘rifat maskanidir.

Jahondagi eng ommaviy va ta‘sirchan san‘at turlaridan biri bo‘lgan teatr asrlar davomida odamlarni insoniylik va ezgulikka chorlab, ularning qalbida oliyjanob fazilatlar, go‘zal his-tuyg‘ularni kamol toptirishga, jamiyat hayotida tinchlik, do‘stlik va hamjihatlik, yuksak axloq va adolat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilib kelmoqda.

Dunyodagi 100 dan ziyod mamlakatda keng nishonlanayotgan mana shu quvonchli bayram kunida bir asrdan ziyod shonli tarixga, ijodiy maktablarga ega bo‘lgan o‘zbek teatr san‘ati o‘zining boy an‘ana va qadriyatlarini saqlab, zamon bilan hamnafas bo‘lib, izchil rivojlanib kelayotganini alohida ta‘kidlash o‘rinlidir.

Hayot yo‘llarida uchrab turadigan turli muammo va qiyinchiliklarga qaramasdan, o‘zining sevgan kasbiga, qadrdon sahnasiga hamisha sadoqat ko‘rsatib, ko‘p millatli xalqimizga sidqidildan xizmat qilib kelayotgan siz, azizlarning – ustoz san‘atkorlar, taniqli dramaturg va rejissorlar, sozanda va bastakorlar, yosh aktyorlar, sahna rassomlari va texnik xodimlarning mashaqqatli va fidokorona mehnatingizni har qancha olqishlasak, sizlarga chin qalbdan rahmat aytsak, arziydi, albatta.

Biz sizlarning timsolingizda teatr degan noyob va beqiyos ma‘naviy boylikni asrab-avaylab, rivojlantirib, kelgusi avlodlarga bezavol yetkazib kelayotgan oliyjanob insonlarni ko‘ramiz.

O‘ylaymanki, so‘nggi yillarda barcha sohalar qatori madaniyat tizimida, jumladan, teatrlarimiz hayotida ham tub o‘zgarishlar amalga oshirilayotganidan barchangiz xabardorsiz.

Shu borada qabul qilingan qator farmon va qarorlar sohani yanada rivojlantirish, uning moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash, xalqimiz, birinchi navbatda, yoshlar o‘rtasida teatr san‘atiga bo‘lgan qiziqish va e‘tiborni kuchaytirishga qaratilgandir.

Kuni kecha “Ma‘naviyat va ijodni qo‘llab-quvvatlash maqsadli jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida” hamda “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qabul qilingan Prezident qarorlarida ham ana shu masalalarga ustuvor ahamiyat berilganini qayd etish lozim.

Azim poytaxtimiz Toshkent shahrida, barcha hududlarimizda yangi-yangi ilm-fan va madaniyat maskanlari, zamonaviy teatr va amfiteatrlar barpo etilmoqda, ijodiy jamoalar bilan yirik kompaniya va banklar ishtirokida tuzilgan “do‘stlar klublari” faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ushbu sohaga mehr va havas qo‘ygan yoshlarimizning iste‘dod va qobiliyatini ro‘yobga chiqarish uchun ijodiy tanlov

va festivallar o'tkazilmoqda, yangi ta'lim dargohlari bunyod etilmoqda. Hududlarimizda madaniyat yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlarining filiallari ochilmoqda, ularga qabul kvotalari oshirilmoqda, kam ta'minlangan oilalarga mansub iste'dodli qizlarimizga alohida imtiyozlar berilmoqda.

Bu haqda gapirganda, jumladan, Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti, Marg'ilon shahar musiqali maqom teatri tashkil etilganini ta'kidlash lozim.

Ana shunday ezgu ishlarimizning davomi sifatida hozirgi vaqtda poytaxtimizda O'zbek Milliy akademik drama teatri uchun eng yuksak zamonaviy xalqaro talablarga to'la javob beradigan yangi muhtasham bino barpo etish bo'yicha katta tayyorgarlik ishlari boshlab yuborilganini sizlarga ma'lum qilish menga katta mamnuniyat bag'ishlaydi.

Muhtaram yurtdoshlar!

Hozirgi kunda shiddatli zamon, hayotning o'zi barchamizning oldimizga o'ta muhim va murakkab vazifalarni qo'yimoqda. Xususan, el-yurtimizni turli xavf-xatarlardan asrash, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizni Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umumbashariy qadriyatlarga ehtirom ruhida barkamol insonlar etib tarbiyalash, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurash olib borish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Biz bu yo'lda barcha ijodkor ziyolilarimiz qatori siz, hurmatli san'atkorlarimizning iste'dod va salohiyatingiz, bilim va tajribangiz, ezgu fazilatlaringizga tayanamiz.

Sizlarning yangi O'zbekistonni – inson erkin, ozod va farovon yashaydigan jamiyatni barpo etishda tashabbus va jonbozlik ko'rsatayotgan yurtdoshlarimizning badiiy yetuk obrazlarini yaratish, ularning fidoyiligi va matonatini mahorat bilan tarannum etish borasidagi ijodiy mehnatingiz va izlanishlaringizni biz bundan buyon ham keng qo'llab-quvvatlaymiz.

Barcha madaniyat xodimlari kabi teatr san'ati vakillarini ham har tomonlama rag'batlantirish, ularning mehnat va yashash sharoitlarini yaxshilash davlatimiz va jamiyatimizning doimiy e'tibor markazida bo'ladi.

Aziz va muhtaram do'stlar!

Sizlarni bugungi qutlug' ayyom – Xalqaro teatr kuni bilan yana bir bor samimiy tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, kuch-g'ayrat va ilhom yor bo'lishini tilayman.

Teatrlarimiz sahnalarida, ijodiy jamoalaringizda mana shunday quvonchli kunlar ko'p bo'lsin, xonadonlaringizdan hech qachon tinchlik-xotirjamlik, fayz-u baraka, baxt va omad arimasin!

2021-yil 27-mart

HAMKORLIK SOLNOMASINING YANGI DAVRI

Jonajon Vatanimiz – O‘zbekistonda azaldan tarixiy ildizlari mushtarak, mehnatkash va oliyjanob venger xalqiga doimo yuksak hurmat va ehtirom ko‘rsatib kelinadi.

Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi aloqalar tarixiga nazar tashlasak, bu munosabatlarning shakllanishi o‘tmishda venger olimlari va sayyohlarining O‘rta Osiyoga qilgan safarlari orqali boshlanganini ko‘rish mumkin.

Xususan, bu o‘rinda XIX asrda mintaqamiz va mamlakatimizning boy tarixi va hayotini o‘rganib, o‘z asarlarida qimmatli ma‘lumotlarni yozib qoldirgan Shandor Kyoryoshi Choma, Arminiy Vamberi, Onodi Bertalan, Yenyo Zichi, Dyord Almashi, Aurel Shteyn kabi mashhur sharqshunos olimlarning nomlarini alohida e‘tirof etamiz.

Ayniqsa, tarixchi olim, tilshunos va sayyoh Arminiy Vamberining “O‘rta Osiyo bo‘ylab sayohat”, “Buxoro tarixi” kabi tarixiy asarlari barchamiz uchun noyob ilmiy manba bo‘lib kelmoqda.

Bu haqda so‘z borar ekan, xalqlarimiz o‘rtasida madaniy va adabiy hamkorlik aloqalarining tamal toshini qo‘ygan insonlardan biri, ajoyib taqdir egasi – salkam o‘ttiz yil davomida Vengriyada yashab, Mulla Is‘hoq, Mulla Sodiq nomlari bilan tanilgan vatandoshimiz Is‘hoq Ibrohim xotirasini chuqur hurmat bilan yodga olamiz.

Hoji Rashid afandi nomi bilan O‘rta Osiyoga safar qilgan Vamberining faoliyati, uning asarlari sharqshunoslik tarixida qanchalik mashhur bo‘lsa, o‘lkamizda unga hamrohlik qilgan

Xiva xonligining Qo'ng'iro't bekligida tug'ilib o'sgan Is'hoq Ibrohim nomi ham turkiyshunos olimlarga yaxshi tanish. Shu bois, O'zbekiston, Vengriya, Turkiya va AQSH olimlari tomonidan uning hayoti va ilmiy faoliyatiga bag'ishlab qator tadqiqotlar yaratilgan.

Vamberi Xorazm diyoriga kelgan vaqtda 27–28 yoshli Mulla Is'hoq Ibrohim Xiva madrasasida mudarrislik qilardi. U vengriyalik alloma bilan tanishib, qisqa paytda uning yaqin do'sti va shogirdiga aylanadi.

Vamberining safari nihoyasiga yetib, o'z yurtiga qaytishga otlanganida, Is'hoq Ibrohim uni o'zi bilan birga olib ketishini iltimos qiladi. Uning niyati – muqaddas haj ziyoratini amalga oshirishdan iborat bo'lgan. Ammo sayohatchilar Istanbulga yetib kelgach, Is'hoq Ibrohim taqdir taqozosi bilan Vengriyaga – Budapesht shahriga kelib qoladi.

Bu yerda u venger tilini puxta o'zlashtirib, Vamberining yordamida yetuk sharqshunos, folklorshunos va tarjimon sifatida taniladi. Ayni paytda, venger tilidan tashqari olmon, lotin, yunon, fransuz va ingliz tillarini ham o'rgangani uning favqulodda iqtidorli shaxs bo'lganidan dalolat beradi.

Is'hoq Ibrohim Vengriya Fanlar akademiyasining kutubxonasida ishlab, sharq qo'lyozmalarini tadqiq etish va tarjima qilishda faol ishtirok etadi hamda venger mutaxassislariga o'zbek tili, O'rta Osiyo tarixi bo'yicha asarlar yaratishda yordamlashadi, sharq tillaridan dars ham beradi.

Is'hoq Ibrohim o'zbek xalq maqollari, ertak va topishmoqlarini venger tiliga o'girib, ilmiy jamoatchilikning e'tiborini qozonadi.

U atoqli venger shoiri Shandor Petyofining do'sti, 1865–1879-yillarda Vengriya Fanlar akademiyasining bosh kotibi bo'lib xizmat qilgan Aran Yanosh bilan tanishadi va uning

“Ajoyib suyg‘unning hikoyati” degan asarini o‘zbek tiliga tarjima qiladi. Tarjima Vengriyadagi “Kosoru” jurnalining 1865-yil 9-sonida chop etiladi.

Olis o‘tmishda qadimgi venger va xunnlarning Sharqdan–bizning bugungi mintaqamizdan chiqib, Yevropaga kelib o‘r-nashgani haqidagi rivoyat tasvirlangan bu doston biz uchun asliyatdan o‘girilgan va venger adabiyotidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan ilk asar sifatida ham qadrlidir.

“Ajoyib suyg‘unning hikoyati” 2016-yilda Lakitelekda venger va o‘zbek tillarida alohida kitob holida bosilib chiqqani e‘tiborga loyiq.

Endi esa bu noyob asar Toshkentda ham nashr etildi.

Men venger xalqining ko‘hna va shonli tarixini badiiy ifoda etadigan ushbu asarga so‘zboshi yozish sharafiga muyassar bo‘lganimdan baxtiyorman.

Bizda **“Adabiy do‘stlik – abadiy do‘stlik”** degan dono naql bor. Qadimdan ilm-ma‘rifat va so‘z san‘atini, kitobni yuksak qadrlab keladigan xalqimiz bugungi kunda ham mahoratli tarjimonlar tufayli venger adabiyotining eng sara namunalarini o‘z ona tilida mutolaa qilmoqda. Bu asarlar kitob va to‘plamlar holida, shuningdek, turli adabiy gazeta va jurnallarda muntazam chop etilmoqda.

Hozirgi vaqtda venger san‘atkorlari va ilm-fan namoyandalari yurtimizda o‘tayotgan “Sharq taronalari”, Baxshichilik san‘ati, Hunarmandchilik san‘ati xalqaro festivallari hamda ular doirasida o‘tkazilayotgan ilmiy anjumanlarda faol ishtirok etib kelayotgani bizni xursand qiladi.

Biz Vengriya davlatini O‘zbekistonning Yevropadagi yaqin do‘sti va hamkori sifatida bilamiz va o‘zaro munosabatlarimizni hamisha yuksak qadrlaymiz.

Vengriya biz uchun nafaqat Sharqiy Yevropadagi, balki butun Yevropa qit'asidagi muhim siyosiy, savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy va madaniy sherigimizdir. Bu davlatning jadal rivojlanib borayotgani, ko'plab sohalarda katta yutuqlarga erishayotgani do'st mamlakat sifatida bizni g'oyat quvontiradi.

Bugun ikki davlat o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorligimiz solnomasida yangi davr boshlanmoqda.

Ishonamanki, tarixiy-madaniy aloqalarimizni yanada ravnaq toptirish, barcha ustuvor yo'nalishlarda o'zaro munosabatlarimizni har tomonlama kengaytirish borasidagi amaliy harakatlarimiz o'zbek va venger xalqlarining manfaatlari yo'lida bundan buyon ham izchil davom etadi.

Atoqli venger adibi va shoiri

*Aran Yanoshning "Ajoyib suyg'unning hikoyati"
kitobiga yozilgan so'zboshi*

2021-yil 30-mart

**HAR QANDAY SINOV VA TAHDIDLARNI
BIRGALIKDA YENGIB O'TISHGA TAYYOR
BO'LISHIMIZ, MAVJUD SALOHIYATIMIZDAN
TO'LIQ FOYDALANISHIMIZ ZARUR**

Hurmatli Qasim-Jomart Kemelevich!

Hurmatli davlat va hukumat rahbarlari!

Avvalambor, xalqaro Navro'z bayrami davom etayotgan ushbu fayzli kunlarda siz, azizlarni ko'rib turganimdan mamnunman.

Bugungi uchrashuvni tashkil etish tashabbusi bilan chiqqan muhtaram oqsoqolimiz, Qozog'iston Respublikasining Birinchi Prezidenti – Elboshi, Turkiy Kengashning Faxriy raisi Nursulton Abishevich Nazarboyevga chuqur minnatdorchilik izhor etaman.

Anjumanimiz ulug' shoir va mutafakkir Xoja Ahmad Yassaviy yashab o'tgan qadimiy va navqiron Turkiston shahri bilan bog'langani bejiz emas. Ushbu shahri azim "Turk dunyosining ruhoniyat poytaxtlaridan biri" sifatida e'lon qilinishida chuqur ramziy ma'no bor.

Ma'lumki, Mir Alisher Navoiy hazrat Yassaviyga "Turkiston mulkining shayxul-mashoyixi", deb yuksak baho berganlar.

Ahmad Yassaviyning o'lmas merosi buyuk ajdodlarimiz – Jaloliddin Rumi va Yunus Emro, Yusuf Xos Hojib, Nizomiy Ganjaviy, Maxtumquli Firog'iy va Boborahim Mashrab kabi shoirlar qatorida turkiy xalqlarning umumiy ma'naviy boyligi sifatida ardoqlab kelinadi.

Ahmad Yassaviy o'z davrida butun musulmon olamida "Islom dinining quvvati" deb shuhrat qozongan Buxoroyi sha-

rifda Yusuf Hamadoniy, Abdulxoliq G'ijduvoni kabi mashhur ulamolardan tahsil olgani ota-bobolarimizning doimo safdosh va hamfikr bo'lib kelganini ko'rsatadi.

O'zining diniy-axloqiy qarashlari bilan mintaqamizda ulkan obro'-e'tibor qozongan hazrat Yassaviyga buyuk Amir Temur chin dildan ixlos qo'ygani, uning xotirasiga atab muhtasham maqbara bunyod etganini barchamiz yaxshi bilamiz. Shuningdek, Sohibqiron bobomiz ushbu majmuaning moddiy ta'minoti uchun vaqf tashkil qilgani va bu jamg'arma asrlar davomida faoliyat ko'rsatgani el-yurtlarimizning tarixiy birligidan dalolat beradi.

Bugungi kunda Ahmad Yassaviy ziyoratgohini barcha qar-dosh xalqlarimiz tabarruk qadamjo sifatida cheksiz qadrlaydi.

Ko'p millatli Turkiston shahri so'nggi yillarda tobora go'zal va obod bo'lib borayotgani, ulkan bunyodkorlik maydoniga aylana-yotganiga barchamiz hozir videolavhalar orqali guvoh bo'ldik.

Bugungi fursatdan foydalanib, Ozarbayjon Prezidenti hur-matli Ilhom Geydarovich Aliyev va ozarbayjon xalqini Tog'li Qorabog' hududini qaytarib, tarixiy adolatni tiklash yo'lida erish-gan g'alabasi bilan yana bir bor tabriklayman.

O'zbekiston Tog'li Qorabog' zaminidagi ko'hna obidalar, ma-daniyat va ma'rifat maskanlarini tiklash ishlariga hissa qo'shishga tayyor ekanini bildiramiz.

Hurmatli sammit ishtirokchilari!

Mushtarak til va yagona din, tarixiy va madaniy rishta-lar asosida shakllangan Turkiy Kengash tashkiloti mintaqaviy hamkorlikning samarali mexanizmiga aylanib bormoqda.

Tashkilotimiz o'z taraqqiyotining yangi davriga qadam qo'yar ekan, biz har qanday sinov va tahdidlarni birgalikda yengib o'tishga tayyor bo'lishimiz, mavjud salohiyatimizdan to'liq foydalanishimiz zarur. Bu borada oldimizda muhim vazifalar turibdi.

Birinchidan, iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish bizning asosiy maqsadimizga aylanishi darkor.

Ayni paytda ishlab chiqilayotgan “Turkiy dunyo nigohi – 2040” konseptual hujjati asosida hozirgi va pandemiyadan keyingi vaziyatni inobatga olgan holda, a’zo davlatlarga xos, yaqin va o’rta istiqbolga mo’ljallangan iqtisodiy hamkorlik strategiyasini tayyorlashni taklif qilamiz.

Bunda asosiy urg’uni kechayotgan global inqirozning salbiy oqibatlarini bartaraf etish, savdo, investitsiya, sanoat, transport aloqalarini tiklash va yangi sharoitlarda rivojlantirish, elektron tijorat hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, biznes va hududlararo hamkorlik imkoniyatlaridan to’liq foydalanishga qaratish lozim.

Ikkinchidan, davlatlarimiz o’rtasida sanoat kooperatsiyasini kuchaytirish va yirik sarmoyaviy loyihalarni amalga oshirish maqsadida bildirilgan takliflarni qo’llab-quvvatlagan holda, Turkiy Kengashning o’z Investitsiyaviy jamg’armasi hamda Taraqqiyot bankiga ega bo’lish fursati yetdi, deb hisoblaymiz. Bu borada amaliy ishlarni boshlash tarafdorimiz.

Uchinchidan, mintaqamizning transport va tranzit salohiyatini oshirish biz uchun strategik ahamiyatga ega.

Markaziy Osiyo hududi orqali dunyoning asosiy bozorlariga, jumladan, Xitoy, Hindiston, Pokiston va Osiyoning boshqa mamlakatlariga, Ozarbayjon va Turkiyadan Yevropa davlatlariga chiqish muhimdir. Mazkur yo’nalishlarda transport yo’laklarini rivojlantirish va yirik logistika infratuzilma loyihalarini birgalikda amalga oshirish umumiy manfaatlarimizga to’liq javob beradi.

To’rtinchidan, dinimiz tarixida beqiyos iz qoldirgan ulug’ bobolarimiz merosi bilan keng jamoatchilikni yaqindan tanishtirish ezgu intilishlarimizga mosdir.

Bu borada mamlakatlarimiz hududida joylashgan muqaddas qadamjolar bo'ylab "Tabarruk ziyorat" loyihasini amalga oshirishni taklif etamiz. Buning uchun Kengash doirasida Ziyorat turizmini rivojlantirish dasturini qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

Beshinchidan, xalqlarimizning dunyoviy fanlar rivojiga qo'shgan beqiyos hissasini va boy madaniy merosini chuqur o'rganish, turli tadqiqotlar olib borish hamda jahon miqyosida targ'ib etish katta ahamiyatga ega.

Biz "Turkiy dunyoning madaniy poytaxti" maqomini olgan Xiva shahrida sentabr oyida UNESCO bilan hamkorlikda "Markaziy Osiyo jahon sivilizatsiyalari chorrahasida" mavzusida xalqaro forum o'tkazish niyatidamiz.

Fursatdan foydalanib, barcha a'zo davlatlarni ushbu anjuman-da ishtirok etishga taklif qilamiz.

Oltinchidan, biz Bokuda o'tkazilgan sammitda adabiyot va san'at sohasida xalqaro mukofotni ta'sis etish tashabbusini ilgari surgan edik.

Tashkilotimizga a'zo davlatlarning siz, hurmatli rahbarlariga Turkiy Kengashning ilm-fan, ta'lim, madaniyat va san'at sohalarini, shuningdek, turkiy dunyo birligini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shgan atoqli shaxslarni rag'batlantirish maqsadida xalqaro mukofot ta'sis etish haqidagi taklifni ma'qullaganingiz uchun tashakkur izhor etaman.

Ushbu mukofotni Mir Alisher Navoiy nomi bilan atash haqidagi taklifni qo'llab-quvvatlaganingiz uchun o'z nomimdan, O'zbekiston xalqi nomidan chuqur minnatdorlik bildiraman. Bunday hurmat-e'tibor va ishonch biz uchun katta sharafdir. Biz buni barcha turkiy xalqlarning faxr-u iftixori bo'lgan, ulug' zot-Alisher Navoiyga yuksak ehtirom ifodasi, deb qabul qilamiz. Bu nufuzli mukofotning ta'sis etilishi turkiy birlik ruhini mustahkamlashga xizmat qilishi shubhasiz.

Shu o'rinda Tashkilotimiz oldida turgan muhim va ustuvor masalalar bugun qabul qilinadigan Turkiston deklaratsiyasida o'z ifodasini topganini va uni qo'llab-quvvatlashimizni ma'lum qilaman.

Hurmatli yig'ilish qatnashchilari!

So'zimning yakunida Turkiy Kengashning faxriy raisi – muhtaram oqsoqolimiz, Elboshi Nursulton Abishevichga, Qozog'iston Prezidenti hurmatli Qasim-Jomart Kemelevich Toqayevga bugungi muloqotni yuqori darajada tashkil etganlari uchun yana bir bor samimiy minnatdorchilik bildiraman.

Barchangizga mustahkam sog'liq, baxt-saodat, Tashkilotimiz nufuzi va samaradorligini oshirish yo'lidagi sharafli ishlaringizda ulkan kuch-g'ayrat va omadlar tilayman.

E'tiboringiz uchun rahmat.

Turkiy Kengashning videokonferensiya shaklida o'tkazilgan norasmiy sammitidagi nutq

2021-yil 31-mart

SO‘Z SAN‘ATINING BETAKROR NAMUNASI

Buyuk o‘zbek shoiri va mutafakkiri, atoqli davlat va jamoat arbobi, Sharq Uyg‘onish davrining yorqin namoyandasi Mir Alisher Navoiyning bebaho merosi nafaqat xalqimiz, balki jahon adabiyoti tarixida, milliy madaniyatimiz va adabiy-estetik tafakkurimiz rivojida muhim o‘rin tutadi.

Ulug‘ mutafakkir o‘zining o‘lmas asarlarida yuksak umuminsoniy g‘oyalarni, ona tilimizning beqiyos so‘z boyligi va cheksiz ifoda imkoniyatlarini butun jozibasi va latofati bilan namoyon etib, yer yuzidagi millionlab kitobxonlar qalbidan munosib va mustahkam o‘rin egallagan.

So‘nggi yillarda Alisher Navoiyning boy va serqirra ijodiy merosini har tomonlama chuqur o‘rganish, yurtimizda va xorijiy mamlakatlarda keng targ‘ib qilish hamda xotirasini abadiylashtirish borasida qator ishlar amalga oshirilayotgani katta ahamiyatga ega.

Hazrat Navoiy tavallud topgan qutlug‘ 9-fevral sanasini har yili adabiyot va ma‘rifat bayrami sifatida yuksak darajada nishonlash an‘anasi qaror topganiga barchamiz guvohmiz. Dunyoning turli mintaqalarida ulug‘ so‘z san‘atkorining asarlari munozam nashr etilib, navoiyshunoslik sohasida ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda, xalqaro miqyosda yirik ilmiy anjumanlar o‘tkazilmoqda.

Ayni paytda O‘zbekistonda viloyat va shahar, milliy kutubxona va muzeylar, metro bekati va ko‘chalar, kinosaroy va bog‘lar, dorilfunun va boshqa o‘nlab muassasalar buyuk ajdodimiz

nomi bilan yuritilmoqda. Toshkent shahri markazidagi ulug' bobomizning muazzam me'moriy yodgorligiga mutanosib ravishda Adiblar xiyoboni barpo etilgan. Bularning barchasi hazrat Navoiy nomi va asarlari barhayot yashayotganini tasdiqlaydi.

Ayniqsa, bugungi globallashuv davrida Alisher Navoiy singari ulkan daholarning insonparvarlik, ezgulik va mehr-muruvvat, do'stlik va qardoshlik, sevgi va sadoqat singari sof insoniy tuyg'ular, bag'rikenglik va oliyjanoblik, halollik va mehnatsevarlik fazilatlari, bunyodkorlik g'oyalari ulug'langan bezavol asarlari har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etayotgani hammamizga yaxshi ayon.

Alisher Navoiyning jahon tamaddunida tutgan beqiyos o'rmini inobatga olgan holda, uning adabiy-ilmiy merosini yanada chuqur tadqiq qilish va keng targ'ib etish maqsadida 2020-yili O'zbekistonda "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida" Prezident qarori qabul qilindi.

Ushbu qarorga ko'ra, yurtimizda Alisher Navoiy nomida maxsus fond tuzish, orden ta'sis qilish, xalqaro ilmiy tadqiqot markazini bunyod etish, shoir asarlarining mukammal ilmiy nashrini yaratish, keng miqyosda ilmiy-amaliy konferensiya, adabiy-badiiy tanlov va ko'rgazmalar, turli madaniy tadbirlar o'tkazish nazarda tutilgan.

Bugungi kunda Mir Alisher Navoiyning bebaho ijodi turli xalqlarni ma'naviy jihatdan birlashtirish yo'lida beqiyos xizmat qilib kelmoqda. Xususan, barcha turkiy xalqlar uni o'z ulug' shoiri deb biladi va ul zot bilan haqli ravishda faxrlanadi.

Turkiy Kengash tashkilotining yaqinda bo'lib o'tgan sammitida O'zbekistonning ilm-fan, ta'lim, madaniyat va san'at sohalarini, shuningdek, turkiy dunyo birligini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shgan atoqli shaxslarni rag'batlantirish maq-

sadida xalqaro mukofot ta'sis etish va bu mukofotni Alisher Navoiy nomi bilan atash haqidagi taklifi bir ovozdan qo'llab-quvvatlangani ham shundan dalolat beradi.

Bunday e'tibor va ishonch biz uchun katta sharafdir. Bu yuksak e'tirofni biz hazrat Alisher Navoiyga, ayni paytda, jahonga shunday ulug' mutafakkirlarni bergan o'zbek xalqiga bo'lgan hurmat-ehtiromning yorqin ramzi sifatida qabul qilamiz.

Afg'oniston Islom Respublikasi Prezidenti Muhammad Ashraf G'ani Janobi Oliylarining O'zbekistonga, o'zbek tili va adabiyoti rivojiga, ayniqsa, Alisher Navoiy ijodini o'rganish va targ'ib etish borasida shaxsan ko'rsatayotgan ulkan e'tibori va g'amxo'rliqi tufayli xalqlarimiz o'rtasidagi qadimiy do'stlik rish-talari yanada mustahkamlanib borayotganini biz yaxshi bilamiz va yuksak qadrlaymiz.

Hozirgi vaqtda buyuk bobomiz tug'ilib o'sgan do'st va qardosh afg'on zaminida bu mumtoz siymo xotirasiga munosib hurmat va ehtirom bildirilayotgani, xususan, Hirot shahridagi shoir maqbarasini obodonlashtirish borasida afg'onistonlik do'stlarimiz bilan birgalikda olib borilayotgan amaliy sa'y-harakatlar barchamizga katta mamnuniyat bag'ishlaydi.

Men hazrat Navoiyning shoh asari bo'lmish "Xamsa"ning yangi nashrini qo'shni va qardosh Afg'oniston madaniy jamoatchiligiga o'zbek xalqining samimiy tuhfasini sifatida taqdim etayotganimdan baxtiyorman.

So'z san'atining betakror namunasi bo'lgan ushbu durdona asar O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasida qaror topgan o'zaro do'stlik va hamjihatlik, madaniy-gumanitar hamkorlik aloqalarini yangi, yanada yuqori bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi, deb ishonaman.

*Alisher Navoiyning Afg'onistonda chop etilgan
"Xamsa" asarining yangi nashriga yozilgan so'zboshi*

2021-yil 5-aprel

XORIJIY MAMLAKATLAR VA XALQARO TUZILMALAR BILAN AMALIY MULOQOTNI IZCHIL RIVOJLANTIRISH O‘ZBEKISTON TASHQI SIYOSATINING USTUVOR YO‘NALISHIDIR

Muhtaram Favqulodda va muxtor elchilar!

Xonimlar va janoblar!

Sizlarni bugungi muhim tadbir – ishonch yorliqlarini topshirishga bag‘ishlangan tantanali marosimda ko‘rib turganimdan g‘oyat baxtiyorman. Barchangizni O‘zbekistonda elchi sifatida rasman ish boshlaganingiz bilan samimiy tabriklayman.

Yaxshi xabardorsiz, biz yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida juda katta marra va rejalarni oldimizga qo‘yganmiz.

Pandemiya davridagi qiyinchiliklarga qaramasdan, jadal demokratik islohotlarni, ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi strategik dasturlar va hududlarimizni kompleks rivojlantirish loyihalarini izchillik bilan amalga oshirmoqdamiz.

Bizning asosiy maqsadimiz – pandemiyaning salbiy oqibatlarini bartaraf etish, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash, aholining barcha qatlamlarini manzilli qo‘llab-quvvatlash, ularning turmush darajasini yanada yaxshilash, uzoq muddatli yangi o‘lish nuqtalarini yaratib, O‘zbekistonning global miqyosda raqobatbardosh bo‘lishini ta‘minlashdan iboratdir.

Mamlakatimiz o‘zaro ishonch va hurmat, teng huquqli va manfaatli hamkorlik, do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik tamoyillariga asoslangan tashqi siyosat yo‘lini qat‘iy davom ettirmoqda.

Jahonda kechayotgan murakkab geosiyosiy jarayonlar va global iqtisodiy inqiroz sharoitida O‘zbekiston olib borayotgan

ochiq va pragmatik tashqi siyosat o'zining ijobiy natijasini bermoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti minbaridan ilgari surgan global va mintaqaviy ahamiyatga molik tashabbuslarimiz dunyo hamjamiyati tomonidan faol qo'llab-quvvatlanmoqda.

Fursatdan foydalanib, yana bir bor ta'kidlamoqchiman: tashqi siyosatimizning eng ustuvor yo'nalishi Markaziy Osiyo mintaqasidagi barcha qo'shni mamlakatlar hamda jahonning yetakchi davlatlari bilan strategik va ko'p qirrali sheriklikni rivojlantirishga qaratilgan.

Savdo, investitsiya va innovatsiyalar, raqamli texnologiyalar va "yashil iqtisodiyot", transport, tranzit va logistika, bank-moliya, tibbiyot va boshqa sohalardagi amaliy aloqalar bundan keyin ham hamkorligimizning ustuvor yo'nalishlari bo'lib qoladi. Shu bilan birga, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Turkiy Kengash, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti kabi xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar, shuningdek, global moliya institutlari bilan sherikligimizni kuchaytirishga kelgusida ham jiddiy ahamiyat beramiz.

Hurmatli elchilar!

Siz vakillari bo'lgan davlatlar bilan keng qamrovli va uzoq muddatli hamkorlikni mustahkamlash va uni yanada rivojlantirish O'zbekistonning tashqi siyosatida muhim ahamiyatga ega. Shu bois o'zaro hamkorlik aloqalarimizning istiqbollari haqida qisqacha to'xtalib o'tmoqchiman.

Bangladesh Xalq Respublikasi elchisi Muhammad Zahangir A'lam Janobi Oliylari!

Sizga yaxshi ma'lumki, O'zbekiston va Bangladesh xalqlarini ko'p asrlik diniy, ma'naviy va madaniy rishtalar chambarchas bog'lab turadi. Bangladesh davlatini biz Janubiy Osiyoda jadal

rivojlanib borayotgan muhim hamkorimiz sifatida alohida e'tirof etamiz.

Biz ikki tomonlama siyosiy maslahatlashuvlarni muntazam o'tkazib borish, to'qimachilik, farmatsevtika, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish tarafdorimiz. O'zaro savdo hajmini oshirish hamda uchinchi davlatlar bozoriga birgalikda chiqish, ziyorat turizmini rivojlantirishdan manfaatdormiz. Bu borada barcha darajadagi muloqotlarimizni faollashtirish va birinchi navbatda, Hukumatlararo qo'shma komissiya imkoniyatlaridan to'la foydalanishimiz dolzarb ahamiyatga ega.

Hukumat idoralari va turli vazirliklarda boy tajriba to'plagan diplomat – siz, Zahangir A'lam janoblari, munosabatlarimiz ravnaqiga butun kuch-g'ayratingizni safarbar etasiz, deb ishonaman. Sizga katta omadlar tilayman!

Chexiya Respublikasining elchisi Vatslav Yilek Janobi Oliyarlari!

Chexiya O'zbekiston uchun Yevropa Ittifoqidagi ishonchli va istiqbolli sherigimizdir. So'nggi yillarda o'zaro munosabatlarimiz va amaliy hamkorligimiz jadal sur'atlarda rivojlanib borayotgani bizga katta mamnuniyat bag'ishlaydi.

Murakkab pandemiya sharoitiga qaramasdan, o'tgan yili davlatlarimiz o'rtasidagi savdo aylanmasi uch barobar o'sib, 500 million dollardan ortgani bu fikrni tasdiqlaydi. Hamkorligimizni sifat jihatidan yuqori bosqichga ko'tarish uchun barcha imkoniyat va salohiyatlarga egamiz.

Chexiyaning yetakchi kompaniyalari, Eksport banki va "EGAP" tashkiloti bilan hamkorlikda yuqori texnologiyalar va innovatsiyalar, avtomobil sanoati, qishloq xo'jaligi mashinasozligi, energetika, tibbiyot, ta'lim, sayyohlik sohalarida aniq loyihalar portfelini shakllantirishimiz lozim.

Yevropa Ittifoqi va "Vishegrad to'rtligi" bilan ko'p tomonlama muloqotlar doirasida aloqalarimizni yanada chuqurlashtirish niyatidamiz va albatta, yaqin istiqbolda oliy darajadagi uchrashuvlarni ham o'tkazish vaqti keldi, deb o'ylaymiz.

Hurmatli Yilek janoblari! Umid qilamizki, Siz bu yo'lda o'zingizning boy amaliy va professional tajribangizni ayamadan mehnat qilasiz. Sizga O'zbekistondagi sharaflı faoliyatingizda ulkan yutuqlar va kuch-g'ayrat tilayman!

Misr Arab Respublikasi elchisi Amira Fahmiy Xonim Oliyaları!

Misr biz uchun nafaqat Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikada, balki butun Islom dunyosidagi an'anaviy, vaqt sinovlaridan o'tgan hamkor va birodar davlatdir.

Bugungi kunda davlatlarimiz o'rtasidagi munosabatlar sifat va mazmun jihatidan mutlaqo yangi pog'onaga ko'tarilib bormoqda.

Prezident Abdulfattoh As-Sisi Janoblarining 2018-yil sentabrdagi yurtimizga tarixiy tashrifi aloqalarimizga katta shiddat bag'ishladi. Shu bilan birga, hali hamkorlik borasida ishga solinmagan ko'pgina imkoniyatlar mavjud. Bu yo'nalishda biz hukumatlarimiz va idoralarimiz o'rtasidagi sheriklik mexanizmlaridan samarali foydalanishimiz lozim. Qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, farmatsevtika, savdo, turizm, ta'lim va boshqa ustuvor sohalarda aloqalarimizni aniq reja va dasturlar asosida izchil rivojlantirishimiz zarur.

Mushtarak madaniy va ma'naviy qadriyatlar, muqaddas islom dini merosini chuqur o'rganish va targ'ib etishni ham hamkorligimizning eng muhim yo'nalishlaridan biri, deb hisoblaymiz.

Hurmatli Fahmiy Xonim! Siz elchi sifatida bor bilim va tajribangizni O'zbekiston va Misr o'rtasidagi munosabatlarni yanada

kengaytirishga yo'naltirasiz, deb ishonaman. Mas'uliyatli ishlar-
ringizda ulkan muvaffaqiyatlar tilab qolaman!

Iordaniya Hoshimiylar Podshohligi elchisi Demiya Zuxayr
Haddod Janobi Oliylari!

Biz Iordaniyani o'zimizning arab-musulmon olamidagi yaqin
va ishonchli do'stimiz, deb bilamiz. Xalqlarimizni azaldan mu-
qaddas dinimiz, umumiy madaniy meros, o'xshash qadriyat va
urf-odatlar bog'lab keladi.

Bugungi kunda sherikligimizning hozirgi sur'atini jadallashti-
rish, jumladan, zarur huquqiy asoslarni yaratish, savdo, sanoat va
biznes aloqalarini yo'lga qo'yish, madaniy-gumanitar almashuv-
larni jonlantirish hamkorligimizni yangi bosqichga olib chiqishga
xizmat qiladi.

Biz Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti
va boshqa nufuzli xalqaro tuzilmalar doirasida o'zaro qo'llab-
quvvatlashni tizimli ravishda davom ettirish niyatidamiz.

Haddod janoblari, ishonamanki, Siz sermahsul faoliyatingiz
bilan O'zbekiston – Iordaniya hamkorligiga katta hissa qo'shasiz.
Sizga omad va yutuqlar hamisha yor bo'lsin!

Turkiya Respublikasi elchisi Olgan Bekar Janobi Oliylari!

Biz dunyoda katta siyosiy, iqtisodiy, harbiy va madaniy
salohiyatga ega bo'lgan qardosh Turkiya bilan strategik sherik-
likni yuksak qadrlaymiz.

Oxirgi yillarda aloqalarimiz yuksak bosqichga chiqqani-
ga hamma guvoh bo'lib turibdi. Turkiya Prezidenti, hurmatli
birodarim Rejep Tayyip Erdog'an Janoblari bilan davlatlarimiz
o'rtasidagi aloqalarni yuqori darajaga olib chiqish uchun biz juda
katta sa'y-harakatlar qildik.

Bugungi kunda o'rtamizda ishonchli siyosiy muloqotlar
o'rnatildi va pandemiyaga qaramasdan, o'zaro tashriflar faol-
lashmoqda. Yaqinda mamlakatimizga Turkiya tashqi ishlar ham-
da savdo vazirlarining tashriflari samarali o'tdi, yetakchi turk

kompaniya va banklari bilan savdo, sarmoyaviy va infratuzilma bo'yicha yirik loyihalarni jadal amalga oshiryapmiz.

Hududlarimiz o'rtasida hamkorlik o'rnatildi, ta'lim, tibbiyot, madaniyat, kino san'ati va boshqa sohalarda qo'shma dasturlar muvaffaqiyatli ro'yobga chiqarilmoqda.

Biz xalqaro va mintaqaviy tuzilmalarda bir-birimizni yaqindan qo'llab-quvvatlab kelmoqdamiz. Nasib etsa, bu yil Istanbul shahrida bo'lib o'tadigan Turkiy Kengash sammitida, albatta, ishtirok etamiz.

Eng asosiysi, biz Turkiya rahbari Erdog'an Janoblarning respublikamizga rasmiy tashrifini kutyapmiz va uning doirasida Strategik hamkorlik kengashining ikkinchi sammitini o'tkazamiz.

Hurmatli Bekar janoblari! Ikki tomonlama munosabatlarimizning kun tartibi naqadar boy va sarmazmun ekanini ko'rib turibsiz. Sizning diplomatik mahoratingiz keng qamrovli qardoshlik aloqalarimiz ravnaqiga qo'shimcha turtki berishi shubhasiz.

"Ota yurtigingiz"da faoliyatingiz samarali bo'lishiga chin dildan tilakdoshman!

Yevropa Ittifoqi delegatsiyasi rahbari, elchi Sharlott Adrian Xonim Oliyolari!

Yevropa Ittifoqi biz uchun muhim strategik hamkordir. So'nggi yillarda O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi ko'p qirrali aloqalar barcha sohalarda tobora faollashib borayotgani bizni alohida mamnun etadi. Buning zaminida teng huquq, o'zaro hurmat, ishonch va manfaatdorlik tamoyillari mujassam.

Biz yevropalik sheriklarimiz mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamlı demokratik o'zgarishlar, jadal iqtisodiy islohotlar va transformatsiya jarayonlarini faol qo'llab-quvvatlab kelayotganini alohida qadrlaymiz.

Bu borada joriy yil 10-aprelda O'zbekistonga Yevropa Ittifoqining imtiyozlar bo'yicha bosh tizimi – benefitsiar maqomi berilgani umumiy yutug'imiz bo'ldi. Umid qilamizki, joriy yil-

ning oxiriga qadar Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik bitimi bo'yicha ham muzokaralar muvaffaqiyatli yakunlanadi.

Ta'kidlash o'rinliki, "Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston", "Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo" formatlarining doimiy o'tkazib kelinayotgani o'rtamizdagi hamjihatlik muhitini tobora mustahkamlamoqda. Brusselga reja qilinayotgan oliy darajadagi tashrifimiz barcha sohalardagi aloqalarimizni yangi pog'onaga olib chiqishiga ishonaman.

Sharlott Adrian Xonim! Siz yurtimizga kelgan dastlabki kunlardan juda faol va qizg'in ish boshlaganingizdan men xabardorman. Yevropa Ittifoqining O'zbekistondagi elchisi sifatidagi o'ta mas'uliyatli va sharaflı missiyangizda Sizga kuchg'ayrat va katta zafarlar tilayman!

Rossiya Federatsiyasi elchisi Oleg Sergeyevich Malginov Janobi Oliylari!

Jahon maydonida katta obro' va nufuzga ega bo'lgan Rossiya bilan O'zbekiston o'rtasidagi strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari so'nggi yillarda beqiyos darajada mustahkamlanmoqda.

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti, hurmatli Vladimir Vladimirovich Putin bilan birgalikda barcha ustuvor yo'nalishlarda ulkan taraqqiyotga erishdik desam, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Ayni paytda savdo, investitsiya, energetika, sanoat, metallurgiya, qishloq xo'jaligi, transport, infratuzilma, bank-moliya, ta'lim, tibbiyot, madaniyat, turizm va boshqa ko'plab sohalarda yirik loyiha va dasturlar amalga oshirilmoqda.

Yaqinda birinchi marta Toshkentda o'tkazilgan va salmoqli natijalar bilan yakunlangan "Innoprom" xalqaro ko'rgazmasi hamkorligimiz ko'lami naqadar kengligini yana bir bor namoyon etdi.

Biz, shuningdek, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi va boshqa

xalqaro tuzilmalar doirasida o'zaro manfaatli va amaliy sheriklikni davom ettiramiz.

Biz Rossiya Federatsiyasiga bo'lajak oliy darajadagi tashrifga puxta tayyorgarlik ko'ryapmiz. Hech shubhasiz, muhtaram Vladimir Vladimirovich bilan bo'lib o'tadigan sermahsul uchrashuv va do'stona muzokaralarimiz siyosiy, iqtisodiy, sarmoyaviy, harbiy-texnikaviy va madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorligimiz rivoji uchun yangi davrni boshlab beradi.

Hurmatli Oleg Sergeyeovich! Sizni malakali va professional diplomat, mintaqamiz tarixini chuqur o'rgangan mutaxassis sifatida yaxshi bilamiz. Elchilik faoliyatingiz do'st davlatlarimiz o'rtasidagi aloqalarni har tomonlama chuqurlashtirishga munosib hissa qo'shishiga ishonamiz. Bu yo'lda boy bilim va tajribangizni, kuch-g'ayratingizni safarbar etasiz, degan umiddaman.

Hurmatli diplomatik vakolatxonalar rahbarlari!

Elchilik vazifasi doimo mas'uliyatli va sharafli hisoblangan. Bugungi kunda yangi O'zbekistonda hayot juda tez va shiddatli kechmoqda. Bu jarayonlarda sizlar faol ishtirok etasiz, aloqalarimizni kengaytirishga munosib hissa qo'shasiz, deb qat'iy ishonaman.

Sizlar vakillari bo'lgan davlatlar bilan O'zbekiston o'rtasida faol va samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda o'zaro manfaatli rejalarimizni amalga oshirishda Sizlarning alohida o'rmingiz va xizmatigingizni hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi.

So'zimning yakunida barchangizga O'zbekistonda boshlanayotgan faoliyatingizda katta yutuqlar, oilaviy baxt-saodat tilayman. Sizlarga sihat-salomatlik va muvaffaqiyat doimo yor bo'lsin!

E'tiborlaringiz uchun rahmat.

O'zbekiston Respublikasida faoliyat boshlagan xorijiy davlatlarning Favqulodda va muxtor elchilaridan ishonch yorliqlarini qabul qilib olish marosimidagi nutq

2021-yil 23-aprel

BUYUK QAHRAMONLARIMIZ XOTIRASI ABADIY BARHAYOT

Assalomu alaykum, hurmatli vatandoshlar!

Qadrli urush va mehnat faxriylari!

Avvalo, mana shu ulug' ayyom kunlarida, muhtasham G'alaba bog'ida turib, siz, azizlarni, bugungi tantanali marosimni joylardagi studiyalarda, harbiy okruglarda, oila davrasida televideniye orqali tomosha qilayotgan barcha faxriylarimizni ko'p millatli butun xalqimizni Xotira va qadrlash kuni hamda buyuk G'alabaning 76 yilligi bilan chin qalbidan tabriklayman.

Barchangizga o'zimning yuksak hurmat-ehtiromim va ezgu tilaklarimni bildiraman.

Muhtaram urush va mehnat fronti faxriylari!

Bugungi shonli sanani biz doimo cheksiz quvonch va cheksiz iztirob bilan nishonlaymiz. Vatan ozodligi uchun, hozirgi tinch-omon kunlar uchun jang maydonlarida halok bo'lgan ota-bobolarimizni, front ortida fidokorona mehnat qilgan yurtdoshlarimizning muqaddas xotirasini yod etib, hurmat bajo keltiramiz.

Siz, mo'tabar faxriylarimizning beqiyos qahramonligingiz insoniyat tarixiga abadiy o'chmaydigan, buyuk sahifa bo'lib yozilganini chuqur minnatdorlik bilan e'tirof etamiz.

Ulug' va tabarruk yoshlarga yetib, bugun oramizda sog'salomat, duogo'y bo'lib yurgan urush va mehnat frontining barcha jangchilariga yana bir bor yuksak mehr va hurmatimizni izhor etib, ularning barchasiga chin yurakdan tashakkur aytamiz.

Hayotning og'ir va achchiq sinovlarini mardona yengib o'tgan Siz, azizlarning O'zbekistonimizni har tomonlama rivojlantirish, yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida, mustahkam irodali insonlar etib tarbiyalashga qo'shayotgan munosib hissangizni barchamiz yuksak baholaymiz.

Sizlarning mardlik va matonatingiz koronavirus pandemiyasi davom etayotgan hozirgi murakkab davrda ham ana shu xatarli kasallikka qarshi kurashda bizga kuch va madad bermoqda.

Biz – bugungi minnatdor avlodlar sizlar kabi jasur otalarimiz bilan umrbod faxrlanamiz.

Mana shu hayajonli daqiqalarda sizlarning jang maydonlarida buyuk qahramonlik ko'rsatganingiz, urushdan keyin mamlakatni tiklash va rivojlantirish yo'lida qilgan fidokorona xizmatlaringiz uchun barchamiz bosh egib ta'zim qilamiz.

Oradan yana qancha yillar, asrlar o'tmasin, sizlarning fashizmga qarshi ko'rsatgan matonatingizni xalqimiz hamisha qalbida, xotirasida saqlaydi, bu jasorat yoshlarimiz uchun abadiy ibrat namunasi bo'lib qoladi.

Hurmatli yurtdoshlar!

Ikkinchi jahon urushi millionlab begunoh insonlarning o'limiga sabab bo'lgan, mislsiz yo'qotish va talafotlarga olib kelgan eng dahshatli qirg'in bo'lganini hammamiz yaxshi bilamiz. Olti yil davom etgan bu qonli urushda o'sha paytda dunyodagi mavjud 73 ta davlatdan 62 tasi, Yer yuzi aholisining 80 foizi ishtirok etgani ham bu haqiqatni tasdiqlaydi.

Yevropa, Osiyo va Afrika qit'alaridagi 40 ta davlatni bevosita qamrab olgan urush harakatlariga 110 million kishi safarbar etilgani va bu qirg'inda jami 70 million kishi halok bo'lgani har qanday odamni larzaga soladi. Eng ko'p qurbonlar sobiq Ittifoq respublikalari hissasiga to'g'ri kelib, qariyb 27 million kishini tashkil etganini bugun ham ulkan qayg'u va iztirob bilan eslaymiz.

O'zbekiston xalqi butun taraqqiyparvar insoniyat qatorida urushning birinchi kunlaridan boshlab fashizmga qarshi jangga kirdi. Yovuz dushmanni tor-mor etish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdi.

Shu borada ba'zi bir eng muhim, ilgari bizga noma'lum bo'lgan fakt va raqamlarni yana bir bor eslab o'tish o'rinli, deb hisoblayman.

Ma'lumki, 1941-yilda respublikamiz aholisi 6 million 800 mingdan ziyod kishini tashkil etardi. Urush boshlanishi bilan qariyb 2 million yurtdoshimiz frontga otlandi. Har biri to'ma'noda qahramon bo'lgan bu aziz insonlarning 500 mingdan ziyodi shafqatsiz janglarda halok bo'ldi.

Biz bu raqamlarni har yili 9-may – G'alaba bayramida qayta-qayta esga olamiz. Bular shunchaki oddiy raqamlar emas. Ularning zamirida mushtipar onalarimiz, momolarimiz, mard va jasur otalarimiz, butun xalqimiz qalbidagi cheksiz qayg'u va hasrat mujassam.

Bu dard-u alamlarni hech qanday raqam, hech qanday so'z bilan ifodalab bo'lmaydi, desak, yanglishmagan bo'lamiz. Nega deganda, 500 mingdan ziyod qurbon – bu 500 mingdan ortiq fojia degani. Bu umr yo'ldoshidan ayrilgan ming-minglab ayollar, ota-onasidan judo bo'lgan millionlab yetim bolalar degani. Bu – oradan shuncha yillar o'tsa hamki, xalqimiz yuragidagi bitmagan, hech qachon bitmaydigan mudhish yara, tunganmas nola va armon demakdir.

O'zbekiston xalqi ana shunday og'ir talafotlar ko'rib, buyuk G'alabaga beqiyos hissa qo'shdi. Bu haqiqatni 200 mingdan ziyod askar va ofitserlarimiz jangovar orden va medallar bilan mukofotlangani ham yaqqol isbotlaydi. Vatandoshlarimizning 301 nafari Sovet Ittifoqi Qahramoni degan yuksak unvonga, 70 nafardan ortig'i uchala darajadagi "Slava" ordeniga sazovor bo'lganini alohida ta'kidlash lozim.

Insoniyat taqdiri va kelajagi hal bo'layotgan o'sha suronli yillarda O'zbekiston frontning mustahkam ta'minot bazasi bo'lib xizmat qildi.

“Hamma narsa – front uchun, hamma narsa – G'alaba uchun!” degan g'oya el-yurtimizning hayotiy e'tiqodiga aylandi. Xalqimiz tun-u kun tinimsiz mehnat qilib, ulkan miqdordagi oziq-ovqat, kiyim-kechak, qurol-aslaha, dori-darmon zaxiralarini jang maydonlariga uzluksiz yetkazib berdi. Bomba va snaryadlar tinimsiz portlab turgan hududlardan 170 ga yaqin zavod va fabrikalar O'zbekistonga evakuatsiya qilindi va qisqa muddatda qayta ishga tushirildi.

Urushdan jabr ko'rgan 1 million 500 mingdan ortiq keksalar, ayollar va bolalar respublikamizga ko'chirib keltirildi. Ularning 200 mingdan ziyodi ota-onasidan ayrilgan yetim bolalar edi.

El-yurtimiz mudhish urush yillarida o'zining yuksak gumanistik fazilatlarini namoyon etdi. O'zbekistonga olib kelingan turli millatga mansub ming-minglab insonlarga boshpana berdi, mehr-shafqat, odamiylik ko'rsatib, eng so'nggi nonini ham ular bilan baham ko'rdi. **“Toshkent – non shahri”, “O'zbekiston – mehr mamlakati”** ekanini amalda yana bir bor isbotladi.

Xalqimizning bunday ulkan jasorati, oliyjanoblighi butun dunyoda hurmat-ehtiromga sazovor bo'ldi. Va bu bilan biz har qancha faxrlansak, g'ururlansak arziydi.

Muhtaram vatandoshlar!

Sizlarga ma'lumki, keyingi yillarda xalqimizning buyuk G'alabaga qo'shgan ulkan hissasini har tomonlama o'rganish va targ'ib etish bo'yicha yurtimizda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada ilgari yopiq bo'lgan arxiv hujjatlari ochilgani, sobiq Ittifoq respublikalari va chet eldagi arxiv tashkilotlari, muzey va fondlar, olim va mutaxassislar, keng jamoatchilik bilan hamkorlik kuchaygani muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimizning Ikkinchi jahon urushi davridagi tarixi yangi ma'lumot va dalillar, noyob hujjatlar bilan boyib bormoqda. Mavzuga oid yangi-yangi ilmiy tadqiqotlar, badiiy asarlar, kinofilm va albomlar, ko'plab kartina va haykallar yaratilmoqda.

Ta'lim maskanlari va mahalla idoralarida ushbu yo'nalishda tashkil etilgan stend va ko'rgazmalarda jangchi ota-bobolarimizning o'lmas siymolari, ular haqidagi muhim tarixiy ma'lumotlar aks ettirilmoqda. Biz bu ishlarni yanada keng ko'lamda, faol davom ettirishimiz zarur.

Bugun urush yillarida besh azamat o'g'lidan judo bo'lgan Zulfiya Zokirova va uning oilasiga o'rnatilgan yodgorlik poyiga gulchambar qo'yib, hurmat bajo keltirdik. Bu matonatli inson timsolida barcha O'zbekiston onalariga yuksak hurmat-ehtiromimizni izhor etdik.

Ishonchim komilki, ana shunday fidoyi onalarimiz – sevgan yori va farzandlariga, oilasi va yurtiga sodiq ayollarimizning jasorati yosh o'g'il-qizlarimiz uchun Vatanga muhabbat, vafo va sadoqat, sabr-matonat timsoli bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ushbu majmuadagi har bir yodgorlikning ma'no-mazmuni va falsafasini, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga singdirishga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. G'alaba bog'i faoliyatini tashkil etish haqida o'tgan yili qabul qilingan Prezident qaroriga muvofiq, bu borada e'tiborga loyiq ishlar amalga oshirilmoqda.

Albatta, ularning barchasi haqida so'zlash uchun ko'p vaqt kerak. Men faqat eng muhim ishlar haqida qisqacha to'xtalib o'tmoqchiman.

Avvalo, G'alaba bog'i yodgorlik majmuasini harbiy tariximiz, urush va mehnat fronti qatnashchilari jasoratini o'rganish bo'yicha ilmiy markazga aylantirish harakati boshlandi. Shu

maqsadda tashkil etilgan ishchi guruh tomonidan majmua-ning elektron platformasi, onlayn dasturlar yaratildi va ularning faoliyati yo'lga qo'yildi. Majmuaning veb-sayti takomillashtirildi. Ikkinchi jahon urushida ishtirok etgan 2 millionga yaqin vatandoshlarimizning to'liq ro'yxatini shakllantirish va shu asosda "Vatan fidoyilari" xotira kitobini tayyorlash ishlari olib borilmoqda.

O'tgan qisqa davrda, karantin sharoitiga qaramasdan, G'alaba bog'iga 350 mingga yaqin yurtdoshlarimiz va chet ellik mehmonlar tashrif buyurdi. Ularning orasida o'quvchi va talabachilar, muhtaram nuroniylar, harbiy xizmatchilar, Hamdo'stlik davlatlari va boshqa chet el fuqarolari, yuqori martabali xorijiy delegatsiyalar a'zolari borligi, ayniqsa, e'tiborga sazovor.

Bu yerga tashrif buyurgan odamlarning O'zbekistonda Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari xotirasiga ko'rsatilayotgan ulkan hurmat-e'tibor haqida bildirgan samimiy fikrlari, yuksak baholari, o'ylaymanki, hech kimni befarq qoldirmaydi.

G'alaba bog'i qisqa muddatda tabarruk ziyoratgohga, turli uchrashuvlar, ma'naviy-ma'rifiy, harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tadbirlar muntazam o'tkaziladigan qutlug' maskanga aylanib qolgani barchamizni quvontiradi. Ayniqsa, 300 mingdan ziyod yoshlar ishtirok etgan "Shon-sharaf" harbiy festivali, yosh ijodkorlarning urush mavzusidagi ko'rgazmalari, ko'rik-tanlovlar ko'pchilikda katta taassurot qoldirdi.

Bugungi kunda majmua tarkibida faoliyat ko'rsatayotgan "Shon-sharaf" davlat muzeyida 12,5 mingga yaqin eksponat to'plangan bo'lib, ularning soni tobora ortib bormoqda.

Bu haqda gapirganda, o'tgan yili nashr etilgan "O'zbekiston xalqining fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan hissasini" kitob-albomini tilga olish o'rinlidir. Bu yilgi bayram arafasida uning uzviy davomi bo'lgan "O'zbekiston Ikkinchi jahon uru-

shi davrida” va “G‘alaba bog‘i falsafasi” nomli kitob-albomlar chop etilganini alohida qayd etish lozim. Ushbu nashrlarda xalqimizning urush yillaridagi qahramonligi haqida ilgari bizga noma‘lum bo‘lgan ko‘plab yangi ma‘lumotlar keltirilgan.

Shu borada birgina misolga e‘tiboringizni qaratmoqchiman.

Ma‘lumki, taniqli sahna ustasi Ma‘suma Qoriyeva urushdan oldingi yillarda sobiq Hamza teatrining yetakchi artistlaridan biri bo‘lgan. Uning qaynotasi – jadidchilik harakatining taniqli namoyandasi Abduvohid qori, qayin ukasi – iste‘dodli shoir Oltoy Qoriyev, turmush o‘rtog‘i – Madaniyat vazirligi san‘at boshqarmasining boshlig‘i Bosit Qoriyev 30-yillarda nohaq siyosiy qatag‘onga uchraydi. Qaynotasi va eri o‘lim jazosiga hukm qilinadi.

Yurtga yov bostirib kelgan og‘ir kunlarda Ma‘suma Qoriyeva o‘z boshiga tushgan fojiani unutib, ikki farzandi – Shavkat va Botir Qoriyevlarni fashizmga qarshi jangga yuboradi. O‘zi esa hozirgi O‘zbek Milliy akademik drama teatrida kasaba uyushmasiga rahbarlik qilib, g‘oyat og‘ir davrda xodimlarni moddiy ta‘minlash uchun jonbozlik ko‘rsatadi.

Urush tugaydi, lekin Ma‘suma ayaning farzandlaridan darak bo‘lmaydi. Mushtipar ona ularning izlarini izlab Moskvaga boradi. U yerda ikkala o‘g‘li ham janglarda halok bo‘lganini aniqlaydi.

Ma‘lum bo‘lishicha, urushda ko‘rsatgan jasorati uchun Shavkat Qoriyev “Qizil bayroq” ordeni, Botir Qoriyev esa “Qizil yulduz” ordeni bilan taqdirlangan ekan. Ming afsuski, Ma‘suma Qoriyeva u paytda bundan bexabar edi. Onaizor farzandlari dog‘ini ko‘tarolmasdan, 1946-yili Moskvada vafot etadi.

Mana shunday qayg‘uli voqealar bilan tanishganda, qahramon ajdodlarimizning o‘chmas xotirasi oldidagi qarzimiz va burchimizni yanada chuqur his etamiz. Bugungi tinch, erkin va yorug‘ kunlarning qadriga yetish kerakligini yana bir bor anglaymiz.

O'ylaymanki, tarixchi olimlarimiz, ijodkor ziyolilarimiz, kinochi va rassomlarimiz G'alaba bog'idagi har bir majmua haqida yangi ilmiy tadqiqotlar, badiiy asarlar yaratib, xalqimizga taqdim etsa, nur ustiga nur bo'lardi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Ikkinchi jahon urushi to'g'risidagi bor haqiqatni aniqlash va xalqimizga yetkazish, ajdodlar xotirasini abadiylashtirish bo'yicha hali ko'p ish qilishimiz kerak. Yurtimizdagi har bir qishloq, mahalla va ta'lim muassasasi, davlat va nodavlat tashkilotlar, keng jamoatchiligimiz urush ishtirokchilariga doir materiallarni to'plash va targ'ib etishda yanada faol ishtirok etadilar, deb ishonaman.

Ayniqsa, zamonaviy ilm-fanlarni, xususan, milliy tariximizni katta qiziqish va mehr bilan o'rganayotgan yoshlarimizdan bu borada yangi tashabbus va harakatlarni kutib qolamiz.

Bugungi kunda yurtimizda urush qatnashchilari haqidagi ma'lumotlarning to'liq elektron bazasini yaratishning vaqti-soati keldi. Rossiya, Belarus, Qozog'iston kabi davlatlarning bu boradagi ijobiy tajribasini o'rganib, bunday amaliy ishlarni O'zbekistonda ham tashkil etishimiz lozim.

Shu munosabat bilan Vazirlar Mahkamasiga ikki hafta muddatda Ikkinchi jahon urushi ishtirokchilari haqidagi ma'lumotlarning elektron bazasini yaratish, bu borada maxsus saytlar, Internet resurslarni ko'paytirish haqida qaror loyihasini tayyorlab kiritish topshiriladi.

Hurmatli anjuman qatnashchilari!

Hayot qonuniyatiga ko'ra, vaqt o'tishi bilan ko'p narsa unutiladi, esdan chiqadi. Lekin bu yorug' dunyoda ulug' bir haqiqat borki, u hech qachon o'zgarmaydi, hech qachon eskirmaydi. Ya'ni, **Vatan va xalq ozodligi, kelgusi avlodlarning baxt-u saodati yo'lida mardlik va jasorat ko'rsatgan insonlar xotirasi hamisha barhayot yashaydi.**

Shu bois biz uchun urush va mehnat faxriylarining izzat-hurmatini joyiga qo'yish, o'tganlarning xotirasini abadiylashtirish doimo muqaddas vazifa bo'lib qoladi. Bayram munosabati bilan bu borada ko'p ishlar amalga oshirildi. Jumladan, tegishli vazirlik, idora va tashkilotlar, harbiy qismlar rahbarlari ishtirokida urush va mehnat faxriylari, ularning oila a'zolarini qutlash, tabrik va sovg'alar topshirishga bag'ishlangan marosimlar tantanali vaziyatda o'tkazildi. Yolg'iz yashayotgan urush va mehnat faxriylarining uy-joylari ta'mirlandi va obod qilindi. Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlarining har biriga tibbiy va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatadigan, ularni parvarish qilish bilan shug'ullanadigan patronaj xizmati yo'lga qo'yildi. Ana shunday faxriylarimiz o'z xohish-istaklari asosida respublikamizdagi sanatoriylarda davolanmoqda. Bayram kunlarida barcha shahar va qishloqlarimizda xotira tadbirlari o'tkazilmoqda.

Albatta, xalqimiz ma'naviyatining ajralmas qismi bo'lgan bunday savobli ishlarni biz bundan buyon ham izchil davom ettiramiz.

Qadrli do'stlar!

Bugungi notinch va tahlikali hayotning o'zi Ikkinchi jahon urushining qonli fojialaridan xulosa va saboq chiqarib yashashni butun dunyo xalqlaridan talab etmoqda. Yer yuzida tinchlik uchun kurashish, dunyo davlatlari o'rtasida o'zaro do'stlik va hamkorlik aloqalarini kuchaytirish bugun har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Biz yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasini aynan mana shunday tamoyillar asosida amalga oshirmoqdamiz va bu yo'ldan hech qachon ortga qaytmaymiz.

Ayniqsa, bebaho boyligimiz bo'lgan tinchlik va barqarorlikni, millatlar va dinlararo ahillik va totuvlikni asrash, mustaqilligimizni yanada mustahkamlash hamisha bosh vazifamiz bo'lib qoladi.

Dunyoda va mintaqamizdagi notinch vaziyatni hisobga olgan holda, biz doimo hushyor va sezgir bo'lib yashashimiz, Qurolli Kuchlarimiz salohiyatini oshirib, yoshlarimizni vatanparvarlik va jasorat ruhida tarbiyalashimiz zarur.

Ana shunday g'oyat muhim vazifalarni samarali ado etishda buyuk ajdodlarimiz, muhtaram faxriylarimizning mardligi va shonli an'analari, hech shubhasiz, biz uchun doimo ibrat maktabi bo'lib xizmat qiladi.

Xalqimiz va millatimizning yuksak qadriyat va fazilatlari aynan ana shunday asosda shakllanadi va rivojlanadi.

Qahramon otalaridan o'rnak va namuna olib, ular bilan doimo faxrlanib yashaydigan xalq hech qachon kam bo'lmaydi va o'zining ezgu maqsadlariga, albatta, yetadi.

Qadrli va muhtaram vatandoshlarim!

Siz, azizlarni bugungi qutlug' bayram – Xotira va qadrlash kuni bilan yana bir bor chin qalbimdan tabriklayman.

Mana shu imkoniyatdan foydalanib, yaqinlashib kelayotgan yana bir ulug' ayyom – muqaddas Ramazon hayiti bilan ham barchangizni samimiy muborakbod etaman.

Xonadonlaringizga tinchlik-xotirjamlik, fayz-u baraka, baxt-u saodat tilayman.

Xalqimiz va butun insoniyat uchun buyuk G'alaba keltirgan barcha jasur jangchilarimizga shon-sharaflar bo'lsin!

Tinchlik va ozodlik yo'lida o'z aziz jonlarini fido etgan qahramonlar xotirasi hamisha barhayot bo'lsin!

Barcha ezgu orzu-niyatlarimiz amalga oshsin!

Yurtimiz tinch, xalqimiz omon bo'lsin!

Doimo sog'-salomat bo'ling, azizlarim, qadrdonlarim!

*Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan
tantanali marosimdagi nutq*

2021-yil 9-may

**O‘ZARO HAMKORLIGIMIZ MAMLAKATLARIMIZ
IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH
VA AHOLI FAROVONLIGINI
YUKSALTIRISHGA XIZMAT QILSIN**

Hurmatli Qosim-Jomart Kemelevich!

Muhtaram Nursultan Abishevich!

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Sizlarni samimiy qutlayman, aziz hamkasblar!

Yevroosiyo ittifoqining oliy darajadagi kengashi yig‘ilishida ishtirok etayotganimdan mamnunman.

Avvalo, Qozog‘istonning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqidagi faol raisligini alohida e‘tirof etmoqchiman.

Ilgari qayd etilganidek, pandemiya oqibatlariga qaramasdan, faol muloqot va yaqin amaliy hamkorlik davom etmoqda, uning natijalari Tashkilotimiz obro‘-e‘tiborining yuksalishi va uning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishga xizmat qilmoqda.

Hurmatli hamkasblar!

Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan hamkorlik O‘zbekiston uchun mamlakatimiz olib borayotgan siyosatning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Biz kuzatuvchi davlat sifatida qisqa davrda Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi bilan samarali aloqalarni yo‘lga qo‘yishga muvaffaq bo‘ldik: o‘tgan oyda Hamkorlik to‘g‘risidagi memorandum va uni amalga oshirish bo‘yicha uch yillik Chora-tadbirlar rejasini qabul qildik; Komissiyaning Kengashi va Hay‘ati hamda Yevroosiyo Hukumatlararo kengashining yig‘ilishlarida ishtirok etmoqdamiz; aprel oyida Toshkentda birinchi qo‘shma

tadbirlar – Sanoat siyosati bo'yicha kengashning sayyor yig'inishini va xalqaro "Innoprom" ko'rgazmasini o'tkazdik.

Muhtaram yig'ilish qatnashchilari!

Hozirgi murakkab sharoitda o'zaro muvofiqlashtirilgan yondashuvlar asosida hal etishni talab qiladigan eng muhim vazifalarga qisqacha to'xtalib o'tishga ijozat bergaysiz.

Birinchidan, davlatlarimiz o'rtasida savdo munosabatlarini yanada kengaytirish uchun katta salohiyat mavjud.

Yil boshidan buyon O'zbekiston bilan Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bo'yicha barcha sheriklar o'rtasida savdo sohasida ijobiy o'sish sur'atlari kuzatilayotganini alohida qayd etmoqchiman.

Biz Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi va unga a'zo davlatlar bilan savdo sohasidagi to'siqlarni bartaraf etish va tariflar doirasiga kirmaydigan tartibga solish choralari yaqinlashtirish masalalarida faol hamkorlik qilishga tayyormiz.

Ikkinchidan, mamlakatlarimizning yetakchi korxonalarini va hududlar o'rtasida sanoat kooperatsiyasini mustahkamlash iqtisodiyotlarimiz rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, uchinchi davlatlar bozorlarini birgalikda o'zlashtirish imkonini beradi.

Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi hamkorlik bo'yicha ulkan salohiyat mavjudligini ko'ryapmiz.

Qo'shma loyihalarni ilgari surish maqsadida Yevroosiyo taraqqiyot banki bilan yaqindan ishlashga tayyormiz.

Uchinchidan, transport va tranzit sohasi iqtisodiy aloqalarni chuqurlashtirishning hal qiluvchi harakat manbai hisoblanadi.

Bunda quyidagi masalalarni hal etish talab etiladi: yuklarning chegaralar orqali o'tishini tezlashtirish; standartlarni uyg'unlashtirish; nazorat-o'tkazish punktlarining ish vaqtini maqbullashtirish; chegaralardan o'tish bo'yicha tartib-taomillarni takomillashtirish.

Bundan tashqari, biz yuklarni tashish va tranzit uchun o'zaro imtiyozlar berish amaliyotini kengaytirishdan manfaatdormiz.

Epidemiologik vaziyatning barqarorlashib borayotgani va mamlakatlarimizda aholini emlash bo'yicha ko'rilayotgan choratadbirlarni hisobga olib, muntazam havo va temiryo'l qatnovini qayta tiklash vaqti keldi, deb o'ylaymiz.

To'rtinchidan, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi doirasida faoliyat yuritayotgan soliq va bojxona ma'muriyatchiligi, sanoat kooperatsiyasi, mehnat migratsiyasi va turizm bo'yicha raqamli platformalarni ishga jalb etish imkoniyatini ko'rib chiqmoqdamiz.

Biz joriy yilda ko'rsatib o'tilgan sohalar bilan birga teng raqobat sharoitlarini ta'minlash va monopoliyaga qarshi siyosatni olib borish, davlat xaridlarini amalga oshirish, yetakchi sanoat va qishloq xo'jaligi korxonalarini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi hamda boshqa mamlakatlar va integratsion birlashmalar bilan hamkorlik qilish kabi yo'nalishlarga e'tibor qaratmoqchimiz.

Hurmatli hamkasblar!

O'zbekiston uchun kuzatuvchi sifatida Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan hamkorlikda aniq, sezilarli natijalarga erishishni ta'minlash muhimligini yana bir bor ta'kidlayman.

Shu maqsadda, jumladan, tovarlar, kapital, mehnat resurslari va xizmatlar harakatiga doir tartib-taomillarni soddalashtirish masalalari bo'yicha tizimli hamkorlikni rivojlantirish zarur, deb hisoblaymiz.

Shu masalalarda ochiq va amaliy muloqotga umid qilamiz.

Ishonchim komilki, bunday hamkorlik mamlakatlarimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish va aholi farovonligini yuksaltirish yo'lida yangi imkoniyatlar ochadi, qo'shimcha turtki beradi.

E'tiboringiz uchun rahmat.

Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqining videoanjuman shaklida o'tkazilgan oliy darajadagi kengashi yig'ilishidagi nutq

2021-yil 21-may

MAMLAKATIMIZ MAKTABLARINI BITIRUVCHI O'G'IL-QIZLARIMIZGA

Aziz farzandlarim!

Qadrli maktab bitiruvchilari!

Avvalo, barchangizni beg'ubor o'quvchilik yillaringizni ortda qoldirib, qadrdon maktabingiz, mehribon ustozlaringiz bilan xayrlashib, hayotingizning yangi, yanada mas'uliyatli bosqichiga qadam qo'yayotganingiz bilan chin qalbimdan muborakbod etaman.

Ushbu quvonchli ayyomda mamlakatimizdagi barcha maktablarda "so'nggi qo'ng'iroq"lar yangrab, qariyb 438 ming nafar o'quvchi-yoshlarimiz yetuklik shahodatnomalarini qo'llariga olmoqda.

Bu nafaqat siz, aziz farzandlarimiz, balki biz – ota-onalar, ustoz-murabbiylar uchun ham g'oyat quvonchli va hayajonli voqeadir. Chunki, qalbi pok orzu-umidlar bilan to'lgan sizlar kabi navqiron, azm-u shijoatli yoshlarimiz timsolida biz uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim-tarbiya sohasidagi sa'y-harakatlarimizning yana bir amaliy natijasini, xalqimiz va Vatanimiz kelajagini ko'ramiz.

Sizlar keyingi ikki yil davomida pandemiya sharoitida o'qib va yashab, qiyinchiliklarga qarshi kurashish ko'nikmalarini ham egallashingizga to'g'ri keldi. Albatta, bu murakkab sinovli kunlar hademay o'tmishga aylanadi.

Ishonchim komil, yangi O'zbekiston sharoitida, zamonaviy taraqqiyot talablari asosida ta'lim-tarbiya olgan yosh avlod va-

killari sifatida barchangiz davlatimiz, xalqimiz tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlarni qadrlab, ulardan yanada samarali foydalanasiz.

Qadrli o'g'il-qizlarim!

Ma'lumki, biz o'z oldimizga ulkan maqsadlarni qo'yib, ular-ga erishishning eng muhim omili sifatida ta'lim-tarbiya sohasiga juda katta ahamiyat bermoqdamiz.

Qisqa muddatda maktabgacha ta'lim, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida muhim o'zgarishlar amalga oshirildi. **“Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi”** degan shior asosida maktab ta'limini rivojlantirish umumxalq harakatiga aylandi.

Bu haqda gapirganda, oxirgi to'rt yilda 134 ta yangi maktab qurilib, 2 ming 965 ta maktab rekonstruksiya qilinib, tubdan ta'mirlangani va jihozlanganini qayd etish lozim.

Yurtimizda mutlaqo yangicha mazmun va shakldagi zamonaviy Prezident maktablari, ijod maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablar barpo etilmoqda.

Hozirgi vaqtda respublikamizda 10 mingdan ziyod davlat umumta'lim, 171 ta nodavlat, 18 ta davlat-xususiy sheriklik shaklidagi maktablar faoliyat ko'rsatmoqda. Jumladan, 56 ta matematika, 28 ta kimyo-biologiya, 14 ta axborot texnologiyalari fanlariga ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etildi.

Shu boradagi ishlarimizni izchil davom ettirib, keyingi paytda fizika va chet tillariga ixtisoslashtirilgan maktablar ochishga alohida e'tibor bermoqdamiz. Shu yil sentabr oyida 14 ta fizika va 207 ta chet tillariga ixtisoslashtirilgan maktab o'z faoliyatini boshlashini alohida ta'kidlash lozim.

Eng muhimi, ana shu maktablarda ta'lim-tarbiya olayotgan o'g'il-qizlarimiz xalqaro fan olimpiadalari, ijodiy festival va tanlovlarda yuqori o'rinlarni egallamoqda, mamlakatimiz va

xorijdagi nufuzli oliygohlarga kirib o'qish huquqini qo'lga kiritmoqda.

Oxirgi bir yarim yilda iqtidorli o'quvchilarimiz xalqaro olimpiadalarda 4 ta oltin, 18 ta kumush, 30 ta bronza medalini qo'lga kiritgani ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Yurtimizda oliyjanob kasb egalari bo'lgan o'qituvchilar, ustoz-murabbiylarning mashaqqatli mehnatini munosib rag'batlantirish, ularning ish va turmush sharoitini yaxshilash, jamiyatdagi obro'-e'tiborini oshirishga muhim ahamiyat qaratilmoqda.

Xalqaro fan olimpiadalari g'oliblari va ularning ustozlarini moddiy taqdirlash mexanizmi yo'lga qo'yilgani ham ana shunday ishlarimiz qatoriga kiradi.

Dunyodagi taraqqiy topgan davlatlar tajribasi asosida maktab ta'limi uchun o'quv dasturi va darsliklarining yangi avlodini yaratish bo'yicha amaliy ishlar boshlandi.

Bugungi kunda butun yurtimizni qamrab olgan besh muhim tashabbus doirasida ham siz, aziz yoshlarimizning yetuk insonlar bo'lib kamol topishingiz uchun ko'p ishlar qilinmoqda.

Xususan, farzandlarimizni san'at dunyosiga oshno etish maqsadida 800 dan ortiq madaniyat markazida 4,5 mingdan ziyod to'garak faoliyati yo'lga qo'yilgani, ular musiqa asboblari va zarur jihozlar bilan ta'minlangani, maktablarda tashkil etilgan 36,5 mingdan ziyod to'garaklarga 1 million 100 ming nafar o'g'il-qizlarimiz jalb etilgani bu boradagi muhim qadamlardir.

Shuningdek, respublikamiz maktablarida 49 mingdan ortiq, bolalar va o'smirlar sport maktablarida esa 26 mingga yaqin to'garaklarda minglab o'g'il-qizlarimiz jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanmoqda.

Barcha maktablarimiz keng polosali Internet tarmog'iga bosqichma-bosqich ulanayotgani hamda mamlakatimizda jami 133 ta raqamli texnologiyalar o'quv markazi ochilgani far-

zandlarimizda zamon talabi bo'lgan kompyuter va "IT" texnologiyalar sohasida bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Yana bir muhim masala – yoshlar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini keng targ'ib qilishga alohida e'tibor berilmoqda. Shu asosda 201 ta axborot-kutubxona markazidagi kitoblar soni qariyb 25 millionga yetkazilgani, o'tgan yili maktab kutubxonalari 150 mingdan ziyod yangi adabiyotlar bilan ta'minlangani yoshlarimizning intellektual va ma'naviy salohiyatini yuksaltirishda muhim rol o'ynamoqda.

Aminmanki, shu kunlarda joylarda ko'tarinki kayfiyatda o'tkazilayotgan yoshlar forumlari va besh muhim tashabbusga bag'ishlangan festivallar ham maktablardagi bitiruv tadbirlariga uyg'un bo'lib, o'g'il-qizlarimiz hayotida o'chmas iz qoldiradi.

Hurmatli yosh do'stlarim!

Mana shu unutilmas damlarda sizlar yangi hayot ostonasida turib, kelajak rejalarini tuzar ekansiz, oldingizda katta imkoniyatlar va mas'uliyatli vazifalar turganini barchamiz yaxshi anglaymiz.

Qalbingizdagi ezgu orzu-intilishlarni ro'yobga chiqarishda mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan 137 ta oliy o'quv yurti, 339 ta kasb-hunar maktabi, 193 ta kollej va 196 ta texnikum sizlarga muntazirdir.

Sizlar uchun ishlab chiqarishdan ajralmagan holda oliy ma'lumot olish imkoniyati ham yaratilgan. Shu maqsadda 71 ta oliy ta'lim muassasasida sirtqi, 18 ta oliygohda kechki bo'limlar faoliyat ko'rsatmoqda.

Iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlaridagi ehtiyojdan kelib chiqib, so'nggi 5 yilda bakalavriat bosqichida 134 ta ta'lim yo'nalishi, magistraturada 147 ta mutaxassislik yangidan tashkil etildi.

Oliy ta'lim muassasalarida 2021–2022-o'quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich masofaviy ta'lim shaklida ham kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yiladi.

Hozirgi kunda yoshlarimiz uchun bir vaqtning o'zida 5 tagacha oliy ta'lim muassasasida tanlovlarda ishtirok etish imkoniyati yaratildi.

Bitiruvchi yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 2016-yildagi 9 foizdan 2020-yilda 25 foizga yetdi. Mazkur ko'rsatkichni joriy yilda 28 foizga, 2030-yilda 50 foizga yetkazish – asosiy vazifamizdir.

Azim poytaxtimiz Toshkent shahrida dunyoning eng ilg'or oliygohlari bilan hamkorlikda xalqaro talablar asosida tashkil etilayotgan **“Yangi O'zbekiston” universiteti** ham siz, aziz yoshlarimizni joriy yildan o'z bag'riga chorlaydi.

Aziz bitiruvchilar, qadrlil farzandlarim!

Shu kunlarda sizlarning baxtingiz, kamolingizni o'ylab, yurtimizda yana bir tizim joriy etilmoqda. Ya'ni, joylarda viloyat, shahar va tuman hokimliklari, sektor rahbarlari ota-onalar va o'quvchilar bilan uchrashib, barcha bitiruvchilar uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berish tashabbusi bilan chiqmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, maktabni bitirib chiqayotgan yigit-qizlarimizdan birontasi e'tibordan chetda qolmaydi. Ularning har biri xalqimiz, Vatanimizning cheksiz mehri va yuksak e'tiborini his qilib yashaydi.

Shu munosabat bilan sizlarga, butun mamlakatimiz yoshlariga murojaat qilib aytmoqchiman: hech qachon unutmang, sizlar inson har tomonlama erkin, ozod va farovon yashaydigan yangi O'zbekiston, yangi Renessans bunyodkorisizlar.

Sizlarning hayotda o'z munosib o'ringizni topishingiz uchun davlatimiz va jamiyatimiz bundan buyon ham bor kuch va imkoniyatlarini to'la safarbar etadi.

Xalqimizning ana shunday yuksak ishonchiga doimo munosib bo'ling!

Sizlarning o'z oldingizga yuqori maqsadlar qo'yib, vaqtingizni behuda o'tkazmay, doimo bilim va ko'nikmalaringizni oshirib borishingiz, yangi kasb-hunarlarini egallashingiz va eng asosiysi o'z maqsadingiz sari tinmay harakat qilishingiz, albatta, kelgusidagi muvaffaqiyatlaringiz garovidir.

O'rganish, izlanish va intilishdan aslo to'xtamang!

Sizlarni maktab ta'limini muvaffaqiyatli tugatganingiz bilan yana bir bor samimiy tabriklayman.

Barchangizga sihat-salomatlik, ishda va o'qishda, shaxsiy hayotda katta yutuq va omadlar tilayman.

Mustaqil hayot sari tashlayotgan ilk dadil qadamingiz qutlug' va muborak bo'lsin!

Sizlarning yutuq va g'alabalaringizga ishonaman, aziz bolalarim!

2021-yil 24-may

“YASHIL IQTISODIYOT”NI RIVOJLANTIRISH YO‘LIDAGI HAMKORLIK

Hurmatli sammit ishtirokchilari!

Xonimlar va janoblar!

Avvalo, ushbu muhim tadbirda ishtirok etishga taklif etgani uchun Prezident Mun Chje In Janobi Oliylariga o‘z minnatdorligimni bildirmoqchiman.

Koreyalik sheriklarimiz tomonidan barqaror rivojlanishning dolzarb muammolarini hal etish va global miqyosda “yashil iqtisodiyot” masalasini kun tartibiga qo‘yish borasidagi tashabbus va sa’y-harakatlarni olqishlaymiz hamda ularni yuksak baholaymiz.

Fursatdan foydalanib, barchangizni, xususan, Pan Gi Mun janoblarini Global yashil iqtisodiy o‘shish instituti tashkil etilgani-ning 10 yilligi bilan samimiy muborakbod etaman.

Hurmatli forum qatnashchilari!

Pandemiya inson salomatligi va atrof-muhitning holati, shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot bir-biri bilan naqadar bog‘liq ekanini yaqqol ko‘rsatdi.

Bugungi kunda ona tabiatning o‘zi bizga yo‘llayotgan ogohlik qo‘ng‘irog‘iga beparvo bo‘lmasligimiz kerak.

Afsuski, iqlim o‘zgarishlari tobora kuchayib bormoqda. Biz yashayotgan Markaziy Osiyoda so‘nggi 30 yilda o‘rtacha yillik harorat taxminan bir darajaga ko‘tarildi.

Mintaqamizdagi asosiy daryolarning havzasi va biologik xilma-xillikning qisqarib borayotgani jiddiy xavotir uyg‘otmoqda.

Bug‘lanish darajasini oshiradigan gazlar va atmosferaning keng miqyosda ifloslanishi muammolarni yanada chuqurlashtirmoqda.

Bugungi kunda “yashil taraqqiyot” borasidagi maqsadlarga erishish uchun mamlakatlarning harakatlari yanada faol va samarali bo‘lishi kerakligiga hech kim shubha qilmayapti. Boshqa choramiz ham yo‘q.

Biz O‘zbekistonda shu yo‘nalishdagi muhim ishlarni boshladik.

“Yashil iqtisodiyot”ga o‘tishning keng qamrovli strategiyasini, shuningdek, Qayta tiklanadigan va vodorod energetikasini rivojlantirish dasturini amalga oshirmoqdamiz.

Parij bitimi doirasida biz 2030-yilga borib havoga zararli gazlar chiqarishni 10 foizga kamaytirish majburiyatini zimma-mizga oldik.

Biz mintaqada birinchi bo‘lib Global yashil iqtisodiy o‘sish institutiga qo‘shildik va ushbu tuzilmaning vakolatxonasini O‘zbekistonda ochish niyatidamiz.

“Yashil iqtisodiy tiklanish” sohasidagi hamkorlikning muhim yo‘nalishlari haqida to‘xtalib o‘tmoqchiman.

Birinchidan, “yashil texnologiyalar”ni keng joriy etish hisobidan Orol dengizi halokatining global oqibatlarini bartaraf etish muhimdir.

Ushbu masala bo‘yicha biz sheriklarimiz bilan, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti qoshida tuzilgan maxsus Trast fondi hamda P4G platformasi doirasida faol hamkorlikni yo‘lga qo‘ymoqchimiz.

Kuni kecha O‘zbekistonning tashabbusi asosida Orol dengizi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e‘lon qilish to‘g‘risida BMTning maxsus rezolutsiyasi qabul qilinishini qo‘llab-quvvatlaganingiz uchun minnatdorlik bildiraman.

Ikkinchidan, “yashil energetika”ni rivojlantirish orqali uglerod yoqilg‘isiga bog‘liqlikdan qutulishga intilmoqdamiz.

Biz quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish bo'yicha yirik loyihalarni amalga oshirishni boshladik. Yaqin o'n yil davomida qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushini uch barobar ko'paytirishni maqsad qilganmiz.

Bundan tashqari, mintaqamizning gidroenergetika sohasidagi ulkan salohiyatini ishga solishda qo'shni davlatlar bilan yaqindan hamkorlik qilayapmiz.

Kelgusi yili O'zbekistonda "Rivojlanayotgan mamlakatlarni uchun yashil energetika" mavzusida xalqaro konferensiya o'tkazishga tayyormiz.

Uchinchidan, "yashil iqtisodiyot"ni barpo etishda yoshlarni faol jalb etish bo'yicha Maxsus dasturni amalga oshirishga kirishishni taklif etamiz.

Bu kelajakda "yashil", ya'ni ekologik toza mahsulotlarni iste'mol qilish madaniyatini shakllantirishga katta imkoniyat yaratadi.

To'rtinchidan, moliya sektori va investorlarning "yashil texnologiyalar"ga tobora ortib borayotgan ishonchini rag'batlantirish niyatida yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish tarafdorimiz.

Shu maqsadda O'zbekiston P4G yo'nalishidagi sheriklikka qo'shilish va uning to'laqonli ishtirokchisiga aylanishga tayyor.

So'zimning yakunida bugungi sammit natijalari mazkur muhim xalqaro ekologik platforma doirasida bizning amaliy hamkorligimizni kengaytirishga xizmat qiladi, deb ishonch bildiram.

Barchangizga muvaffaqiyatlar tilayman.

E'tiboringiz uchun rahmat.

"Yashil o'sish va global maqsadlar uchun hamkorlik – 2030" (p4g) videoanjuman shaklida o'tgan ikkinchi xalqaro sammitidagi nutq

2021-yil 30-may

BOKS BO‘YICHA O‘ZBEKISTON TERMA JAMOASIGA

Mard va jasur farzandlarim, yurtimiz qahramonlari!

Siz, azizlar shu yil 24–31-may kunlari Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay shahrida bo‘lib o‘tgan boks bo‘yicha Osiyo chempionatida Vatanimiz sharafini munosib himoya qilib, azm-u shijoatli o‘zbek farzandlari qanday buyuk ishlarga qodir ekanini yana bir bor yaqqol namoyon etdingiz.

Sizlarning mana shunday yorqin g‘alabangiz va uning omillari haqida so‘z yuritar ekanmiz, mamlakatimizda keyingi yillarda jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishga jiddiy e‘tibor berilayotganini alohida ta‘kidlash o‘rinlidir.

Ana shunday yuksak e‘tibor tufayli yoshlarimiz o‘rtasida sportning boshqa turlari qatori boksga bo‘lgan mehr va qiziqish ham tobora ortib bormoqda.

Hech shubhasiz, bu borada o‘zining shonli an‘analariga ega bo‘lgan o‘zbek boks maktabining sizdek munosib vakillarining jahon maydonlarida erishayotgan ulkan yutuqlari ham beqiyos rol o‘ynamoqda.

Bundan besh yil oldin aynan sizlarning yuksak mahorat va matonatingiz bilan Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida bo‘lib o‘tgan XXXI yozgi Olimpiya o‘yinlarida O‘zbekiston charm qo‘lqop ustalari jahonning eng qudratli va yetakchi boks jamoalari qatoriga ko‘tarilgani barchamizga cheksiz g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi.

Sizlar keyingi yillarda ana shu yutuqlarni yanada mustahkamlab, 3 ta Osiyo birinchiligi, Osiyo o‘yinlari va 2019-yili Rossiya-

ning Yekaterinburg shahrida o'tkazilgan jahon chempionatida barcha raqiblarni ortda qoldirib, umumjamoa hisobida birinchi o'rinni qo'lga kiritganingiz tahsinga sazovordir.

O'zbek boksining shuhratini kelgusida jahon miqyosida keng tarannum etish, ushbu sport turini yoshlarimiz o'rtasida yanada ommalashtirish maqsadida yaqinda maxsus qaror qabul qilganimiz sizlarga yaxshi ma'lum, albatta.

Mazkur hujjatda qariyb bir asrlik boy tarix va an'analarga ega bo'lgan o'zbek boks maktabini yanada rivojlantirish, uning jahon sportidagi yetakchilik mavqeyini mustahkamlash, yoshlarimiz o'rtasidan yangi Osiyo, jahon va Olimpiya chempionlari yetishib chiqishini ta'minlash bo'yicha zarur chora-tadbirlar belgilanganini aytib o'tishni istardim.

Shu o'rinda mamlakatimizda xotin-qizlar sporti, xususan, ayollar boksi ham izchil rivojlanib borayotganini qayd etish lozim. Sizlar g'oliblikni qo'lga kiritgan Osiyo chempionatida To'maris va Barchinoydek botir va dovyurak momolarimizning munosib davomchilari bo'lgan jasur qizlarimiz ham faol ishtirok etib, 1 ta oltin, 5 ta kumush va 2 ta bronza medalini qo'lga kiritganlari hammamizni quvontiradi.

Bu haqda gapirganda, yaqinda yoshlar o'rtasida bo'lib o'tgan dunyo birinchiligida o'zbek qizi Nigina O'ktamova milliy tariximizda birinchi marta xotin-qizlar orasida "jahon chempioni" degan yuksak sharafiga muyassar bo'lganini faxr bilan tilga olamiz.

Ishonamanki, bu hali boshlanishi. Kelgusida qizlarimiz bundan ham yuksak g'alabalari bilan jahon boks olamini hayratga soladi, albatta.

Aziz g'olib va muzaffar farzandlarim!

Sizlarning Osiyo chempionatida erishgan ulkan yutug'ingiz eng ulug', eng aziz bayramimiz – Mustaqilligimizning 30 yillik shodiyonasiga munosib sovg'a bo'ldi.

Sizlar ushbu g'alabangiz bilan xalqimizga yanada ko'tarinki kayfiyat va katta quvonch olib keldingiz.

Bunday muvaffaqiyatlar zamirida tajribali murabbiylar va federatsiya xodimlarining kecha-yu kunduz qilayotgan tinimsiz mehnati, faxriylarimizning yillar davomida to'plagan buyuk va bebaho merosi, xalqimiz va hurmatli ota-onalaringizning duolari mujassam, desak, har tomonlama to'g'ri bo'ladi.

Yaqinda Tokio shahrida boshlanadigan Olimpiya o'yinlarida ham sizlarga mana shunday ulkan zafar va omadlar yor bo'lsin!

Jahon sport maydonlarida Vatanimiz bayrog'ini yanada baland ko'tarib, uning shon-shuhratini oshirishda barchangizga sihat-salomatlik, kuch-g'ayrat va yangi-yangi g'alabalar tilayman.

Yorqin va ulkan yutug'ingiz muborak bo'lsin!

2021-yil 2-iyun

ABADIY DO'STLIKNING YAQQOL IFODASI

Assalomu alaykum, qadrli do'stlar!

Hurmatli Emomali Sharipovich!

Muhtaram tojik birodarlar!

Siz, azizlarga va sizlarning timsolingizda do'st va qardosh Tojikiston xalqiga o'z nomimdan, ko'p millatli O'zbekiston xalqi nomidan cheksiz hurmat va ehtiromimni izhor etishga ruxsat bergaysiz.

Bugun mehmondo'st Tojikiston zaminida, ushbu muhtasham saroyda "Do'stlik oqshomi" deb nom olgan san'at bayramida qatnashayotganimizdan behad mamnunmiz.

Hurmatli Emomali Sharipovich!

Qadrli tojikistonlik do'stlar!

Menga Tojikistonning yuksak Davlat mukofoti – "Zarrintoj" ordeni topshirilgani uchun sizlarga yana bir bor samimiy minnatdorchiligimni bildirishdan g'oyat mamnunman. Bu men uchun, butun o'zbek xalqi uchun katta sharaf. Ushbu ordenni biz olib borayotgan strategik sheriklik siyosatining samaradorligi hamda O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi abadiy do'stlikning tasdig'i sifatida qabul qilaman.

Bunday yuksak mukofot katta hurmat va ishonch ifodasi, xalqlarimiz o'rtasidagi ko'p asrlik qardoshlik va yaxshi qo'shnichilik rishtalarini mustahkamlash bo'yicha olib borayotgan birgalikdagi sa'y-harakatlarimizga berilgan yuksak e'tirof va bahodir.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari va mehmonlari!

Tojikiston Respublikasi bizning eng yaqin qo'shnimiz va ishonchli do'stimizdir. Muqaddas zaminimiz va suvimiz bir, dini-miz, tarix va taqdirimiz mushtarak, dardimiz, orzu va intilishlarimiz ham bir. Ushbu tarixiy haqiqatning isboti sifatida buyuk davlat va siyosat arbobi Jabbor Rasulovich Rasulovning so'zlarini keltirmoqchiman: **“Tojikiston va O‘zbekiston xalqlari taqdiri naqadar o‘zaro bog‘liq ekaniga hayotning o‘zi va tarix guvoh bo‘lmoqda”**.

Ana shu dono so‘zlarga atoqli davlat va siyosat arbobi Sharof Rashidovich Rashidovning samimiy so‘zlari hamohangdir: **“O‘zbeklar va tojiklar – bir qushning ikki qanotidir”**.

Darhaqiqat, faqat birgalikda, bir-birimizni qo‘llab-quvvatlab, o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirib, oldimizga qo‘ygan eng yuksak marralarga erishamiz.

Biz doim bir-birimizga tayanch bo‘lib, har qanday qiyinchilik va sinovlarni yelkama-yelka turib yengib o‘tishimiz kerak.

Birdamligimiz va birodarligimiz bugun bizga ezgu ishlarni amalga oshirishda ulkan kuch va ishonch bermoqda, xonadonlarimizda, Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va xotirjamlikni saqlash uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Aynan do‘stligimiz mamlakatlarimizning hozirgi puxta o‘ylangan va amaliy siyosiy yo‘lining manbaiga aylandi.

So‘nggi yillarda ikki tomonlama munosabatlarimizda ulkan tarixiy o‘zgarishlar yuz berdi. Bugun O‘zbekistonda ham, Tojikistonda ham ularni millionlab odamlar o‘zining kundalik hayotida his etmoqda.

Ushbu yangi model – o‘zbek-tojik munosabatlari mutlaqo yangi muhitda rivojlanayotganining timsolidir. Eng asosiysi, barcha sa‘y-harakatlarimiz va amaliy ishlarimiz O‘zbekiston va

Tojikiston xalqlarining hayotiy manfaatlari va orzu-umidlariga to'liq javob beradi.

Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Sharipovich Rahmonga qardosh xalqlarimiz o'rtasidagi strategik hamkorlik va abadiy do'stlikni rivojlantirish va mustahkamlashga qo'shgan shaxsiy hissasi uchun alohida minnatdorchilik bildirmoqchiman.

Biz bu aloqalarni cheksiz qadrlaymiz va Tojikiston bilan ko'p qirrali munosabatlarni yanada chuqurlashtirishga tinimsiz harakat qilamiz.

Muhtaram do'stlar!

Bizda, O'zbekistonda **“Kuy – yaqin, ohang yaqin, dil yaqin”**, degan gap bor. Ya'ni, agar xalqlarning kuyi va qo'shiqlari yaqin va mushtarak bo'lsa, demak, ularning qalbi ham, yuragi ham yaqin bo'ladi.

Men tojikcha kuylarni, o'lmas maqomlarni eshitganimda, qardosh xalqning tarixi – buyuk hodisalar, shaharlar, me'morlik va madaniyat yodgorliklarining paydo bo'lishi, buyuk shaxslar, hukmdor va sarkardalar, shoir va mutafakkirlar, ma'naviyat ustozlarining hayoti va faoliyati bamisoli ko'z o'ngimda jonlangandek bo'ladi.

Tojikiston xalqi o'zining ming yillik tarixida ko'pgina yorug' va qayg'uli kunlarni ko'rdi. Biroq taqdirning hech qanday sinovlari, tabiiy ofatlar, hayot qiyinchiliklari uning iroda va matonatini, oliyjanob va buyuk fazilatlarini o'zgartira olmadi.

Zamonaviy Tojikiston boy tabiiy mineral-xomashyo resurslari, ulkan ilmiy, intellektual va ma'naviy salohiyatga egadir. Biroq mamlakatingizning eng katta boyligi – bu o'zgarish va yangilanishlar yo'lidan dadil borayotgan ochiqko'ngil, mehmondo'st, mehnatkash va g'ururi baland xalqdir.

Tojikistonning go'zal zaminida turib, dunyoqarashimiz, ma'naviy va axloqiy qadriyatlarimiz, hayot tarzimiz, mentalitet

va madaniyatimiz, milliy an'ana va urf-odatlarimiz naqadar bir-biriga o'xshashligiga yana bir bor amin bo'lmoqdaman.

O'zingiz ayting, aziz do'stlar, bu qadar yaqin va do'st xalqlar dunyoda yana bormi?

Bugungi kunda yoshlarimizning intellektual olami va ma'naviy dunyosi aynan ana shunday birodarligimizni mustahkamlaydigan yuksak axloqiy negizlar, eng yaxshi milliy an'anaviy va zamonaviy san'at namunalari asosida shakllanayotgani quvonchlidir.

Yaxshi an'anaga aylangan Tojikiston va O'zbekiston san'at ustalarining qo'shma konserti ikki mamlakat xalqlari o'rtasidagi samimiy do'stlikning yorqin ifodasidir.

Bugun iste'dodli o'zbekistonlik va tojikistonlik san'atkorlar birgalikda madaniyatlarimizning boyligini, xilma-xilligini, o'ziga xosligi va shu bilan birga, mushtarakligini namoyish etadilar.

Turli chegaralarni barpo etish – insonga xosdir, lekin san'at chegara bilmaydi, uning buyuk maqsadi odamlarni birlashtirishdan iborat.

Bir-birimizga yanada yaqin bo'lib, tinchlik va hamjihatlikda yashash – xalqlarimizning ezgu orzusi va samimiy intilishidir.

Biz, ikki mamlakat rahbarlari buni ro'yobga chiqarish uchun bundan buyon ham barcha kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.

Tinchlik va osoyishtalikni saqlash, kelgusi avlodlar uchun mamlakatlarimizning barqaror rivojlanishini ta'minlash – umumiy burchimizdir.

Ishonchim komil, do'st Tojikiston diyoriga bu galgi rasmiy tashrifimiz hamda bugun erishilgan kelishuvlar mamlakatlarimiz va xalqlarimiz o'rtasidagi yaxshi qo'shnichilik va strategik hamkorlik munosabatlarini yanada mustahkamlaydi.

Buyuk o'zbek shoiri Abdulla Oripov aytganidek:

*Do'st-u qardoshdir azaldan o'zbekim tojik bilan,
Ikkisi bir bayt g'azaldan o'zbekim tojik bilan.
Qay yo'sin aylay qiyos men bu shirin do'stlik so'zin,
Totlidir boldan, asaldan o'zbekim tojik bilan.*

Fursatdan foydalanib, chin qalbidan Sizga va butun do'st
Tojikiston xalqiga tinchlik, farovonlik va ravnaq tilab qolaman.
E'tiboringiz uchun rahmat!

*Tojikistonga rasmiy tashrif doirasida bo'lib o'tgan
"Do'stlik oqshomi" qo'shma konsertining
ochilish marosimidagi nutq*

*Tojikiston Respublikasi, Dushanbe shahri
2021-yil 10-iyun*

O'ZBEK VA TOJIK XALQLARI O'RTASIDAGI DO'STLIK ALOQALARI MUSTAHKAMLANMOQDA

Assalomu alaykum, qadrlı do'stlar!

Muhtaram Emomali Sharipovich!

O'zbekiston xalqi nomidan Siz, muhtaram Tojikiston ahliga qizg'in salom yo'llayman.

Avvalambor, Siz, azizlar bilan – go'zal So'g'd viloyati jamoatchiligi vakillari va faollari, nuroniy oqsoqollar, hurmatli ziyolilar, yoshlar bilan qadimiy va navqiron Xo'jand shahrida diydor ko'rishib turganimdan cheksiz baxtiyorman.

Barchangizga o'zimning eng yuksak hurmat-ehtiromim, ezgu va samimiy tilaklarimni izhor etishga ijozat bergaysiz.

Tojikiston xalqining ulug' peshvosi, qadrlı birodarim Emomali Sharipovich ta'kidlaganidek, dini, urf-odat va qadriyatlari musharak bo'lgan o'zbek va tojik xalqlari asrlar davomida yaqin qo'shni, do'st va hamkor bo'lib yashab kelmoqda. Hech shubhasiz, bu bebaho boylikni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash va kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish barchamizning muqaddas burchimizdir.

So'nggi yillarda O'zbekiston va Tojikiston davlatlari o'rtasida qaror topgan yaxshi qo'shnichilik va abadiy do'stlik tufayli biz ulkan natijalarga erishmoqdamiz. Albatta, bunday yutuqlarda Siz, azizlarning, ikki mamlakat jamoatchiligi va ziyolilarining beqiyos hissasi borligini biz yaxshi bilamiz va yuksak qadrlaymiz. Zero, insonlar, xalqlar va millatlar o'rtasida tinchlik va

hamjihatlikni, do'stlik va hamkorlikni mustahkamlash dunyodagi eng ulug' va ezgu vazifadir.

Hurmatli uchrashuv ishtirokchilari!

Ko'hna va navqiron So'g'd zamini, tarixiy Xo'jand shahrida O'zbekiston delegatsiyasiga ko'rsatilgan iliq va samimiy mehmondo'stlik uchun minnatdorchilik bildirishga ijozat bergaysiz. 2500 yillik tarixga ega bo'lgan go'zal shahringiz ko'pasrlar davomida Buyuk Ipak yo'lidagi muhim markaz sifatida mintaqaning madaniy hayotida ulkan rol o'ynagan.

Bosqinchilarga qarshi yelkama-yelka turib kurashgan ulug' sarkardalar – Xo'jandning buyuk o'g'loni Temur Malik va xorazmshoh Jaloliddin Manguberding jasoratini tarix hech qachon unutmaydi.

Muqaddas buyuk So'g'd zaminini dunyoga ko'plab ulug' shaxslarni bergan, ular O'zbekistonda ham yuksak darajada e'zozlanadi.

Matematik va astronom Abu Muhammad Xo'jandiy, "Xo'jand bulbuli" degan yuksak e'tirofqa sazovor bo'lgan shoir Kamol Xo'jandiy, diniy arbob Shayx Muslihiddin, ma'rifatparvar olimlar Siddiq Xo'jandiy, Toshxo'ja Asiriy va Hoji Yusuf, mashhur hofiz Sodirxon Hofiz shular jumlasidandir.

Qadrli do'stlar!

Bugungi uchrashuvimiz muhtasham "Qasri arbob" saroyida o'tayotganidan o'ziga xos ramziy ma'no bor. Bu yerda 1992-yilda – Tojikiston uchun juda og'ir, uning taqdiri hal etilayotgan tahlikali bir paytda muhtaram Emomali Sharipovich Rahmon davlat rahbari lavozimiga kirishgan edi.

Hozirgi vaqtda barchamiz Tojikiston Prezidentining tinchlik va millatlararo totuvlikni, aholi farovonligi barqaror o'sib borishini, mamlakatning xalqaro maydondagi obro'-e'tibori mustahkamlanishini ta'minlayotgan puxta o'ylangan siyosati qanday ulkan natijalar berayotganiga guvoh bo'lib turibmiz.

So'nggi yillarda umumiy siyosiy irodamiz va ikki xalqning intilishi natijasida o'rtamizdagi do'stlik va qardoshlik rishtalari yanada mustahkamlandi.

So'g'd zaminida samimiy mehmondo'stlik va shod-u xurramlik muhitini yana his etayotganimizdan g'oyat mamnunmiz.

Ko'p millatli Xo'jand, obrazli qilib aytganda, o'zbek va tojik xalqlari do'stligining ko'zgusi, bag'rikengligi va birodarligining yorqin namunasi ekanini barchamiz yaxshi bilamiz.

Fursatdan foydalanib, hurmatli Emomali Sharipovichni xalqlarimiz o'rtasidagi do'stona munosabatlarni mustahkamlashga, Tojikistonda o'zbek milliy madaniyati va san'ati rivoji uchun zarur sharoitlarni yaratishga shaxsan ulkan hissa qo'shayotgani uchun yana bir bor minnatdorchilik bildirmoqchiman.

Bugungi kunda Xo'jandda O'zbek ma'naviyat va ma'rifat markazi, mahalliy universitet qoshida o'zbek filologiyasi bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash ilmiy maktabi faol ish olib borayotgani alohida e'tiborga loyiqdir.

O'zbekistonda Ilhom Yusupov va Ozod Meliboyev kabi jamoat arboblari, Tojikiston xalq artisti Jo'rabek Nabiyev, yozuvchi O'rinboy Usmon, jurnalistlar Farhod Jo'rayev va Soliha Olimova, filolog olimlar Munavvar Oymatova, Feruza Qayumova va Hokimjon Zununnov singari So'g'd viloyati ziyolilarining yorqin namoyandalarini yaxshi bilishadi.

Biz ham O'zbekistonda tojik xalqi madaniyatini asrash va rivojlantirish uchun qulay sharoitlarni yaratishga muhim ahamiyat qaratmoqdamiz.

Bizning mamlakatimizda bir million olti yuz mingdan ziyod tojik millatiga mansub aholi istiqomat qiladi, ular O'zbekiston rivojiga munosib hissa qo'shayotgan vatandoshlarimizdir. Ularning orasida iste'dodli olimlar, tadbirkorlar, o'qituvchi va

shifokorlar, madaniyat va san'at arboblari, turli darajadagi rahbarlar bor. Misol uchun, bugungi uchrashuvda yosh olim, O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri Abduqodir Toshqulov ishtirok etmoqda.

Yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan 15 ta tojik milliy madaniyat markazi ham millatlararo totuvlikni mustahkamlashga o'z hissasini qo'shmoqda. Tojik tilida gazeta va jurnallar chop etilmoqda, tele va radioko'rsatuvlar namoyish etilmoqda.

O'zbekistonda o'qish tojik tilida olib boriladigan 255 ta maktab, bir qator oliy ta'lim muassasalarida fakultet va bo'limlar faoliyat olib boradi. Aytish joiz, joriy o'quv yilida ushbu yo'nalishlarga qabul ikki barobar oshirildi.

So'nggi yillarning o'zida tojik millatiga mansub 130 nafar yurtdoshimiz O'zbekistonning yuksak davlat mukofotlariga sazovor bo'ldi.

Xabaringiz bor, tashrifimiz arafasida Tojikistonda O'zbek kinosi kunlari muvaffaqiyatli o'tdi. Ikki mamlakat kinoijodkorlari hamkorligining eng yaxshi an'anelarini qayta tiklash vaqti keldi, deb o'ylayman. Shaxsan men ekranlarimizda xalqlarimiz, jumladan, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy o'rtasidagi do'stlik an'anelariga bag'ishlangan badiiy filmni ko'rishni anchadan buyon orzu qilaman.

Mushtarak tariximizda nafaqat ushbu buyuk ijodkorlar, balki Sadriddin Ayniy va Abdulla Qodiriy, Mirzo Tursunzoda va G'afur G'ulom, Mo'min Qanoat va Erkin Vohidov, Loyiq Sherali va Abdulla Oripov o'rtasidagi samimiy do'stlik bilan bog'liq yorqin misollar bor. Ularning shonli an'analari davom ettirilayotgani quvonarlidir.

Bugungi kunda mamlakatlarimizda ikki xalq adabiyoti va san'atini, umumiy madaniy merosni o'rganish va boyitishga

katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, yaqinda tojik millatiga mansub hamyurtimiz – Tojikiston davlat universitetining bitiruvchisi Olimjon Davletov Alisher Navoiyga bag'ishlangan fundamental ilmiy asarini nashr ettirdi.

Yana bir misol keltirmoqchiman.

Tojikistonlik iste'dodli jurnalist Avaz Yo'ldoshev o'zbek va tojik xalqlari o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanish tarixini yoritishdagi faol ishtiroki uchun O'zbekistonning "Oltin qalam" nufuzli milliy mukofoti bilan taqdirlandi.

O'rtamizdagi o'zaro do'stlik aloqalarini mustahkamlashga qo'shgan munosib hissasi uchun Alamxon Kucharov, Mirzo Mulloahmad, Abdujabbor Rahmonzoda (hozirgi vaqtda Tojikistonning O'zbekistondagi elchisi), Muhammadyusuf Imomzoda, Murtazo Zayniddinov, A'zam Xudoydodov, Abdushukur Abdusattor, Muhridin Nizomov, Sirojiddin Emomali kabi taniqli tojikistonlik adib va tadqiqotchilarga alohida minnatdorchiligimni bildirmoqchiman.

Qadrli do'stlar!

Xabaringiz bor, kecha biz muhtaram Emomali Sharipovich bilan o'zbek va tojik quruvchilari tomonidan bunyod etilgan Xatlon tumanidagi yangi shifoxona va Samarqand viloyatidagi maktabni ochdik. Bu do'stligimizning yana bir yorqin ifodasi bo'ldi.

Kecha Tojikiston Prezidenti bilan bo'lib o'tgan muzokaralar yakunlari bo'yicha muhim kelishuvlarga erishildi va ko'plab hujjatlar imzolandi.

Bugun o'zbek-tojik munosabatlari rivojlanishning sifat jihatidan yangi bosqichiga ko'tarildi, deb ishonch bilan aytish mumkin.

Hozirgi vaqtda barchamiz zamonaviy dunyo shiddat bilan o'zgarayotgani, jumladan, mintaqamiz xavfsizligi uchun yangi yangi tahdid va xatarlar yuzaga kelayotganiga guvoh bo'lib turibmiz.

Shuni hisobga olib, buyuk boyligimiz bo'lgan tinchlik va barqarorlik, do'stlik va hamkorlikni qadrlashimiz va rivojlantirishimiz, yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalashimiz zarur.

Faqat sa'y-harakatlarimizni birlashtiribgina umumiy maqsadlarimizga erishishimiz – xalqlarimiz uchun tinchlik, farovonlikni ta'minlashimiz mumkin.

Xalqlarimiz sizdan, hurmatli ijodkor va ziyolilar chuqur bilim va boy hayotiy tajribangiz, sizlarga xos bo'lgan g'ayrat-shijoat bilan o'zbek-tojik do'stligini mustahkamlashga munosib hissa qo'shishingizni kutmoqda.

Ishonchim komil, siz bunday oliyjanob va xayrli vazifani, albatta, muvaffaqiyatli ado etasiz.

Muhtaram uchrashuv qatnashchilari!

Xalqlarimiz do'stligi va birodarligi haqida yana ko'p gapirish mumkin. Biroq, faqat Alloh taolo iste'dod ato etgan shoirlargina ushbu bebaho boyligimizni tarannum eta oladi.

Shu munosabat bilan taniqli o'zbek shoiri O'lmas Jamolning she'riy satrlarini keltirmoqchiman. Ushbu iste'dodli ijodkor Dushanbeda yashab, ijod qilgani, Tojikiston va O'zbekistonning munosib farzandi bo'lgani barchamizga yaxshi ma'lum:

*O'zbekiston o'g'lidurman,
tojigim gufto pisar,
Rost go'yam, har kadome
sevgilimdir jon qadar.
Ona deb aytsam birovin,
ul biri menga padar,
Hamch-u du chashmi siyoham
ikki xalq ham mo'tabar.*

O'ylaymanki, do'st va birodar xalqlarimizning donishmandligi aks ettirilgan ushbu satrlar barchamiz uchun yaqin va tushunarli-dir.

Aziz do'stlar!

So'zimning yakunida hammangizga sihat-salomatlik, tinchlik va baxt, yangi ijodiy parvozlar tilab qolaman.

Katta rahmat!

*Tojikiston Respublikasiga amalga oshirilgan
rasmiy tashrif doirasida So'g'd viloyati
jamoatchilik vakillari bilan uchrashuvdagi nutq*

*Tojikiston Respublikasi, Xo'jand shahri,
2021-yil 11-iyun*

MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARIGA

Qadrli do'stlar!

Avvalo, siz, azizlarni, sohaning muhtaram faxriylarini Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni bilan samimiy muborakbod etib, barchangizga o'zimning yuksak hurmatim va ezgu tilaklarimni bildirishdan mamnunman.

Sizlarning bu galgi kasb bayramingiz eng ulug' va eng aziz ayyom – Vatanimiz mustaqilligining 30 yillik sanasi arafasida bo'lib o'tayotgani unga alohida ruh va mazmun bag'ishlamoqda.

Barchangizga ayonki, keyingi yillarda yangi O'zbekistonni barpo etishga qaratilgan islohotlar jarayonida ommaviy axborot vositalari sohasida ham tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

El-yurtimiz, jamoatchiligimiz matbuot nashrlari, tele-radio kanallar, nashriyot va matbaa korxonalarini, Internet saytlari, axborot xizmatlarida o'z vazifasini sidqidildan ado etayotgan zahmatkash jurnalist va blogerlar, noshir va muharrirlar, tarjimon va rassomlar, rejissor va operatorlar, barcha texnik xodimlarning mashaqqatli mehnatini yaxshi biladi va yuksak qadrlaydi.

Fursatdan foydalanib, doimo yangilik izlab, yangilikka intilib yashaydigan, jamiyatda yuz berayotgan muhim o'zgarishlar, ustuvor g'oya va tashabbuslarning ma'no-mohiyatini odamlarga tezkorlik va xolislik bilan yetkazadigan, hayotning qaynoq nuqtalariga dadil kirib boradigan siz, azizlarga mamlakatimiz taraqqiyotiga qo'shayotgan beqiyos hissangiz uchun chuqur minnatdorlik bildiraman.

Hurmatli do'stlar!

Bugungi kunda barcha darajadagi boshqaruv idoralari rahbarlarining ommaviy axborot vositalari vakillari, jurnalistlar bilan muntazam uchrashib, jamiyat hayotiga daxldor muhim masalalarni erkin muloqot asosida keng muhokama etishi yaxshi an'anaga aylanib bormoqda. Biz bunday yondashuvni O'zbekistonda olib borilayotgan ochiqlik, oshkoralik va demokratik siyosatning eng muhim yo'nalishlaridan biri deb bilamiz hamda milliy manfaatlarimizga javob beradigan bu yo'lni qat'iy davom ettiramiz.

Shu sababli ommaviy axborot vositalarining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'siri, faoliyat samaradorligi va ta'sirchanligini oshirish, ularning moddiy-texnik bazasi, kadrlar salohiyatini mustahkamlash, soha xodimlarining mehnatini har tomonlama rag'batlantirish biz uchun hamisha ustuvor vazifa bo'lib kelmoqda.

Bu borada, avvalo, mavjud me'yoriy-huquqiy bazani kuchaytirish maqsadida keyingi to'rt yilda 12 ta qonun hujjati qabul qilinganini, media sohasi, axborot xizmatlari tizimi tubdan yangilanganini ta'kidlash lozim.

Buning tasdig'i sifatida quyidagi raqamlarga e'tiboringizni qaratmoqchiman.

Bu yil tashkil topganining 65 yilligini nishonlaydigan milliy televideniya ham jiddiy o'zgarishlar ko'zga tashlanmoqda. O'z tarkibida tun-u kun faoliyat ko'rsatadigan 26 ta tele va 16 ta radiokanalni birlashtirgan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining yangi zamonaviy platformasi ("Over-the-top") markaziy telekanallarimizda namoyish etilayotgan ko'rsatuvlarni butun mamlakatimiz bo'ylab hamda dunyoning yuzdan ziyod davlatlariga uzatish, ijtimoiy tarmoqlarga faol joylashtirish imkonini bermoqda.

Ayni vaqtda nodavlat elektron ommaviy axborot vositalari, gazeta va jurnallar, nashriyot va bosmaxonalar soni ko'payib borayotgani e'tiborga loyiq.

Davlat idoralarining jamoatchilik bilan aloqalarini mustahkamlashga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Jumladan, hokimiyat va boshqaruv organlari tomonidan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning borishi, milliy dastur va strategiyalarning bajarilishi yuzasidan doimiy ravishda matbuot anjumani va brifinglar, ochiq muloqotlar tashkil etilmoqda.

Agar 2019-yilda davlat va nodavlat tashkilotlardagi axborot xizmatlarining manbalari – rasmiy veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlardagi kanallar 559 tani tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda bu raqam 2410 taga yetdi.

Ommaviy axborot vositalaridagi tanqidiy chiqishlarga vazirlik va idoralar, hokimliklarning axborot xizmatlari orqali tezkor munosabatlar bildirish amaliyoti shakllanmoqda. Buning tasdig'ini davlat idoralari tomonidan tanqidiy materiallarga javob qaytarish ko'rsatkichi 2018-yilda 12 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yil yakuniga ko'ra qariyb 90 foizga yetgani misolida ham ko'rish mumkin.

Yaqinda qabul qilingan "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi farmon bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi.

Hozirgi vaqtda elektron ommaviy axborot vositalari, xususan, Internet jurnalistikasi hayotimizga tobora chuqur kirib bormoqda. Respublikamizda faoliyat yuritayotgan 1893 ta ommaviy axborot vositasidan 638 tasi yoki 33,7 foizi Internet nashrlari – veb-saytlar sifatida ro'yxatdan o'tgan.

Shu o'rinda, mamlakatimizda so'z va matbuot erkinligini ta'minlash maqsadida ommaviy axborot vositalarini ro'yxatdan o'tkazishda barcha jarayonlar inson omilisiz, elektron shaklda amalga oshirilayotgani bu yo'ldagi yana bir muhim qadam bo'lganini qayd etish zarur.

Sohada yuksak malakali kadrlar tayyorlash masalasi ham doimiy e'tiborimiz markazida bo'lib kelmoqda. O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti faoliyat ko'rsatmoqda, shuningdek, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Samarqand davlat chet tillar institutida ham jurnalistika yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

Aziz yurtdoshlar!

Mamlakatimizdagi barcha siyosiy-ijtimoiy institutlar kabi O'zbekiston jurnalistikasi ham hozirgi raqamli texnologiyalar davrida yangi shakllanish jarayonini boshidan kechirmoqda.

Bugun avlodlar, ijodiy maktablar, an'analar, tushuncha va tasavvurlar yangilanmoqda. Internet zamoni o'z talab va qoidalarini ilgari surmoqda. Ana shunday murakkab o'tish davrida milliy jurnalistikamiz ilgari kuzatilmagan turli sinov va qiyinchiliklarga ham duch kelayotganini e'tirof etish va ularni birgalikda bartaraf qilish haqida o'ylashimiz lozim.

Aminmanki, mazkur sohada yillar davomida erishilgan eng yaxshi yutuq va an'analarni saqlab qolish, xolislik va haqqoniylik prinsiplariga, qonun talablariga qat'iy rioya qilish, fuqaroning sha'ni va g'ururi, uning o'z mustaqil fikriga ega bo'lish huquqini hurmat qilish, yuksak professional mahorat sizlar uchun doimo asosiy faoliyat mezonini bo'lib qoladi.

Ushbu maqsadlarga erishishda O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi tomonidan ilgari surilgan bir qator tashabbuslar, ya'ni milliy media makonimizga dadil kirib kelayotgan yosh jurnalistlar, blogerlar, axborot tizimlari xodimlari ishtirokida

“Milliy jurnalistika: an’analar davomiyligi va zamonaviylik” mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya tashkil etish, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida “O‘zbekiston jurnalistika maktabi: ijodiy meros va an’analar”, “Jamiyat va ommaviy axborot vositalari”, “Jurnalistika odobi” kabi mavzularda davra suhbatlari va mahorat darslari, ijodiy tanlovlar uyushtirishga doir takliflar shubhasiz katta ahamiyatga ega.

O‘tish davri bilan bog‘liq sabablar tufayli bugungi kunda bir qator bosma nashrlarning moliyaviy ahvoli murakkab bo‘lib qolayotgani hammamizga yaxshi ma’lum. Yaqinda o‘zining yangi rahbarini saylagan O‘zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasining Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, Vazirlar Mahkamasi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, respublikamizdagi yetakchi gazeta va jurnallar bosh muharrirlari bilan birgalikda mazkur masalani atroflicha muhokama qilib, tegishli chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish haqidagi takliflarini biz, albatta, ma’qullaymiz.

Ushbu hujjatda bosma ommaviy axborot vositalarini qo‘llab-quvvatlashga oid amaliy chora-tadbirlar bilan birga, sohaga bozor iqtisodiyoti mexanizmlarini to‘liq joriy etish, mazkur nashrlarning mazmuni va jozibadorligini yanada oshirish, ularning axborot maydonida raqobatbardosh bo‘lishi uchun mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanish masalalari ko‘zda tutilishi maqsadga muvofiqdir.

Ayni vaqtda sohaning huquqiy asoslarini takomillashtirish va jurnalistlarning kasbiy faoliyatini himoya qilish, davlat va jamiyat o‘rtasidagi muloqotni mustahkamlash, kuchli jamoatchilik nazoratini yo‘lga qo‘yish ham oldimizda turgan muhim vazifadir.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga davlat organlari va tashkilotlarining

mansabdor shaxslari tomonidan ommaviy axborot vositalari ijodiy faoliyatiga to'sqinlik qilish, senzura o'rnatish, ularning faoliyatiga noqonuniy aralashish, tahririyat xodimlariga bosim va tazyiq o'tkazish, materiallar va zarur texnik vositalarni ulardan g'ayriqonuniy ravishda olib qo'yish harakatlari sodir etilgani uchun javobgarlikni nazarda tutadigan moddalarni kuchaytirish lozim.

Ta'kidlab aytamanki, mamlakatimizda demokratik yangilash jarayonlarini yanada chuqurlashtirish, ommaviy axborot vositalari faoliyati samaradorligini oshirish yo'lida davlatimiz va jamiyatimiz tomonidan sohani qo'llab-quvvatlash, jurnalistlarning mashaqqatli mehnatini har tomonlama rag'batlantirishga bundan buyon ham alohida e'tibor qaratiladi.

Muhtaram ommaviy axborot vositalari xodimlari!

Sizlarni qutlug' bayramingiz bilan yana bir bor tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, baxt-saodat, xonadonlaringizga tinchlik-xotirjamlik, fayz-u baraka tilayman.

Mas'uliyatli va sharaflil faoliyatingizda barchangizga yangi yutuq va omadlar yor bo'lsin!

2021-yil 27-iyun

AZM-U SHIJOATLI YOSHLARIMIZ BILAN BIRGALIKDA YANGI O‘ZBEKISTONNI, ALBATTA, BUNYOD ETAMIZ

Qadrli yoshlar, aziz farzandlarim!

Sizlarni va butun O‘zbekiston yoshlarini bugungi qutlug‘ bayram – Yoshlar kuni bilan chin qalbidan muborakbod etaman.

Hech shubhasiz, ushbu ayyom O‘zbekiston mustaqilligining 30 yilligi arafasida bo‘lib o‘tayotgani unga yanada chuqur mazmun va ko‘tarinki kayfiyat bag‘ishlamoqda.

Shu kunlarda eng ulug‘ va eng aziz bayramimizni munosib kutib olish maqsadida butun mamlakatimiz bo‘ylab katta bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Yangi-yangi sanoat korxonalari, zamonaviy uy-joylar, kommunikatsiya va infratuzilma tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari barpo etilmoqda. Albatta, butun xalqimiz qatori sizlar ham ushbu jarayonlarda faol ishtirok etmoqdasiz.

Yurtimiz bo‘ylab 6 millionga yaqin g‘ayrati baland, intiluvchan o‘g‘il-qizlarimiz ishtirokida **“Yangi O‘zbekiston yoshlari, birlashaylik!”** shiori ostida o‘tkazilgan festivallar, barcha yoshlarimiz uchun yetuklik va haqiqiy vatanparvarlik ko‘rigi bo‘ldi. Ushbu festivallar bundan buyon nafaqat viloyat markazlarida, balki har bir tuman va shaharda o‘tkazib boriladi va ularda ko‘tarilgan masalalar yechimi bo‘yicha har yili Hukumat alohida dasturlar qabul qiladi.

Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratilgan umumxalq harakati saflarida siz, aziz yoshlarimizning qudratli to‘lqin bo‘lib maydonga chiqayotganingiz yuksak tahsinga sazovordir.

Albatta, yoshlikka xos shijoat, jo'shqinlik va mardlikni, ezgu orzu-intilishlarni amaliy harakatga aylantirib, salmoqli natijalarga erishish uchun inson o'z oldiga aniq maqsad qo'yib yashashi kerak.

Agar tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, buyuk ajdodlarimiz erishgan olamshumul yutuqlar zamirida, avvalo, ona Vatanga, xalqqa xizmat qilishdek oliyjanob maqsad mujassam ekanini ko'ramiz. Masalan, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek singari ulug' allomalar, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi shoir va mutafakkirlar, Abdulla Avloniy, Fitrat, Abdulla Qodiriydek ma'rifatparvar adib va olimlar mashhur ilmiy kashfiyotlarini, o'lmas badiiy asarlarini aynan sizlarning yoshingizda yaratganlarini hammamiz yaxshi bilamiz va bu bilan faxrlanamiz.

Bizning tomirlarimizda ana shunday ulug' bobolarimizning qoni oqar ekan, ularning munosib vorislari bo'lish, ular kabi yuksak maqsadlar sari intilib yashash barchamizning ezgu burchimizdir.

Bugun biz davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etgan holda, mamlakatimizda Uchinchi Renesans poydevorini yaratish yo'lida katta qadamlar qo'ymoqdamiz.

Bu borada yurtimizda mutlaqo yangicha shakl va mazmundagi Prezident maktablari, ijod va ixtisoslashgan maktablar tizimi yaratilganini ta'kidlash lozim. Ushbu maktablarda ta'lim olayotgan ko'plab o'quvchilar nufuzli xalqaro tanlovlarda yuqori natijalarni qo'lga kiritmoqdalar.

Misol uchun, Andijondan Durдона Muxtorxo'jayeva, Buxorodan Firdavs Sobirov, Doniyor Ismoilov, Sirdaryodan Ilg'or Qodirqulov, Nabixon Nabixonov, Toshkent shahridan Nodira Sa'dullayeva, Iskandar Bo'riyev, Dilshod Xo'jaqulov, Rail Xashayev fizika, matematika va kimyo bo'yicha xalqaro olimpiadalarning oltin, kumush va bronza medallariga sazovor

bo'ldilar. Bunday zukko va bilimdon farzandlarimiz bilan har qancha faxrlansak, arziydi.

Fursatdan foydalanib, ularning ana shunday yutuqlarga erishishiga katta hissa qo'shgan jonkuyar ota-onalariga, zahmatkash ustoz va murabbiylariga ham o'zimning samimiy minnatdorligimni bildiraman.

Endigi muhim vazifamiz – mana shunday farzandlarimiz orasidan yangi avlod Beruniylarini, Ibn Sino va Ulug'beklarini, Xorazmiy va Farg'oniylarini tarbiyalab, voyaga yetkazishdan iborat. Bu yo'nalishda **“Beruniy izdoshlari”**, **“Mirzo Ulug'bek vorislari”**, **“Alisher Navoiy davomchilari”** kabi ko'rik-tanlovlar o'tkazib, g'oliblarni rag'batlantirish tizimi yo'lga qo'yiladi.

So'nggi yillarda yoshlarimizning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratmoqdamiz.

Xabaringiz bor, yaqinda taniqli siyosatchi, Parlamentlararo ittifoqning Bosh kotibi Martin Chungong boshliq rasmiy delegatsiya mamlakatimizga tashrif buyurdi. Suhbat chog'ida u kishi bir fikrni afsus bilan ta'kidladi. Ya'ni, sayyoramiz aholisining yarmidan ko'pini 30 yoshgacha bo'lgan insonlar tashkil etsa-da, butun dunyo bo'yicha yosh deputatlarning ulushi 2,6 foizga ham yetmas ekan. Oliy martabali mehmon O'zbekistonda bu ko'rsatkich 6 foizdan oshganini yuqori baholadi. Bu – katta e'tirof, albatta.

Biz bu g'oyat muhim yo'nalishdagi ishlarimizni davom ettirgan holda, Parlamentlararo ittifoq ko'magida **“Biz parlamentda yoshlarni qo'llab-quvvatlaymiz!”** degan ezgu tashabbusni amalga oshiramiz. Ushbu tizim asosida siyosiy yetuk va faol yosh yigit-qizlarimizni milliy parlamentimiz va mahalliy Kengashlar faoliyatiga yanada kengroq jalb etamiz.

Xalq deputatlari kengashlari tavsiyasi asosida yosh, g'ayratli, fidoyi o'g'il-qizlarimiz bundan buyon Oliy Majlis deputati va senatorlariga biriktiriladi.

Shu bilan birga, mahalliy Kengashlarda ham, xuddi Senat va Qonunchilik palatasidagi kabi, yoshlar parlamenti vakillari maktabi tashkil etiladi. Shuningdek, iqtidorli yoshlar orasidan yangi avlod zaxira kadrlari – **“Kelajak liderlari”**ni shakllantiramiz.

Bugun shuni mamnuniyat bilan ta’kidlashni istardimki, bunday yoshlarimizning ko’pchiligi jonbozlik ko’rsatib xizmat qilmoqda. Masalan, Sherzod Rahmonov – Narpay tumanida, Sarvarbek Sultonov – Shirin shahrida va Elbek Shukurov – Sergeli tumanida hokim vazifasida, Durdoni Rahimova – Toshkent shahar hokimi o‘rinbosari, Odiljon Tojiyev – Qonunchilik palatasi Spikeri o‘rinbosari lavozimida ishlab kelmoqda.

Shu bilan birga, ko‘plab iqtidorli o‘g‘il-qizlarimiz xorijdagi nufuzli oliygohlarda o‘qimoqda, ilm-fan bilan shug‘ullanmoqda, yirik va yetakchi kompaniyalarda ish olib bormoqda. Biz ana shunday yuksak bilim va malakaga ega bo‘lgan yoshlarimizning Vatanimizga kelib ishlashi uchun barcha sharoitlarni yaratib beramiz. Ularni rahbarlik lavozimlariga asosiy nomzod sifatida belgilash, uy-joy ajratish, munosib maosh to‘lash bo‘yicha yangi tizim joriy etamiz.

Umuman, yosh kadrlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va tarbiyalashga qaratilgan siyosatimizni qat’iy davom ettiramiz. Buning uchun, viloyat, tuman va shahar kengashlari har yili hokim, vazir, idora va bank rahbarligiga kamida 2 nafardan yosh nomzodlar zaxirasini tasdiqlaydi. Joriy yildan boshlab, bunday iqtidorli yoshlarimiz “Elyurt umidi” jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chet ellarda stajirovka o‘taydi. Shuningdek, respublikamizda ishlayotgan, xalqaro nufuzli reytinglarda mingtalikka kirgan oliygohni tugatgan va chet elda ilmiy ish qilgan yosh mutaxassislariga qo‘shimcha haq to‘lanadi.

Har bir viloyat hokimi va vazir yil boshida o'z hududi va tizimiga ana shunday yosh mutaxassislarni ishga olib kelish rejasini tasdiqlaydi hamda ularga beriladigan ish haqi, uy-joy va rag'batlantirish bilan bog'liq masalalarni hal qiladi.

Muhtaram anjuman qatnashchilari!

O'tgan yili dekabr oyida mamlakatimizda birinchi mar-ta o'tkazilgan Yoshlar forumi millionlab o'g'il-qizlarimiz ha-yotida yorqin iz qoldirdi. Barcha shahar va tumanlarda tashkil etilgan bunday anjumanlarda yoshlarimiz tomonidan ilgari su-rilgan tashabbus va takliflarning aksariyati **“Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”** Davlat dasturidan joy oldi.

Aziz yoshlar, shu o'rinda bir fikrni alohida ta'kidlab ay-tishni istardim. Biz O'zbekistonda har bir yilga qanday nom berishimizdan qat'i nazar, yoshlarning bilim va kasb-hunar egal-lashi, ular uchun munosib ish va turmush sharoiti yaratish masala-si doimo e'tiborimiz markazida bo'lib qoladi. Bundan buyon har bir viloyat, shahar va tuman hokimliklari va mahalliy Kengashlar tomonidan berilgan takliflar asosida, bu yo'nalishda alohida das-turlar qabul qilinadi va ularning ijrosi yil davomida muntazam nazorat etib boriladi.

Bugun hayotimizning qaysi soha va tarmog'ini olmaylik, yoshlarga e'tibor va g'amxo'rlik asosiy o'ringa ko'tarilib, ularga zarur sharoit va imkoniyatlar yaratib berilmoqda. So'nggi 4 yilda 30 yoshgacha bo'lgan tadbirkorlar soni 5 barobar ko'payib, ular 500 mingdan oshgani, buning yaqqol dalilidir.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokida zamonaviy korxonalar barpo etib, ko'plab yangi ish o'rinlari yaratayotgan, o'z mahsulotlarini eksport qilayotgan tadbirkor yoshlarimiz safi kun sayin kengayib bormoqda. Misol uchun, Samarqand tumanida – Muzrob Toshev, Rishtonda – Xurshid Normatov, Urgutda –

Majidxon Islomov, Xo'jaobodda – Nuriddin Abdurahmonov, Hazoraspda – Dilshodbek Hojiyev singari izlanuvchan yoshlarimiz havas qilsa arziydigan natijalarga erishmoqda.

Bugungi bayram munosabati bilan mana shunday salohiyatli yoshlarimizning bir guruhi yuksak davlat mukofotlari bilan taqdirlangani, albatta, barchamizni mamnun etadi.

Albatta, bunday o'g'il-qizlarimiz – zamonamizning yosh qahramonlaridir. Ularning dastlabki, ammo umidbaxsh yutuqlari haqida ommaviy axborot vositalarida ko'rsatuvlar, maqola va suhbatlar tashkil etib, amalga oshirayotgan ibratli ishlarini keng jamoatchilik, avvalo, tengdoshlari o'rtasida targ'ib etish ayni muddao bo'ladi.

Qadrli yoshlar!

Xabaringiz bor, keyingi paytlarda kelajagimiz egalari bo'lgan o'g'il-qizlarimiz bilan ishlashning mutlaqo yangi tizimi – “Yoshlar daftari” va “Yoshlar dasturlari” hayotga tatbiq etilmoqda.

Olib borilgan amaliy ishlar natijasida o'tgan 8 oy mobaynida “Yoshlar daftari”ga kirgan 430 ming nafar yigit-qizning muammolarini hal etish uchun 300 milliard so'm mablag' yo'naltirildi. Jumladan, “Temir daftar”dagi oilalar farzandlari bo'lgan 2 mingdan ziyod talabaning kontrakt puli to'lab berildi.

Bundan buyon har qanday investitsiya loyihasining bosh maqsadi, avvalo, yoshlar bandligi masalasini hal etishga qaratilishi kerak. Bu hamma joyda o'zgarmas qoidaga aylanishi zarur.

Yoshlarni ish bilan ta'minlash, zarur kasb-hunarlariga o'rgatish uchun joylarda hokimlar va sektor rahbarlari mas'ul va javobgardir.

Xabaringiz bor, bu yildan boshlab, ish beruvchilarga ularning 25 yoshdan oshmagan ishchi-xodimlari uchun hisoblangan ijtimoiy soliq summasini budjetdan to'liq qaytarib berish tartibi

joriy qilindi. Natijada joriy yilning ikkinchi yarmida 170 milliard so‘m, kelgusi yilda esa 500 milliard so‘m mablag‘ 240 ming nafar yoshni ishga qabul qilgan tadbirkorlar ixtiyorida qoladi. Shuningdek, kasb-hunar maktabi va texnikumlar o‘quvchilariga korxonalarda amaliyot o‘tagan davri uchun 6 oy davomida 500 ming so‘mdan subsidiya berish joriy etilgani, yoshlar va ularning ota-onalar uchun katta rag‘bat bo‘ldi.

Bundan tashqari, yotoqxonalar bilan ta‘minlanmagan 62 ming nafar talabaga oylik ijara to‘lovining 50 foizini budjetdan qoplab berish boshlandi. Shu bilan birga, bu yilning o‘zida 92 mingdan ziyod o‘g‘il-qizlarning tadbirkorlik loyihalari uchun, 2 trillion 300 milliard so‘m imtiyozli kreditlar ajratildi.

Hududlarda tashkil etilgan 186 ta “Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari”dagi 3 mingta loyiha doirasida yoshlarimiz uchun 50 mingta yangi ish o‘rinlari yaratildi.

Hurmatli yosh do‘stlarim!

Bugungi murakkab zamonda yoshlarni jismoniy va ma‘naviy barkamol insonlar etib tarbiyalash biz uchun g‘oyat muhim vazifa bo‘lib qolmoqda. Bu borada ba‘zi misollarga e‘tiboringizni qaratmoqchiman.

Keyingi bir yilda bilimli va tirishqoq yoshlarimiz xalqaro fan olimpiadalarida 4 ta oltin, 18 ta kumush va 29 ta bronza medallarini qo‘lga kiritishdi.

Joriy yilda Prezident maktablarini tamomlagan 96 nafar o‘quvchilarning barchasi muddatidan avval nufuzli xorijiy oliygohlarga grant asosida o‘qishga kirdi. Misol uchun, Toshkent shahridan Temurbek Sulaymonov – 26 ta, Qoraqalpog‘istondan Nursulton Duysenbayev – 16 ta, Xorazmdan Charosxon O‘ktamboyeva – 8 ta, Namangandan Robiyaxon Nabijonova – 5 ta, Andijondan o‘rta maktab o‘quvchisi Visola Asadullayeva – 12 ta nufuzli xorijiy oliygohga o‘qishga qabul qilingan.

Ta'kidlash joizki, bunday natijalar ilgari tariximizda hech qachon bo'lmagan.

Mamlakatimizda yuqori bilim va malakaga ega bo'lgan, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash maqsadida oliygohlar soni 127 taga yetkazildi, 26 ta xorijiy oliy ta'lim muassasasining filiallari ochildi. Shuningdek, keyingi 5 yilda oliy ta'limga qabul kvotasi 3 barobar oshirilib, joriy yilda 182 ming nafar yoshlar uchun talaba bo'lish imkoniyati yaratildi. Bu – umumiy qamrov 28 foizga yetdi, deganidir. Vaholanki, 4 yil avval bu raqam atigi 9 foizni tashkil etardi.

Davlat grantlari 21 mingtadan 47 mingtaga ko'paytirilgani, ehtiyojmand oilalarga mansub 2 ming nafar qizlarga oliy o'quv yurtlariga kirish uchun alohida grantlar ajratilgani yoshlarimiz kelajagini ta'minlashga qaratilgan amaliy e'tiborimiz namunasidir.

Mana, kuni kecha mamlakatimizda yana bir oliy ta'lim maskani – **“Yangi O'zbekiston” universiteti** tashkil etildi va unga ko'p yillar Yevropadagi eng nufuzli universitetlardan birini boshqargan germaniyalik taniqli professor rektor sifatida tanlandi.

Dunyoning yetakchi o'quv va ilmiy tashkilotlari bilan hamkorlikda faoliyat yuritadigan ushbu universitetga joriy yilda 300 nafar yoshlar qabul qilinadi.

Ma'lumki, bu yil mamlakatimizda maktablar, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarini qariyb 560 ming nafar yoshlar tamomlab, mustaqil hayotga qadam qo'yadi. Shu bois yoshlarning bandligini ta'minlash davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

Bu borada quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratamiz.

Birinchidan, har o'quv yili yakuni bilan tuman, shahar, viloyat va respublika darajasida bitiruvchilar bandligini ta'minlashga oid dasturlar qabul qilish amaliyoti yo'lga qo'yiladi.

Dasturda har bir mahalla, tuman, shahar va viloyat kesimida qancha yoshlarni kasb-hunarga o'qitish, qanchasini ish bilan ta'minlash, nechta startap va tadbirkorlik loyihasini amalga oshirish belgilanishi shart. Bu bizning yoshlar bilan ishlash bo'yicha "bandlik", "innovatsiya" va "investitsiya" dasturimiz bo'lib xizmat qiladi.

Viloyat, tuman va shahar hokimlari hamda sektorlar rahbarlari har haftada bir marta yoshlar bilan uchrashib, ularning g'oya, taklif va tashabbuslarini eshitib, muammolarini hal qilishga mas'ul va javobgar bo'ladi.

Ikkinchidan, bugungi kunda oliy ma'lumot talab qiladigan 80 mingga yaqin bo'sh ish o'rinlari mavjud. Misol uchun, transport, geologiya, qishloq xo'jaligi, madaniyat, sport sohalarida bilim va malakasi yetarli bo'la turib, oliy ma'lumoti yo'qligi uchun minglab yoshlarimiz ishga kira olmayapti.

Shu bois joriy yilda oliy ma'lumot talab etadigan kasb va lavozimlar qayta ko'rib chiqiladi hamda ularning kamida 150 tasi bo'yicha bunday talab bekor qilinadi. Bunday yengillik tufayli 10 mingdan ortiq yoshlar ishga joylashadi.

Uchinchidan, maktablarning 10–11-sinf o'quvchilarini mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb va hunarlarga o'qitish tizimi yo'lga qo'yiladi.

Bu borada Andijon viloyatida jami 41 ming maktab bitiruvchilarining 25 ming nafarini kasb-hunarga o'rgatish orqali bandligini ta'minlash bo'yicha shakllangan tajriba barcha hududlarda keng qo'llanishi kerak.

Bundan buyon maktab bitiruvchisiga attestat berishda mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kamida bitta kasb yoki hunarni egallash majburiy qoida bo'ladi. Bu tizim davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat ta'lim tashkilotlari bilan birga yo'lga qo'yiladi.

Viloyat, tuman va shahar hokimlari har yili 1-sentabrga qadar maktablar kesimida 10–11-sinf o‘quvchilarini mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasb-hunarlarga o‘qitish bo‘yicha ro‘yxat va dasturni mahalliy Kengashlarda muhokama qilib, tasdiqlaydi. Parlamentimiz palatalari ushbu talabni qonun darajasida mustahkamlashi maqsadga muvofiq bo‘lur edi.

O‘ylaymanki, ushbu tashabbusni barcha ota-onalar qo‘llab-quvvatlaydi. Chunki, kasb-hunar egallagan inson birovga muhtoj bo‘lmaydi, buzg‘unchi g‘oyalarga berilmaydi, hayotda, albatta, o‘z yo‘lini topadi.

To‘rtinchidan, qishloqlarda yashayotgan 230 mingdan ortiq ishsiz yoshlarga dehqonchilik bilan shug‘ullanish uchun joriy yilda 61 ming gektar yer maydonlari ajratildi. Shuningdek, g‘alladan bo‘shagan yerlardan yana 75 ming gektari 170 ming nafar yoshlarga takroriy ekin ekish uchun berildi.

Joriy yilda boshlagan yer islohotimiz doirasida paxta va g‘alladan qisqaradigan maydonlarda oziq-ovqat ekinlari yetishtirish uchun yerlarni 10 yil muddatga ijaraga berish tizimi yo‘lga qo‘yiladi. Shu tariqa viloyat va tuman hokimlari, sektor rahbarlari uchun yana 500 ming nafar yoshlarni doimiy ish bilan ta‘minlash imkoniyati yaratiladi.

Beshinchidan, yoshlarga beriladigan imtiyozli kreditlar va lizing asosida 50 mingdan ziyod yengil konstruksiyali zamonaviy avtoservis, maishiy xizmat, chakana savdo va umumiy ovqatlanish shoxobchalari barpo etiladi.

Bunda hokimlar va sektor rahbarlari Kasaba uyushmasi va Buxoro viloyati hokimligi boshlagan Olot tajribasini o‘z hududida yo‘lga qo‘yishlari shart.

Oltinchidan, axborot texnologiyalarini rivojlantirishga alohida ahamiyat beramiz.

Shu maqsadda joriy yil yakuniga qadar Qoraqalpog'iston, Andijon, Samarqand, Sirdaryo va Navoiy viloyatlarida yoshlar texnoparklari foydalanishga topshiriladi.

Kelgusi yili Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Farg'ona, Xorazm va Surxondaryo viloyatlarida ham shunday texnoparklar barpo etiladi. Shuningdek, yoshlarning startap g'oyalarini saralab olishning ochiq-oshkora tizimi yo'lga qo'yilib, eng yaxshi loyihalarni moliyalashtirishga budjetdan 100 milliard so'm mablag' ajratamiz.

Viloyat hokimlari yoshlarning "Biznesga birinchi qadam" startap loyihalari tanlovini joriy etib, har bir tumandan kamida uchtdan g'oliblarga mahalliy budjetdan grantlar berib boradi. Bitta grantning summasi o'rtacha 50 million so'mni tashkil etadi. Bu ishlarni samarali tashkil etishga Axborot texnologiyalari va Innovatsion rivojlanish vazirliklari, Yoshlar ishlari agentligi hamda ularning quyi tuzilmalari mas'ul bo'ladi.

Yettinchidan, yoshlarni tadbirkorlikka jalb etish va ularning biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash Milliy bank raisi A. Mirsoatov va bankning barcha filiallari rahbarlarining asosiy vazifasi etib belgilanadi.

Bunda yoshlarni biznesga o'qitish, "Loyihalar fabrika"larida ilgari surilayotgan yangi g'oyalar asosida innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va moliyalashtirish bo'yicha doimiy ishlaydigan hamda yoshlarga qulay va qiziqarli bo'lgan yangi tizim yaratish zarur.

Shuningdek, bank tomonidan xorijdagi yoshlarimizga Vatanimizga qaytib ishlash, o'z biznesini tashkil etish, uy-joy sharoitlari bo'yicha yordam berishga qaratilgan ishlar yo'lga qo'yilishi kerak. Ana shu ishlarni moliyalashtirish maqsadida budjetdan qo'shimcha ravishda 100 million dollar mablag' ajratiladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, avvalgi forumda ajratilgan 100 million dollar ayni paytda yosh tadbirkorlar tomonidan o'zlashtirilmoqda.

Milliy bank, Yoshlar ishlari agentligi, O'zbekiston savdo-sanoat palatasi nufuzli xorijiy oliygohlar bilan hamkorlikda Toshkent shahrida yoshlarni tadbirkorlikka o'rgatish bo'yicha yangi biznes maktab tashkil etadi. Kelgusi yildan boshlab barcha hududlarda ushbu biznes maktabning filiallari ochiladi.

Ana shu yangi tizimni tashkil etish vazifasi Bosh vazir o'rinbosari S.Umurzoqovga topshiriladi.

Aziz yoshlar!

Men har gal sizlar bilan uchrashganimda, **“Ilmni qadrlang, ilmga intiling!”** degan so'zlarni takrorlashdan aslo charchamayman:

O'zingiz ko'ryapsiz, dunyoda o'qigan, zamonaviy ilm va hunarlarni puxta egallagan, yosh avlodini ayni shu ruhda tarbiyalagan xalqlar, davlatlar jadal rivojlanmoqda.

O'zbekiston yoshlari ham ana shunday yuksak darajalarga ko'tarilishi uchun biz, albatta, barcha imkoniyatlarni ishga solamiz.

Bu borada, ayniqsa, quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratiladi.

Birinchidan, iqtidorli, lekin oliygohda kontrakt asosida o'qish imkoniyati bo'lmagan yoshlarimizni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yangi tizim yaratamiz.

Ma'lumki, bugungi kunda ota-onalar farzandini oliygohda o'qitish uchun 22–28 foiz stavkada ta'lim kreditini 3 yil muddatga olmoqdalar. Lekin, bu hammaga, ayniqsa, uzoq va chekka joylarda yashaydigan oilalarga og'irlik qilayotgani bor gap.

Shuni hisobga olib, yangi o'quv yilidan boshlab barcha uchun ta'lim krediti imtiyozli shartlarda 7 yil muddatga, Marka-

ziy bankning asosiy stavkasida, ya'ni, joriy yilda 14 foiz stavkada ajratiladi. Bunga qo'shimcha ravishda, ta'lim kreditlarini qoplash uchun yo'naltirilgan mablag'lar daromad solig'idan ham ozod qilinadi.

Bundan tashqari, "Temir daftar"ga kiritilgan oilalarning farzandlariga, oliygohdagi o'qishning birinchi yili uchun kontraktni budjetdan to'lab berish tartibi joriy etiladi.

Ikkinchidan, maktablarda o'quvchilarni kompyuterdan shunchaki foydalanuvchi emas, balki undan daromad topadigan mutaxassislar qilib tayyorlashimiz zarur.

Shu maqsadda joriy yil yakuniga qadar umumta'lim maktablarini yuqori tezlikdagi Internetga ulash ishlari yakunlanadi. Respublikamiz bo'yicha qo'shimcha 5 mingta kompyuter sinflari tashkil etiladi.

Maktablarda axborot texnologiyalari darslari zamonaviy "Kembrij" dasturlari asosida yo'lga qo'yiladi va o'qituvchilar ham, ushbu dasturlar asosida qayta tayyorlanadi. Xuddi shunday tizim barcha oliygohlarda ham joriy qilinadi.

Uchinchidan, yosh oilalarning ijtimoiy himoyasini ta'minlashga alohida e'tibor qaratiladi.

Bunda ipoteka dasturi doirasida uy-joy sotib olish uchun yosh oilalarga qo'shimcha 2 mingta kvota ajratiladi va ushbu maqsadlar uchun budjetdan 60 milliard so'm mablag' yo'naltiriladi. Shuningdek, yosh oilalarning ipoteka kreditini qaytarishga to'lagan mablag'lari daromad solig'idan to'liq ozod qilinadi.

"Daftarlar"ga kirgan oilalarning yangi turmush qurayotgan farzandlariga o'z xonadonida qo'shimcha uy-joy tiklab olishi uchun 33 million so'mgacha garovsiz kredit ajratish tizimi yo'lga qo'yiladi. Shuningdek, o'tgan yilgi tajriba asosida "Temir daftar"da qayd etilgan oilalarning har bir farzandiga o'quv

qurollari va maktab formasi sotib olish uchun avgust oyida 500 ming soʻmdan moddiy yordam beriladi.

Aziz farzandlarim!

Meni doimo oʻylantiradigan, tashvishga soladigan yana bir dolzarb masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, madaniy saviyasi, bir soʻz bilan aytganda, tarbiyasi bilan bogʻliq. Biz bu yoʻnalishda katta ishlarni amalga oshiryapmiz. Ammo ularning samaradorligini yanada kuchaytirish uchun quyidagi masalalarga jiddiy eʼtibor berishimiz zarur.

Birinchidan, yoshlar oʻrtasida kitobxonlikni, mutolaa madaniyatini rivojlantirish doimiy eʼtiborimiz markazida boʻladi.

Farzandlarimizga moʻljallangan badiiy adabiyotlarni koʻpaytirish va ularning mualliflarini ragʻbatlantirish maqsadida **“Bolalar va yoshlar uchun eng yaxshi kitob”** tanlovini oʻtkazish yoʻlga qoʻyiladi. Bunda mualliflarga birinchi oʻrin uchun – 100 million soʻm, ikkinchi oʻrin uchun – 75 million soʻm, uchinchi oʻrin uchun – 50 million soʻm mukofot beriladi.

Ikkinchidan, bugun sizlar bilan jamoatchilikni bezovta qilayotgan ayrim muammolar yechimi boʻyicha ham fikrlashib olishimiz zarur.

Yoshlar oʻrtasida jinoyatchilik, giyohvandlik, ichkilikbozlik, oilaviy ajralishlar, buzgʻunchi va radikal oqimlar taʼsiriga tushish holatlari davom etayotgani, davlat rahbari sifatida shaxsan meni jiddiy tashvishga solmoqda. Oʻtgan 5 oyda 7 mingdan ziyod yoshlar jinoyat sodir etgani, hozirgi vaqtda qariyb 40 ming nafar yoshlar profilaktik hisobda turgani ham xavotirimiz bejiz emasligini koʻrsatmoqda.

Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda koʻrsatilgan xunuk voqealar, yaʼni, joylardagi Alisher Navoiy, Amir Temur, Motamsaro ona haykallari yonida ayrim tarbiyasiz yoshlar tomonidan sodir etilgan nomaʼqul harakatlar meni nihoyatda ranjitdi. Bu bolalarning

ota-onasi, bobo-momolari, o'qituvchi va muallimlari, qolaversa, mahalla-ko'y, yoshlar bilan ishlaydigan mas'ul mutasaddilar qayerga qarayapti?

Vatanimiz yoshlariga mutlaqo yarashmaydigan, barchamizga isnod keltiradigan bunday salbiy ko'rinishlarga jamiyatimizda mutlaqo o'rin bo'lmasligi zarur. Kerak bo'lsa, biz xalqimizning muqaddas qadriyatlari, timsollari va tabarruk qadamjolariga bepisand munosabatda bo'ladigan kimsalarga nisbatan jazo choralarini yanada kuchaytiramiz. Bunday buzg'unchi ishlarning oldini bugun olmasak, ertaga kech bo'ladi.

Bu borada meni bir narsa chuqur o'ylantiradi. Nima uchun yoshlar tarbiyasiga bevosita mas'ul va javobgar bo'lgan tashkilotlar, ota-onalar, pedagogik jamoalar bu masala bo'yicha tezkor va prinsipial munosabat bildirmayapti?

Hozirgi g'oyat murakkab davrning keskin talabi shundayki, har qanday imkoniyat va minbardan foydalanib, islohotlarimizga xalaqit berayotgan barcha muammo va kamchiliklarni birgalikda, ochiq va oshkora muhokama qilishimiz lozim. Chunki bu ishlarni o'zimiz qilmasak, chetdan kelib hech kim biz uchun qilib bermaydi. Shuning uchun Yoshlar ishlari agentligi direktorining birinchi o'rinbosari, viloyat, tuman va shahar hokimlarining yoshlar masalalari bo'yicha muovinlari, oliygohlardagi tegishli prorektorlarning maqomi, vakolati va mas'uliyatini oshirish, ish uslublarini o'zgartirish va mutlaqo takomillashtirish kerak.

Parlament palatalari ana shunday mutasaddi rahbarlar faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlash va ularning hisobotlarini eshitib borish tartibini joriy etishi o'rinli bo'lardi. Hukumat esa shu asosda ularning vakolatlarini kengaytirish, ish samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqib, amalga oshirishi lozim.

Davlat boshqaruvi akademiyasida yoshlar masalasiga mustasaddi barcha rahbarlarning bilim va malakasini oshirish uchun o'quv kurslari tashkil etilishi kerak. Ular o'z viloyati va tumanlari, maktab, kollej, texnikum, oliygohlardagi yoshlarning ma'naviy tarbiyasi uchun bevosita mas'ul bo'lib, har oyda tahliliiy muhokamalar o'tkazishi va mahalliy Kengashlarda hisobot berib borishi darkor.

Bugungi kunda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash naqadar muhim ekanini, o'ylaymanki, barchamiz yaxshi tushunamiz.

Mintaqamiz va dunyodagi vaziyat tobora keskinlashib bormoqda. Milliy xavfsizligimiz, tinch va osoyishta hayotimizga nisbatan tahdid va xatarlar kuchaymoqda.

Mana, o'zingiz televideniye, ijtimoiy tarmoqlar orqali ko'ryapsiz, qo'shni Afg'onistondagi ahvol murakkablashib bormoqda. Bunday vaziyat Qurolli Kuchlarimiz salohiyatini yuksaltirish borasidagi ishlarni, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi bilan uyg'un holda olib borishni talab etmoqda. Shu bois hushyorlik va ogohlikni oshirish, o'zaro hamjihatlik va birdamligimizni mustahkamlash, har qanday tahdidlarga munosib javob berishga tayyor bo'lib yashash hayotning o'tkir zaruratiga aylanmoqda.

Yosh avlodning ongini salbiy ta'sirlardan himoya qilish, adashganlarni to'g'ri yo'lga qaytarish o'zini vatanparvar deb hisoblaydigan har bir O'zbekiston fuqarosi, ayniqsa yoshlarning asosiy burchi bo'lib qolishi shart.

Hozirgi vaqtda milliy armiyamiz, ichki ishlar, favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Milliy gvardiya, chegara qo'shinlarida xizmat qilayotgan harbiylarimiz chinakam Vatan o'g'lonlari, jasur ajdodlarimizning munosib davomchilari ekanini amalda isbotlamoqda. Ular xalqaro harbiy musobaqalarda, jahon sport

maydonlarida Vatanimiz bayrog'ini baland ko'tarayotganlarini barchamiz yaxshi bilamiz.

Xabaringiz bor, harbiylarimizning jismoniy va ma'naviy salohiyatini oshirish maqsadida Jasorat maktabini yaratishga qaror qilgan edik. Bu borada amaliy ishlar boshlab yuborildi. Shu bilan birga, oliy harbiy bilim yurtlari, litsey va kollejlari, jumladan, "Temurbeklar maktabi" faoliyatini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratmoqdamiz.

Buyuk sarkardalarimizning jang san'ati, harbiy sohadagi bilim va tajribasi, eng muhimi, vatanparvarlik fazilatlari har bir yurtimiz o'g'loni uchun ibrat namunasi bo'lib xizmat qilishi kerak. Ularning jangovar an'analarini bugun kim davom ettiradi? Sizlar, sizlar kabi millionlab farzandlarimiz, albatta.

Yoshlar, ayniqsa, uyushmagan yoshlarning muammolarini o'rganib, hal qilish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va sportga jalb etish masalalariga ustuvor ahamiyat qaratishimiz zarur. Shu maqsadda Mudofaa vazirligi huzurida "Vatan o'g'loni" bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakatini tashkil etish haqidagi tashabbusni qo'llab-quvvatlayman. Harakatning har bir maktabda tuziladigan otryadlari jami 200 mingdan ortiq o'quvchilarni qamrab olib, ularni tarbiyalashda asosiy kuchga aylanishi kerak.

Mudofaa va Xalq ta'limi vazirliklari viloyat, tuman va shahar hokimlari bilan birga, ushbu tizimni samarali yo'lga qo'yishga mas'ul bo'ladi.

Uchinchidan, madaniyat, san'at, ilm-fan, ta'lim sohasida o'z iqtidorini namoyon etayotgan yoshlar uchun zarur sharoitlarni yaratish hududlar hamda vazirlik va idoralar rahbarlarining asosiy vazifalaridan biri bo'lishi shart.

Shu maqsadda Bo'stonliq tumanida, O'zbekiston metallurgiya kombinatining "Yoshlik oromgohi" negizida yil davomida

faoliyat yuritadigan Respublika iqtidorli yoshlar oromgohi tashkil etiladi. Oromgoh Prezident, ijod va ixtisoslashgan maktablar agentligi tasarrufida bo'lib, uning barcha xarajatlari "O'zmetkombinat" tomonidan moliyalashtiriladi.

Bu maskanda, yoshlarimiz yil davomida aniq fanlar bilan birga, badiiy adabiyot, tasviriy san'at va musiqa bo'yicha ham bilim va malakasini oshiradi. Har yili ushbu yo'nalishlar bo'yicha tuman, shahar, viloyat va respublika miqyosida festivallar tashkil etiladi.

Asrlar davomida buyuk ajdodlarimizdan meros bo'lib kelayotgan ma'naviy xazinani ko'z qorachig'idek asrash va uni yanada boyitish, kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish – barchamizning burchimizdir. Do'ppi, chopon, atlas, adras, so'zana, kashta, dutor, g'ijjak, tanbur, do'mbira, chanqovuz kabi milliy hunarmandchilik namunalari va cholg'u asboblarni yoshlar o'rtasida ommalashtirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Har bir mahalla, qishloq va tumanda, maktablar, o'rta maxsus va oliy ta'lim maskanlarida Navro'z va Mustaqillik bayramlariga bag'ishlab, ko'rik-tanlov va festivallarni tashkil etish kerak. Shuningdek, o'g'il bolalarni er yigitning qanoti bo'lgan ot bilan do'stlashib, mard va jasur bo'lib kamol topishi uchun yoshlar o'rtasida ot sportini ommalashtirish zarur.

Ayniqsa, qorabayir zotli otlar yoshlarimiz uchun g'urur timsoliga aylanishi lozim. Shu maqsadda har bir viloyat va tumarlarda "Chavandozlar maktabi" faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Yaqinda Germaniyada ot sporti bo'yicha bo'lib o'tgan nufuzli musobaqada samarqandlik maktab bitiruvchisi Abdurahmon Abdullayev ikkita yo'nalishda oltin va kumush medallariga sazovor bo'ldi. Xalqaro miqyosdagi yutuqlari uchun bu o'g'limiz "Mard o'g'lon" davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

Bunday mohir chavandozlarni ko'paytirish uchun tuman, viloyat va respublika miqyosida ot sporti musobaqalari, shuningdek, uloq-ko'pkari, chavgon, poyga kabi milliy o'yinlar tashkil etiladi. Viloyat va tumanlar hokimlari hamda Milliy gvardiya qo'mondoni bu ishlarni tashkil etishga shaxsan mas'ul bo'ladi.

To'rtinchidan, katta mamnuniyat bilan aytish kerakki, 100 nafardan ortiq yoshlarimiz keyingi oyda Tokioda bo'lib o'tadigan Olimpiada va Paralimpiya musobaqalarida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritdi. Ularning vakillari ham ushbu uchrashuvimizda ishtirok etmoqda.

Fursatdan foydalanib, iste'dodli sportchilarimizga barchamiz birgalikda yutuq va zafarlar tilab qolamiz.

Jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish haqida gap ketganida, bir muammoni aytib o'tish lozim. Hududlardagi ko'plab sport inshootlari, asosan, tuman va shahar markazlarida joylashgani bois chekka qishloqlarda yashaydigan yoshlar bu imkoniyatlardan foydalana olmayapti. Shu sababli joylarda sport to'garaklarini tashkil etayotgan murabbiylarga inventar sotib olish uchun subsidiya ajratiladi, bo'sh turgan binolar imtiyozli asosda ijaraga beriladi. Shuningdek, kamida 100 nafar yoshlarning sport bilan muntazam shug'ullanishiga erishgan murabbiylarga budjetdan oylik to'lash tartibi joriy etiladi.

Turizm va sport vazirligi ikki oy muddatda olis hududlarda yoshlar uchun yengil konstruksiyali va "sendvich" panelli sport inshootlarini barpo etish bo'yicha har bir tuman kesimida Hukumat dasturini ishlab chiqib, namunaviy loyihalar taqdimotini o'tkazsin.

Beshinchidan, yurtimiz tarixiy yodgorliklar, muqaddas qadamjolarga juda boy. Lekin, olis va chekka hududlardagi aksariyat yoshlarimiz Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Xiva, Termiz,

Qo'qon, Marg'ilon, Toshkent kabi qadimiy shaharlarimizni ko'rmagan, desak, to'g'ri bo'ladi.

Shuning uchun ichki turizmni rivojlantirish dasturlari doirasida yoshlarning ta'til paytida respublikamiz bo'ylab sayohatlarini tashkil etishga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Shuningdek, yoshlarimizni tabiatimiz durdonalari bo'lmish – Chotqol, Zomin, Surxon, Nurota, Qizilqum qo'riqxonalariga sayohatlarini yo'lga qo'yish zarur.

Hurmatli forum ishtirokchilari!

Qadrli yoshlar, aziz farzandlarim!

Men bugun sizlarning intellektual, ma'naviy va jismoniy salohiyatingizni ro'yobga chiqarishga qaratilgan ishlarimizning faqat ayrimlari haqida qisqacha to'xtalib o'tdim, xolos. Hammamiz tushunamizki, oldimizda turgan ulkan vazifalar yana yangi dastur va rejalar qabul qilishni talab etadi. Joylarda vazirlik va idoralar rahbarlari, hokimlar sizlar bilan doimiy uchrashuvlar o'tkazib, fikr va takliflaringizni muntazam eshitib boradi. Ana shunday samarali tizim asosida yoshlarimizning hayotiy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan ishlarimizni doimiy tarzda davom ettiramiz.

Ko'rib turibsizlarki, sizlar bilan birgalikda bajaradigan ishlarimizning ko'lami keng, miqyosi juda ulkan.

Biz sizlarning aql-zakovatingiz, kuch-g'ayratingiz, kelajakka ishonchingiz, Vatanga bo'lgan mehr-muhabbatingizga tayanib, marrani nihoyatda baland oldik. Ushbu vazifalarni barchamiz birgalikda muvaffaqiyat bilan amalga oshirishimizga ishonchim komil, albatta.

Bugungi kunda ko'p millatli xalqimiz, Vatanimiz taraqqiyoti uchun, O'zbekistonning yangi Uyg'onish davrini yaratish yo'lida belini mahkam bog'lab, fidokorona mehnat qilmoqda. Bu yo'lda ulkan orzu-umidlar, katta rejalar bilan safimizga

qo'shilayotgan yoshlarimiz – asosiy tayanchimiz va suyan-chimizdir.

Sizlar tom ma'noda yurtimiz istiqboli, yorug' kelajagimiz bunyodkorisiz!

Mashhur shoirimiz Erkin Vohidov aytganidek, yoshlikdagi kuch-g'ayratni el-yurtiga baxsh etgan yigit-qizlardan Vatan ham, xalq ham, yoshlikning o'zi ham rozi bo'ladi.

Hammangizga ana shunday ulkan baxt, ulkan sharaf nasib etsin!

Sizlarni bugungi go'zal bayram – Yoshlar kuni bilan yana bir bor tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, baxt-saodat va yangi zafarlar tilayman.

Bayramingiz muborak bo'lsin, aziz o'g'il-qizlarim!

*Yoshlar kuniga bag'ishlangan tantanali
marosimdagi ma'ruza*

2021-yil 30-iyun

MUNDARIJA

Xalqaro mehnat tashkilotining COVID-19 va mehnat sohasi masalalari bo'yicha global sammiti ishtirokchilariga <i>2020-yil 8-iyul</i>	3
Pandemiya sharoitida yashab mehnat qilishga o'rganishimiz shart <i>Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, xalq farovonligini oshirish, kambag'allikni qisqartirish, koronavirus pandemiyasiga qarshi kurash masalalari yuzasidan 2020-yilning iyul – noyabr oylari davomida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishlaridagi nutqlardan</i>	7
O'zbekiston xalqiga Qurbon hayiti tabrigi <i>2020-yil 30-iyul</i>	26
O'zbekiston quruvchilariga bayram tabrigi <i>2020-yil 8-avgust</i>	30
“Yoshlar – 2020: global miqyosdagi birdamlik, barqaror taraqqiyot va inson huquqlari” mavzusidagi inson huquqlari bo'yicha Samarqand forumi ishtirokchilariga <i>2020-yil 12-avgust</i>	35
Mustaqillik – o'z oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarga erishish yo'lida kuch-qudrat manbaidir <i>O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutq 2020-yil 31-avgust</i>	39
O'zbekiston keng ko'lamli va o'zaro manfaatli sheriklikni rivojlantirish uchun doimo tayyor <i>Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutq 2020-yil 23-sentabr</i>	54

O'qituvchi va murabbiylar – Yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir <i>O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutq</i> 2020-yil 30-sentabr	62
O'zbek tili bayrami munosabati bilan O'zbekiston xalqiga tabrik 2020-yil 21-oktabr.....	94
Butun mintaqada tinchlik va taraqqiyotni ta'minlash manfaatlari yo'lida <i>Videoanjuman shaklida o'tkazilgan Shimoliy iqtisodiy hamkorlik ikkinchi xalqaro forumidagi nutq</i> 2020-yil 30-oktabr.....	99
Xalqaro iqtisodiy muloqotni rivojlantirishning muhim omili <i>Import mahsulotlari uchinchi Xitoy xalqaro ko'rgazmasining videoanjuman shaklida o'tkazilgan ochilish marosimidagi nutq</i> 2020-yil 4-noyabr.....	103
O'zbekiston sog'liqni saqlash sohasi xodimlariga 2020-yil 7-noyabr.....	108
Shanxay rubi – ko'p tomonlama hamkorlik va rivojlanishning noyob tajribasi <i>Shanxay hamkorlik tashkilotining onlayn formatida o'tgan navbatdagi sammitidagi nutq</i> 2020-yil 10-noyabr.....	113
O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining sakkizinchi qurultoyi ishtirokchilariga 2020-yil 11-noyabr	120
San'atning bosh vazifasi – insonni ezgulik ruhida tarbiyalashdir <i>Kino ijodkorlari bilan uchrashuvdagi nutq</i> 2020-yil 20-noyabr.....	125
Yangi O'zbekistonning yorqin sahifasi <i>Toshkent metallurgiya zavodining ochilish marosimidagi nutq</i> 2020-yil 4-dekabr	132

Mamlakatimiz Konstitutsiyasi qabul qilinganining 28 yilligi munosabati bilan O‘zbekiston xalqiga bayram tabrigi <i>2020-yil 7-dekabr</i>	140
Muloqot va amaliy faoliyatlarning yangi bosqichi <i>Oliy darajadagi Yevroosiyo iqtisodiy kengashining videoanjuman shaklida o‘tgan yig‘ilishidagi nutq</i> <i>2020-yil 11-dekabr</i>	148
O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi xodimlariga <i>2020-yil 12-dekabr</i>	152
MDH: amaliy hamkorlikning qudrati oshmoqda <i>MDH davlatlari boshliqlari Kengashining onlayn formatida bo‘lib o‘tgan yig‘ilishidagi nutq</i> <i>2020-yil 18-dekabr</i>	160
Yurt ishonchi va umidini oqlash – eng ulug‘ baxt <i>O‘zbekiston yoshlari forumida so‘zlangan nutq</i> <i>2020-yil 25-dekabr</i>	165
Vatan ishonchiga sazovor bo‘lish – yuksak sharafdir <i>Vatanimiz mustaqilligining 29 yillik bayrami arafasida davlat mukofotlari bilan taqdirlangan bir guruh yurtdoshlarimizga mukofotlarni topshirish marosimidagi nutq</i> <i>2020-yil 28-dekabr</i>	184
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi <i>2020-yil 29-dekabr</i>	191
O‘zbekiston xalqiga Yangi yil tabrigi <i>2020-yil 31-dekabr</i>	245
O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 29 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigi <i>2021-yil 13-yanvar</i>	248

Yangi O'zbekistonning yangi Qurolli Kuchlari <i>O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 29 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan taqdirlan- gan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlaridan bir guruhiga yuksak davlat mukofotlarini topshirish marosimidagi nutq 2021-yil 14-yanvar.....</i>	254
Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning poydevoridir <i>Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi ma'ruza 2021-yil 19-yanvar.....</i>	260
Inson huquq va erkinliklarini ta'minlash – islohotlarimizning bosh maqsadidir <i>BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining videoanjuman shaklida o'tgan 46-sessiyasidagi nutq 2021-yil 22-fevral.....</i>	286
Kuch va imkoniyatlarimizni birlashtirish hamkorligimiz rivojida muhim omil <i>Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining videoanjuman shaklida o'tgan 14-sammitidagi nutq 2021-yil 4-mart.....</i>	291
Ayol baxtli bo'lsa, oila va jamiyat ham, albatta, baxtli bo'ladi <i>8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutq 2021-yil 6-mart.....</i>	295
Navro'z umumxalq bayramiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zi <i>2021-yil 21-mart.....</i>	303
O'zbekiston mahalla tizimi xodimlari va faollariga <i>2021-yil 22-mart.....</i>	309
O'zbekiston teatr san'ati xodimlariga <i>2021-yil 27-mart.....</i>	314

Hamkorlik solnomasining yangi davri <i>Atoqli venger adibi va shoiri Aran Yanoshning</i> <i>"Ajoyib suyg'unning hikoyati" kitobiga yozilgan so'zboshi</i> <i>2021-yil 30-mart.....</i>	318
Har qanday sinov va tahdidlarni birgalikda yengib o'tishga tayyor bo'lishimiz, mavjud salohiyatimizdan to'liq foydalanishimiz zarur <i>Turkiy Kengashning videokonferensiya shaklida</i> <i>o'tkazilgan norasmiy sammitidagi nutq</i> <i>2021-yil 31-mart.....</i>	322
So'z san'atining betakror namunasi <i>Alisher Navoiyning Afg'onistonda chop etilgan</i> <i>"Xamsa" asarining yangi nashriga yozilgan so'zboshi</i> <i>2021-yil 5-aprel</i>	327
Xorijiy mamlakatlar va xalqaro tuzilmalar bilan amaliy muloqotni izchil rivojlantirish O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishidir <i>O'zbekiston Respublikasida faoliyat boshlagan xorijiy</i> <i>davlatlarning Favqulodda va muxtor elchilaridan ishonch yorliqlarini</i> <i>qabul qilib olish marosimidagi nutq</i> <i>2021-yil 23-aprel</i>	330
Buyuk qahramonlarimiz xotirasi abadiy barhayot <i>Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan</i> <i>tantanali marosimdagi nutq</i> <i>2021-yil 9-may</i>	338
O'zaro hamkorligimiz mamlakatlarimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish va aholi farovonligini yuksaltirishga xizmat qilsin <i>Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqining videoanjuman</i> <i>shaklida o'tkazilgan oliy darajadagi kengashi</i> <i>yig'ilishidagi nutq</i> <i>2021-yil 21-may</i>	348
Mamlakatimiz maktablarini bitiruvchi o'g'il-qizlarimizga <i>2021-yil 24-may</i>	351

“Yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish yo‘lidagi hamkorlik	
<i>“Yashil o‘shish va global maqsadlar uchun hamkorlik – 2030” (p4g) videoanjuman shaklida o‘tgan ikkinchi xalqaro sammitidagi nutq</i>	
<i>2021-yil 30-may</i>	<i>357</i>
Boks bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasiga	
<i>2021-yil 2-iyun</i>	<i>360</i>
Abadiy do‘stlikning yaqqol ifodasi	
<i>Tojikistonga rasmiy tashrif doirasida bo‘lib o‘tgan “Do‘stlik oqshomi” qo‘shma konsertining ochilish marosimidagi nutq</i>	
<i>Tojikiston Respublikasi, Dushanbe shahri</i>	
<i>2021-yil 10-iyun</i>	<i>363</i>
O‘zbek va tojik xalqlari o‘rtasidagi do‘stlik aloqalari mustahkamlanmoqda	
<i>Tojikiston Respublikasiga amalga oshirilgan rasmiy tashrif doirasida So‘g‘d viloyati jamoatchilik vakillari bilan uchrashuvdagi nutq</i>	
<i>Tojikiston Respublikasi, Xo‘jand shahri,</i>	
<i>2021-yil 11-iyun</i>	<i>368</i>
Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga	
<i>2021-yil 27-iyun</i>	<i>375</i>
Azm-u shijoatli yoshlarimiz bilan birgalikda yangi O‘zbekistonni, albatta bunyod etamiz	
<i>Yoshlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruza</i>	
<i>2021-yil 30-iyun</i>	<i>381</i>

M 54

Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich

Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. 5-jild [Matn] /
Sh. Mirziyoyev. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023. – 408 b.
ISBN 978-9943-6991-6-8

UO'K 323(575.1)
KBK 66.3(50'zb)

Rasmiy nashr

Shavkat Miromonovich Mirziyoyev

**YANGI O'ZBEKISTONDA
ERKIN VA FAROVON
YASHAYLIK**

5-jild

Muharrir *T. Hasanboyev*

Badiiy muharrir *Sh. Mirfayozov*

Texnik muharrir *Y. Tolochko*

Kichik muharrir *Z. Mahkamova*

Musahhah *M. Ismoilova*

Kompyuterda sahifalovchi *I. Adilova*

Nashriyot litsenziyasi № 4642. 22.07.2020.

Bosishga 2023-yil 20-aprelda ruxsat etildi.

Bichimi 70x100 $\frac{1}{16}$. Ofset qog'ozi. "Times New Roman" gamiturasida
ofset usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 32,89.

Nashriyot hisob tabog'i 21,76. Adadi 5000 nusxa.

Shartnoma № 3-01/23. Buyurtma № 1268

Original maket

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining

"O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.

100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (71) 244-34-38. Faks: (71) 244-24-91.

"KolorPak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

100206, Toshkent, Yangishahar ko'chasi, 1-A

